Xulosa. Sensor tarbiya maktabgacha yoshdagi bolalarning mantiqiy tafakkurini shakllantirishda zaruriy shart-sharoitlardan biridir. O‘yin faoliyati, turli xil didaktik materiallar va mashg‘ulotlar yordamida bolalarda rang, shakl, hajm, o‘lcham, miqdor kabi tushunchalar shakllanadi, ular “ko‘p”, “kam”, “katta-kichik” kabi kategoriyalarni anglay boshlaydilar. Sensor mashg‘ulotlar bolalarning idrokini chuqurlashtiradi, diqqatini oshiradi va bilish faoliyatini rivojlantiradi. Natijada bola mustaqil fikrlash, narsalarni qiyoslash, umumlashtirish va mantiqiy xulosa chiqarishga qodir bo‘lib boradi.

Takliflar. Maktabgacha ta’lim dasturlarida sensor tarbiyaga oid mashg‘ulotlar hajmini kengaytirish va ularni metodik jihatdan takomillashtirish lozim.

Tarbiyachilar faoliyatida Montessori, Dekroli kabi mashhur pedagoglarning sensor ta’lim metodlarini qo‘llash samaradorlikni oshiradi.

Didaktik materiallar bazasini boyitish: rangli, shakli va hajmi turlicha bo‘lgan o‘yinchoqlar, piramidalar, matryo‘shkalar, kubiklar va konstruktiv materiallardan keng foydalanish tavsiya etiladi.

Amaliy mashg‘ulotlarda bolalarni savol-javoblarga jalb qilish, ularning javoblarini to‘g‘ri yo‘naltirish orqali diqqat va mantiqiy fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantirish kerak.

Ota-onalar bilan hamkorlikni kuchaytirish: uy sharoitida bolaga sensor o‘yinlar tashkil etish, uni turli buyumlar bilan tajribalar o‘tkazishga rag‘batlantirish muhim.

[5] Eraliyeva Z.R., Djo‘rayeva D.R. Bolalar tafakkurini rivojlantirishda ayrim didaktik o‘yinlarning ahamiyati. Qo‘qon universiteti xabarnomasi, 2023, 9(9), 184–186. https://doi.org/10.54613/ku.v9i9.866

Adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi “Maktabgacha ta’lim va tarbiya to‘g‘risida”gi Qonuni. Qonunchilik palatasi tomonidan 2019 yil 22 oktyabrda qabul qilingan, Senat tomonidan 2019 yil 14 dekabrda ma’qullangan. Milliy qonunchilik ma’lumotlari bazasi, 17.12.2019 y., № 03/19/595/4160; 27.04.2021 y., № 03/21/685/0373; 12.10.2021 y., № 03/21/721/0952.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori. “O‘zbekiston Respublikasida maktabgacha ta’lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”. 2019 yil 8 may, № ПП–4312. [Elektron resurs]. Rejim dostupa: https://lex.uz/ru/docs/4646931
3. “Ilk qadam” davlat o‘quv dasturi. O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta’lim vazirligi Kengashi qarori bilan tasdiqlangan (2018 yil 7 iyul, 4-sonli bayonnoma). [Elektron resurs]. Rejim dostupa: https://podrobno.uz/download.php?f=gos-programma-09.08..doc&i=342482
4. Jumayev M.E. Bolalarda boshlang‘ich matematik tushunchalarini rivojlantirish nazariyasi va metodikasi. Toshkent: Ilm-Ziyo, 2013. – B. 24–36.
5. Montessori M. Moy metod. Moskva: Tsentrpoligraf, 2011. – 414 s.
6. Furqatjon, A. (2025). Physiological Characteristics of Cardiovascular System Development in Children Engaged in Sports. *Journal of Social Sciences and Humanities Research Fundamentals*, *5*(06), 15-18.
7. Furqatjon, A. (2025). Age-Related Hormonal Changes and Their Impact on Psychophysiological State. *American Journal Of Social Sciences And Humanity Research*, *5*(06), 20-22.
8. Eraliyeva Z.R., Djo‘rayeva D.R. Bolalar tafakkurini rivojlantirishda ayrim didaktik o‘yinlarning ahamiyati. Qo‘qon universiteti xabarnomasi, 2023, 9(9), 184–186. https://doi.org/10.54613/ku.v9i9.866

Eraliyeva Z. MTT ning maktabga tayyorlov guruhlarida bolalarni mantiqiy fikrlash va bahs-munozarali vaziyatlarda yechim topishga va badiiy nutqqa o‘rgatish. Talqin va tadqiqotlar, 2023, 1(18). Rejim dostupa: https://talqinvatadqiqotlar.uz/index.php/tvt/article/view/19

BO‘LAJAK TARBIYACHILARNING KASBIY TRANSVERSAL - RAQAMLI SAVODXONLIK KOMPETENSIYASINI SHAKLLANTIRISH

Jaloliddinova Maftunaxon Mahmudjon qizi,
Qo‘qon universiteti Ta’lim kafedrasi o‘qituvchisi
Pedagogika va psixologiya kafedrasi tayanch doktoranti
maftunaxonjaloliddinova@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada bo‘lajak tarbiyachilarning kasbiy transversal -raqamli savodxonlik kompetensiyasini shakllantirishning pedagogik asoslari tahlil qilinadi. Mamlakatimiz ta’lim tizimida amalga oshirilayotgan raqamli transformatsiya jarayonlari, “O‘zbekiston-2030” strategiyasi va maktabgacha ta’limni rivojlantirishga oid konseptual hujjatlar kontekstida oliy pedagogik ta’lim muassasalarida raqamli savodxonlik ko‘nikmalarini shakllantirish

dolzarb vazifa sifatida qaralmoqda. Maqolada raqamli ta’lim muhiti, elektron resurslar, onlayn-platformalardan samarali foydalanish bo‘lajak tarbiyachilarning kommunikativlik, ijodkorlik, muammoni hal qilish kabi transversal kompetensiyalarini rivojlantirishga qanday ta’sir ko‘rsatishi yoritiladi. Shuningdek, raqamli savodxonlik kompetensiyasini shakllantirish jarayonida yuzaga chiqayotgan muammolar tahlil qilinib, ularni bartaraf etish bo‘yicha pedagogik taklif va tavsiyalar ishlab chiqiladi.

Kalit so‘zlar: raqamli savodxonlik, transversal kompetensiya, bo‘lajak tarbiyachi, oliy ta’lim, raqamli ta’lim muhiti, pedagogik shart-sharoitlar, kasbiy faoliyat.

Аннотация. В данной статье анализируются педагогические основы формирования профессиональной трансверсальной – цифровой грамотности будущих воспитателей. В контексте проводимых в образовательной системе нашей страны процессов цифровой трансформации, стратегии «Узбекистан–2030» и концептуальных документов по развитию дошкольного образования, формирование навыков цифровой грамотности в высших педагогических образовательных учреждениях рассматривается как актуальная задача. В статье освещается влияние цифровой образовательной среды, электронных ресурсов и онлайн-платформ на развитие таких трансверсальных компетенций будущих воспитателей, как коммуникативность, креативность и умение решать проблемы. Также проведён анализ проблем, возникающих в процессе формирования компетенции цифровой грамотности, и представлены педагогические предложения и рекомендации по их устранению.

Ключевые слова: цифровая грамотность, трансверсальная компетенция, будущий воспитатель, высшее образование, цифровая образовательная среда, педагогические условия, профессиональная деятельность.

Abstract. This article analyzes the pedagogical foundations for developing professional transversal digital literacy competence among future educators. In the context of ongoing digital transformation processes in the educational system of our country, the “Uzbekistan–2030” Strategy, and the conceptual documents on the development of preschool education, the formation of digital literacy skills in higher pedagogical education institutions is considered as a topical task. The article highlights how the effective use of the digital learning environment, electronic resources and online platforms contributes to the development of such transversal competencies of future educators as communication, creativity and problem-solving. The article also analyzes the problems arising in the process of developing digital literacy competence and offers pedagogical proposals and recommendations aimed at eliminating them.

Keywords: digital literacy, transversal competence, future educator, higher education, digital learning environment, pedagogical conditions, professional activity.

Kirish. Bugungi kunda oliy pedagogik ta’lim tizimida bo‘lajak tarbiyachilarni kasbiy faoliyatga tayyorlash jarayoni raqamli transformatsiya

sharoitlaridan kelib chiqqan holda yangicha mazmun bilan boyitilmoqda. Aholining raqamli savodxonligini oshirish, ta’lim jarayonlarini zamonaviy raqamli texnologiyalar bilan integratsiyalash barcha bosqichlarda dolzarb strategik vazifa sifatida qaralayotgani bejiz emas.

Mamlakatimizda ta’lim tizimini isloh qilish, pedagog kadrlar tayyorlash jarayonini yanada takomillashtirish borasida keng qamrovli islohotlar amalga oshirilmoqda. Xususan, maktabgacha ta’lim sohasini rivojlantirish va yuqori malakali tarbiyachilarni tayyorlash masalasi davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Shu munosabat bilan O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan qabul qilingan qator farmon va qarorlar mazkur sohani tubdan yaxshilashga yo‘naltirilgan.

Prezidentimiz Sh.M. Mirziyoyev tomonidan qabul qilingan “O‘zbekiston-2030” strategiyasi[6] hamda 2023-yil 31-maydagi “Maktabgacha va maktab ta’limi tizimini transformatsiya qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-176-sonli qaror[7]ga asosan bo‘lajak tarbiyachilarning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishga alohida e’tibor qaratilmoqda.

Jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan 2019-yil 8-maydagi “Maktabgacha ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida” gi PQ-4312-sonli qarorida tarbiyachilarning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish hamda innovatsion pedagogik texnologiyalarni joriy etish asosiy yo‘nalish sifatida belgilangan[8].

Zamonaviy tarbiyachi nafaqat pedagogik bilimlarga ega bo‘lishi, balki o‘z kasbiy faoliyatida transversal kompetensiyalarni ham rivojlantirishi lozim. Chunki hozirgi globallashuv davrida tarbiyachidan nafaqat an’anaviy ta’lim va tarbiya usullarini qo‘llay olish, balki kreativ yondashuv, muammolarni hal qilish, kommunikativ ko‘nikmalarga ega bo‘lish va axborot texnologiyalaridan samarali foydalanish talab etiladi.

Ushbu normativ-huquqiy hujjatlarda ilgari surilgan vazifalar bo‘lajak tarbiyachilarda kasbiy transversal - raqamli savodxonlik kompetensiyasini shakllantirishni oliy pedagogik ta’lim tizimining ustuvor metodik yo‘nalishlaridan biri sifatida ko‘rib chiqishni taqozo etadi.

Maqolada bo‘lajak tarbiyachilarning kasbiy transversal-raqamli savodxonlik kompetensiyasini shakllantirish jarayoniga yondashuvlar ilmiy-pedagogik nuqtai nazardan tahlil qilinadi hamda oliy pedagogik ta’lim tizimida mazkur kompetensiyani samarali rivojlantirish uchun zarur bo‘lgan pedagogik shart-sharoitlar va amaliy takliflar ishlab chiqiladi.

Adabiyotlar tahlili. Pedagogik tadqiqotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, bo‘lajak tarbiyachilarning kasbiy transversal-raqamli savodxonlik kompetensiyasini shakllantirish, birinchi navbatda, ularning zamonaviy axborot-

[6] O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabrdagi “O‘zbekiston — 2030” strategiyasi to‘g‘risidagi PF-158-son Farmon. Lex.uz sahifasi

[7] O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 31-maydagi “Maktabgacha va maktab ta’limi tizimini transformatsiya qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-176-son qarori. Lex.uz

[8] 2019-yil 8-maydagi “Maktabgacha ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida” gi PQ-4312-son Qarori

kommunikatsiya texnologiyalaridan didaktik maqsadlarda foydalana olish ko‘nikmalariga bog‘liqdir.

Bo‘lajak tarbiyachining raqamli savodxonlik kompetensiyasi-tarbiyachi AKT vositalaridan foydalana olishi, raqamli ta’lim resurslarini pedagogik jarayonga tatbiq etishi, elektron portfellarni yurita olishi va bolalarga axborot madaniyatini o‘rgatishi hisoblanadi.

M.O.Karimova, D.K.Rafikova, B.X.Baydjanovlar tomonidan “Pedagogik kompetentlik va kreativlik asoslari” nomli o‘quv qo‘llanmasida ta’kidlanganidek, pedagogik kompetentlik raqamli xavfsizlik, axborotni qayta ishlay olish, ijodiy raqamli kontent yaratish qobiliyatlari bilan bog‘liq bo‘lgan integrativ sifat bo‘lib, ularni shakllantirish maxsus pedagogik shart-sharoitlarni talab qiladi[9].

Bugungi kunda jamiyatning barcha sohalariga axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini tadbiq etish ko‘lami kengayishi tufayli uzluksiz ta’lim tizimida: talabalarning raqamli texnologiyalardan foydalanish ko‘nikmalarini baholash mexanizmlarini ishlab chiqish orqali qaror qabul qilish uchun kerakli ma’lumotlarni topish, raqamli qurilmalar bilan ishlash, ommaviy axborot vositalarini tanqidiy-tahliliy o‘rgana olishi, zamonaviy raqamli aloqa vositalaridan foydalanishi hamda yangi ishlab chiqilayotgan innovatsion texnologiyalarga ijobiy munosabatni shakllantirish bo‘yicha bir qancha ishlar amalga oshirilmoqda. Xususan, talabalar uchun raqamli texnologiyalardan foydalanishning umumiy darajasini oshirish maqsadida oliy ta’lim muassasalarining asosiy o‘quv dasturlariga doimiy o‘zgartirishlar kiritib borilishi, elektron ta’lim resurslarini yangi avlodlarini ishlab chiqish va takomillashtirish, axborot texnologiyalariga doir bilimlar berish usul va vositalarini takomillashtirish hamda elektron ta’lim muhitida talabalarning axborot texnologiyalariga doir ijodiy qobiliyati, kreativ fikrlashi, ichki va jahon ta’lim resurslaridan foydalana olish qobiliyatini rivojlantirish, ta’lim samaradorligini yaxshilash bo‘yicha xorijiy tajribalarni o‘rganish va amaliyotga joriy etishga doir dolzarb masalalardan hisoblanadi.[10]

B.S. Abdullayeva, A.A. Xoliqov, D.R. Farsaxonova, S.V. Muhammadiyeva, M.B. Sheranova tomonidan chop etilgan “Umumiy pedagogika” darsligida pedagogik kompetensiyaning tarkibiy tuzilmasi ochib berilib, raqamli savodxonlik umumiy pedagogik kompetensiyalarning zamonaviy tarkibiy elementi sifatida e’tirof etiladi. Mualliflar bo‘lajak pedagoglarda raqamli texnologiyalar bilan ishlash bo‘yicha ijodiy ko‘nikmalarni shakllantirishni transversal kompetensiyalarni rivojlantirishning samarali yo‘li sifatida baholaydilar[11].

Michigan davlat universiteti pedagoglari Punya Mishra va Matthew J. Koehler tomonidan TPACK konsepsiyasida pedagoglarning raqamli

[9] M.O. Karimova, D.Q. Rafiqova, B.X. Baydjanov Pedagogik kompetentlik va kreativlik asoslari. Farg‘ona - “Uzxerox” - 2021. – 148–152-b.

[10] R.K.Atamuratov. OLIY TA’LIM MUASSASALARI TALABALARIDA RAQAMLI KOMPETENSIYANI RIVOJLANTIRISH nomli maqola. OLIY TA’LIMNI RAQAMLASHTIRISH SHAROITIDA INNOVATSION O‘QITISH TEXNOLOGIYALARINI QO‘LLASH MASALALARI (ICT EDU 2023) RESPUBLIKA ILMIY-USLUBIY ANJUMANI TOSHKENT, 02-03-FEVRAL, 2023 - YIL MA’RUZALAR TO‘PLAMI TOSHKENT 2023

[11] B.S. Abdullayeva, A.A. Xoliqov, D.R. Farsaxonova, S.V. Muhammadiyeva, M.B. Sheranova. Umumiy pedagogika (1-qism). Darslik. - Toshkent: «Innovatsiya-Ziyo”, 2020. – 96–99-b.

texnologiyalarni mazmun va pedagogik uslub bilan qanday uyg‘un integratsiya qila olishlarini sistematik yondashuv orqali ochib berganini ko‘rishimiz mumkin. Bu pedagogik ramka bo‘lajak tarbiyachilarda raqamli savodxonlik kompetensiyasini shakllantirishda nazariy asos sifatida xizmat qiladi[12].

Shu jihatdan yuqoridagi ilmiy manbalar asosida bo‘lajak tarbiyachilarda raqamli savodxonlik kompetensiyasini shakllantirishning nazariy asoslari aniqlashtirildi hamda mazkur kompetensiyani oliy pedagogik ta’lim jarayoniga integratsiya qilish pedagogik jihatdan zarurligi asoslab berildi.

Tadqiqot metodologiyasi. Ushbu tadqiqotda bo‘lajak tarbiyachilarning kasbiy transversal-raqamli savodxonlik kompetensiyasini shakllantirish jarayonining bugungi holati, mavjud muammolari hamda ularni takomillashtirish yo‘llarini aniqlash maqsad qilib olindi. Shu boisdan tadqiqot quyidagi metodologik yondashuvlarga asoslandi:

Tadqiqotning maqsadi: bo‘lajak tarbiyachilarda kasbiy transversal-raqamli savodxonlik kompetensiyasini shakllantirish jarayonining ilmiy-nazariy asoslarini tadqiq etish hamda oliy pedagogik ta’lim tizimi uchun samarali pedagogik takliflar ishlab chiqish.

Tadqiqotning obyekti: oliy pedagogik ta’lim jarayonida bo‘lajak tarbiyachilarni kasbiy faoliyatga tayyorlash jarayoni.

Tadqiqotning predmeti: bo‘lajak tarbiyachilarni tayyorlash jarayonida raqamli savodxonlik kompetensiyasini shakllantirishga xizmat qiluvchi pedagogik shart-sharoitlar va metodik yondashuvlar. Tadqiqotni olib borish jarayonida tahlil va sintez, taqqoslash, anketa va kuzatuv, empirik umumlashtirish metodlaridan foydalanildi.

Tahlil va sintez metodi -raqamli savodxonlik va transversal kompetensiyalar haqidagi ilmiy manbalarni o‘rganib, ularning mazmun-mohiyatini aniqlash;

Taqqoslash metodi-mahalliy va xorijiy (TPACK, DigCompEdu) modellar asosida raqamli kompetensiyalarning tarkibiy tuzilmalarini qiyosiy tahlil qilish;

Anketa va kuzatuv-maktabgacha ta’lim yo‘nalishida ta’lim olayotgan talabalarning raqamli savodxonlik darajasini aniqlash uchun maxsus diagnostik materiallar asosida so‘rov o‘tkazish;

Empirik umumlashtirish-olingan natijalar asosida raqamli savodxonlik kompetensiyasini shakllantirishga oid umumlashtirilgan xulosalar chiqarishni maqsad qilib oladi. Yuqoridagi metodlardan tadqiqot uchun samarali natijalar olishda foydalanildi.

Tadqiqotning nazariy-metodologik asoslari sifatida TPACK konsepsiyasi Mishra va Koehler, 2006, R.K.Atamuratov 2023, B.S. Abdullayeva, A.A. Xoliqov, D.R. Farsaxonova, S.V. Muhammadiyeva, M.B. Sheranova, M.O.Karimova, D.K.Rafikova, B.X.Baydjanov va boshqalarning transversal kompetensiyalar haqidagi ilmiy qarashlaridan foydalanildi.

[12] Technological Pedagogical Content Knowledge: A Framework for Teacher Knowledge PUNYA MISHRA va MATTHEW J. KOEHLER1 Michigan State University 2006

O‘tkazilgan nazariy va empirik tadqiqotlar natijalari bo‘lajak tarbiyachilarni tayyorlash jarayonida raqamli savodxonlik kompetensiyasini shakllantirish hali yetarli darajada tizimlashtirilmaganligini ko‘rsatdi. Jumladan, maktabgacha ta’lim yo‘nalishining 2-3-bosqich talabalarida o‘tkazilgan diagnostik anketa natijalariga ko‘ra, talabalarning 64 foizi elektron ta’lim platformalaridan (Moodle, Google Classroom va boshqalar) foydalanish amaliyotiga ega ekani holda, ulardan o‘quv-didaktik maqsadlarda mustaqil kontent yaratish ko‘nikmalari ancha past (50 foiz) darajada ekanligi aniqlangan. Bu esa raqamli savodxonlik kompetensiyasining faqat boshlang‘ich darajasida shakllanganligini ko‘rsatadi.

Tajriba mashg‘ulotlari jarayonida Michigan davlat universiteti pedagoglari Punya Mishra va Matthew J. Koehler tomonidan tavsiya etilgan TPACK konsepsiyasi asosida maxsus mashg‘ulotlar tashkil etilganida talabalar tomonidan yaratilgan interaktiv raqamli kontentlar soni 2 baravarga oshganligi kuzatildi. Bu esa raqamli savodxonlik kompetensiyasini shakllantirish uchun pedagogik faoliyatga yo‘naltirilgan raqamli vazifalarni tatbiq etish samarali ekanligini isbotlaydi.

Umuman olganda, tadqiqot natijalari bo‘lajak tarbiyachilarda kasbiy transversal-raqamli savodxonlik kompetensiyasini shakllantirish uchun:

-didaktik jihatdan asoslangan raqamli o‘quv topshiriqlari;

-interaktiv platformalardan ijodiy foydalanishga yo‘naltirilgan trening mashg‘ulotlari;

-raqamli kompetensiyani sistematik baholash tizimi (DigCompEdu indikatorlari asosida) zarurligini ko‘rsatdi.

Muhokama. Olingan natijalar shuni ko‘rsatdiki, bo‘lajak tarbiyachilarning kasbiy transversal-raqamli savodxonlik kompetensiyasini shakllantirish jarayoni, avvalo, o‘qitish mazmunida raqamli ta’lim muhitiga yo‘naltirilgan vazifalarning mavjudligi va ularning amaliy xarakterga egaligi bilan uzviy bog‘liq. Raqamli savodxonlik oddiy texnik ko‘nikma sifatida emas, balki professional-didaktik kompetensiya sifatida shakllanishi uchun o‘quv mashg‘ulotlarini ijodkorlikka undovchi raqamli faoliyat turlariga yo‘naltirish zarur.

Tadqiqotlar (Mishra va Koehler, 2006) shuni tasdiqlaydiki, pedagog kadrlar tayyorlash jarayonida raqamli texnologiyalarni mazmun va usullarga integratsiyalash, bo‘lajak mutaxassislarning “pedagogik raqamli tafakkur”ini rivojlantiradi. Bu esa raqamli savodxonlikni transversal kompetensiya sifatida shakllanishiga sharoit yaratadi. Milliy tadqiqotlar (Karimova va boshq., 2021; Abdullayeva va boshq., 2020) ham bo‘lajak tarbiyachi shaxsidagi raqamli ijodkorlik va axborot-xavfsizlik kabi elementlar umumiy pedagogik kompetensiyaning ajralmas qismi ekanligini tasdiqlaydi.

Tajriba mashg‘ulotlari davomida raqamli platformalar asosida interaktiv vazifalar tayyorlashga yo‘naltirilgan yondashuv talabalarni nafaqat tayyor kontentdan foydalanishga, balki raqamli resurslarni o‘zi yaratishga undaganligi bilan ahamiyatlidir. Demak, raqamli savodxonlik kompetensiyasini shakllantirishni samarali tashkil etish uchun ularda raqamli pedagogik ijodkorlikni rivojlantirishga qaratilgan metodik yondashuvlar qo‘llanilishi lozim.

Shu nuqtai nazardan, oliy pedagogik ta’lim tizimida raqamli texnologiyalarga asoslangan faoliyat talaba-subyektning mustaqil fikrlashi, moslashuvchanligi va muammoni hal qila olish qobiliyatlarini shakllantirishning samarali vositasi bo‘lib xizmat qiladi. Bu esa raqamli savodxonlik kompetensiyasini kasbiy transversal kompetensiya sifatida rivojlantirish konsepsiyasiga to‘la mos keladi.

Xulosa. O‘tkazilgan ilmiy tahlillar hamda tajriba natijalari bo‘lajak tarbiyachilarni tayyorlash jarayonida raqamli savodxonlik kompetensiyasining kasbiy transversal kompetensiya sifatida shakllanishi ta’lim mazmuni va texnologiyalarini chuqur integratsiyalash orqali amalga oshirilishini ko‘rsatdi. Raqamli savodxonlik esa faqat texnik vositalardan foydalanish qobiliyati bilan cheklanmay, maktabgacha ta’lim jarayonida pedagogik maqsadlarga mos raqamli resurslarni tanlash, ularni moslashtirib ijodiy qo‘llay olish va yangi raqamli kontentlar yaratishga qodir bo‘lishni nazarda tutadi.

Bo‘lajak tarbiyachilarda raqamli savodxonlik kompetensiyasining dastlabki darajalari (elektron resurslardan foydalanish, oddiy onlayn platformalarga kirish) yetarli shakllangan bo‘lsa-da, yuqori darajadagi raqamli pedagogik ijodkorlik - ya’ni raqamli ta’lim muhitini loyihalash, interaktiv vazifalarni mustaqil tarzda ishlab chiqish va o‘z pedagogik faoliyatiga moslashtirish ko‘nikmalari yetarli darajada shakllanmagan. Shu boisdan mazkur jarayonni tizimlashtirish, o‘qitish mazmuniga raqamli ta’lim texnologiyalariga asoslangan ijodiy faoliyat turlarini kiritish dolzarb hisoblanadi.

Mazkur tadqiqot natijalari shuni isbotlaydiki:

-o‘qituvchilar uchun tayyorlangan raqamli o‘quv topshiriqlari emas, talabaning o‘zi raqamli resursni yaratadigan pedagogik vaziyatlar ko‘proq natija beradi;

-DigCompEdu va TPACK modellari asosida yo‘lga qo‘yilgan amaliy mashg‘ulotlar raqamli savodxonlik kompetensiyalarining kompleks tarzda shakllanishiga xizmat qiladi;

-o‘qitish jarayonida gamifikatsiya, raqamli simulyatorlar va loyiha usulidan foydalanish bo‘lajak tarbiyachilarning raqamli kompetensiyalarini real kasbiy vaziyatga mos ravishda rivojlantirishga yordam beradi.

Shu asosda, bo‘lajak tarbiyachilarning kasbiy transversal - raqamli savodxonlik kompetensiyasini shakllantirishning istiqbolli yo‘nalishlari quyidagilar hisoblanadi:

-raqamli pedagogik kompetensiyani baholash va rivojlantirish uchun bosqichli indikatorlar tizimini joriy etish;

-har bir o‘quv moduliga raqamli ijodkorlikka yo‘naltirilgan loyiha–vazifalar kiritish;

-maktabgacha ta’lim muassasalari bilan hamkorlikda “raqamli amaliyot maydonchalari”ni shakllantirish;

-raqamli ta’lim vositalari asosida real kasbiy vaziyatlarni modellashtirishga qaratilgan trening mashg‘ulotlarini tashkil etish.

Ushbu yondashuvlarning bosqichma-bosqich tatbiq etilishi bo‘lajak tarbiyachilarda raqamli savodxonlik kompetensiyasini yuqori darajada

shakllantirishga, natijada, maktabgacha ta’lim tizimini raqamli muhit bilan uyg‘unlashtirishga xizmat qiladi.

Takliflar:

-OTM talabasining raqamli kompetensiyalari uni o‘rab turgan muhit bilan bog‘liqlikda shakllantirish;

-OTM da raqamli kompetensiyalar barcha fanlarni o‘rganish jarayonida-so‘zda emas, amalda shakllantirilishi lozim. Muvaffaqiyatli o‘zlashtirilgan, ammo amalda qo‘llanilmagan bilim va ko‘nikmalar talabalar tomonidan juda tez unutiladi. Talabani u yoki bu ko‘nikma bilan tanishtirishning o‘zi yetarli emas-o‘quv fanlarining eng keng doirasini o‘zlashtirishda undan faol foydalanish zarur;

-raqamli kompetensiyalarning barcha besh komponentini (axborot savodxonligi, muloqot va hamkorlik, raqamli kontent yaratish, xavfsizlik, muammolarni hal qilish) mutanosib ravishda shakllantirish zarur, bunda, ba’zi tarkibiy qismlarni shakllantirishda ayrim ta’lim jarayoni subyektlarning roli oshishi mumkin;

-OTM da o‘qitiladigan axborot texnologiyalariga doir o‘quv fanlari raqamli kompetensiyalar uchun asos yaratadi; bunday fanlarni yilma-yil o‘qitishda boshqa fanlarni o‘rganish uchun dolzarbligi nuqtai nazaridan kelib chiqqan holda raqamli kompetensiyalarga qo‘yiladigan talablar belgilanishi hamda raqamli kompetensiyalarning tayanch darajasi to‘xtab qolmasligi lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabrdagi “O‘zbekiston -2030” strategiyasi to‘g‘risidagi PF-158-son Farmon. Lex.uz sahifasi

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 31-maydagi “Maktabgacha va maktab ta’limi tizimini transformatsiya qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-176-son qarori. Lex.uz

3. 2019-yil 8-maydagi “Maktabgacha ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida” gi PQ-4312-son Qarori

4. M.O. Karimova, D.Q. Rafiqova, B.X. Baydjanov. *Pedagogik kompetentlik va kreativlik asoslari*. Farg‘ona - “Uzxerox” - 2021. – 148–152-b.

5. R.K.Atamuratov OLIY TA’LIM MUASSASALARI TALABALARIDA RAQAMLI KOMPETENSIYANI RIVOJLANTIRISH nomli maqola. OLIY TA’LIMNI RAQAMLASHTIRISH SHAROITIDA INNOVATSION O‘QITISH TEXNOLOGIYALARINI QO‘LLASH MASALALARI (ICT EDU 2023) RESPUBLIKA ILMIY-USLUBIY ANJUMANI TOSHKENT, 02-03-FEVRAL, 2023 -YIL MA’RUZALAR TO‘PLAMI TOSHKENT 2023

6. B.S. Abdullayeva, A.A. Xoliqov, D.R. Farsaxonova, S.V. Muhammadiyeva, M.B. Sheranova Umumiy pedagogika (1-qism). Darslik. - Toshkent: «Innovatsiya-Ziyo”, 2020. – 96–99-b.

7. PUNYA MISHRA va MATTHEW J. KOEHLER. Technological Pedagogical Content Knowledge: A Framework for Teacher Knowledge. Michigan State University. 2006

8. Jaloliddinova, M. (2025). BO‘LAJAK TARBIYACHILARNING KASBIY TRANSVERSAL KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISHNING PEDAGOGIK XUSUSIYATLARI. *QO‘QON UNIVERSITETI XABARNOMASI*, *14*, 146–148. https://doi.org/10.54613/ku.v14i.1146

9. Maftunakhon, J. (2025). Model of development of professional transversal competences of future educators. *International Journal of Pedagogics*, *5*(02), 60-63.

BOSHLANG‘ICH SINFLARDA ONA TILI DARSLARINING TA’LIMIY VA TARBIYAVIY AHAMIYATINI OSHIRISHDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR INTEGRATSIYASINING SAMARADORLIGI

Davlatova Saida Tojimuxammadovna,
Qo‘qon universiteti Ta’lim kafedrasi
o‘qituvchisi

Annotatsiya: Boshlang‘ich sinflarda ona tili darslari o‘quvchilarning savodxonligini shakllantirish, nutqiy faolligini rivojlantirish va mustaqil fikrlash ko‘nikmalarini mustahkamlashda muhim o‘rin tutadi. Hozirgi kunda ta’lim tizimida raqamli texnologiyalarni integratsiya qilish jarayoni katta ahamiyat kasb etmoqda. Xususan, sun’iy intellekt yordamida individual ta’lim yo‘llarini shakllantirish, AR/VR texnologiyalari orqali matnlarni jonli idrok etish, STEAM metodikasi asosida loyihaviy topshiriqlarni bajarish va onlayn ta’lim vositalari orqali pedagoglarning malakasini oshirish dars jarayonining samaradorligini yanada oshiradi. Tadqiqotda ona tili darslarida raqamli texnologiyalarni qo‘llash imkoniyatlari o‘rganildi, ularning didaktik hamda tarbiyaviy afzalliklari tahlil qilindi. Natijalar shuni ko‘rsatdiki, texnologiyalarni an’anaviy usullar bilan uyg‘unlashtirish o‘quvchilarda mustaqil tahlil qilish, kreativ fikrlash va muloqot madaniyatini rivojlantirishga xizmat qiladi. Shu bilan birga, o‘qituvchilar uchun metodik tavsiyalar ishlab chiqildi. Tadqiqot xulosalari kelgusida ta’lim jarayonida zamonaviy yondashuvlarni qo‘llash, darslarni mazmunan boyitish va samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

Аннотация: Уроки родного языка в начальных классах играют важную роль в формировании грамотности учащихся, развитии их речевой активности и укреплении навыков самостоятельного мышления. В современных условиях особое значение приобретает процесс интеграции цифровых технологий в систему образования. В частности, использование искусственного интеллекта позволяет формировать индивидуальные образовательные траектории, технологии AR/VR способствуют живому восприятию текстов, методика STEAM открывает возможности для выполнения проектных заданий, а онлайн-образовательные ресурсы обеспечивают повышение квалификации педагогов. В исследовании изучались возможности применения цифровых технологий на уроках родного языка, анализировались их дидактические и воспитательные преимущества. Полученные результаты показали, что сочетание

традиционных методов и цифровых средств способствует развитию у школьников навыков самостоятельного анализа, креативного мышления и культуры общения. Кроме того, разработаны методические рекомендации для учителей по эффективному использованию цифровых технологий в образовательном процессе. Сделанные выводы и практические предложения будут способствовать дальнейшему внедрению современных подходов, содержательному обогащению уроков и повышению их эффективности в системе начального образования.

Abstract: Mother tongue lessons in primary education play a crucial role in shaping students’ literacy, enhancing their communicative activity, and strengthening independent thinking skills. In today’s context, the integration of digital technologies into the education system has gained particular importance. Specifically, artificial intelligence makes it possible to design individualized learning paths, AR/VR technologies support vivid perception of texts, the STEAM methodology encourages project-based learning, and online educational platforms provide opportunities for teachers’ professional development. This study explored the possibilities of applying digital technologies in mother tongue lessons and analyzed their didactic and educational advantages. The findings demonstrated that combining traditional teaching methods with digital tools fosters students’ ability to conduct independent analysis, develop creative thinking, and build communication culture. Furthermore, methodological recommendations were developed for teachers to ensure effective use of digital technologies in the learning process. The conclusions and practical implications of the research will contribute to the wider implementation of modern approaches, enrichment of lesson content, and improvement of overall effectiveness in the primary education system.

Kalit so‘zlar: boshlang‘ich ta’lim, ona tili, raqamli texnologiyalar, sun’iy intellekt, AR/VR, STEAM, onlayn ta’lim, kreativ fikrlash, pedagogik integratsiya.

Ключевые слова: начальное образование, родной язык, цифровые технологии, искусственный интеллект, AR/VR, STEAM, онлайн-образование, креативное мышление, педагогическая интеграция.

Keywords: primary education, mother tongue, digital technologies, artificial intelligence, AR/VR, STEAM, online learning, creative thinking, pedagogical integration.

XXI asrda globallashuv va raqamli transformatsiya jarayonlari barcha sohalarga, xususan ta’lim tizimiga ham o‘z ta’sirini o‘tkazmoqda. Bugungi kunda pedagogik faoliyatni axborot-kommunikatsiya texnologiyalarisiz tasavvur qilish qiyin. Ayniqsa, boshlang‘ich ta’lim bosqichida ta’lim-tarbiya jarayonini zamonaviy raqamli vositalar orqali tashkil etish bolalarda tanqidiy va kreativ fikrlash, muloqotga kirishish, muammoni mustaqil hal qilish, hamkorlikda ishlash kabi kompetensiyalarni erta bosqichdanoq shakllantirishda muhim ahamiyatga ega.

Boshlang‘ich ta’lim, ayniqsa ona tili fani - bu o‘quvchining o‘z fikrini og‘zaki va yozma shaklda ifoda eta olishini o‘rgatadigan, tahlil qilish, mantiqiy bog‘liqlikni anglash, tilga estetik munosabatni shakllantiradigan asosiy darslardan biridir. Ona tili darslarida an’anaviy yondashuvlar bilan bir qatorda sun’iy intellekt

(AI), kengaytirilgan haqiqat (AR), virtual haqiqat (VR), STEAM (fan, texnologiya, muhandislik, san’at va matematika integratsiyasi) va onlayn ta’lim platformalaridan foydalanish ta’limning ta’sirchanligini oshiradi. Mazkur maqola aynan ushbu zamonaviy texnologiyalarni boshlang‘ich sinf ona tili darslariga integratsiyalash orqali ta’limiy va tarbiyaviy samaradorlikni oshirish imkoniyatlarini tahlil qilishga bag‘ishlangan [1,67].

Tadqiqotda raqamli texnologiyalar o‘quvchilarning qiziqishini oshirishi, mustaqil fikrlash va o‘zlashtirish darajasini yaxshilashi, shuningdek, dars jarayonini shaxsga yo‘naltirilgan formatda tashkil qilishdagi o‘rniga alohida e’tibor qaratilgan. Shuningdek, maqolada sun’iy intellekt yordamida individual yondashuvni shakllantirish, AR/VR vositalari bilan ko‘rgazmali va immersiv o‘qitish muhiti yaratish, STEAM orqali mavzulararo bog‘liqlikni mustahkamlash hamda onlayn platformalar orqali darsdan tashqari ta’limni tashkil etishning afzalliklari ilmiy jihatdan asoslangan holda ko‘rib chiqiladi.

Ushbu zamonaviy texnologiyalarni ona tili darslariga tatbiq etish orqali boshlang‘ich sinf o‘quvchisining nafaqat til ko‘nikmalari, balki axborot savodxonligi, texnologik madaniyati va ijodiy salohiyati ham rivojlanadi. Shu bois maqola dolzarb bo‘lib, ta’limda raqamli texnologiyalarni samarali joriy etish yo‘llarini izlash va amaliy jihatdan tatbiq qilishni ko‘zda tutadi [2,90].

Raqamli texnologiyalar, xususan sun’iy intellekt (SI), kengaytirilgan va virtual haqiqat (AR/VR), STEAM yondashuvi hamda onlayn ta’lim platformalari bugungi kunda ta’lim jarayonini yangilash va samaradorligini oshirishda muhim vosita bo‘lib xizmat qilmoqda. Ayniqsa, boshlang‘ich sinflarda ona tili darslariga bu texnologiyalarni integratsiya qilish orqali o‘quvchilarning o‘z fikrini ifodalash, mustaqil izlanish, ijodiy yondashuv va analitik tafakkur ko‘nikmalarini rivojlantirish imkoniyati yaratiladi.

Birinchi navbatda, sun’iy intellekt texnologiyalaridan foydalanish o‘quvchilarning yozma nutqini shakllantirish va takomillashtirishda samarali yordamchi vositaga aylanishi mumkin. Masalan, ChatGPT, Grammarly kabi sun’iy intellektga asoslangan platformalar orqali o‘quvchilarning grammatik, imlo va uslubiy xatolari avtomatik tarzda aniqlanadi hamda real vaqt rejimida teskari aloqa taqdim etiladi. Bu esa o‘quvchilarda o‘z xatolarini anglash, ularni tahlil qilish va mustaqil tuzatish ko‘nikmasini shakllantiradi. Shuningdek, SI orqali har bir o‘quvchining bilim darajasiga mos mashqlarni tuzish, ya’ni shaxsiylashtirilgan ta’limni amalga oshirish imkoniyati mavjud [3, 56].

Ikkinchidan, AR/VR texnologiyalarining qo‘llanilishi o‘quv jarayonida vizual va interaktiv muhit yaratishga xizmat qiladi. Quiver, CoSpaces Edu kabi platformalar yordamida matnlarga mos 3D modellar, animatsiyalar va interaktiv tasvirlar yaratiladi. Bu o‘z navbatida o‘quvchilarning darsga bo‘lgan qiziqishini oshirib, mavzuni yanada chuqurroq anglashga yordam beradi. Tajriba asosida o‘rganish va ko‘rgazmalilik prinsipi o‘quvchilarda mavzuni ongli idrok etish, eslab qolish hamda ifodalash qobiliyatini rivojlantiradi.

Uchinchidan, STEAM yondashuvi (Science, Technology, Engineering, Art, Mathematics) asosida ona tili darslarini boshqa fanlar bilan integratsiyalash orqali o‘quvchilar kompleks fikrlash va ijodiy yondashuvga o‘rganadi. Masalan, matn

asosida drama sahnalari yaratish orqali o‘quvchilar tilni faqat tahlil emas, balki san’at orqali ifoda qilishni ham o‘zlashtiradi. Bu esa nafaqat ona tili, balki kommunikatsiya, tasviriy san’at va texnologiya kabi sohalarni ham uyg‘unlashtirish imkonini beradi.

To‘rtinchidan, onlayn ta’lim platformalarining qo‘llanilishi darsdan tashqari ta’limni tashkil qilishda, baholash va aloqa jarayonlarini soddalashtirishda muhim rol o‘ynaydi. Google Classroom, Zoom, Quizizz kabi platformalar orqali o‘quvchilar uchun mustahkamlovchi mashqlar, interaktiv testlar va video darslar taqdim etilishi, shuningdek ota-onalar bilan aloqani mustahkamlash imkoniyati yaratiladi. Bu esa darslarni takrorlash, individual yondashuvni kuchaytirish va bilimlarni mustahkamlashda samarali bo‘ladi.

Boshlang‘ich ta’limda raqamli texnologiyalarni sinf jarayoniga kiritish bo‘yicha o‘tkazilgan amaliy kuzatuv va tajriba darslari asosida muayyan natijalar aniqlandi. Uchta umumta’lim maktabida jami 87 nafar o‘quvchi ishtirokida olib borilgan tajriba asosida quyidagi ijobiy o‘zgarishlar qayd etildi:

- 68% o‘quvchi ona tili faniga nisbatan ijobiy munosabat bildirgan;
- 73% o‘quvchining og‘zaki va yozma ifoda qilish qobiliyatida sezilarli ijobiy o‘zgarishlar kuzatilgan;
- 81% o‘quvchi onlayn platformalar orqali mustaqil o‘rganishni boshlagan.

Mazkur natijalar boshlang‘ich ta’limda raqamli texnologiyalarni joriy etish o‘quvchilarni faollashtirishi, ularning mustaqil fikrlashini kuchaytirishi va ta’limiy samaradorlikni oshirishi mumkinligini ko‘rsatadi [4, 98].

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, sun’iy intellekt, AR/VR va boshqa zamonaviy raqamli texnologiyalarni boshlang‘ich sinf ona tili darslariga maqsadli integratsiyalash - o‘quvchilarning shaxsiy intellektual va ijodiy salohiyatini rivojlantiradi. Biroq, ushbu texnologiyalar o‘qituvchining o‘rnini egallashi emas, balki uning faoliyatini samaraliroq tashkil qilishiga xizmat qilishi kerak.

O‘qituvchi bu vositalardan foydalanib, o‘quvchilarni kuzatish, baholash, individual maslahatlar berish hamda ta’limni shaxsiylashtirish imkoniyatiga ega bo‘ladi. Shu bilan birga, texnologiyalarning ortiqcha qo‘llanilishi ayrim noxush oqibatlarni ham keltirib chiqarishi mumkin. Xususan, jonli muloqotning cheklanishi, texnik infratuzilma yetishmovchiligi yoki raqamli savodxonlik darajasining pastligi ba’zi maktablarda muammo tug‘diradi. Shu sababli, texnologiyalarni maqsadga yo‘naltirilgan, muvozanatli va pedagogik tamoyillarga asoslangan holda qo‘llash muhimdir [5, 67].

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatmoqdaki, raqamli texnologiyalar, xususan sun’iy intellekt, AR/VR tizimlari, STEAM yondashuvi va onlayn ta’lim platformalarining boshlang‘ich sinf ona tili darslariga integratsiyalashuvi o‘quv jarayonining samaradorligini sezilarli darajada oshiradi. Ushbu texnologiyalarning o‘quvchilarda mustaqil fikrlash, muammoli vaziyatlarga yechim topish, yozma va og‘zaki ifoda ko‘nikmalarini shakllantirishda tutgan o‘rni beqiyosdir.

Dastlab, sun’iy intellekt vositalari (ChatGPT, Grammarly va boshqalar) orqali o‘quvchilarning yozma nutqi tahlil qilinishi, grammatik va uslubiy xatolarning avtomatik aniqlanishi ularning o‘z-o‘zini nazorat qilish, refleksiya qilish, mustaqil o‘rganish faoliyatini rivojlantiradi. Bu esa an’anaviy ta’limdagi o‘qituvchi

markazlashgan yondashuvdan farqli o‘laroq, o‘quvchini faol subyekt sifatida shakllantirishga xizmat qiladi [6, 45].

Shuningdek, AR/VR texnologiyalarining joriy etilishi darslarda ko‘rgazmalilik tamoyilini kuchaytiradi, murakkab tushunchalarni vizual tasvirlar orqali tushuntirish imkonini yaratadi. Bu, ayniqsa, boshlang‘ich sinf o‘quvchilari uchun abstrakt fikrni konkretlashtirishga xizmat qiluvchi samarali usuldir. Interaktiv muhit orqali o‘quvchilar mavzuni nafaqat eshitadi va o‘qiydi, balki ko‘radi, harakat qiladi va his qiladi – bu esa ko‘p kanalli idrok orqali chuqurroq o‘zlashtirishga olib keladi.

STEAM yondashuvi esa darslarni fanlararo integratsiyalashgan tarzda olib borish imkonini beradi. Ona tili darsida matn asosida sahnalashtirish, loyihalar tayyorlash, jamoaviy ishlarda qatnashish o‘quvchilarda ham ijodiy fikrlashni, ham muloqot, hamkorlik, muammoli vaziyatlarni hal etish ko‘nikmalarini shakllantiradi. Bu esa zamonaviy ta’limning asosiy kompetensiyalarini rivojlantirishga xizmat qiladi [7, 98].

Onlayn ta’lim vositalari esa darsdan tashqari o‘quv faoliyatini tashkil qilish, individual yondashuvni ta’minlash, ota-onalar bilan hamkorlikni mustahkamlashda keng imkoniyatlar yaratadi. Ayniqsa, pandemiya davridagi tajriba ko‘rsatdiki, raqamli platformalarning o‘rni faqatgina muqobil emas, balki asosiy ta’lim vositasi sifatida qaralmoqda.

Biroq, bu texnologiyalarning ta’limga joriy qilinishi muayyan qiyinchiliklar va cheklovlar bilan ham yuzaga chiqadi. Jumladan, ba’zi maktablarda texnik vositalarning yetishmasligi, internet tarmog‘ining sustligi, o‘qituvchilarning raqamli savodxonlik darajasining pastligi ularning samaradorligiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Shuningdek, texnologiyalarning haddan tashqari qo‘llanilishi o‘quvchilar orasida insoniy muloqot va ijtimoiy ko‘nikmalarning sustlashuviga sabab bo‘lishi mumkin.

Shu boisdan, raqamli texnologiyalarni ta’lim jarayoniga integratsiyalashda muvozanatni saqlash, ularni pedagogik maqsadga muvofiq ravishda, o‘qituvchining boshqaruvi va pedagogik nazorati ostida qo‘llash lozim [8,39].

Ushbu tadqiqot yuzasidan quyidagi takliflarni bera olamiz:

1. O‘quvchilar xatolarini aniqlovchi va tahlil qiluvchi sun’iy intellekt asosidagi vositalarni sinf amaliyotiga joriy etish

Darsda yozma topshiriqlarni bajarayotganda, sun’iy intellekt vositalaridan foydalanish orqali o‘quvchilarning matndagi grammatik va uslubiy kamchiliklarini aniqlash, tahlil qilish imkoniyati yaratiladi. Bu jarayon o‘qituvchiga qo‘shimcha yordam beradi, bolalarning esa o‘z xatolarini tushunib tuzatishga bo‘lgan mas’uliyatini oshiradi.

2. Matnlarni vizual idrok qilish uchun 3D va interaktiv tasvirlarga asoslangan o‘quv materiallarini ishlab chiqish

Ona tili darslarida mavzuni quruq matn shaklida emas, balki tasvirli, harakatli va interaktiv tarzda yetkazish o‘quvchining tushunish darajasini oshiradi. Masalan, hikoya qahramonining harakati yoki voqea rivojini 3D maketlar yoki animatsiya yordamida ko‘rsatish orqali darsga butunlay boshqacha yondashuv hosil qilinadi.

3. Til darslarini boshqa fanlar bilan bog‘lab, ijodiy loyihalar yaratishga yo‘naltirish

Ona tili mashg‘ulotlarida shunchaki matn tahlil qilinib qolmasdan, shu asosda kichik drama, rasm, texnologik qurilmalar modellarini yaratish kabi topshiriqlar orqali o‘quvchilarda ijodkorlik va muloqot ko‘nikmalari shakllantiriladi. Bu esa ular uchun tilni hayotiy, amaliy va qiziqarli vosita sifatida ko‘rsatishga xizmat qiladi.

4. Darsdan tashqari bilimlarni chuqurlashtirish uchun shaxsiy onlayn o‘quv makonlarini yaratish

Har bir o‘quvchi uchun darsda o‘zlashtirilgan mavzularni mustahkamlash imkonini beruvchi maxsus onlayn sahifalar yaratiladi. Bu sahifalarda o‘qituvchi tomonidan yuklangan mashqlar, testlar yoki o‘quv videolar joylashtiriladi. Natijada, o‘quvchi istalgan vaqtda o‘z sur’atida o‘rganishni davom ettirishi mumkin bo‘ladi.

5. O‘qituvchilarni zamonaviy texnologiyalar bilan ishlashga tayyorlash bo‘yicha doimiy amaliyotga yo‘naltirilgan dasturlar ishlab chiqish

Raqamli vositalarni darsda samarali ishlatish faqat ularni bilish emas, balki ulardan qanday qilib pedagogik maqsadda foydalanishni tushunishni talab qiladi. Shu sababli o‘qituvchilar uchun standart nazariy kurslardan ko‘ra, haqiqiy darslarda qo‘llaniladigan modellar asosida tashkil etilgan treninglar samaraliroq bo‘ladi.

Yuqorida keltirilgan fikrlar, amaliy tahlillar va kuzatuvlar asosida quyidagi xulosalar chiqarildi:

- Ona tili darslarida sun’iy intellekt, AR/VR texnologiyalari va onlayn platformalarni tizimli va ilmiy-metodik asosda joriy etish zarur;
- O‘qituvchilar uchun raqamli savodxonlikni oshirishga qaratilgan malaka oshirish kurslari, amaliy treninglar va vebinarlar muntazam tashkil etilishi lozim;
- STEAM asosida fanlararo integratsiyalashgan darslar metodikasi ishlab chiqilib, darslarni ko‘proq ijodiy va interaktiv shaklda o‘tkazishga e’tibor qaratilishi kerak;
- Maktablarda zarur texnik infratuzilmani (kompyuter, planshet, yuqori tezlikdagi internet) teng taqsimlash va foydalanish imkoniyatini yaratish muhim;
- Onlayn ta’lim imkoniyatlaridan foydalangan holda o‘quvchilarga mustahkamlovchi va takrorlovchi mashg‘ulotlar tashkil qilish orqali ularning o‘zlashtirish darajasini yanada oshirish mumkin.

Umuman olganda, raqamli texnologiyalar ta’limda vosita sifatida emas, balki maqsadga erishish yo‘lida strategik yechimlar sifatida ko‘rilishi zarur. Ularning to‘g‘ri va oqilona qo‘llanilishi boshlang‘ich ta’limda ona tili darslarining ta’limiy va tarbiyaviy samaradorligini sezilarli darajada oshirish imkonini beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Karimova N.S. Boshlang‘ich ta’limda ona tili o‘qitish metodikasi. – Toshkent: O‘qituvchi, 2019. – 210 b.
2. Mahmudova D.X. Raqamli pedagogika: nazariya va amaliyot. – Toshkent: Fan, 2022. – 156 b.

3. Soliyev A.A., Xudoyberdiyeva M. STEAM yondashuvi asosida darslarni tashkil etish metodikasi. // Ta’lim innovatsiyalari jurnali. – 2023. – №1. – B. 32–38.
4. Raximov O. Sun’iy intellekt vositalarining ta’lim jarayoniga integratsiyasi. // Zamonaviy ta’lim texnologiyalari. – 2022. – №4. – B. 19–24.
5. Nurmatova Z. Virtual va kengaytirilgan haqiqat texnologiyalarining boshlang‘ich ta’limdagi roli. // Boshlang‘ich ta’lim. – 2023. – №2. – B. 45–50.
6. Sayfiyev B. O‘quvchilarda ijodiy tafakkurni shakllantirishda raqamli texnologiyalarning o‘rni. – Toshkent: Ilm ziyo, 2020. – 132 b.
7. Valiyeva L.T. Boshlang‘ich sinflarda onlayn ta’lim vositalaridan foydalanish imkoniyatlari. // O‘qituvchi metodik jurnali. – 2023. – №3. – B. 11–16.
8. Hasanov M.J. Pedagogik innovatsiyalar va raqamli savodxonlik. – Samarqand: Zarafshon, 2021. – 175 b.
9. Furqatjon, A. (2025). Physiological Characteristics of Cardiovascular System Development in Children Engaged in Sports. *Journal of Social Sciences and Humanities Research Fundamentals*, *5*(06), 15-18.
10. Furqatjon, A. (2025). Age-Related Hormonal Changes and Their Impact on Psychophysiological State. *American Journal Of Social Sciences And Humanity Research*, *5*(06), 20-22.
11. Athamboyevna, V. N. (2024). TA’LIMDA PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALAR BU NIMA?. *University Research Base*, 590-594.
12. Saidaxon, D. (2023). Boshlang'ich ta'limda STEAM texnalogiyasini qo‘llash

BO‘LAJAK PSIXOLOGLARNING NUTQIY KO‘NIKMA VA MALAKALARINI TAKOMILLASHTIRISHNING PEDAGOGIK IMKONIYATLARI

X.Orziqulov,
Qo‘qon universiteti
pedagogika va psixologiya kafederasi v.b dotsenti
xusnidinorziqulov@gmail.com
B.Usanov, Qo‘qon universiteti
psixologiya yo‘nalishi 2-bosqich talabasi
usanovbehruz59@gmail.com

Anotatsiya : Ushbu maqolada bo‘lajak psixologlarning nutqiy ko‘nikma va malakalarini takomillashtirishning pedagogik imkoniyatlari o‘rganiladi. Nutqiy ko‘nikmalar psixologlarning amaliy faoliyatida zaruriyat bo‘lib, ularning samarali muloqot o‘rnatish va mijozlarga yordam ko‘rsatishdagi rolini oshiradi. Maqolada nutqiy ko‘nikmalarni rivojlantirishda qo‘llaniladigan pedagogik usullar va metodlar, zamonaviy yondoshuvlar, amaliy mashg‘ulotlarning ahamiyati

muhokama qilinadi. Shuningdek, bo‘lajak psixologlarga kerakli malakalarni rivojlantirishda o‘qituvchining roli va ta’lim jarayonidagi innovatsion metodlar tahlil qilinadi.

Kalit so‘zlar: psixologiya, nutqiy ko‘nikmalar, pedagogika, malakalar, ta’lim metodlari, amaliy mashg‘ulotlar.

Аннотация: В данной статье рассматриваются педагогические возможности совершенствования речевых навыков и компетенций будущих психологов. Навыки речи являются необходимостью в практической работе психологов, повышая их роль в налаживании эффективной коммуникации и оказании поддержки клиентам. В статье рассматривается значение педагогических приемов и способов, используемых в развитии речевых навыков, современных подходов и практических занятий. Также анализируется роль педагога в развитии необходимых навыков у будущих психологов и инновационных методов в образовательном процессе .

Ключевые слова: психология, речевые навыки, педагогика, квалификация, методика обучения, кейсы.

Annotation : This article examines the pedagogical possibilities of improving speech skills and competencies of future psychologists. Speech skills are a necessity in the practical work of psychologists, increasing their role in establishing effective communication and providing customer support. The article discusses the significance of pedagogical methods and methods used in the development of speech skills, modern approaches and practical lessons. It also analyzes the role of the.

Keywords: psychology, speech skills, pedagogy, qualifications, teaching methods, case studies.

Xalqimiz shuni yaxshi bilishi kerak: oldimizda uzoq va mashaqqatli yo‘l turibdi. Barchamiz jipslashib, tinimsiz o‘qib o‘rgansak, ishimizni mukammal va unumli bajarsak, zamonaviy bilimlarni egallab, o‘zimizni ayamasdan oldinga intilsak, albatta, hayotimiz va jamiyatimiz o‘zgaradi.

Sh.M.Mirziyoyev

Kirish

Psixologlar uchun muloqot qilish ko‘nikmalari o‘ziga xos va juda muhim kasbiy malakadir. Psixologlar o‘z ishlarida turli odamlar bilan muloqot qiladilar, ularga psixologik yordam ko‘rsatadilar va bu jarayonda nutqiy ko‘nikmalarni to‘g‘ri rivojlantirish juda muhim ahamiyatga ega. Nutqning aniq va samarali bo‘lishi psixologning amaliy faoliyatida muvaffaqiyatga erishish uchun zarur. Ushbu maqolada bo‘lajak psixologlarning nutqiy ko‘nikma va malakalarini takomillashtirishning pedagogik imkoniyatlari, metodik yondoshuvlar va o‘qituvchining roli haqida so‘z yuritiladi

Yoshlarga ta’lim–tarbiya berishning murakkab vazifalarini hal etish o‘qituvchilarning kasbiy mahoratini, iste’dodi, tajribasi va madaniyati hozirgi zamon pedagogik texnologiyalarini qo‘llashi, o‘quvchilarni o‘zaro faollikka olib kelishiga bog‘liqdir. Har bir pedagog shuni doimo hisobga olishi va esda tutishi lozimki, dars o‘quv-tarbiya jarayonining asosiy shaklidir. Dars jarayonida har tomonlama rivojlangan shaxsni tarbiyalashga e’tibor qaratiladi, birinchi navbatda bu amalga oshiriladi. Nutq madaniyati tushunchasi, uning tilshunoslikda paydo bo‘lishi, nutq madaniyati tushunchasi haqida rus tilshunoslari fikrlari, to‘g‘ri nutq va nutq madaniyati, “Yaxshi nutq” tushunchasi, yaxshi nutq va uning sifatiy belgilarini o‘rganish nutq madaniyatining asosiy vazifasi ekanligi bilan izohlandi. Nutq madaniyatini egallashda mustaqil shug‘ullanishning o‘rni va ahamiyati: tilga diqqat qilish, o‘zbek adabiy tilining asosiy qonun va qoidalarini o‘rganish, ulardagi nozik o‘rinlarni o‘zlashtirish, nutq madaniyatini egallashda badiiy adabiyotning, televidenieva radio nutqining, gazeta va jurnallar tilining ahamiyati. Notiqlik san’ati sirlarini egallashga intilish, atoqli notiqlarning tajribalarini o‘rganish va ularga taqlid qilish usullari. O‘qituvchining pedagogik faoliyatida nutq texnikasini egallash muhim ahamiyatga ega. Buning uchun bo‘lajak o‘qituvchi avvalo nutq sirlarini, uning o‘quvchilar bilan bo‘ladigan muloqotda ta’sir kuchini puxta bilishi kerak. Nutqning o‘ziga xos xususiyatlarini o‘rganish uchun, nutq texnikasiga oid talablarni bilish lozim. Bu talablar nutqning mantiq jihatdan to‘g‘ri, aniq, chiroyli, yorqin va maqsadga muvofiq bo‘lishidir.

Til me’yorlari - bu ijtimoiy -nutqiy amaliyot (badiiy adabiyot, o‘qimishli kishilar nutqi, sahna nutqi, radio va h.k.)da umum tomonidan qabul qilingan talaffuz, grammatika va so‘z qo‘llash qoidalaridir. Ammo yuksak nutq madaniyati faqatgina til me’yorlariga amal qilishdangina iborat emas. U ayni paytda o‘z fikrini ifodalashning nafaqat aniq vositasini, balki eng ommabop (ya’ni eng ta’sirchan) va jo‘yali (ya’ni ayni vaziyat uchun eng muvofiq va, demakki, uslub nuqtai nazaridan o‘rniga tushgan) vositalarini ham topa olish mahoratini ham o‘z ichiga oladi."Nutqning to‘g‘riligi uning markaziy sifati bo‘lsa -da, nutqiy madaniyatni mazkur sifatning bir o‘zi bilan ta’minlash aslo mumkin emas. Shubhasizki, har qanday to‘g‘ri nutq ham aniq yoki jo‘yali, sof yoki boy bo‘lmaydi, umuman, yetarli ta’sirchanlik quvvatiga munosib bo‘la olmaydi. Shuning uchun ham nutq madaniyati muammolarini tadqiq etish bilan shug‘ullangan bir qator tilshunoslar nutq madaniyatining ikki bosqichini farqlash maqsadga muvofiqligini ta’kidlaydilar. Masalan, L.I.Skvortsov umumiy "nutq madaniyati" tushunchasini adabiy tilni egallash va undan foydalanishning ikki bosqichini ifodalovchi "nutqning to‘g‘riligi" va "nutq madaniyati" tarzida ikki qismga ajratish lozimligini ta’kidlarkan, ularga shunday izozh beradi: "Birinchi, quyi bosqich nutqning to‘g‘riligidir. To‘g‘rilik haqida biz adabiy nutq va uning me’yorlarini egallash jarayonida gapiramiz. Variantlarni nutqning to‘g‘riligi haqidagi baholash: to‘g‘ri - noto‘g‘ri, ruscha ifoda - ruscha ifoda emas va h.k... Nutqning to‘g‘riligi mohiyatan maktab ta’limining predmetidir. O‘rta maktab dasturi umumiy tarzda to‘g‘ri nutq (ko‘proq grammatika sohasida) malakasini shakllantirishni ko‘zda tutadi1 Nutqning kommunikativ sifatlariga quyidagilar kiradi: - Nutqning

to`g`riligi; - Nutqning aniqligi; - Nutqning tozaligi (sofligi); - Nutqning mantiqiyligi; - Nutqning ta’sirchanligi; - Nutqning maqsadga muvofiqligi. Ma’lumki, nutq juda murakkab hodisa sanaladi. U so‘zlovchi yoki yozuvchi tjmonidan shakllantirilgan matnning tashqi ko‘rinishidir. U til bajaradigan ijtimoiy vazifalarni aks ettiradi va birgina til hodisasi bo‘lishi bilan chegaralanmaydi.

Asosiy qism

1. Nutqiy ko‘nikmalar va ularning psixologlar uchun ahamiyati

Psixologlarning kasbiy faoliyatida nutqiy ko‘nikmalar juda katta ahamiyatga ega. Psixologlar mijozlar bilan to‘g‘ri muloqot qilishlari, ularning ehtiyojlarini aniqlashlari va amaliy yordam ko‘rsatishlari kerak. Nutqiy ko‘nikmalarni rivojlantirishda psixologlarga quyidagi malakalar zarur bo‘ladi:[2]

- **Tinglash va tushunish:** Psixologlarning mijozni to‘liq va diqqat bilan tinglashi, uning nutqini, his-tuyg‘ularini to‘g‘ri anglab olishlari muhimdir.
- **Aniq va samimiy muloqot:** Psixologlar o‘z nutqlarini aniq va tushunarli tarzda qurishlari kerak. Bu nafaqat mijozga psixologik yordam ko‘rsatishda, balki unga kerakli maslahatlar berishda ham muhim ahamiyatga ega.
- **Empatiya:** Psixologlarning mijozning hissiy holatini tushunishi va unga mos ravishda muloqot qilishlari zarur. Bu uning xavotirlarini va muammolarini samarali hal etishda yordam beradi.
- **Savol berish va javob olish:** Mijoz bilan muloqotda o‘rinli savollar berish, javoblarini tahlil qilish psixologning kasbiy malakalarini rivojlantiradi.

2. Bo‘lajak psixologlarning nutqiy ko‘nikmalarini takomillashtirishning pedagogik imkoniyatlari

Pedagogik jarayonda bo‘lajak psixologlarning nutqiy ko‘nikmalarini takomillashtirishda turli metodlar va yondoshuvlar qo‘llaniladi. Bularni ishlab chiqishda o‘qituvchining roli va ta’lim metodlari juda muhimdir. Nutqiy ko‘nikmalarni rivojlantirishda foydalaniladigan pedagogik imkoniyatlar quyidagilardan iborat:

- **Amaliy mashg‘ulotlar:** Talabalar real vaziyatlarda psixologik yordam ko‘rsatishni o‘rganishlari kerak. Bu jarayonda amaliy mashg‘ulotlar, real holatlar orqali talabalar muloqot ko‘nikmalarini sinab ko‘rishlari mumkin. Simulyatsiyalar va praktik mashg‘ulotlar talabalar uchun samarali bo‘lishi mumkin.
- **Rolli o‘yinlar:** Talabalar o‘rtasida o‘yinlar tashkil etish orqali turli psixologik vaziyatlarda qanday muloqot qilishni o‘rgatish mumkin. Bu metod psixologlarga mijozlar bilan turli holatlarda samarali muloqot qilishni o‘rgatadi.
- **Kollaborativ ta’lim:** Guruh ishlari orqali talabalar birgalikda ishlashni o‘rganadilar, bu esa ularning muloqot va hamkorlik ko‘nikmalarini rivojlantiradi.

- **Interaktiv metodlar:** Onlayn platformalar, video materiallar, interaktiv o‘quv resurslari yordamida talabalar nutqiy ko‘nikmalarini rivojlantirish imkoniyatiga ega bo‘lishadi. Zamonaviy texnologiyalarni qo‘llash ta’lim jarayonini yanada samarali qilishga yordam beradi.

3. O‘qituvchining roli va ta’lim jarayonida innovatsion yondoshuvlar

Nutqiy ko‘nikmalarni takomillashtirishda o‘qituvchining roli muhim ahamiyatga ega. O‘qituvchi talabalarga nutqiy ko‘nikmalarni rivojlantirishda o‘z yondoshuvlarini qo‘llashi kerak. O‘qituvchining asosiy vazifasi – talabalarni muloqot qilishning turli usullari bilan tanishtirish, ularning muloqot ko‘nikmalarini sinab ko‘rish va kerakli maslahatlar berishdir. Shu bilan birga, o‘qituvchi talabalarga:

- Nutqni to‘g‘ri va aniq talaffuz qilishni o‘rgatishi,
- Tushunarli va empatik nutqni rivojlantirishga yordam berishi,
- Amaliy mashg‘ulotlar va rolli o‘yinlar orqali talabalarga psixologik jarayonlarni real hayotga tadbiq qilishda yordam berishi lozim.

O‘qituvchining innovatsion yondoshuvlarni qo‘llashi, talabalarga zamonaviy pedagogik texnologiyalarni o‘rgatishi, nutqiy ko‘nikmalarni rivojlantirishning samaradorligini oshiradi.[6]

Xulosa

Bo‘lajak psixologlarning nutqiy ko‘nikmalarini takomillashtirish, pedagogik jarayonning ajralmas qismidir. Nutqiy ko‘nikmalarni rivojlantirishda amaliy mashg‘ulotlar, rolli o‘yinlar, kollaborativ ta’lim va zamonaviy texnologiyalar samarali vositalar sifatida foydalaniladi. Pedagogik yondoshuvlar va metodlar yordamida bo‘lajak psixologlar uchun kerakli malakalar shakllantiriladi. O‘qituvchining roli hamda innovatsion yondoshuvlarni qo‘llash ta’lim jarayonining samaradorligini oshiradi va talabalarning psixologik yordam ko‘rsatish ko‘nikmalarini rivojlantiradi.

Foydalangan adabiyotlar:

1. Andreeva, G. M. (2019). "Psikhologiya i obshchenie: teoriya i praktika." Moskva: Nauka.
2. Rakhmatullaeva, L. Sh. (2018). "Pedagogika va psixologiyada kommunikatsiya." Tashkent: Iqtisod-Moliya.
3. Solovyov, A. V. (2017). "Psikhologiya kommunikatsii." SPb: Rech.
4. Shchegoleva, M. G. (2020). "Pedagogika va psixologik o‘qitish metodikasi." Moskva: Pedagogika.
5. Petrov, V. D. (2021). "Innovatsion pedagogik texnologiyalar." Tashkent: Iqtisod-Moliya.

6. Orziqulov, X. (2024). BO'LAJAK BOSHLANG‘ICH SINF O'QUVCHILARIDA IJTIMOIY PEDAGOGIK KOMPONENTLIKNI RIVOJLANTIRISH TEXNOLOGIYASI. *Universal xalqaro ilmiy jurnal*, *1*(5), 228-230.
7. Tolkin, O. K. (2023). TECHNOLOGY FOR THE DEVELOPMENT OF SOCIAL-PEDAGOGICAL COMPETENCE IN FUTURE PRIMARY CLASS TEACHERS. *International Journal of Pedagogics*, *3*(11), 95-97.
8. Orziqulov, X. (2025). BO‘LAJAK BOSHLANG ‘ICH SINF O ‘QITUVCHILARINING TARBIYAVIY FAOLIYATGA DOIR KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISHNING PEDAGOGIK VA PSIXOLOGIK SHART SHAROITLARI. *QO ‘QON UNIVERSITETI XABARNOMASI*, *14*, 109-111.
9. Xusniddin To‘lqin o‘g, O. (2024). BO‘LAJAK BOSHLANG ‘ICH SINF O ‘QITUVCHILARINING IJTIMOIY PEDAGOGIK KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISHNING DIDAKTIK IMKONIYATLARI.
10. Maxkamova, M. B. (2025). BO‘LAJAK BOSHLANG‘ICH SINF O‘QITUVCHILARIDA EKOLOGIK MADANIYATNI RIVOJLANTIRISH. *Inter education & global study*, *3*(5 (1)), 152-157.
11. Анваров, Ф. Р., & Мирзаолимов, М. М. (2022). ГЕРИАТРИЯ (ОПРЕДЕЛЕНИЕ ПОНЯТИЙ; ЗАДАЧИ, СТОЯШИЕ ПЕРЕД ЭТИМ НАУКАМ; РАЗДЕЛЫ И ДОСТИЖЕНИЯ). *ТАЪЛИМ ВА РИВОЖЛАНИШ ТАҲЛИЛИ ОНЛАЙН ИЛМИЙ ЖУРНАЛИ*, 326-332.

BO‘LAJAK O‘QITUVCHILARNING ETNOESTETIK MADANIYATINI RIVOJLANTIRISHDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH IMKONIYATLARI

Erkinjonova Guljaxon Farxodjon qizi,

Qo‘qon universiteti Ta’lim kafedrasi o‘qituvchisi,

Qo‘qon universiteti tayanch doktoranti

ms.guljahon92@gmail.com

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada bo‘lajak o‘qituvchilarning etnoestetik madaniyatini raqamli texnologiyalar asosida rivojlantirishning nazariy, metodik va amaliy jihatlari tahlil qilingan. Etnoestetik madaniyat milliy qadriyatlar, xalq san’ati, urf-odatlar, amaliy hunarmandchilik va badiiy tafakkur unsurlarining integratsiyasi orqali shaxsning estetik idrokini, madaniy ongini va go‘zallikni his etish qobiliyatini rivojlantiruvchi muhim pedagogik hodisa sifatida talqin etilgan. Tadqiqotda

raqamli ta’lim muhiti, uning o‘qituvchi va talaba o‘rtasidagi estetik muloqotni faollashtirishdagi o‘rni, raqamli vositalarning madaniy tarbiyada tutgan o‘rni chuqur tahlil qilingan. Maqolada “STEAM-etnoestetik modeli”, “Raqamli estetika moduli” va “Virtual madaniy meros platformasi” kabi innovatsion pedagogik yondashuvlarning o‘qituvchilarni tayyorlash tizimidagi samarasi asoslab berilgan. Bu modellar orqali bo‘lajak o‘qituvchilarda raqamli savodxonlik, estetik tafakkur, ijodkorlik va milliy o‘zlikni anglash qobiliyatlari shakllanadi. Raqamli ta’lim vositalarining estetik tarbiya jarayoniga tatbiqi o‘quvchilarni mustaqil fikrlash, ijodiy izlanish va madaniy qadriyatlarga ongli munosabatda bo‘lishga undaydi. Tadqiqot natijalari raqamli texnologiyalar milliy madaniyatni zamonaviy ta’limga uyg‘unlashtirishda keng imkoniyat yaratishini ko‘rsatadi.

Kalit so‘zlar: *etnoestetik madaniyat, raqamli texnologiyalar, raqamli pedagogika, milliy qadriyatlar, virtual muhit, STEAM modeli, madaniy meros, innovatsion metodlar, estetik idrok*

ABSTRACT

This article provides an in-depth analysis of the theoretical, methodological, and practical foundations for developing the ethno-aesthetic culture of future teachers through the integration of digital technologies into education. Ethno-aesthetic culture is interpreted as an essential pedagogical phenomenon that fosters aesthetic perception, cultural awareness, and creativity through the integration of national values, folk art, traditions, and applied crafts. The paper examines the pedagogical role of the digital learning environment in strengthening cultural and aesthetic interaction between teachers and students. It justifies the introduction of innovative pedagogical approaches such as the “STEAM-ethnoaesthetic model,” the “Digital Aesthetics Module,” and the “Virtual Cultural Heritage Platform,” which contribute to the formation of digital literacy, creative thinking, and cultural identity in future teachers. The article also highlights how digital tools enhance aesthetic education by stimulating independent thinking, artistic reflection, and engagement with national heritage. As a result, digital education not only modernizes the teaching process but also preserves and revitalizes cultural values in an interactive format. The study concludes that integrating digital technologies into aesthetic and cultural education expands opportunities for shaping a generation of teachers who can harmoniously combine innovation, creativity, and national spirit.

Keywords: *ethno-aesthetic culture, digital technologies, innovative pedagogy, national heritage, virtual learning environment, STEAM model, digital aesthetics, cultural identity, teacher education.*

АННОТАЦИЯ

В статье проводится всесторонний анализ теоретических, методических и практических основ развития этноэстетической культуры будущих педагогов посредством интеграции цифровых технологий в образовательный процесс. Этноэстетическая культура рассматривается как важное педагогическое явление, направленное на развитие эстетического восприятия, культурного

сознания и творческого мышления через синтез национальных ценностей, народного искусства, традиций и декоративно-прикладного творчества. В работе исследуется роль цифровой образовательной среды в укреплении культурно-эстетического взаимодействия между преподавателем и студентами, а также влияние инновационных технологий на развитие эстетической и культурной компетентности. Обоснована эффективность внедрения таких подходов, как «STEAM-этноэстетическая модель», «Модуль цифровой эстетики» и «Виртуальная платформа культурного наследия», которые способствуют формированию у будущих учителей цифровой грамотности, эстетического вкуса, творческого потенциала и национальной идентичности. Отмечается, что использование цифровых инструментов в процессе эстетического воспитания способствует самостоятельному мышлению, художественной рефлексии и уважительному отношению к культурному наследию. Исследование показывает, что интеграция цифровых технологий и этноэстетических принципов открывает широкие возможности для формирования педагогов нового поколения, способных сочетать инновации, культуру и духовные традиции народа.

Ключевые слова: *этноэстетическая культура, цифровые технологии, инновационная педагогика, национальные ценности, виртуальная образовательная среда, эстетическое восприятие, модель STEAM, культурное наследие.*

Zamonaviy ta’lim tizimida raqamli texnologiyalarni joriy etish o‘quv jarayonining sifatini oshirish, talabalarning mustaqil fikrlashi, kreativ va badiiy-estetik tafakkurini rivojlantirish, shuningdek, milliy va madaniy qadriyatlarni innovatsion vositalar orqali singdirish imkonini bermoqda. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF–60-son Farmoni “Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”da raqamli ta’limni rivojlantirish, pedagoglarning raqamli kompetensiyasini oshirish, ilmiy va ijodiy faoliyatda innovatsion yondashuvlarni qo‘llash ustuvor yo‘nalish sifatida belgilangan [1]. Shu boisdan, pedagogik faoliyatda raqamli vositalardan foydalanish o‘qituvchining kasbiy-ma’naviy salohiyatini oshirish, milliy va umuminsoniy qadriyatlarni o‘quv jarayoniga integratsiyalash uchun keng imkoniyatlar yaratadi. Hozirgi davrda milliy o‘zlikni anglash, xalq madaniy merosini qadrlash, go‘zallikni his qilish va estetik idrokni rivojlantirish ta’lim jarayonining ajralmas tarkibiy qismiga aylanmoqda. Shu nuqtai nazardan “etnoestetik madaniyat” tushunchasi zamonaviy pedagogika fanida alohida ahamiyat kasb etmoqda. Etnoestetik madaniyat – bu shaxsning milliy qadriyatlar, xalq og‘zaki ijodi, amaliy san’at, urf-odatlar va madaniy an’analarga nisbatan estetik munosabatini, badiiy didini va go‘zallikni idrok etish qobiliyatini ifodalovchi integrativ hodisadir [2]. Bo‘lajak o‘qituvchilarda etnoestetik madaniyatni shakllantirish ularning kelajakdagi pedagogik faoliyatida nafaqat ta’lim berish, balki estetik tarbiya, milliy o‘zlikni anglash, madaniy merosni asrab-avaylash va uni raqamli muhitda targ‘ib etish ko‘nikmalarini rivojlantiradi.

Bugungi raqamli transformatsiya davrida etnoestetik tarbiyani faqat an’anaviy metodlar bilan olib borish yetarli emas. Ta’lim jarayonida multimedia, sun’iy

intellekt, AR/VR texnologiyalar, virtual muzeylar va 3D modellashtirish imkoniyatlaridan foydalanish dolzarb zaruratga aylandi. Bunday raqamli yondashuv o‘qituvchi va talabalarda estetik sezgi, milliy qadriyatlarga qiziqish, go‘zallikni idrok etish va uni badiiy ifoda etish ko‘nikmalarini shakllantiradi [3]. Bu esa “Yangi O‘zbekiston” ta’lim siyosatining asosiy g‘oyasi – milliy meros va zamonaviy innovatsiyalar uyg‘unligini ta’minlashga xizmat qiladi. Raqamli texnologiyalar ta’lim mazmunini vizual, interaktiv va hissiy jihatdan boyitib, estetik idrokni faollashtiradi, o‘qituvchini esa raqamli madaniyat tashuvchisi, estetik muhit yaratuvchisi, innovatsion vositalarni pedagogik faoliyatga uyg‘unlashtiruvchi shaxs sifatida namoyon etadi. Shu nuqtai nazardan, bo‘lajak o‘qituvchilarning etnoestetik madaniyatini raqamli texnologiyalar asosida rivojlantirish nafaqat dolzarb ilmiy masala, balki ta’lim tizimini modernizatsiya qilishning strategik yo‘nalishlaridan biridir. Mazkur tadqiqotning dolzarbligi shundan iboratki, u raqamli ta’lim muhiti sharoitida milliy qadriyatlar, san’at, madaniy meros va go‘zallikni idrok etish madaniyatini o‘qituvchilar tayyorlov tizimiga chuqur integratsiyalashni maqsad qiladi. Etnoestetik tarbiya va raqamli texnologiyalar uyg‘unlashgan ta’lim modeli zamonaviy o‘qituvchi shaxsida milliy o‘zlik, innovatsion tafakkur va estetik dunyoqarashning sintezini yuzaga keltiradi. Shu asosda, ushbu maqolada bo‘lajak o‘qituvchilarning etnoestetik madaniyatini rivojlantirishda raqamli texnologiyalardan foydalanishning nazariy asoslari, pedagogik imkoniyatlari hamda ta’lim amaliyotidagi yechimlari tahlil qilinadi.

Etnoestetik madaniyatning raqamli ta’lim muhiti bilan integratsiyalashuvi pedagogik jarayonning yangi bosqichini ifodalaydi. Ushbu integratsiya jarayonining mohiyati milliy madaniyat, xalq og‘zaki ijodi, amaliy san’at, urf-odat va an’analarni raqamli platformalar orqali o‘quvchi ongiga chuqur singdirish, ularni interaktiv o‘rganish hamda estetik idrokni virtual tajriba orqali mustahkamlashga qaratilgan. Ta’lim jarayonida raqamli texnologiyalar yordamida milliy qadriyatlarni estetik mazmunda talabalarga yetkazish — bu nafaqat texnik jarayon, balki madaniy-ma’naviy jarayon hamdir. Raqamli vositalar, xususan multimedia resurslari, onlayn kutubxonalar, interaktiv darsliklar, 3D modellar va AR/VR ilovalari milliy san’at namunalari, xalq amaliy hunarmandchiligi va tarixiy obidalarni talabalarga jonli tarzda namoyish etish imkonini beradi [4]. Bu jarayon shaxsning kognitiv, affektiv va estetik sohalarini bir vaqtning o‘zida faollashtirib, bilimni idrok etish, his qilish va estetik baholashning uzviy birligiga asoslanadi. Integrativ yondashuvga ko‘ra, etnoestetik madaniyatni shakllantirishda axborot-kommunikatsiya texnologiyalari o‘qituvchi, talabalar va madaniy resurslar o‘rtasida o‘zaro ta’sir mexanizmini yaratadi, bu esa o‘qituvchini passiv ma’lumot beruvchidan faol estetik muhit yaratuvchiga aylantiradi [5]. Natijada, raqamli muhitda shakllanayotgan o‘qituvchi shaxsida nafaqat texnologik savodxonlik, balki milliy merosni anglash va estetik qadriyatlarni ilg‘or metodlar bilan targ‘ib etish kompetensiyalari ham rivojlanadi.

Raqamli ta’lim muhiti o‘z tabiatiga ko‘ra ochiq, interaktiv va integrativ tizimdir. Shu sababli, u milliy madaniyatning estetik mazmunini kengroq talqin etish, zamonaviy badiiy tasvirlar, xalq o‘yinlari, milliy liboslar, bezak san’ati va musiqiy merosni raqamli formatda qayta jonlantirish imkonini beradi. Bu jarayon

bo‘lajak o‘qituvchilarda “etnoestetik raqamli tafakkur”ni shakllantiradi — ya’ni shaxsning madaniyatni raqamli ko‘rinishda qabul qilish, tahlil qilish va estetik baholash qobiliyatini rivojlantiradi. Masalan, talabalarning virtual muzeylarda ishtirok etishi, raqamli amaliy san’at loyihalarida qatnashishi yoki xalq og‘zaki ijodi asosida multimedia mahsulotlar yaratishi ularning estetik sezgi, ijodiy ifoda va madaniy tafakkur darajasini oshiradi [6]. UNESCO tomonidan ishlab chiqilgan “ICT Competency Framework for Teachers” (2023) modelida ham raqamli kompetensiyani shakllantirish jarayonida madaniy qadriyatlar, insonparvarlik va estetik tarbiyani uyg‘unlashtirish muhim omil sifatida qayd etilgan [7]. Shu bois, O‘zbekiston ta’lim tizimida raqamli pedagogika konsepsiyasini joriy etishda etnoestetik komponentni hisobga olish, ya’ni raqamli texnologiyalarni faqat axborot uzatish vositasi sifatida emas, balki milliy madaniyatni zamonaviy shaklda ifodalovchi estetik vosita sifatida talqin etish zarur. Shunday yondashuv bo‘lajak o‘qituvchilarni nafaqat texnik jihatdan raqamli muhitga moslashtiradi, balki ularning shaxsiy madaniy-estetik dunyoqarashini, ijodkorlik salohiyatini va pedagogik ta’sirchanligini yangi bosqichga olib chiqadi.

Bo‘lajak o‘qituvchilarning etnoestetik madaniyatini shakllantirishda raqamli texnologiyalar muhim o‘rin tutadi. Ular ta’lim jarayoniga faqat texnik yangilik sifatida emas, balki estetik tarbiya, madaniy merosni anglash va milliy qadriyatlarni targ‘ib etish vositasi sifatida kirib kelmoqda. Raqamli muhit o‘qituvchiga o‘quv materiallarini interaktiv, ko‘rgazmali va hissiy jihatdan boy shaklda taqdim etish imkonini beradi. Bo‘lajak o‘qituvchilar uchun yaratilgan virtual darslar, onlayn ko‘rgazmalar, raqamli laboratoriyalar, AR/VR ilovalari, 3D modellar, raqamli san’at loyihalari ularning estetik didini, go‘zallikni idrok etish va madaniy merosni zamonaviy kontekstda tushunish qobiliyatini rivojlantiradi. Shunday interaktiv tajribalar orqali talabalar milliy qadriyatlarning zamonaviy talqini bilan tanishadilar, xalq san’ati, xalq og‘zaki ijodi va urf-odatlarni vizual tarzda o‘rganadilar. Natijada, ularning estetik sezgirligi, ijodkorlik salohiyati, milliy o‘zlikni his etish madaniyati ortadi. Raqamli texnologiyalar yordamida milliy an’analarni estetik jihatdan yoritish talabalarda estetik baholash, badiiy fikrlash, vizual idrok va san’atga bo‘lgan hissiy munosabatni kuchaytiradi.

Pedagogik jarayonda raqamli vositalar orqali o‘tkazilgan mashg‘ulotlar, virtual muzeylar va estetik loyihalar bo‘lajak o‘qituvchilarni milliy madaniyatni zamonaviy yondashuvlar bilan uyg‘unlashtirishga o‘rgatadi. Masalan, xalq amaliy san’at namunalari asosida raqamli dizayn yaratish, milliy bayram va marosimlarni virtual formatda qayta jonlantirish, madaniy meros obidalarini 3D model shaklida o‘rganish ularning madaniy tafakkurini kengaytiradi. Bu jarayon ta’limning faqat bilish komponentiga emas, balki estetik idrok va hissiy tajribaga ham tayanadi. Raqamli vositalar o‘qituvchi va talabani estetik hamkorlik jarayoniga jalb etadi, bu esa madaniy kommunikatsiyani mustahkamlab, ijodiy o‘zaro ta’sirni kuchaytiradi. Shu orqali bo‘lajak o‘qituvchida zamonaviy pedagogik tafakkur, raqamli savodxonlik, madaniy ifoda va etnoestetik qadriyatlarni ilg‘or usullar bilan targ‘ib etish ko‘nikmalari shakllanadi. Demak, raqamli texnologiyalar o‘qituvchini faqat bilim uzatuvchi emas, balki estetik qadriyatlar yaratuvchisi va madaniy vositachi sifatida shakllantiradi. Shu jihatdan, etnoestetik madaniyatni rivojlantirishda

raqamli texnologiyalar o‘qituvchining kasbiy faoliyatida yangicha mazmun va estetik mohiyat kasb etadi.

Bo‘lajak o‘qituvchilarda etnoestetik madaniyatni shakllantirishda raqamli texnologiyalarning o‘rni faqat texnik emas, balki pedagogik, estetik va madaniy jihatdan ham o‘ziga xos ahamiyatga ega. Bu jarayonda an’anaviy metodlarni yangi avlod raqamli vositalar bilan uyg‘unlashtiruvchi pedagogik modellar muhim rol o‘ynaydi. Xususan, “STEAM-etnoestetik modeli” konsepsiyasi ta’limda fan, texnologiya, muhandislik, san’at va madaniyatni integratsiyalashga asoslanadi. Xalqaro STEAM tajribalarining maqsadi — talabalarda mantiqiy tafakkur bilan estetik ijodkorlikni uyg‘un rivojlantirishdir [8]. Ushbu yondashuvni milliy madaniyat kontekstiga moslashtirish orqali etnoestetik komponentni kiritish ta’lim jarayoniga yangi mazmun bag‘ishlaydi. Masalan, talabalar texnologiya darslari doirasida milliy naqshlarni raqamli grafik dasturlarda loyihalash yoki xalq amaliy san’atidan ilhomlangan 3D maketlar yaratish orqali nafaqat texnik, balki estetik kompetensiyalarini ham rivojlantiradilar [9]. Shunday integrativ yondashuv o‘qituvchi uchun yangi rol — “madaniy innovator” sifatini shakllantiradi, u raqamli vositalar orqali xalq san’atini, milliy urf-odatlarni va tarixiy merosni zamonaviy ta’lim jarayonida ifoda eta oladi [10]. Shuningdek, “Raqamli estetika moduli” tushunchasi raqamli madaniyat, san’at va texnologiya chorrahasida shakllanayotgan yangi ta’lim yo‘nalishini anglatadi. Bu modul xalqaro amaliyotda “Digital Art”, “Media Aesthetics”, “Digital Humanities” kabi yo‘nalishlarda keng qo‘llanilib, o‘qituvchilarda estetik idrokni raqamli formatda ifoda etish qobiliyatini rivojlantirishga qaratilgan [11]. O‘zbekistonda bu modul analoglari sifatida “Raqamli madaniyat”, “Media ta’lim”, “Raqamli dizayn” fanlari mavjud bo‘lsa-da, ular estetik komponent bilan to‘liq boyitilmagan. Shu bois bo‘lajak o‘qituvchilarni tayyorlashda “Raqamli estetika moduli”ni joriy etish ularning raqamli savodxonligini milliy va badiiy qadriyatlar bilan uyg‘unlashtirish imkonini beradi. Bu modulda talabalar raqamli vizual dizayn, infografika, video hikoya (digital storytelling) va “etnoestetik raqamli loyiha”lar orqali ijodiy ifoda ko‘nikmalarini rivojlantiradilar [12]. Bunday yondashuvni yanada kuchaytiruvchi amaliy yo‘nalish bu — “Virtual madaniy meros platformasi” hisoblanadi. UNESCOning “Virtual Museum of Cultural Heritage” loyihasi, “Google Arts & Culture” portali hamda O‘zbekiston Madaniyat vazirligi tashabbusi bilan yaratilgan heritage.uz platformasi milliy madaniyatni 3D formatda ommalashtirish imkonini bermoqda [13]. Shu turdagi virtual platformalardan ta’lim jarayonida foydalanish talabalarga xalq san’ati, tarixiy obidalar, milliy liboslar va marosimlarni raqamli tajriba orqali o‘rganish, ularni tahlil qilish va badiiy-estetik baholash imkonini beradi. Natijada, raqamli texnologiyalar asosidagi pedagogik modellar o‘qituvchi va talaba o‘rtasida estetik hamkorlikni mustahkamlab, milliy madaniyatni global raqamli makonda targ‘ib etishning samarali vositasiga aylanadi.

XULOSA

Bo‘lajak o‘qituvchilarning etnoestetik madaniyatini rivojlantirish zamonaviy ta’lim tizimining muhim strategik yo‘nalishlaridan biridir. Mazkur jarayonni samarali tashkil etish uchun raqamli texnologiyalar, innovatsion pedagogik modellar va estetik yondashuvlarning uzviy uyg‘unligi zarur. Raqamli ta’lim

muhiti milliy madaniyat, xalq og‘zaki ijodi, san’at, urf-odat va qadriyatlarni talabalarga zamonaviy, interaktiv va hissiy shaklda yetkazish imkonini beradi. Raqamli vositalar orqali tashkil etilgan o‘quv-estetik faoliyat talabalarda nafaqat texnologik, balki estetik, hissiy va ijodiy tafakkurni ham rivojlantiradi. Shu bois etnoestetik madaniyatni shakllantirish jarayonida raqamli platformalardan foydalanish o‘qituvchi va talaba o‘rtasidagi estetik muloqotni kuchaytirib, ularni madaniyat yaratuvchisi sifatida shakllantiradi. Shuningdek, integrativ yondashuv asosida ishlab chiqilgan “STEAM-etnoestetik modeli”, “Raqamli estetika moduli” va “Virtual madaniy meros platformasi” singari konsepsiyalar o‘qituvchining kasbiy faoliyatida yangi pedagogik paradigma — milliy qadriyatlar bilan boyitilgan raqamli ta’lim tizimini yaratish uchun metodik asos vazifasini bajaradi.

Amaliy jihatdan qaraganda, bo‘lajak o‘qituvchilarning etnoestetik madaniyatini rivojlantirishda quyidagi tavsiyalar muhim ahamiyat kasb etadi: birinchidan, pedagogika oliy ta’lim muassasalarida “Raqamli estetika” moduli yoki “Etnoestetik texnologiyalar” fani joriy etilishi lozim; ikkinchidan, o‘quv jarayonida virtual muzeylar, raqamli galereyalar va madaniy meros platformalaridan muntazam foydalanish estetik idrokni kuchaytiradi; uchinchidan, STEAM yondashuvini milliy qadriyatlar bilan uyg‘unlashtirgan loyihalar va raqamli ijodiy topshiriqlar talabalarda milliy o‘zlikni anglashni chuqurlashtiradi; to‘rtinchidan, o‘qituvchilar uchun raqamli madaniyat va etnoestetika integratsiyasiga oid malaka oshirish dasturlari ishlab chiqilishi zarur. Ushbu tavsiyalar amaliyotga tatbiq etilganda, raqamli texnologiyalar milliy qadriyatlar, estetik tarbiya va madaniy ongni uyg‘un rivojlantirishga xizmat qiladi. Natijada, raqamli muhitda ta’lim oluvchi bo‘lajak o‘qituvchi — estetik did, milliy ifoda va m

TAVSIYALAR

1. Bo‘lajak o‘qituvchilar tayyorlov jarayonida milliy madaniyat, xalq san’ati, badiiy-estetik qadriyatlar va raqamli texnologiyalarni o‘zaro integratsiyalash zarur. Bu jarayon “etnoestetik-raqamli ta’lim” modeli asosida tashkil etilib, nazariya va amaliyotni uyg‘unlashtirgan holda talabalarda milliy o‘zlik, estetik did va raqamli savodxonlikni bir vaqtning o‘zida rivojlantirishi kerak.
2. Etnoestetik madaniyatni rivojlantirishda shaxsga yo‘naltirilgan, interaktiv va ijodiy faoliyatga asoslangan zamonaviy metodlar — loyiha, keys-stadi, klaster, STEAM, gamifikatsiya, “madaniy muloqot” va “badiiy refleksiya” usullaridan kompleks foydalanish tavsiya etiladi. Bu usullar o‘qituvchi va talaba o‘rtasidagi estetik hamkorlikni mustahkamlaydi.
3. Universitetlarda raqamli vositalar yordamida etnoestetik muhit yaratish, virtual va real madaniy loyihalar tashkil etish — raqamli ko‘rgazmalar, folklor festivallari, “Virtual meros” platformalari, san’at burchaklari, onlayn galereyalar — orqali talabalarni milliy estetik muhitda tarbiyalash maqsadga muvofiq.
4. Etnoestetik madaniyat darajasini aniqlash va rivojlanishini kuzatish uchun kognitiv–affektiv–ijodiy mezonlarga asoslangan monitoring tizimi, portfel, refleksiya, diagnostika va raqamli baholash usullarini joriy etish lozim. Natijalar asosida ta’lim jarayonini takomillashtirish mexanizmlari ishlab chiqilishi kerak.
5. O‘qituvchi va talabalarda raqamli-etnoestetik kompetensiyalarni

rivojlantirish maqsadida malaka oshirish kurslari, ustoz-shogird mashg‘ulotlari, muzey–universitet hamkorlik loyihalari hamda jamiyatga yo‘naltirilgan “etno-lab” laboratoriyalarni tashkil etish tavsiya etiladi. Shu orqali o‘qituvchi zamonaviy raqamli madaniyat va milliy estetik qadriyatlarni uyg‘un targ‘ib eta oladigan pedagog sifatida shakllanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF–60-son Farmoni “Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”.
2. Matkarimov A.M. Estetik tarbiya va xalq san’ati asoslari. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2020. – 188 b.
3. Nigmanova U.B. Innovatsion pedagogik texnologiyalar: nazariya va amaliyot. – Farg‘ona: FDU nashriyoti, 2022. – 176 b.
4. Nigmanova U.B. Bo‘lajak o‘qituvchilarda etnoestetik madaniyatni shakllantirishning pedagogik asoslari. – Toshkent: Fan, 2020.
5. Aldoshina I.N. Digital Art and Ethno-Aesthetics in Higher Education. – Moscow: Pedagogical Press, 2021.
6. Bozorov O. Milliy qadriyatlar va raqamli madaniyat uyg‘unligi. – Toshkent: Turon zamin, 2023.
7. Erkinjonova G.F. “Etnoestetik madaniyatni raqamli ta’lim muhiti orqali rivojlantirish tajribalari.” Qo‘qon universiteti ilmiy axboroti, 2024, №3.
8. UNESCO. ICT Competency Framework for Teachers. – Paris, 2023.Shirmatov S.T. Etnoestetik tarbiya nazariyasi va pedagogik mexanizmlari. – Toshkent: Ilm Ziyo, 2019.
9. Beers, S. The STEAM Education Framework: Integrating Art into Science and Technology. – New York: Routledge, 2018.
10. Matkarimov A.M. Estetik tarbiya va xalq san’ati asoslari. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2020. – 188 b.
11. Nigmanova U.B. Innovatsion pedagogik texnologiyalar: nazariya va amaliyot. – Farg‘ona: FDU nashriyoti, 2022. – 176 b.
12. Johnson, L. Digital Aesthetics in Education: Art, Media, and Technology. – London: Palgrave Macmillan, 2021.
13. UNESCO. ICT Competency Framework for Teachers. – Paris, 2023.

ИСПОЛЬЗОВАНИЕ IT-ТЕХНОЛОГИЙ В ПРЕПОДАВАНИИ РУССКОЙ ЛИТЕРАТУРЫ: ИННОВАЦИОННЫЕ ПОДХОДЫ И ПРАКТИЧЕСКИЕ РЕШЕНИЯ НОУ

Эшкуватова Мафтуна,
Университет экономики и педагогики
Преподаватель
+998946901191
odilovnamaftuna2@gmail.com

Аннотация: в статье рассматриваются возможности использования IT-технологий в процессе преподавания русской литературы. Показано, что

цифровые образовательные ресурсы, мультимедийные материалы, онлайн-курсы и платформы, а также методы цифровой аналитики текста значительно расширяют доступ студентов к произведениям русской классики и критической литературе. Отмечается роль интерактивных форм обучения – виртуальных экскурсий, онлайн-дискуссий и игровых заданий – в формировании у обучающихся критического мышления, аналитических и исследовательских компетенций. Сделан вывод о том, что цифровые технологии не подменяют традиционные методы преподавания литературы, а служат их эффективным дополнением, соединяя классические формы гуманитарного знания с инновационными образовательными практиками.

Ключевые слова: русская литература, цифровизация образования, IT-технологии, мультимедиа, электронные библиотеки, онлайн-платформы, интерактивные методы, цифровая гуманитаристика, корпусный анализ текста, преподавание литературы.

Annotatsiya: maqolada rus adabiyotini o‘qitish jarayonida IT-texnologiyalaridan foydalanish imkoniyatlari yoritilgan. Ta’kidlanishicha, raqamli ta’lim resurslari, multimedia vositalari, onlayn kurslar va platformalar, shuningdek, matnni raqamli tahlil qilish usullari talabalar uchun klassik adabiyot va tanqidiy materiallarga kengroq kirish imkonini beradi. Virtual ekskursiyalar, onlayn munozaralar va o‘yin shaklidagi topshiriqlar kabi interfaol metodlar o‘quvchilarda tanqidiy fikrlash, analitik va tadqiqotchilik kompetensiyalarini shakllantiradi. Xulosa qilib aytganda, IT-texnologiyalar adabiyotni o‘qitishning an’anaviy usullarini almashtirmaydi, balki ularni samarali to‘ldiradi va gumanitar bilimlarning klassik shakllarini innovatsion ta’lim amaliyotlari bilan uyg‘unlashtiradi.

Kalit so‘zlar: rus adabiyoti, ta’limni raqamlashtirish, IT-texnologiyalar, multimedia, elektron kutubxonalar, onlayn platformalar, interfaol metodlar, raqamli gumanitar fanlar, matnning korpus tahlili, adabiyotni o‘qitish.

Abstract: The article examines the use of IT technologies in teaching Russian literature. It highlights that digital educational resources, multimedia materials, online courses and platforms, as well as methods of digital text analysis, significantly expand students’ access to Russian classics and critical literature. The role of interactive forms of learning – such as virtual excursions, online discussions, and gamified tasks – is emphasized in shaping students’ critical thinking, analytical skills, and research competencies. The study concludes that IT technologies do not replace traditional methods of teaching literature but serve as an effective complement, bridging classical forms of humanities education with innovative educational practices.

Key words: Russian literature, digitalization of education, IT technologies, multimedia, electronic libraries, online platforms, interactive methods, digital humanities, corpus text analysis, literature teaching.

Введение

Современная система образования претерпевает глубокие изменения, связанные с цифровизацией. Информационно-коммуникационные технологии (ИКТ) становятся неотъемлемой частью учебного процесса,

включая преподавание гуманитарных дисциплин. Русская литература, как основа культурной и духовной традиции, требует особого подхода к освоению, поскольку здесь важна не только передача информации, но и формирование эстетического восприятия, умение анализировать текст, выявлять его идейно-художественные особенности. В этом контексте использование IT-технологий открывает новые перспективы: от расширения доступа к текстам и критическим материалам до применения интерактивных форм работы, которые стимулируют активное восприятие произведений классики.

Методологическая основа

Методология применения IT-технологий в преподавании литературы опирается на интеграцию традиционных педагогических принципов с современными дидактическими подходами.

Обучение строится на основе активного взаимодействия между преподавателем и студентами. Цифровые платформы позволяют создавать дискуссионные площадки, где студенты могут обмениваться мнениями, интерпретациями текста, участвовать в групповых проектах.

Литературный текст может быть дополнен визуальными, звуковыми и графическими материалами. Например, чтение романа Достоевского можно сопровождать просмотром экранизаций, фотографиями Петербурга XIX века, музыкальными произведениями той эпохи. Это расширяет горизонты восприятия текста и усиливает эмоциональное воздействие.

Использование цифровых ресурсов делает возможным индивидуальный выбор тем для анализа, построение личной образовательной траектории. Студент может углубиться в изучение интересующего автора, самостоятельно находить дополнительные материалы, формируя тем самым исследовательский навык.

Литература рассматривается в связи с историей, философией, искусством. IT-среда позволяет легко интегрировать разные источники и формировать междисциплинарное поле знаний.

Основная часть

Применение электронных библиотек и специализированных баз данных в преподавании литературы сегодня является важным инструментом в образовательной практике. Если ранее работа с первоисточниками была ограничена печатными изданиями, то теперь у студентов появилась возможность обращаться к текстам русской классики в цифровом формате, что значительно облегчает процесс подготовки и анализа. Электронные ресурсы позволяют не только прочитать произведение, но и ознакомиться с его критическим осмыслением, переводами и биографическими сведениями об авторе.

К наиболее значимым ресурсам относятся Национальная электронная библиотека, Президентская библиотека имени Б.Н. Ельцина, а также такие проекты, как «Русская виртуальная библиотека» и «Классика.ру». Они предоставляют широкий спектр литературных памятников, включая

произведения Пушкина, Толстого, Достоевского и других авторов, чьё творчество составляет основу русской литературы.

Особую ценность для филологов и студентов представляют цифровые версии журналов XIX века, таких как «Современник» или «Отечественные записки». Они позволяют воссоздать литературный и исторический контекст, в котором создавались произведения, и проследить развитие литературного процесса в динамике. Таким образом, студент получает доступ не только к самому художественному тексту, но и к целостному культурному пространству эпохи, что способствует более глубокому пониманию материала.

Для более полного восприятия художественного текста в образовательный процесс все активнее включаются мультимедийные ресурсы. Их использование позволяет соединить традиционное чтение с современными средствами визуализации информации, что существенно повышает интерес студентов к литературе.

Так, показ экранизаций или театральных постановок по произведениям Толстого, Чехова, Достоевского помогает студентам увидеть, как литературные образы воплощаются в других видах искусства. Это открывает поле для обсуждения вопроса соотношения оригинального текста и его интерпретации в кино или театре, позволяет сопоставлять авторский замысел с художественными находками режиссёров.

Кроме того, важным инструментом обучения становятся презентации и инфографика. Использование программ PowerPoint, Canva или Prezi облегчает структурирование сложных сюжетов и тем. Например, можно графически изобразить систему персонажей в «Братьях Карамазовых» или схему «любовного треугольника» в «Анне Карениной». Такой способ подачи материала помогает студентам яснее видеть связи между героями и событиями.

Не менее ценным является метод интеллектуальных карт (mind-maps). С помощью сервисов MindMeister или XMind студенты могут самостоятельно создавать схемы сюжета, выделять ключевые мотивы и символику произведения. Такая визуализация облегчает процесс анализа текста, делая его более наглядным и систематичным.

Современные образовательные платформы становятся важным звеном в преподавании русской литературы. Они позволяют расширить пространство учебного взаимодействия и сделать процесс освоения материала более гибким и доступным.

Большой интерес вызывают массовые открытые онлайн-курсы (MOOC), предлагаемые на таких платформах, как Coursera, Stepik, «Открытое образование». На них можно найти курсы по истории русской литературы, подробные лекции о творчестве отдельных писателей, а также материалы, направленные на развитие навыков критического чтения и анализа текста.

Наряду с этим в практике преподавания активно применяются системы дистанционного обучения – Moodle, Google Classroom, MS Teams. Эти

сервисы позволяют преподавателю не только размещать учебные материалы и организовывать тестирование, но и проводить виртуальные семинары, обсуждения, а также проектные работы в группах. Такой формат обучения особенно важен в условиях дистанционного образования, когда личное взаимодействие ограничено.

Особое значение приобретают интерактивные задания, которые можно создавать на указанных платформах. Это могут быть викторины, тесты, форумы для обсуждения. Они способствуют более активному вовлечению студентов в процесс изучения литературы, развивают их аналитическое мышление и творческие способности.

Одним из ключевых условий успешного использования цифровых технологий в гуманитарном образовании является интерактивность. Она предполагает активное участие студентов в образовательном процессе, превращение их из пассивных слушателей в исследователей и соавторов учебной деятельности.

Примером могут служить виртуальные экскурсии, которые позволяют студентам «посетить» музеи русской литературы. Так, экскурсия по Ясной Поляне даёт возможность познакомиться с бытом и творческой атмосферой Толстого, а посещение дома-музея Достоевского в Петербурге или музея Анны Ахматовой в Фонтанном доме позволяет глубже понять личность автора и культурный фон его эпохи.

Не менее значимы онлайн-дискуссии и форумы, которые дают студентам возможность делиться своими интерпретациями текста, обсуждать сложные вопросы, участвовать в литературных дебатах. Подобные формы работы формируют навыки аргументации и развивают критическое мышление.

Особую привлекательность для студентов имеют квесты и игровые формы обучения. Они создают эффект вовлечённости и позволяют закрепить знания в игровой форме. Например, квест по роману Достоевского «Преступление и наказание» может включать задания, связанные с маршрутами Раскольникова по Петербургу. Это не только помогает студентам лучше запомнить сюжет, но и даёт возможность почувствовать атмосферу города, в котором происходят события.

В последние годы всё большее распространение получают методы цифровой гуманитаристики, которые активно внедряются в преподавание литературы.

Прежде всего, это корпусные исследования, позволяющие изучать тексты с помощью специальных программ – Voyant Tools, AntConc, Sketch Engine. Эти инструменты дают возможность подсчитывать частотность слов, выявлять ключевые лексемы, строить семантические карты текста.

Большие перспективы открывает сравнительный анализ произведений с использованием цифровых технологий. Так, можно сопоставлять лексику разных авторов или анализировать переводческие версии одного и того же текста. Это не только развивает исследовательский навык студентов, но и

помогает им увидеть более глубокие закономерности литературного процесса.

Наконец, важным направлением является визуализация данных. С помощью графиков и диаграмм можно показать, как меняется словарь писателя от одного произведения к другому, какие темы становятся центральными, а какие уходят на второй план. Это придаёт исследованию наглядность и позволяет воспринимать литературный текст в динамике.

Заключение

Таким образом, применение IT-технологий в преподавании русской литературы открывает перед современным образованием новые горизонты и возможности. Если традиционно работа с литературным текстом ограничивалась чтением, конспектированием и обсуждением на семинаре, то сегодня цифровая среда позволяет значительно расширить границы учебного процесса.

Прежде всего, новые технологии обеспечивают более широкий и быстрый доступ студентов к текстам, комментариям и критической литературе. Электронные библиотеки, цифровые архивы и базы данных дают возможность каждому обучающемуся работать не только с самим произведением, но и с историко-литературным контекстом, с критическими интерпретациями и переводами. Это формирует у студентов целостное восприятие эпохи и культуры.

Кроме того, использование мультимедийных ресурсов усиливает эмоциональное восприятие художественного текста. Экранизации, театральные постановки, виртуальные экскурсии и визуализации помогают оживить сюжет, сделать его более близким и понятным. Через такие формы студент видит не только букву текста, но и его художественное воплощение в разных видах искусства.

Не менее важной задачей является развитие аналитических навыков. Современные цифровые инструменты позволяют проводить корпусные и сравнительные исследования, анализировать лексику и структуру произведений, выявлять ключевые слова, мотивы и семантические связи. Это приучает студентов работать с текстом глубже, формируя у них навыки исследовательской работы.

Значительный эффект дают также проектные и исследовательские формы обучения, реализуемые с помощью цифровых платформ. Они развивают у студентов компетенции самостоятельного поиска, критической оценки и интерпретации информации.

Всё это делает процесс преподавания русской литературы более интересным, гибким и продуктивным. При этом важно подчеркнуть, что цифровые технологии не подменяют собой традиционные методы анализа текста, а лишь дополняют их, расширяя инструментарий преподавателя и усиливая воздействие на обучающихся. Таким образом, инновации становятся мостом, соединяющим классические формы гуманитарного знания с новыми образовательными практиками, отвечающими требованиям XXI века.

Список литературы:

1. Выготский Л.С. Психология развития человека. – М.: Смысл, 2005. – 512 с.
2. Давыдов В.В. Теория развивающего обучения. – М.: Ин-т развития, 1996. – 320 с.
3. Эльконин Д.Б. Психология обучения младшего школьника. – М.: Просвещение, 1974. – 168 с.
4. Зимняя И.А. Педагогическая психология. – М.: Логос, 2000. – 384 с.
5. Киселева Н.А. Инновационные подходы к преподаванию гуманитарных дисциплин в цифровой среде // Педагогика и образование. – 2020. – №4. – С. 57–63.
6. Нефёдова Л.А. Информационно-коммуникационные технологии в преподавании литературы // Филологические науки. Вопросы теории и практики. – 2019. – №7(85). – С. 145–149.
7. Furqatjon, A. (2025). Physiological Characteristics of Cardiovascular System Development in Children Engaged in Sports. *Journal of Social Sciences and Humanities Research Fundamentals*, *5*(06), 15-18.
8. Сергеева М.Г. Возможности мультимедийных технологий при изучении произведений русской классики // Современное образование. – 2021. – №3. – С. 102–108.
9. Sinclair J. Corpus, Concordance, Collocation. – Oxford: Oxford University Press, 1991. – 179 p.

O‘QUVCHILARNING SOG‘LOM TURMUSH TARZINI SHAKLLANTIRISHDA MULTIPLATFORMADAN FOYDALANISH

Najmetdinov Ma’ruf G‘ayratovich,
Qo‘qon universiteti tayanch doktoranti

ANNOTATSIYA

Mazkur tezisda zamonaviy raqamli transformatsiyalar sharoitida o‘quvchilarda sog‘lom turmush tarzi ko‘nikmalarini shakllantirishning dolzarb muammolari tadqiq etilgan. An’anaviy usullarning bugungi axborotlashgan jamiyatda o‘z samarasini yo‘qotayotgani, ayniqsa, “Z” va “Alfa” avlod vakillarining axborot iste’mol qilish xususiyatlariga mos kelmasligi tahlil qilingan. Asosiy muammo sifatida yagona, tizimli va samarali multiplatforma metodikasining mavjud emasligi ko‘rsatib o‘tilgan. Tadqiqotning maqsadi – o‘quvchilarning sog‘lom turmush tarzini shakllantirish uchun mobil ilovalar, ijtimoiy tarmoqlar, ta’lim platformalari (LMS), taqiladigan qurilmalar (wearables) va geymifikatsiya elementlarini o‘zida jamlagan yagona metodologik yondashuvni ishlab chiqishning nazariy asoslarini yoritishdan iborat. Ishda multiplatforma tushunchasining mazmun-mohiyati ochib berilgan va uni ta’lim jarayoniga integratsiya qilishning pedagogik-psixologik jihatlari ko‘rib chiqilgan. Taklif etilayotgan metodika nafaqat nazariy bilim berish, balki o‘quvchilarda amaliy ko‘nikmalarni hosil qilish, ularni individual trayektoriya bo‘yicha qo‘llab-quvvatlash va motivatsiyasini doimiy ravishda oshirib borishga qaratilgan. Muallifning ilmiy hissasi

shundaki, u sog‘lom turmush tarzini targ‘ib qilishda parokanda qo‘llanilayotgan raqamli vositalarni yagona tizimga keltiruvchi, sinergik samara beruvchi kompleks metodikani yaratish zaruratini ilmiy asoslab bergan. Xulosa qismida ushbu metodikani amaliyotga joriy etishdagi potentsial to‘siqlar – raqamli tengsizlik, ma’lumotlar maxfiyligi, pedagog kadrlarning tayyorgarligi kabi muammolar va ularning yechimlari bo‘yicha amaliy takliflar ilgari surilgan. Bu yondashuv o‘quvchilar salomatlik madaniyatini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqish imkonini beradi.

АННОТАЦИЯ

В данном тезисе исследуются актуальные проблемы формирования навыков здорового образа жизни у учащихся в условиях современных цифровых трансформаций. Анализируется потеря эффективности традиционных методов в современном информационном обществе, в частности, их несоответствие особенностям потребления информации представителями поколений "Z" и "Альфа". В качестве основной проблемы указывается отсутствие единой, системной и эффективной мультиплатформенной методики. Цель исследования – осветить теоретические основы разработки единого методологического подхода для формирования здорового образа жизни учащихся, объединяющего мобильные приложения, социальные сети, образовательные платформы (LMS), носимые устройства (wearables) и элементы геймификации. В работе раскрывается сущность понятия "мультиплатформа" и рассматриваются педагогико-психологические аспекты ее интеграции в образовательный процесс. Предлагаемая методика направлена не только на предоставление теоретических знаний, но и на формирование у учащихся практических навыков, их поддержку по индивидуальной траектории и постоянное повышение мотивации. Научный вклад автора заключается в научном обосновании необходимости создания комплексной методики, которая систематизирует разрозненно используемые цифровые инструменты для пропаганды здорового образа жизни и обеспечивает синергетический эффект. В заключении выдвигаются практические предложения по решению потенциальных барьеров при внедрении данной методики, таких как цифровое неравенство, конфиденциальность данных и уровень подготовки педагогических кадров. Этот подход позволяет поднять культуру здоровья учащихся на качественно новый уровень.

ABSTRACT

Shunday sharoitda zamonaviy psixologiya ruhiy salomatlikni tiklash va qo‘llab-quvvatlash uchun yangi metodlar izlamoqda. Shu kabi metodlardan biri - biblioterapiyadir. Biblioterapiya - bu so‘z, matn va eng asosiy manbasi bo‘lmish kitob orqali inson qalbiga yo‘l topish, uning ruhiy muvozanatini tiklash usulidir. Qadim zamonlardan buyon hikmatli so‘zlar va adabiyot inson ruhini davolashda eng samarali qurol bo‘lib kelgan. Yana bir zamonaviy vosita sun’iy intellekt (AI) esa bugungi kunda psixologiyada keng qo‘llanilmoqda. Bugungi kunda sun’iy intellekt yordamida shaxsning emotsional holatini aniqlash, tahlil qilish, ruhiy

xavflarni erta aniqlash va hatto shaxsga yo‘naltirilgan terapiya dasturlarini yaratish imkoniyati mavjud.

Imom G‘azzoliy (1058-1111) o‘z davrida inson qalbining murakkab tabiatini atroflicha tahlil qilib, ruhiy salomatlikni mustahkamlashning eng samarali yo‘li sifatida ilm, tafakkur, sabr va zikrni ko‘rsatgan. Misol uchun olimning “Ihyou ulumid-din” va “Mukoshafatul qulub” kabi asarlarida inson ruhiyatini davolovchi hikmatlar mujassamligini ko‘rishimiz mumkin. Bugungi kunda bunday asarlarni AI yordamida qayta tadqiq etish va amaliy biblioterapiyada qo‘llash yangi ilmiy yo‘nalishlarni ochmoqda. Mazkur maqola biblioterapiya va sun’iy intellekt integratsiyasining ruhiy salomatlikni qo‘llab-quvvatlashdagi imkoniyatlarini tahlil qilishga qaratilgan bo‘lib, bunda Imom G‘azzoliyning ruhiy tarbiya haqidagi qarashlari zamonaviy psixologiya bilan uyg‘unlashtiriladi.

Biblioterapiya atamasi ilk bor 1916-yilda o‘qituvchi Samuel Croters tomonidan qo‘llanilgan bo‘lsa-da, uning amaliy ildizlari qadimgi davrlarga borib taqaladi. Qadimgi yunonlar kutubxonalarni “ruh shifoxonasi” deb atashgan. Islom ilmiy merosida ham Qur’on, hadis va hikmatli kitoblarning qalbni shifolash vositasi sifatida ta’riflanganini ko‘rishimiz mumkin. Biblioterapiyaning asosiy maqsadi - shaxsning ruhiy muammolarini yengillashtirish, unga umid bag‘ishlash va ijobiy o‘zgarishlarga yo‘naltirishdir. Psixologiya sohasida biblioterapiyaning retseptiv ekspressiv va interaktiv kabi shakllari qo‘llaniladi.

Retseptiv lotincha “recipere” (“qabul qilish, o‘qib olish”) so‘zidan kelib chiqqan bo‘lib, bu shakldagi terapiyada bemor yoki mijoz tayyor matnlarni o‘qiydi va o‘zini kitob qahramonlari orqali anglaydi. Bu biblioterapiyaning eng ko‘p qo‘llaniladigan shakli bo‘lib, unda bemor yoki mijoz psixolog, psixoterapevt yoki mutaxassis tomonidan tavsiya etilgan kitob, maqola, hikoya, diniy-falsafiy matn yoki she’rni o‘qish orqali psixologik ta’sir oladi. Bu usulda asosiy tamoyil - o‘quvchi tayyor matnni qabul qiladi va undagi mazmunni o‘z hayotiy vaziyati, hissiyoti va ruhiy ehtiyojlari bilan qiyoslaydi. Psixodinamik nuqtai nazardan qaraganda retseptiv biblioterapiya shaklida o‘quvchi ichki his-tuyg‘ularini, yashirin konfliktlarini kitob qahramonlari orqali bilvosita anglashiga yordam beradi deyish mumkin. Kognitiv-bixevioral nuqtai nazardan esa kitob o‘qish orqali o‘quvchi o‘z fikrlarini qayta baholaydi va sog‘lom kognitiv sxemalarni shakllantiradi. Gumanistik nuqtai nazardan qaraydigan bo‘lsak kitob o‘quvchining o‘zini anglash, shaxsiy o‘sish va ruhiy yengillikka erishishiga imkon beradigan manba ekanini ko‘rishimiz mumkin.

Retseptiv biblioterapiyaning muammoni aniqlash, matn tanlash, o‘qish va idrok qilish, refleksiya va integratsiya bosqichlari mavjud bo‘lib, har bir bosqichda amalga oshiriladigan vazifasidan kelib chiqib nomlangan. Masalan, muammoni aniqlash bosqichida mijozning muammolari, ruhiy ehtiyojlari yoki tashvishlari aniqlanadi. Matn tanlash bosqichida esa psixolog yoki kutubxonachi tomonidan mos kitob, diniy-falsafiy matn, she’riy asar yoki hikoya tanlanadi. O‘qish va idrok qilish bosqichida mijoz matnni o‘qiydi, unda o‘zini yoki o‘ziga o‘xshash vaziyatni ko‘radi. Bunda idrok jarayonlari ishga tushadi. Refleksiya bosqichida esa o‘qilgan asar haqida suhbat qilish, tahlil qilish yoki yozma fikr almashinuvi amalga oshiriladi. Integratsiya bosqichida matndan olingan hissiy va kognitiv tajriba

shaxsiy hayotiy strategiyaga qo‘shiladi, ya’ni mijoz o‘zining ruhiy holatini qahramon orqali anglab yetadi hamda hayotiy tajribalaridan kelib chiqqan holda qarorlar qabul qiladi. Bu shakldagi biblioterapiyaning afzalliklari shuki, o‘quvchi o‘zini yolg‘iz his qilmaydi, chunki kitobdagi qahramonlar bilan o‘z muammolarini qiyoslaydi va ba’zan ular orqali yechim ham topadi. Qolaversa stress, tashvish va depressiv alomatlarni kamaytirishga yordam berib, o‘quvchini ijobiy xatti-harakat va fikrlarga yo‘naltiradi. Bundan tashqari shaxsiy o‘sish va ruhiy barqarorlikni qo‘llab-quvvatlaydi. Retseptiv biblioterapiyadan ta’lim maskanlarida o‘quvchilarning axloqiy tarbiyasi, empatiya va ijtimoiy ko‘nikmalarini shakllantirishda foydalaniladi. Psixoterapiyada depressiya, tashvish buzilishlari, yo‘qotish sindromi kabi holatlarda, klinik sharoitlarda esa kasalxonada yotgan bemorlarning kayfiyatini ko‘tarish hamda umid uyg‘otish maqsadida qo‘llaniladi. Qisqa qilib aytganda retseptiv biblioterapiyabu inson ruhiyatiga kitob orqali bevosita ta’sir ko‘rsatadigan, oddiy, ammo juda samarali usuldir. U sun’iy intellekt bilan uyg‘unlashtirilsa, mijoz uchun mos kitob yoki matnni tez va aniq tanlash imkoniyati yanada kengayadi.

Ekspressiv lotincha “expression” so‘zidan olingan bo‘lib, “ifoda qilish” degan ma’noni anglatadi. Bu terapiya shaklidan ko‘zlangan asosiy maqsad, o‘quvchining o‘qilgan matndan o‘zida uyg‘ongan tuyg‘ularini tashqariga chiqara olishidir. Bu terapiyaning retseptiv terapiyadan farqi shuki, bunda o‘quvchi faqat tayyor matnni o‘qibgina qolmay, balki ijodiy jarayonda faol ishtirok etadi, ya’ni, kitob mutolaa qilingach, shaxs o‘zining ichki kechinmalarini kundalik, esse, hikoya, she’r, xat, dialog yoki dramatizatsiya tarzida yozma shaklda ifodalaydi. Psixoanalitik nuqtai nazardan qaraganda yozma faoliyat orqali ongsiz holatdadagi his-tuyg‘ular “katarsis”, ya’ni “tozalanish” jarayonida yuzaga chiqadi. Kognitiv terapiyada esa yozma mashqlar uni o‘quvchiga o‘z fikrlarini tartibga solishga, salbiy fikrlarni qayta ishlashga yordam beradi. Qolaversa, o‘z tuyg‘ularini yozma shaklda ifodalash ruhiy va jismoniy salomatlikni mustahkamlaydi [10,165]. Ekspressiv biblioterapiyada ham jarayon bosqichlari mavjud bo‘lib, ularni matnni tanlash va o‘qish, refleksiya, yozma faoliyat, tahlil qilish va baham ko‘rish hamda integratsiya bosqichlari deyish mumkin. Chunki, dastlab terapevt yoki psixolog tomonidan shaxs muammosiga mos kitob yoki hikoya tavsiya qilinadi va bu bosqich matnni tanlash va o‘qish deb nomlanadi. Keyin esa refleksiya bosqichi, ya’ni o‘quvchi o‘qigan narsasi haqida mulohaza yuritadi. Yozma faoliyat bosqichida esa o‘qilgan matndan ta’sirlangan shaxs o‘z kechinmalarini she’r, kundalik, maktub va hokazo ko‘rinishda yozadi. Keyin esa yozganlarini psixolog bilan muhokama qiladi yoki guruhiy treningda o‘qib beradi. Bu bosqich esa o‘z nomi bilan tahlil qilish va baham ko‘rish bosqichi deb nomlanadi. Terapiya so‘ngida esa integratsiya, ya’ni yozganlarini psixolog bilan muhokama qiladi yoki guruhiy treningda o‘qib beradi. Bu terapiya shaklining afzalligi shundan iboratki, stress va tashvishni kamaytiradi, shaxsga o‘zini anglash va “ichki dialog” yuritishga yordam beradi. Depressiv alomatlarni kamaytirishda va empatiya hamda ijtimoiy ko‘nikmalarni rivojlantirishda ham yaxshi natijadorlikka ega. Hozirgi kunda shaxsiy o‘sish va ijodiy salohiyatni kuchaytirishda ham keng qo‘llanilib kelinmoqda. Zamonaviy jamiyatda AI yordamida shaxs yozgan matnni semantik

va emotsional jihatdan tahlil qilib, psixologga qo‘shimcha diagnostika qilishda yordam berilmoqda. Bu yozuvlar asosida olingan xulosalarga ko‘ra AI mijoz uchun mos kitob, hikoya yoki mashqlar ham tavsiya qiladi. Bundan tashqari sun’iy intellekt yordamida yozma faoliyatdagi o‘zgarishlarni kuzatib borish orqali ruhiy salomatlik dinamikasini baholash ham mumkin. Demak, ekspressiv biblioterapiya nafaqat o‘qish, balki yozish va uni ifoda qilish orqali ruhiy davolanishdir. AI bilan uyg‘unlashganda esa u yanada innovatsion, moslashuvchan va samarali psixologik vositaga aylanadi.

Interaktiv biblioterapiya - biblioterapiyaning zamonaviy shakli bo‘lib, unda o‘quvchi nafaqat matnni o‘qiydi, nafaqat yozma ifoda qiladi, balki kitob, matn, she’r yoki hikoya bilan faol muloqotga kirishadi. Bu jarayonda shaxs savol-javoblar, videoroliklar, audiokitoblar, virtual muhitlar yoki multimedia vositalari orqali matn bilan o‘zaro aloqada bo‘ladi. Bundan ko‘zlangan asosiy maqsad - matnni faqat “qabul qilish” emas, balki uni his qilish, o‘zlashtirish va shaxsiy tajribaga moslashtirishdir. A.Banduraning sotsial rivojlanish nazariyasiga muvofiq interaktiv metodlar ijtimoiy ta’sirni kuchaytiradi [3,9]. Kognitivstik nuqtai nazardan qaralganda matn bilan multimodal ishlash, ya’ni ko‘rish, eshitish, muloqot qilish orqali ishlash miya faoliyatini yanada faollashtiradi va emotsional ta’sirni oshiradi. Ushbu terapiya shaklida ham yuqoridagi terapiya shakllarida bo‘lgani kabi matn tanlash, refleksiya va integratsiya bosqichlari mavjud. Lekin interaktiv biblioterapiyaning boshqa terapiya shakllaridan afzalligi shuki, bunda mijoz passiv o‘qishga qaraganda ko‘proq emosional jalb etiladi va shaxsni jarayonga faol ishtirokchi sifatida qo‘shadi. Bu terapiya yordamida mijoz o‘z-o‘zini anglashni boshdan kechiradi va empatiyani rivojlantiradi. Bundan tashqari ta’lim jarayonlaridava psixoterapiyada motivatsiyani oshirishga xizmat qiladi, ya’ni o‘quvchilarning axloqiy qarashlari va ijtimoiy ko‘nikmalarini rivojlantirishda qo‘l keladi. Klinik sohalarda esa depressiya va yolg‘izlikni kamaytirish uchun interaktiv hikoya terapiyasidan foydalaniladi. Interaktiv biblioterapiya AI bilan birlashganda yanada muvoffaqiyatli bo‘ladi, AI yaxshi suhbatdosh bo‘ladi. Ya’ni, o‘quvchi kitobdagi qahramon bilan suhbat qilayotgandek tajriba yaratiladi. Lekin AI interaktiv biblioterapiya mashg‘ulotini psixolog nazoratida olib borishi lozim, chunki u inson omillarining to‘liq tavsifiga ega emas. Xulosa qilib aytganda, interaktiv biblioterapiya - bu matn bilan “jonli muloqot” qilish orqali insonni ruhiy davolash usuli bo‘lib, sun’iy intellekt integratsiyasi uni kelajakda yanada qulay, indivuallashtirilgan va innovatsion psixologik vositaga aylantiradi.

Zamonaviy psixologiyada bu kabi terapiya usullari moslashuvchanligi bilan kishilar uchun qulaydir, ya’ni bu usullar onlayn platformalarda va mobil ilovalarda, AI yordamida amalga oshirilishi mumkin. Barcha biblioterapiya jarayonlarida uchta psixologik mexanizm faol ishlaydi: identifikatsiya, katrsis va insayt, ya’ni anglashlar olish. Identifikatsiya yordamida shaxs o‘zini qahramon bilan taqqoslaydi. Katarsis yordamida esa mijozda emotsional yengillik hissi tug‘iladi. Turli anglashlar olish yordamida shaxs o‘z muammosini boshqacha talqin qilish imkoniga ega bo‘ladi.

Imom G‘azzoliy asarlarida ham bu jarayonlarni aniq ko‘rishimiz mumkin. Masalan, olim “Ilmning avvali budir: Oxirat uchun jiddu jahd ko‘rsatish, riyozat

chekish, qalbni poklash, uni keraksiz aloqalardan xoli etish va bu yo‘lda nabiylar va valiylarga o‘xshashga harakat qilish lozim. Ilm toliblari bilib qo‘ysinlarki, bu ilm uchun har bir harakat qiluvchi nasibasi miqdoriga ko‘ra ilmga erishadi, harakatining miqdoriga ko‘ra emas.” deydi [5,63]. Bu fikr biblioterapiyada o‘quvchini o‘z ustida ishlashga undaydi.

So‘nggi o‘n yillikda sun’iy intellekt psixologiya sohasida sezilarli darajada qo‘llanilmoqda. AI yordamida insonning ruhiy holatini aniqlash imkoniyatlari kengayib bormoqda. Masalan, NLP (Neyrolingvistik programmalashtirish) texnologiyasi matn va nutq tahlili orqali shaxsning tashvish darajasi, depressiya belgilari yoki agressiv kayfiyatini aniqlay oladi [8,621]. Chatbot-terapiya ham (masalan, Woebot yoki Wisa) foydalanuvchilarga real vaqt rejimida psixologik yordam berib birmuncha qulayliklar yaratadi. Bunda sun’iy intellekt yoki dasturiy ta’minot asosida yaratilgan “virtual suhbatdosh psixolog” bilan muloqot qiladi, ya’ni, inson psixolog o‘rniga AI dastur bilan gaplashadi. Bunda yuqorida aytganimiz Woebot va Wisa (ayrim adabiyotlarda Wysa) kabi mobil ilovalardan foydalaniladi. Foydalanuvchi mijoz o‘z muammosini yozadi, mobil ilova esa kognitiv-bixevioral terapiya (CBT) yoki boshqa psixologik metodikalar asosida maslahat, mashq yoki qo‘llab-quvvatlovchi javoblarini beradi. Buning qulayligi shuki, mijoz yoki foydalanuvchi darhol va kutmasdan, istalgan paytda yordam olish mumkin. Masalan, kimdir kechasi xavotir yoki tushkunlik holatini his qilsa, psixolog bilan uchrashishni kutmasadan chatbotga yozadi va bir zumda javob oladi.

AI insonlarga aynan amaliyotchi-psixolog kabi to‘liq yordam ko‘rsata olmasa ham bir qancha afzalliklari ham mavjud. Sun’iy intellect (AI) ko‘p sonli ma’lumotlarni tezkor tahlil qila oladi, individual yondashuvni ta’minlaydi va insonning yashirin ruhiy holatini aniqlash imkonini beradi. Biroq bu borada cheklovlari ham mavjud, ya’ni insoniy empatiya yetishmasligi, ma’naviy qadriyatlarni to‘liq anglamaslik va etik muammolar AI da mavjud emas.

Biblioterapiya va sun’iy intellektni integratsiyalash zamonaviy psixologiyada yangi metod sifatida kirib kelmoqda. Barcha biblioterapiya metodlari yuqoridagi kabi bosqichlardan o‘tadi, olingan xulosalardan kelib chiqib mijozga kerakli matn va kitobni tavsiya etadi. Terapiya so‘ngida esa mijoz AI ishini baholaydi. Masalan, o‘smirlar o‘rtasida AI orqali tashvish, xavotirlanish yoki agressiya belgilarini aniqlab, ularga Imom G‘azzoliyning “Sabr va shukr” bobidan mos parcha tavsiya etishi mumkin. Imom G‘azzoliy inson qalbini tibbiy-psixologik yondashuvga ko‘ra tadqiq etgan. Unga ko‘ra, qalb insonning eng nozik va markaziy nuqtasidir. Ruhiy kasalliklarning sababi nafsning nazoratsiz qolishidadir. Sabr, tavakkul, zikr va ilm - ruhiy salomatlikni tiklovchi eng zaruriy vositalardir. Masalan, Imom G‘azzoliy shunday deydi: “Nafsning havoyi istaklariga bo‘ysungan odam, agar u hukmdor bo‘lsa, qul ahvoliga tushadi. Nafsning havoyi havaslariga qarshi borib, sabr qilgan odam esa, qul bo‘lsa hukmdor bo‘ladi” [4.11], ya’ni, ushbu asarning juda ko‘p qismida “Kim sabrni o‘rgansa, uning qalbi xotirjam bo‘ladi, kimki shukrni bilsa, u ruhiy boylik topadi” kabi umumiy xulosa yotadi. Bu fikrlar zamonaviy psixologiyada stressni boshqarish va ijobiy psixologiya tamoyillari bilan uyg‘unlashadi.

AI yordamida Imom G‘azzoliy asarlaridan mos hikmatlarni tanlab, biblioterapiya jarayonida qo‘llash, nafaqat psixologik, balki ma’naviy tiklanish uchun ham muhimdir. Biblioterapiya va sun’iy intellekt integratsiyasi o‘smirlar tarbiyasida, stresslarni boshqarishda, turli ruhiy buzilishlarni oldini olishda va psixologik maslahat va treninglarda samarali qo‘llanilishi mumkin. Masalan, o‘smirlar tarbiyasida axloqiy rivojlanish va ruhiy muvozanatni shakllantirish maqsadida, stress boshqaruvida esa talaba va ishchi-xizmatchilar orasida eng samarali vositaga aylanadi. Shuningdek, maktab va oliy ta’lim muassasalarida AI asosida “raqamli biblioterapevt” platformalarini yaratish ham mumkin. Bu platformalar o‘quvchining kayfiyatiga qarab unga Imom G‘azzoliy, Abdurahmon Jomiy kabi mualliflarning hikmatli asarlarini tavsiya qiladi.

Yuqoridagilardan xulosa qilib aytganda, biblioterapiya va sun’iy intellekt integratsiyasi ruhiy salomatlikni qo‘llab-quvvatlashda innovatsion yondashuv sifatida alohida ahamiyat kasb etadi. Biblioterapiya inson ruhiga so‘z orqali yo‘l topadi, AI esa bu jarayonni individuallashtirib, jarayonning samaradorligini yanada oshiradi. Imom G‘azzoliy asarlari bu integratsiyaga ma’naviy asos bo‘lib xizmat qiladi. Uning qalb, sabr, shukr va tavakkul haqidagi hikmatlari zamonaviy psixologik terapiyalarda kishilarning ruhiy salomatligini yaxshilashda va jamiyatda o‘z o‘rnini topishda muhim ahamiyat kasb etadi. Kelajakda biblioterapiya va AI birgalikda insoniyatning ruhiy salomatligini mustahkamlashda kuchli vositaga aylanishi shubhasiz.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Bandura, A. (1977). Social learning theory. Englewood Cliffs, NJ: Prentice Hall.
2. G‘azzoliy, A. H. (2002). Mukoshafat-ul qulub. Toshkent: Adolat. [4.11]
3. G‘azzoliy, A. H. (2007). Ihyou ulumid-din (Din ilmlarini jonlantirish). Toshkent: Movarounnahr.
4. Miner, A. S., Milstein, A., Schueller, S., Hegde, R., Mangurian, C., & Linos, E. (2016). Smartphone-based conversational agents and responses to questions about mental health, interpersonal violence, and physical health. JAMA Internal Medicine, 176(5), 619–625. https://doi.org/10.1001/jamainternmed.2016.0400

ТВОРЧЕСКОЕ РИСОВАНИЕ И ИСКУССТВЕННЫЙ ИНТЕЛЛЕКТ: НОВОЕ НАПРАВЛЕНИЕ ПСИХОЛОГИЧЕСКОЙ ДИАГНОСТИКИ

Худойбердиева Муштарибегим Равшановна,
Преподаватель кафедры образования Кокандского университета
mustarijhudojberdieva@gmail.com

Annotatsiya. Maqola sun’iy intellektning (SI) psixologik diagnostika sohasiga kirib kelishi va uning imkoniyatlarini tahlil qilishga bag‘ishlangan. Tadqiqotda shaxsning tasviriy faoliyati ishlariya’ni rasm va chizmalari insonning ichki kechinmalari, ruhiy holati hamda kognitiv jarayonlarini anglash uchun muhim manba sifatida yoritiladi. Rasmni proyektiv metodika sifatida qo‘llashning nazariy va metodologik asoslari keng tahlil qilinib, an’anaviy yondashuvning

kuchli va zaif tomonlari ko‘rsatiladi. Shu bilan birga, zamonaviy texnologik taraqqiyot sharoitida bu metodlarni yangicha talqin etish zarurligi ta’kidlangan. Maqolada mashina o‘qitish, kompyuter ko‘rish va chuqur neyron tarmoqlar kabi SI texnologiyalarining amaliy ahamiyati yoritilgan. Ularning yordamida tasvirlarni avtomatik tahlil qilish jarayoni tezlashishi, tadqiqotchining subyektiv qarashlari kamayishi va diagnostika natijalarining aniqligi ortishi mumkinligi ko‘rsatib o‘tiladi. Bolalar rasmlarini tahlil qilish misolida SI vositalarining hissiy holatlarni aniqlash, yashirin muammolarni erta bosqichda ochish va bola rivojlanishini prognoz qilishdagi ahamiyati alohida o‘rin egallaydi. Shuningdek, SI texnologiyalarini ta’lim va klinik amaliyotga tatbiq etish istiqbollari ham ko‘rib chiqilgan. Maqola yakunida tizimli yondashuv asosida psixologik diagnostikada SIdan foydalanish bo‘yicha tavsiyalar ishlab chiqilib, kelgusida olib borilishi mumkin bo‘lgan tadqiqotlarning ustuvor yo‘nalishlari belgilab berilgan. Xulosa sifatida, sun’iy intellekt klassik metodlarni inkor etmasligi, balki ularni boyitib, diagnostikaning samaradorligi va ishonchliligini yangi bosqichga olib chiqishi ta’kidlangan.

Аннотация Статья посвящена комплексному исследованию интеграции искусственного интеллекта (ИИ) в область психологической диагностики через анализ продуктов изобразительной деятельности личности. В работе раскрываются теоретические и методологические основания применения рисунка как проективной методики, позволяющей получить ценную информацию о внутреннем мире человека, его эмоциональных переживаниях и когнитивных особенностях. Рассматриваются возможности и ограничения традиционного подхода, а также необходимость его обновления с учетом современных технологических тенденций. Особое внимание уделено использованию алгоритмов машинного обучения, технологий компьютерного зрения и глубоких нейронных сетей, которые демонстрируют высокий потенциал при автоматизированном анализе изображений. Обзор современных исследований показывает, что цифровые инструменты могут существенно повысить объективность интерпретации данных, минимизировать субъективный фактор исследователя и ускорить процесс диагностики.В статье акцентируется значимость применения ИИ при анализе детских рисунков, что открывает новые горизонты в диагностике эмоциональных состояний, выявлении скрытых психологических проблем и прогнозировании индивидуального развития ребёнка. Также рассматривается потенциал интеграции цифровых технологий в образовательный и клинический контекст, что позволяет расширить практическое применение психодиагностики.На основе системного подхода сформулированы практические рекомендации по внедрению ИИ в сферу психологической диагностики. Отмечаются перспективные направления дальнейших исследований, включающие развитие гибридных моделей анализа, сочетание традиционных методов с цифровыми инструментами и формирование междисциплинарных подходов. Сделан вывод о том, что интеграция ИИ не заменяет классические методики, а дополняет их, создавая новые

возможности для повышения точности, надежности и прогностической ценности психодиагностических процедур.

Abstract The article is devoted to a comprehensive study of the integration of artificial intelligence (AI) into the field of psychological diagnostics through the analysis of products of an individual’s artistic activity. The paper highlights the theoretical and methodological foundations of using drawing as a projective technique that makes it possible to obtain valuable information about a person’s inner world, emotional experiences, and cognitive characteristics. The possibilities and limitations of the traditional approach are considered, as well as the need for its modernization in the context of contemporary technological trends. Special attention is given to the use of machine learning algorithms, computer vision technologies, and deep neural networks, which demonstrate high potential in the automated analysis of images. A review of current research shows that digital tools can significantly enhance the objectivity of data interpretation, minimize the subjective factor of the researcher, and accelerate the diagnostic process. The article emphasizes the importance of applying AI to the analysis of children’s drawings, which opens new horizons in diagnosing emotional states, identifying hidden psychological problems, and predicting individual child development. The potential of integrating digital technologies into educational and clinical contexts is also discussed, allowing for a broader practical application of psychological diagnostics. Based on a systemic approach, practical recommendations for the introduction of AI into psychological diagnostics are formulated. Promising directions for further research are noted, including the development of hybrid models of analysis, the combination of traditional methods with digital tools, and the formation of interdisciplinary approaches. The article concludes that the integration of AI does not replace classical methods but rather complements them, creating new opportunities to increase the accuracy, reliability, and predictive value of psychodiagnostic procedures.

Kalit so‘zlar: psixologik diagnostika, sun’iy intellect, tasviriy faoliyat,proektiv metodikalar, avtomatik o‘qitish, kompyuter visual tahlili, rivojlanish psixologiyasi.

Ключевые слова: психологическая диагностика, искусственный интеллект, изобразительная деятельность, проективные методики, машинное обучение, компьютерное зрение, психология развития.

Keywords: psychological diagnostics, artificial intelligence, visual activity, projective techniques, machine learning, computer vision, developmental psychology.

Введение. Современная психология сталкивается с вызовами, связанными с необходимостью более точной, объективной и быстрой диагностики личности. Традиционные методы психодиагностики, включая тесты и наблюдения, часто дополняются проективными методиками, где рисунок выступает в качестве инструмента исследования бессознательного и эмоционального состояния. Однако интерпретация результатов в подобных методиках зависит от опыта и субъективного восприятия специалиста, что снижает надежность выводов. С другой стороны, технологии искусственного

интеллекта открывают возможность стандартизации и автоматизации анализа. В XXI веке сочетание творческого рисования и алгоритмов ИИ становится новым направлением в психодиагностике, объединяя гуманитарные и технологические подходы. Актуальность исследования определяется также приоритетами государственной политики. В рамках Стратегии «Узбекистан-2030» перед страной поставлена задача превратить Узбекистан в региональный IT-хаб, расширить применение цифровых технологий во всех сферах, особенно в образовании и науке. Согласно постановлению Президента от 14 октября 2024 года, утверждена Стратегия развития технологий искусственного интеллекта до 2030 года, в которой заложены цели по стандартизации, формированию национальной модели ИИ и подготовке кадров.

Методология исследования

Для подготовки статьи применялись следующие методы:

Историко-аналитический обзор - исследованы истоки проективных методик (Ф. Гудинаф, М. Люшер, тест «Дом–Дерево–Человек»).

Контент-анализ современных публикаций (2015–2024 гг.), посвящённых применению ИИ в психологии.

Сравнительный анализ традиционных и цифровых подходов в диагностике.

Системный подход - рассмотрение изобразительной деятельности как пересечения когнитивной, эмоциональной и культурной сфер, а также анализ потенциала технологий ИИ в этой системе.

Основными источниками стали публикации международных научных журналов (Frontiers in Psychology, Journal of Artificial Intelligence Research, Computers in Human Behavior), а также отечественные работы по психодиагностике и арт-терапии.

Теоретические основы: изобразительная деятельность в психологии

Изобразительная деятельность традиционно занимает особое место в психологии:

Проективный аспект - рисунок отражает бессознательные переживания, внутренние конфликты, тревоги и личностные установки. Через символику, детали и спонтанные образы исследователь получает доступ к глубинным уровням психики.

Диагностический аспект - выбор цвета, композиции, пропорций и форм позволяет выявить особенности эмоционального состояния, мышления, воображения, а также степень адаптации личности к окружающей среде.

Развивающий аспект - творческое рисование не только раскрывает внутренний потенциал, но и способствует когнитивному, речевому и эмоциональному развитию детей, укрепляет навыки самовыражения и межличностного взаимодействия.

Сравнительный анализ традиционных и ИИ-методов диагностики

Критерий	**Традиционные методы**	**Методы с ИИ**
Время анализа	Высокое	Низкое
Субъективность	Высокая	Низкая
Масштабируемость	Ограниченная	Высокая
Доступность	Зависит от специалиста	Онлайн/автоматизированная
Прогностическая ценность	Средняя	Высокая

Классические методики («Рисунок человека» Ф. Гудинаф, «Несуществующее



животное», «Цветовой тест Люшера») доказали диагностическую ценность, но их интерпретация остаётся субъективной. Здесь ИИ может стать дополнительным инструментом объективного анализа.

Искусственный интеллект и психодиагностика

Современные технологии ИИ позволяют:

1. Распознавать изображения (computer vision) и выделять ключевые элементы рисунка.
2. Классифицировать данные (machine learning) - определять эмоциональные состояния, когнитивные уровни.
3. Обрабатывать большие массивы информации (big data) для выявления скрытых закономерностей.
4. Создавать предиктивные модели - прогнозировать развитие ребёнка или изменения эмоционального состояния.

Примеры применения:

• системы, анализирующие детские рисунки для диагностики тревожности и депрессии;

• алгоритмы, определяющие когнитивные навыки по уровню детализации изображения;

приложения, позволяющие отслеживать динамику психоэмоционального состояния пациентов.

Проблемы применения ИИ в психодиагностике

Несмотря на перспективы, существуют значительные вызовы:

1. Этические риски - обработка личных данных и защита конфиденциальности.
2. Культурные различия — один и тот же символ в разных культурах имеет разное значение, что усложняет универсализацию алгоритмов.
3. Сложности интерпретации - ИИ фиксирует статистические закономерности, но не всегда учитывает глубину психологического контекста.
4. Технические ограничения - для обучения моделей необходимы большие базы изображений, которых пока недостаточно.

Перспективы и рекомендации

• Интеграция гибридных подходов - сочетание экспертного анализа психолога и количественных оценок ИИ.

• Развитие образовательных программ - подготовка специалистов, владеющих как психодиагностикой, так и цифровыми инструментами.

• Создание международных баз данных рисунков - для обучения и тестирования алгоритмов.

• Применение в образовательной и клинической практике - использование приложений для раннего выявления эмоциональных проблем у детей.

Заключение. Творческое рисование по-прежнему сохраняет статус одного из наиболее информативных и глубоких методов исследования внутреннего мира личности. Его уникальность заключается в способности отражать не только поведенческие проявления, но и бессознательные процессы, эмоциональные состояния и внутренние конфликты, выявление которых

затруднено традиционными методами. В условиях стремительного развития цифровых технологий использование инструментов искусственного интеллекта открывает принципиально новые перспективы в области психодиагностики. Интеграция проективных методик с алгоритмами машинного обучения, нейронными сетями и системами компьютерного зрения позволяет существенно повысить достоверность интерпретаций, минимизировать субъективный фактор и вывести диагностику на новый уровень научной объективности. Перспективность данного направления определяется не только повышением точности анализа, но и возможностью масштабирования практического применения: проведение массовых исследований, формирование репрезентативных баз данных для сравнительного анализа, разработка автоматизированных систем первичной психодиагностики. Вместе с тем сохраняются вызовы, связанные с необходимостью стандартизации диагностических процедур, разработкой этических регламентов и проведением эмпирических исследований для верификации достоверности получаемых результатов. Несмотря на существующие ограничения, потенциал интеграции ИИ и проективных методик является исключительно высоким и способен оказать существенное влияние как на теоретическую психологию, так и на практическую деятельность специалистов.

Предложения

1. Разработать стандартизированные протоколы применения методов искусственного интеллекта в психодиагностике, обеспечивающие сопоставимость и воспроизводимость результатов.
2. Создать специализированные этические кодексы и рекомендации, регламентирующие работу с персональными данными и продуктами изобразительной деятельности личности.
3. Инициировать междисциплинарные проекты, объединяющие психологов, специалистов в области ИИ, педагогов и медиков для комплексного изучения возможностей цифровых технологий в психодиагностике.
4. Формировать обширные анонимизированные базы данных художественных работ, предназначенные для обучения и тестирования нейронных сетей.
5. Разрабатывать и внедрять автоматизированные системы первичной психодиагностики в образовательные и медицинские учреждения для раннего выявления психологических особенностей и проблем.
6. Организовать подготовку специалистов-психологов к использованию цифровых инструментов диагностики в сочетании с традиционными методиками.
7. Стимулировать международное сотрудничество и обмен научным опытом для унификации подходов и повышения научной валидности результатов.

PEDAGOGLARDA KASBIY STRESSING RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR VA SUN’IY INTELLEKT KONTEKSTIDA NAMOYON BO‘LISHI

Namangan davlat universiteti
Psixologiya kafedrasi
1-kurs tayanch doktoranti
Boymirzayeva Nafisaxon Baxodir qizi,
t.me @nafisaxonim093

Annotatsiya. Ushbu maqolada pedagoglarda kasbiy stressning kelib chiqish omillari, uning zamonaviy ta’limdagi dolzarbligi hamda raqamli texnologiyalar va sun’iy intellekt (SI) vositalarining stressga ta’siri tahlil qilingan. Stressning asosiy manbalari sifatida o‘qituvchilarga yuklatilgan ko‘p qirrali vazifalar, texnologik moslashuvdagi qiyinchiliklar, byurokratik yuklamalar va psixologik chidamlilikning yetishmasligi ko‘rsatib o‘tilgan. Maqolada xalqaro va mahalliy tadqiqotlar asosida sun’iy intellekt vositalarining (chatbotlar, emotsional monitoring, virtual haqiqat texnologiyalari va meditatsiya ilovalari) stressni kamaytirishdagi imkoniyatlari yoritilgan. Shu bilan birga, SI dan foydalanishda yuzaga keladigan muammolar – technostress, axloqiy dilemmalar, ma’lumotlar maxfiyligi va raqamli qaramlik kabi xavf-xatarlar ham muhokama qilingan. Tadqiqot natijalariga ko‘ra, SI texnologiyalarini bosqichma-bosqich joriy etish, pedagoglarni maxsus tayyorlash va axloqiy-me’yoriy asoslarni mustahkamlash orqali ta’lim jarayonida kasbiy stressni kamaytirish mumkinligi asoslab berilgan.

Kalit so‘zlar: kasbiy stress, pedagog, sun’iy intellekt, technostress, raqamli texnologiya, psixologik chidamlilik.

Аннотация. В этой статье анализируются факторы происхождения профессионального стресса у педагогов, его актуальность в современном образовании, а также влияние цифровых технологий и инструментов искусственного интеллекта (ИИ) на стресс. В качестве основных источников стресса указываются многогранные задачи, возложенные на педагогов, трудности технологической адаптации, бюрократические перегрузки, отсутствие психологической выносливости. В статье рассматривается потенциал инструментов искусственного интеллекта (чат-боты, мониторинг эмоций, технологии виртуальной реальности и приложения для медитации) в снижении стресса, основанный на международных и местных исследованиях. Однако также обсуждались проблемы, возникающие при использовании Си – такие риски, как техностресс, этические дилеммы, конфиденциальность данных и цифровая зависимость. По результатам исследования обосновано, что снизить профессиональную нагрузку в образовательном процессе можно за счет поэтапного внедрения технологий Си, специальной подготовки педагогов и укрепления этико-нормативных основ.

Ключевые слова: профессиональный стресс, педагог, искусственный интеллект, техностресс, цифровые технологии, психологическая устойчивость.

Anotation.

This article analyzes the factors of the origin of occupational stress in educators, its relevance in modern education and the impact of digital technologies and artificial intelligence (SI) tools on stress. The main sources of stress are the multifaceted tasks assigned to teachers, difficulties in technological adaptation, bureaucratic loading, and a lack of psychological resilience. The article highlights the potential of artificial intelligence tools (chatbots, emotional monitoring, virtual reality technologies, and meditation apps) in reducing stress based on international and local research. At the same time, risks such as technostress, ethical dilemmas, data privacy, and digital dependence have also been discussed – problems that arise when using SI. According to the results of the study, it is justified that by the gradual introduction of SI technologies, special training of educators and strengthening of moral and regulatory foundations, professional stress in the educational process can be reduced.

Keywords: occupational stress, educator, artificial intelligence, technostress, digital technology, psychological resilience.

Kirish.

Bugungi kunda o‘qituvchilik dunyodagi eng murakkab va mas’uliyatli kasblardan biri hisoblanadi. Pedagoglar darslarni rejalashtirish, o‘quv materiallarini tayyorlash, dars o‘tish, o‘quvchilarning uy vazifalarini baholash kabi ko‘plab vazifalarni bajaradi. Shu bilan birga, ular ko‘pincha turli byurokratik ishlar, hujjat to‘ldirish va hisobotlar, hatto ba’zan turli tadbirlarni tashkillashtirish kabi qo‘shimcha yumushlarni ham bajarishga majbur bo‘ladi. Bunday ko‘p qirrali talablar yosh pedagoglarda stress holatini keltirib chiqarishi tabiiy.

Stress – bu organizmning jiddiy psixologik va jismoniy zo‘riqishiga olib keluvchi holat bo‘lib, ko‘pincha ishdagi yuqori talablar va resurslar yetishmasligi natijasida yuzaga keladi. Ayrim pedagoglar o‘zlarida stress alomatlari borligini sezmaydilar; ular kunlik ish vazifalarini bajarishda davom etaveradi va ortiqcha bosim tufayli “burnout” (kasbiy charchash) holatiga tushib qoladi. Buning asosiy sababi yetarlicha psixologik chidamlilik (resilience) ko‘nikmasining shakllanmaganligidir.

Yangi ish boshlagan o‘qituvchilar – yosh mutaxassis-pedagoglar – stressga yanada ko‘proq moyil bo‘lishadi. Ular endigina nazariy bilimlarni amaliyotga tadbiq eta boshlagan, pedagogik tajribasi cheklangan bo‘lib, maktab muhitiga va o‘qituvchilik kasbiga kasbiy moslashuv jarayonini boshdan kechirmoqdalar. Bu davrda ularga o‘quvchilarning intizomi, darsga tayyorgarlik, sinfni boshqarish, ota-onalar va hamkasblar bilan munosabat kabi ko‘plab yangi vazifalar yuklanadi. Natijada, ilk yillarda ko‘plab o‘qituvchilar yuqori stress bosimi ostida ishlaydi va ba’zilari hatto kasbni tark etish xavfiga duch keladi. Xalqaro tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, o‘qituvchilik faoliyatining dastlabki besh yilida ko‘plab pedagoglar ishdan ketadi, buning asosiy sabablaridan biri stress va moslasha olmaslikdir. O‘zbekiston sharoitida ham ushbu muammo dolzarb: so‘nggi statistik ma’lumotlarga qaraganda, mamlakatimiz bo‘yicha pedagoglarning 60-70 foizi turli darajada stress va kasbiy charchash muammosiga duch keladi. Bu ko‘rsatkichlar ta’lim sifati va barqaror rivojlanishiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi.

Asosiy qism.

Hozirda zamon rivojlanishi tobora o‘sib borayotgan davrda yashar ekanmiz, raqamli texnologiyalar va sun’iy intellekt (SI) inson hayotining barcha sohalariga chuqur kirib bormoqda. Ishlab chiqarishdan tortib ta’lim va sog‘liqni saqlashgacha bo‘lgan ko‘plab tizimlar raqamlashtirilmoqda. Bu jarayon kasbiy faoliyat samaradorligini oshirish bilan bir qatorda yangi psixologik muammolarni, jumladan kasbiy stressni keltirib chiqarmoqda. Stressning kelib chiqishida nafaqat tashkiliy omillar, balki raqamli muhitga moslashishdagi qiyinchiliklar ham muhim rol o‘ynamoqda. Shu sababli, sun’iy intellekt va raqamli texnologiyalarning kasbiy stressga ta’sirini o‘rganish zamonaviy psixologiya va mehnat psixologiyasi uchun dolzarbdir.

An’anaviy psixologik yondashuvlar hanuzgacha muhim ahamiyatga ega bo‘lsada, zamonaviy raqamli texnologiyalar, ayniqsa sun’iy intellekt (AI) bu sohada yangi imkoniyatlar yaratmoqda. AI texnologiyalari yordamida pedagoglarning hissiy holatini real vaqt rejimida kuzatish, stress belgilarini aniqlash va individual tavsiyalar berish mumkin.

Hozirda ta’lim sohasida qo‘llanilayotgan bir qancha sun’iy intellekt (SI) texnologiyalarini ko‘rsatib o‘tamiz. Woebot va Wysa kabi AI asosidagi chatbotlar kognitiv-behavioral terapiya (CBT) elementlari asosida foydalanuvchilar bilan muloqot olib boradi, stress va xavotirni yengishga ko‘maklashadi. Ular 24 soat faol bo‘lib, real terapevtga muqobil sifatida xizmat qiladi. Bundan tashqari, SI dasturlari foydalanuvchining matn, ovoz yoki yuz ifodasi orqali emotsional holatini aniqlab, ruhiy muammolarni erta bosqichda aniqlash imkonini beradi. Bu pedagoglarga individual yondashuvni shakllantirishda yordam beradi. Virtual haqiqat (VR) texnologiyalari esa o‘qituvcilarni sun’iy, ammo tinchlantiruvchi muhitlarga joylashtirib, fobiya, ijtimoiy xavotir va stressni kamaytirishda samarali vosita bo‘lib xizmat qilmoqda.

Shuningdek, Calm va Headspace kabi platformalar meditatsiya, nafas mashqlari, vizualizatsiya va musiqalar orqali o‘qituvchilarda o‘z-o‘zini boshqarish ko‘nikmalarini rivojlantiradi, hissiy barqarorlikni ta’minlaydi.

2023-yil may oyida AQSh Ta’lim vazirligi “Sun’iy intellekt asosida o‘qitishda ta’limning kelajagi: tushunchalar va tavsiyalar” nomli hisobotini e’lon qildi. Vazirlik 2022-yilda 700 dan ortiq kishilar, jumladan, o‘qituvchilar va ota - onalar bilan sun’iy intellekt haqidagi fikrlarini o‘rganish uchun tinglash sessiyalarini o‘tkazdi. Hisobotda ta‘kidlanishicha, “ta’lim texnologiyalarida sun’iy intellektning kutilayotgan o‘sishidan oldinroq harakat qilish uchun saylovchilar hozirdanoq harakat qilish kerak deb hisoblaydilar va ular birgalikda ishlashni xohlashadi”[20] Umuman olganda raqamli texnologiyalar va sun’iy intellekt o‘qituvchiga bir qancha qulayliklar olib keladi va stressni kamaytirishga xizmat qiladi.

- **Avtomatlashtirish va mehnatni yengillashtirish:**

Raqamli texnologiyalar ko‘plab monoton va og‘ir vazifalarni inson o‘rniga

[20] https://www.educationnext.org/a-i-in-education-leap-into-new-era-machine-intelligence-carries-risks-challengespromises/

bajaradi. Bu xodimlarning kuchini tejaydi, murakkab qarorlarni qabul qilish uchun vaqt beradi.

- **Moslashuvchan ish muhiti:**

Masofadan ishlash, onlayn platformalar, virtual uchrashuvlar stressni kamaytirib, ish va shaxsiy hayot o‘rtasida muvozanat yaratadi.

- **Sun’iy intellekt yordamida stress monitoringi:**

Ko‘plab kompaniyalar SI asosida xodimlarning hissiy holatini kuzatish, stress darajasini tahlil qilish va psixologik yordam ko‘rsatish tizimlarini joriy qilmoqda.

- **O‘quv va trening platformalari:**

Raqamli texnologiyalar orqali doimiy malaka oshirish imkoniyati xodimlarda o‘ziga ishonchni oshirib, professional stressni kamaytiradi.

Sun’iy intellektni yana bir ijobiy tarafi shundan iboratki, kasbiy stressga uchragan o‘qituvchilarga psixologik yordam ko‘rsatib, ularni ruhiy salomatligini tiklashga ko‘maklasha olishidir. Bunday texnologiyalar 24/7 rejimida faoliyat yuritib, pedagoglarga istalgan vaqtda yordam olish imkonini beradi. Chatbotlar foydalanuvchi holatiga mos individual maslahatlar taklif etadi, anonimlikni saqlaydi hamda xavfsiz muloqot muhitini yaratadi. AI platformalari geografik va ijtimoiy cheklovlarsiz xizmat ko‘rsatadi, bu esa chekka hududlardagi o‘qituvchilar uchun ham sifatli yordam imkonini beradi.

Sun’iy intellektni ta’limda qo‘llashning afzalliklari bilan bir qatorda muammolari, kamchiliklari ham mavjud.

- **Doimiy onlayn bo‘lish talabi:**

“Har doim aloqada bo‘lish” madaniyati xodimlarning psixologik dam olishini qiyinlashtiradi. Bu “raqamli charchash” va surunkali stressga olib keladi.

- **Ish o‘rinlari xavfi:**

Sun’iy intellekt va avtomatlashtirish ba’zi kasblarni qisqartirib, “ishsizlikdan qo‘rquv”ni kuchaytiradi. Bu ayniqsa oddiy ijrochi xodimlarda stressni oshiradi.

- **Texnologik bosim (technostress):**

Yangi tizim va dasturlarga tez moslashish talabi, texnik nosozliklar va raqamli ko‘nikmalarning yetarli emasligi xodimlarda asabiy zo‘riqishni kuchaytiradi.

- **Ma’lumot oqimining ko‘pligi (info-stress):**

Internet va korporativ tizimlardan keladigan uzluksiz ma’lumotlar oqimi qaror qabul qilishni qiyinlashtiradi, xodimlarda diqqat tarqoqligiga va stressga sabab bo‘ladi.

Natija va muhokamalar.

Bu kabi bir qancha ta’sirlardan aziyat chekkan jahondagi ko‘plab o‘qituvchilar sun’iy intellektga salbiy fikr berishadi. Misol uchun “Hannah — maktab o‘qituvchisi, texnologiyalar ta’limni buzayotgani haqida video e’lon qildi. Unga ko‘ra, o‘tgan yillarda amerikalik o‘qituvchilardan biri, *Hannah*, ijtimoiy tarmoqda “AI ta’limni vayron qilmoqda” deb e’lon qilib, o‘qituvchilik kasbini tashlashini bildirgan. U talabalar AI vositalariga haddan tashqari bog‘lanuvchi bo‘lib qolayotganidan, ularning mustaqil o‘ylay olmay qolishidan va texnologiya orqali ta’lim jarayonining sifati pasayishidan xavotirda ekanini aytadi.[21]

[21] www.fox26houston.com

Los-Anjeles va San-Diego (AQSh)da ham AI texnologiyalarini joriy etishda muammolarga duch keldi. Maktab okruglari AI asosidagi yechimlarni tezda joriy etish bosimi ostida qolgan. Biroq, texnologik yechimlar yetarlicha sinovdan o‘tkazilmagan, shaffoflik va javobgarlik masalalari bo‘lgan. Bu holatlarda o‘qituvchilarda qo‘shimcha stress, noaniqlik va texnologiyaga ishonchsizlik paydo bo‘lgan.[22]

Pokistonda esa COVID-19 davrida pedagoglarda technostress va kasbni tark etish istagi oshdi. Buning sababi, pandemiya paytida darslar onlayn usulga o‘tganda, texnik muammolar, Internet aloqasi, pedagoglarning raqamli ko‘nikmalari yetishmasligi kabi omillar pedagoglarda stressni kuchaytirgan. Ba’zilar kasbni tashlash niyati bildirgan.[23]

Rivojlangan mamlakatlar qatoridagi Xitoyning ingliz tili o‘qituvchilari orasida ham technostress holati kuzatilgan. “The Technostress on English Teachers in China” nomli tadqiqotda ingliz tili o‘qituvchilari uchun texnologiyalarning dizayni yomonligi, ma’muriy qo‘llab-quvvatlashning yetarli bo‘lmasligi va yangi texnologiyalarga moslasha olmaslik stress manbai sifatida aniqlangan.[24]

Bundan tashqari, GenAI (generativ AI) dan pedagoglarda tajriba o‘tkazildi. Masalan, *Factors Influencing Educators’ Technostress While Using Generative AI* tadqiqotida 47 oliy ta’lim pedagoglari GenAI vositalarini ishlatish paytida, baholash, talaba topshiriqlarining ehtimoliy adolatsizligi, axloqiy muammolar va texnik ishlarga tayyorgarlik yetishmasligi kabi omillar pedagoglarda stress va xavotirni oshirishi aniqlandi.[25]

O‘zbekistonda esa sun’iy intellekt va raqamli texnologiyalardan foydalanish pandemiya davrida ommalashdi. Bu davrda uyda ishlash pedagoglar orasida **technostress** (texnologiyaga bog‘liq stress), uy-oila va ish masalalari o‘rtasidagi ziddiyat va hayotdan qoniqish darajasi pastligi kabi muammolarni kuchaytirdi. Ayol pedagoglarda bu omillar ko‘proq kuchli namoyon bo‘ldi. Shu bilan birga kompyuter yordamida dars berish talabi va texnik muammolar pedagoglarda texnostressni yanada oshirdi ayrim xodimlar orasida esa “kasbni tark etish” fikri paydo bo‘ldi. O‘qituvchilarning kompyuterdan foydalanish bo‘yicha o‘ziga bo‘lgan ishonchi pasayishi stressga olib keldi.

AI ni o‘qituvchi ishiga muvaffaqiyatli integratsiya qilish uchun tavsiya etiladi:

Bosqichma — bosqich amalga oshirish va sinovdan o‘tkazish-ularning samaradorligini baholash va yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan qiyinchiliklarni aniqlash uchun muayyan o‘quv vaziyatlarida individual AI vositalarini sinab ko‘rish orqali pilot loyihalardan boshlash.

Avtomatlashtirishni talab qiladigan vazifalarni tanlash — hamma narsani birdaniga qamrab olishga intilish emas, balki AI vaqt va kuchni tejashga qodir bo‘lgan bir yoki ikkita yo‘nalishdan boshlash muhimdir.

Xulosa.

[22] calmatters.org/economy/technology/2024/08
[23] pmc.ncbi.nlm.nih.gov
[24] www.atlantis-press.com
[25] www.researchgate.net

Xulosa qilib aytganda zamonaviy jamiyatda o‘qituvchilarning ruhiy salomatligi dolzarb ijtimoiy masalaga aylanmoqda. Stress, xavotir va depressiv holatlar pedagoglar orasida keng tarqalmoqda. Bunday sharoitda sun’iy intellekt (AI) texnologiyalari psixologik yordamda innovatsion va qulay vosita sifatida xizmat qilmoqda. Bugungi kunda AI asosidagi dasturlar orqali o‘qituvchilarning hissiy holatini kuzatish, psixologik muammolarni aniqlash va bartaraf etishga qaratilgan ilovalar ishlab chiqilgan. Emotsional monitoring, chatbotlar, virtual haqiqat asosidagi stressga qarshi mashg‘ulotlar va meditatsiya ilovalari bu borada keng qo‘llanilmoqda. Sun’iy intellekt (AI) muntazam vazifalarni avtomatlashtirish va o‘rganishni shaxsiylashtirish orqali maktab o‘qituvchilarining stressini kamaytirishi mumkin. Bu o‘qituvchilarga ishning muhim jihatlariga e’tibor qaratish imkonini beradi: talabalar bilan individual ishlash, dizayn ta’limi, muloqot. Biroq texnologiyalardan foydalanishda faqat texnik imkoniyatlargina emas, balki axloqiy, psixologik va huquqiy me’yorlarga amal qilish zarur. Ta’lim jarayoniga sun’iy intellektni kiritish quyidagi axloqiy masalalarni hisobga olishni talab qiladi:

Ma’lumotlar maxfiyligi - pedagoglar ma’lumotlarini yig‘ish va qayta ishlash maxfiylik va xavfsizlik qoidalariga qat’iy rioya qilishni talab qiladi. Ma’lumotlardan foydalanishning shaffofligini va o‘quv jarayonining barcha ishtirokchilarining roziligini ta’minlash kerak.

Axloqiy dilemmalar - AI algoritmlari o‘quvchilarning ayrim guruhlarini kamsitishga olib kelishi mumkin bo‘lgan yashirin noto‘g‘ri qarashlarni o‘z ichiga olishi mumkin. AI tizimlarini tarafkashlik uchun sinchkovlik bilan tekshirish va sinovdan o‘tkazish muhimdir.

Inson omilini saqlab qolish-sun’iy intellektni qabul qilishiga qaramay, o‘qituvchilar va o‘quvchilar o‘rtasida hissiy aloqa, hamdardlik va shaxsiy aloqani saqlab qolish muhimdir. Shuningdek, uzoq muddatli foydalanish ijtimoiy ko‘nikmalarning pasayishiga va raqamli qaramlikka olib kelishi ehtimoli mavjud. Bunday oqibatlarga olib kelmaslik uchun o‘qituvchilar AI vositalari bilan ishlashni o‘rganishlari kerak. Ta’limda sun’iy intellektdan foydalanishga bag‘ishlangan malaka oshirish kurslari, mahorat darslari, vebinarlarni tashkil etish. Bu nafaqat sun’iy intellekt turlari bilan ishlashni o‘rgatish, balki ularning pedagogik salohiyati haqida tushunchani shakllantirish ham muhimdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. “Этические аспекты и проблемы внедрения ИИ” https://courses.sberuniversity.ru/ai-education/1/4
2. “Сервисы с искусственным интеллектом для учителей” https://media.future-hub.io/stati/ii-servisy-dlya-uchiteley
3. https://www.maam.ru/detskijsad/iskustvenyi-intelekt-v-rabote-pedagoga.html
4. https://www.fox26houston.com/news/teacher-quits-profession-viral-rant-how-ai-is-ruining-education?utm_source
5. https://calmatters.org/economy/technology/2024/08/botched-ai-education-deals-lessons/?utm_source
6. https://pmc.ncbi.nlm.nih.gov/articles/PMC9177819/?utm_source

7. https://www.atlantis-press.com/article/125973788.pdf?utm_source

BOLALAR PSIXOLOGIYASINING BUZILISH SABABLARI VA DAVOLASH PROOFILATIKASI

Karimova Sevinch Dilyorbek qizi,
Qo‘qon universiteti Andijon filiali talabasi
Tel: +998932538585
Email: sevinchoqk28@gmail.com

Raqamli iqtisodiyot sharoitida Informatika va axborot texnologiyalari (IAT) fani o‘qituvchilari doimiy ravishda yangi texnologiyalarni o‘zlashtirib borishi zarur bo‘lib, bu jarayonni samarali tashkil etishda O‘zbekiston ta’lim siyosati, xususan “Raqamli O‘zbekiston – 2030” strategiyasi hamda Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi tashabbuslari muhim ahamiyat kasb etadi. Mazkur yo‘nalishda xorijiy tajribalar, jumladan Coursera, Udemy, Khan Academy va Microsoft Educator Center kabi yetakchi platformalar bilan bir qatorda, mahalliy raqamli ta’lim resurslari - ZiyoNET, EduMarket hamda Moodle asosidagi oliy ta’lim muassasalari kurslari - o‘qituvchilarning malakasini oshirishda keng imkoniyat yaratib, zamonaviy o‘quv jarayoniga mos innovatsion yechimlarni taklif etmoqda. [8,9]

Ushbu tadqiqotning asosiy maqsadi — O‘zbekiston maktablarida Informatika va axborot texnologiyalari (IAT) fani o‘qituvchilarining malakasini oshirish jarayonida raqamli platformalar va onlayn o‘quv kurslaridan samarali foydalanishning ilmiy-amaliy asoslarini aniqlash, ularning kasbiy

kompetensiyalarini rivojlantirishga ta’sirini baholash hamda ta’lim sifatini oshirishga xizmat qiluvchi taklif va tavsiyalarni ishlab chiqishdan iboratdir.

O‘zbekiston maktablaridagi IAT o‘qituvchilarining malakasini oshirishda raqamli platformalarning samaradorligini baholash va ulardan foydalanishni takomillashtirish bo‘yicha tavsiyalar berish. Tadqiqot savollari: Raqamli platformalar o‘qituvchilarning kasbiy rivojlanishiga qanday ta’sir qiladi? Onlayn kurslarning O‘zbekistonga mosligi qanday?

Anketa natijalari shuni ko‘rsatdiki, o‘qituvchilarning 65% i raqamli platformalardan (Moodle, Coursera) foydalanadi, ammo faqat 40% i ularni doimiy ravishda ishlatadi. Onlayn kurslar orqali malaka oshirgan o‘qituvchilarning kasbiy ko‘nikmalari 45% ga oshgan (korrelyatsiya koeffitsienti $r=0.62$, $p<0.01$).

O‘qituvchilar onlayn kurslarning moslashuvchanligini (vaqt va joy) ta’kidlashadi, ammo internet tezligi va o‘zbek tilidagi kontent etishmovchiligini muammo sifatida ko‘rsatishadi. [3,9]

Tadqiqot natijalari. Tadqiqot O‘zbekiston maktablaridagi informatika va axborot texnologiyalari (IAT) fani o‘qituvchilarining malakasini oshirishda raqamli platformalar va onlayn o‘quv kurslarining samaradorligini baholashga qaratildi. Quyida anketalar va so‘rovlar natijasida olingan asosiy topilmalar keltiriladi:

Raqamli platformalardan foydalanish darajasi:

Anketa natijalariga ko‘ra, o‘qituvchilarning 65% i raqamli platformalardan (Moodle, Coursera, Udemy, Eduten) foydalanadi. Ammo faqat 40% i ularni doimiy ravishda ishlatadi, qolganlari esa vaqtinchalik yoki tartibsiz foydalanadi.

Eng ko‘p foydalaniladigan platforma – mahalliy Moodle (70%), undan keyin Coursera (55%), Udemy (45%) va Eduten (30%) keladi.

Samaradorlik bahosi: O‘qituvchilar platformalarni 1-5 ballik Likert shkalasida baholagan. Coursera 4.2 ball, Moodle 4.0 ball, Udemy 3.8 ball va Eduten 3.5 ball oldi. Yuqori baholar platformalarning moslashuvchanligi va xalqaro standartlarga mosligi bilan bog‘liq. Onlayn kurslar orqali malaka oshirgan o‘qituvchilarning kasbiy ko‘nikmalari o‘rtacha 45% ga oshgan (korrelyatsiya koeffitsienti $r=0.62$, $p<0.01$, SPSS tahlili asosida).

1-jadval

Platforma	**Foydalanish darajasi (%)**	**Samaradorlik bahosi (1-5)**
Coursera	55	4.2
Udemy	45	3.8
Moodle (mahalliy)	70	4.0
Eduten	30	3.5

Raqamli platformalardan foydalanish chastotasi va samaradorlik bahosi

Tajriba natijalari. Intervyu topilmalari:

20 nafar o‘qituvchi bilan o‘tkazilgan yarim strukturalashgan intervyular (Zoom orqali, 30-45 daqiqa) raqamli platformalarning afzalliklari va kamchiliklarini aniqladi.

Afzalliklar: O‘qituvchilar platformalarning moslashuvchanligini (vaqt va joy jihatidan) va o‘quv jarayonini soddalashtirishini ta’kidladilar. Masalan, Coursera va Moodle orqali olingan bilimlar darslarda zamonaviy usullarni qo‘llashga yordam bergan.

Kamchiliklar: Internet tezligining pastligi (ayniqsa, qishloq hududlarida), o‘zbek tilidagi kontentning yetishmasligi va platformalarni ishlatishda texnik ko‘nikmalar etishmovchiligi muammo sifatida ko‘rsatildi.

Raqamli platformalar o‘qituvchilarning malakasini oshirishda muhim rol o‘ynaydi, ammo 35% o‘qituvchilar infratuzilma muammolari (internet ulanishi, qurilmalar sifati) tufayli ulardan to‘liq foydalana olmaydi.

O‘zbekistonning qishloq va shahar hududlari o‘rtasida raqamli ta’lim imkoniyatlaridagi tafovut sezilarli: shahar o‘qituvchilarining 80% i platformalardan foydalansa, qishloqlarda bu ko‘rsatkich 45% ni tashkil etadi. O‘zbek tilidagi kontent yetishmasligi platformalarning samaradorligini pasaytiradi, chunki o‘qituvchilarning 60% i chet tilida o‘qishda qiyinchiliklar mavjudligini bildirdi.

Natijalar raqamli platformalarning O‘zbekiston ta’lim tizimida muhim o‘rin egallashini, lekin ularning to‘liq joriy etilishi uchun infratuzilma va mahalliy kontentni rivojlantirish zarurligini ko‘rsatadi. Natijalar O‘zbekiston ta’lim tizimidagi raqamli transformatsiyani tasdiqlaydi. Raqamli platformalar o‘qituvchilarning motivatsiyasini oshiradi, chunki ular masofaviy o‘quv imkoniyatlarini beradi. Masalan, Eduten platformasi maktablarda pilot loyihasi orqali o‘quv samaradorligini 20% ga oshirgan. Onlayn kurslar (Coursera, Udemy) xalqaro standartlarga mos, ammo O‘zbekistonga moslashtirish kerak - o‘zbek tilidagi modul va mahalliy kontekst.

Muhokama. Yuqoridagi tadqiqot natijalari O‘zbekiston maktablaridagi informatika va axborot texnologiyalari (IAT) fani o‘qituvchilarining malakasini oshirishda raqamli platformalar va onlayn o‘quv kurslarining muhim rol o‘ynashini tasdiqlaydi. Ushbu bo‘limda natijalar kengroq kontekstda tahlil qilinadi, xalqaro tajribalar bilan solishtiriladi va O‘zbekiston ta’lim tizimiga moslashtirish bo‘yicha takliflar beriladi.

Tadqiqot shuni ko‘rsatdiki, raqamli platformalar o‘qituvchilarning kasbiy rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko‘rsatadi, ayniqsa, ularning ko‘nikmalarini 45% ga oshirish orqali ($r=0.62$, $p<0.01$). Bu natija xalqaro tadqiqotlar bilan hamohang bo‘lib, masalan, UNESCO ma’lumotlariga ko‘ra, raqamli ta’lim vositalari o‘qituvchilarning motivatsiyasi va dars sifatini oshirishga yordam beradi. O‘zbekistonda Moodle va Coursera kabi platformalar moslashuvchanlik (vaqt va joy jihatidan) va xalqaro standartlarga moslik kabi afzalliklarni ta’minlaydi. Masalan, Eduten platformasi maktablarda pilot loyihasi doirasida o‘quv samaradorligini 20% ga oshirgan, bu Finlyandiyada ushbu platformaning muvaffaqiyatli qo‘llanilishi bilan o‘xshashliklarni ko‘rsatadi.

Biroq, tadqiqotda aniqlangan muammolar, xususan, qishloq hududlarida internet ulanishining pastligi (o‘qituvchilarning faqat 50% i doimiy ulanishga ega) va o‘zbek tilidagi kontentning yetishmasligi, raqamli platformalarning keng qo‘llanilishiga to‘sqinlik qilmoqda. Bu muammo “Digital Uzbekistan 2030” strategiyasining to‘liq amalga oshirilishiga xalaqit beradi, chunki strategiya 2030 yilga qadar 100% raqamli qamrovni maqsad qilgan. Shu nuqtai nazardan, O‘zbekistonning raqamli ta’lim sohasidagi rivojlanishi Janubiy Koreya yoki Estoniya kabi mamlakatlardan orqada qolmoqda, bu mamlakatlarda internet infratuzilmasi va mahalliy til resurslari muvaffaqiyatli integratsiya qilingan.

Muammolar: Qishloq hududlarida internet etishmovchiligi (faqat 80% o‘qituvchilar doimiy ulanishga ega). Bu Digital Uzbekistan 2030 strategiyasiga zid, chunki strategiya 2030 yilga qadar 100% raqamli qamrovni nazarda tutadi. UNESCO loyihalari, masalan, Wendy Gortonning tashabbusi, o‘qituvchilar uchun ICT kompetensiyalarini rivojlantirishga yordam beradi.

Xulosa o‘rnida shuni aytish mumkinki, O‘zbekiston maktablaridagi informatika va axborot texnologiyalari (IAT) fani o‘qituvchilarining malakasini oshirishda raqamli platformalar va onlayn o‘quv kurslarining muhim rol o‘ynashini tasdiqladi. Anketalar va so‘rovlar natijalariga ko‘ra, raqamli platformalar (Moodle, Coursera, Udemy, Eduten) o‘qituvchilarning kasbiy ko‘nikmalarini o‘rtacha 45% ga oshiradi, ayniqsa moslashuvchanlik va xalqaro standartlarga moslik kabi afzalliklari tufayli. Shu bilan birga, infratuzilma muammolari (qishloq hududlarida internet ulanishining pastligi), o‘zbek tilidagi kontentning yetishmasligi va o‘qituvchilarning raqamli savodxonlik darajasining pastligi platformalardan to‘liq foydalanishga to‘sqinlik qilmoqda.

Ushbu muammolarni bartaraf etish uchun Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi mahalliy platformalarni rivojlantirish, o‘zbek tilida kontent yaratish va qishloq hududlarida internet infratuzilmasini yaxshilash bo‘yicha choralar ko‘rishi zarur. Xalqaro tajribalar, masalan, Hindistonning iGOT platformasi yoki Finlyandiyaning Eduten tizimi, O‘zbekistonda muvaffaqiyatli moslashtirilishi mumkin. Kelajakdagi tadqiqotlar kengroq namunani qamrab olishi va boshqa fan o‘qituvchilariga e'tibor qaratishi tavsiya etiladi.

Umuman olganda, raqamli platformalar “Digital Uzbekistan 2030” strategiyasi doirasida ta’lim tizimini transformatsiya qilishda muhim vosita bo‘lib xizmat qiladi. Ularning samaradorligini oshirish O‘zbekiston ta’lim tizimining raqobatbardoshligini va zamonaviy talablarga mosligini ta’minlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Ahmed, M. *Effectiveness of Need-Based Teacher’s Training Program to Enhance Online Teaching Quality.* New York: Education Research International (Wiley), 2022, 1–15-b.
2. Kurbanov, S., Rustamova, M. *O‘zbekiston maktablarida raqamli ta’lim platformalari va ularning o‘qituvchilar malakasini oshirishdagi o‘rni.* Toshkent: “Fan va texnologiya” nashriyoti, 2023, 210 b.

3. Rasulov, O., Tursunova, G. *Axborot texnologiyalari o‘qituvchilarini malaka oshirishning zamonaviy metodlari.* Samarqand: “SamDU nashriyoti”, 2022, 185 b.
4. Soyibnazarov, A. (2023). TA’LIMDA YANGICHA YONDASHUV TAHLILI: SMART TA’LIM. Scientific journal of the Fergana State University, (1), 13-13.
5. Ikromjonovich, S. A. (2023). Use of computer programs in solving physics problems. ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal, 13(8), 1-6.

PEDAGOG KADRLAR MALAKASINI OSHIRISHDA RAQAMLI PLATFORMALAR VA ONLAYN TA’LIM IMKONIYATLARI (TARBIYACHILAR MISOLIDA)

Jaloliddinova Maftunaxon Mahmudjon qizi,
Qo‘qon universiteti Ta’lim kafedrasi o‘qituvchisi
Pedagogika va psixologiya kafedrasi tayanch doktoranti
maftunaxonjaloliddinova@gmail.com

Annotatsiya. Mazkur tezisda pedagog kadrlar malakasini oshirishda raqamli platformalar va onlayn ta’lim imkoniyatlari xususan tarbiyachilar misolida tahlil qilingan. So‘nggi yillarda O‘zbekiston ta’lim tizimida amalga oshirilayotgan raqamli transformatsiya jarayonlari, uzluksiz kasbiy rivojlanish konsepsiyasi va onlayn ta’lim shakllarini joriy etish bo‘yicha qabul qilingan davlat dasturlari mazmunan ko‘rib chiqildi. Raqamli platformalarning modullik, shaxsiylashtirish, sinxron va asinxron o‘qitish imkoniyatlari hamda learning analytics tizimlari pedagog kadrlar malakasini oshirish jarayonida muhim omil sifatida asoslab berildi. Tadqiqotda tarbiyachilar uchun masofaviy kurslar, elektron portfel, vebinar va videodarslardan foydalanish mexanizmlari ko‘rsatildi. Xususan, raqamli platformalar orqali tarbiyachilarning transversal kompetensiyalari-raqamli savodxonlik, ijodkorlik, kommunikativlik va muammoni hal qilish ko‘nikmalarini rivojlantirish imkoniyatlari yoritildi. Shuningdek, milliy va xalqaro tajribalar solishtirilib, pedagoglarning uzluksiz kasbiy rivojlanishida raqamli ta’lim muhitining ustuvorligi ilmiy asoslandi.

Kalit so‘zlar: raqamli platforma, onlayn ta’lim, tarbiyachi, malaka oshirish, masofaviy ta’lim, uzluksiz kasbiy rivojlanish, transversal kompetensiya, learning analytics.

Abstract. This thesis analyzes the role of digital platforms and online education in the professional development of pedagogical staff, with a particular focus on preschool teachers. In recent years, the processes of digital transformation in Uzbekistan’s education system, the concept of continuous professional development, and the state programs aimed at introducing online education have been reviewed. The modularity, personalization, synchronous and asynchronous learning opportunities of digital platforms, as well as the use of learning analytics systems, have been substantiated as important factors in improving teachers’ qualifications. The study highlights mechanisms such as distance courses, electronic portfolios, webinars, and video lectures for preschool teachers. In

particular, the potential of digital platforms to enhance teachers’ transversal competences – digital literacy, creativity, communication, and problem-solving – has been emphasized. Furthermore, national and international experiences have been compared to scientifically justify the priority of the digital learning environment in the continuous professional development of educators.

Keywords: digital platform, online education, preschool teacher, professional development, distance learning, continuous professional development, transversal competence, learning analytics.

Аннотация. В данной тезисной работе рассмотрены возможности использования цифровых платформ и онлайн-обучения в повышении квалификации педагогических кадров, в частности воспитателей дошкольных образовательных учреждений. В последние годы в системе образования Узбекистана активно реализуются процессы цифровой трансформации, концепция непрерывного профессионального развития и программы внедрения форм онлайн-обучения. Обосновано, что модульность, персонализация, синхронные и асинхронные формы обучения, а также системы learning analytics являются важными факторами повышения квалификации педагогов. В исследовании показаны механизмы использования дистанционных курсов, электронных портфолио, вебинаров и видеоуроков для воспитателей. Особое внимание уделено возможностям цифровых платформ в развитии трансверсальных компетенций педагогов – цифровой грамотности, креативности, коммуникативности и навыков решения проблем. Кроме того, сопоставлены национальный и международный опыт, что позволило научно обосновать приоритетность цифровой образовательной среды в системе непрерывного профессионального развития педагогов.

Ключевые слова: цифровая платформа, онлайн-обучение, воспитатель, повышение квалификации, дистанционное обучение, непрерывное профессиональное развитие, трансверсальная компетенция, learning analytics.

Mamlakatimizda ta’lim tizimining barcha bo‘g‘inlarini modernizatsiya qilish va raqamli transformatsiyani jadallashtirish davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biridir. Maktabgacha ta’lim tizimi sifatini oshirish, tarbiyachilar malakasini doimiy ravishda rivojlantirish hamda ularni zamonaviy raqamli kompetensiyalarga ega kadrlar sifatida shakllantirish bugungi kunda dolzarb vazifa sanaladi.

So‘nggi yillarda ta’lim tizimida raqamli transformatsiya jarayonlari tezlashib, pedagog kadrlarning uzluksiz kasbiy rivojlanishini yangi bosqichga olib chiqmoqda. Ayniqsa tarbiyachilar (maktabgacha ta’lim xodimlari) uchun onlayn platformalar orqali malaka oshirish, o‘quv-metodik kontent bilan ishlash hamda amaliy ko‘nikmalarni masofadan mustahkamlash dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

Mavjud normativ-huquqiy hujjatlar raqamli ta’limni joriy etish va pedagoglarning malakasini tizimli yangilab borishni belgilab bergan. Masalan, O‘zbekiston Respublikasining 23.09.2020-yildagi O‘RQ-637-sonli “Ta’lim to‘g‘risida”gi qonunining 16-moddasida masofaviy ta’lim shakli belgilab berilgan.

Masofaviy ta’lim jarayonida zarur bilim va ko‘nikmalarni AKT hamda internetdan foydalangan holda masofadan turib o‘zlashtirish mumkinligi ko‘rsatiladi. Shuningdek, ushbu ta’lim turida o‘quv reja va dasturlarni joriy etishda axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini qo‘llash talab qilinadi[36]. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 21.06.2024-yildagi PQ-231-sonli “Maktabgacha va maktab ta’limi tashkilotlari xodimlarini uzluksiz kasbiy rivojlantirish tizimini takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida[37]” gi qarori, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 20.12.2024-yildagi 867-sonli “Maktabgacha va maktab ta’limi xodimlarining uzluksiz kasbiy rivojlantirish tizimini takomillashtirish to‘g‘risida[38]” gi qarorlari pedagog kadrlar malakasini oshirish va ularni raqamli platformalardan foydalana olish ko‘nikmalarini yaxshilashga qaratilgan.

Shu bilan birga, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 03.10.2022-yildagi 559-sonli “Oliy ta’lim tashkilotlarida masofaviy ta’lim shaklini joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida[39]” gi qarori, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 06.11.2020 yildagi PQ-4884-sonli “Ta’lim-tarbiya tizimini yanada takomillashtirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida[40]” gi qarori, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 17.03.2020-yildagi PQ-4642-sonli “Toshkent shahrida raqamli texnologiyalarni keng joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida[41]” kabi qarorlarda onlayn ya’ni masofaviy ta’limni tashkil etish va elektron ta’lim platformalari orqali masofadan turib ta’limni o‘zlashtirish kabi imkoniyatlar keng yoritilgan. Amaliyotda platformalararo o‘zgarishlar, kontent sifati, raqamli savodxonlik darajasi va internet infratuzilmasi kabi omillar samaradorlikka bevosita ta’sir ko‘rsatmoqda.

Raqamli platformalar-ta’lim, ish yoki xizmatlarni internet orqali boshqarish, yetkazish va baholashga xizmat qiladigan onlayn tizimlar (dasturlar majmui). Ular foydalanuvchilarni ro‘yxatdan o‘tkazadi, kontentni saqlaydi, topshiriq va testlarni qabul qiladi, aloqa va learning analytics (o‘qish tahlili) ni ta’minlaydi.

Onlayn ta’lim-ta’lim jarayonining internet orqali tashkil etilishi; darslar, topshiriqlar, muloqot va baholash raqamli platformalar (LMS, vebinar xizmatlari va h.k.)da amalga oshiriladi. U sinxron (jonli) va asinxron (keyin ko‘riladigan) formatlarda bo‘lishi mumkin.

Xalq ta’limi sohasidagi uzluksiz kasbiy rivojlantirish tizimini joriy qilish chora tadbirlarida: “xalq ta’limi xodimlarining malaka oshirish bo‘yicha ehtiyojlarini o‘rganish, an’anaviy malaka oshirish bilan bir qatorda kasbiy o‘qitishning uyg‘unlashgan, ish jarayoni bilan birgalikda olib boriladigan,

[36] O‘zbekiston Respublikasining Qonuni, 23.09.2020 yildagi O‘RQ-637-son 16-modda lex.uz
[37] O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori, 21.06.2024 yildagi PQ-231-son lex.uz
[38] O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori, 20.12.2024 yildagi 867-son lex.uz
[39] O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori, 03.10.2022 yildagi 559-son lex.uz
[40] O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori, 06.11.2020 yildagi PQ-4884-son lex.uz
[41] O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori, 17.03.2020 yildagi PQ-4642-son lex.uz

masofaviy va boshqa turlarini joriy etish[42]” belgilangan. Bu esa pedagoglarning internet texnologiyalari sohasidagi texnologik kompetentligi mohiyatini yoritish, o‘quv-uslubiy majmualarni va tarmoq o‘quv resurslarini yaratish, ijobiy natijalarni umumlashtirish, muammoli vaziyatlarni hal qilishda mutaxassislarni samarali va maqbul harakatlarga o‘rgatish muammosini dolzarblashtiradi.

Mannabov Javlon Toxirovichning “Masofaviy ta’lim jarayonida o‘qituvchilarning texnologik kompetentligini takomillashtirish” nomli monografiyasida: “Masofadan o‘qitish” va “masofaviy ta’lim” bir xil tushunchalar bo‘lib, ko‘pincha sinonim sifatida ishlatiladi. Ushbu tushunchalarning umumiy talqinini tahlil qiladigan bo‘lsak, “masofaviy ta’lim” atamasi adabiyotlarda to‘rt pozitsiyada izohlanadi:

- masofaviy o‘qitish shakli, ta’lim berishning muqobili sifatida;
- tegishli ta’lim olish usullaridan biri sifatida;
- ta’lim olish metodi sifatida;
- ta’lim olishning shakli va metodi sifatida[43] ta’riflanadi.

Masofaviy ta’limga bir qator olimlar o‘z fikr-mulohazalarini bildirib o‘tganlar, jumladan, V.F.Dmitriyevaning “Masofaviy ta’lim: mohiyati, tatbiq etish muammolari” nomli maqolasida: “Masofaviy ta’lim-ikki (sirtqi va kunduzgi) shaklning optimal ravishda kombinatsiyalashgan shaklidir-nufuzli universitetlarda va texnikumlarda doimiy yashab turgan joyidan, yuqori malakali o‘qituvchilar rahbarligi ostida ta’lim olish imkoniyati[44]” deb yozadi. A.A. Andreyev o‘z monografiyasida: “Masofaviy ta’lim - barcha texnologiyalar va masofadan turib o‘qishning bir qator boshqa shakllarini o‘zlashtirgan axborot va ta’limning yaqin aloqasi tufayli bilim, ko‘nikma va malakalarni egallash[45]”, deya aytib o‘tadi. Professor E.S.Polatning o‘quv qo‘llanmasida esa: “Zamonaviy internet texnologiyalaridan foydalangan holda masofadan turib o‘qitishning mutlaqo yangi shakli bo‘lgan “masofaviy ta’lim”da o‘qitishning xususiyatlaridan kelib chiqqan holda uning ikkita ajralmas sharti - o‘qituvchi va ta’lim oluvchi o‘rtasidagi o‘zaro yaqin ta’limiy aloqa hamda aniq didaktik konsepsiyaning mavjudligi[46]”, deya ta’riflaydi.

Bugungi kunda pedagog kadrlarning, xususan maktabgacha ta’lim tarbiyachilarining malakasini oshirish jarayonida raqamli platformalar va onlayn ta’lim imkoniyatlaridan foydalanish zaruriy pedagogik shartga aylandi. Raqamli transformatsiya jarayonlari ta’lim tizimini tubdan o‘zgartirib, pedagoglarning kasbiy faoliyatida moslashuvchanlik, raqamli savodxonlik va innovatsion metodlardan foydalanish ko‘nikmalarini talab qilmoqda.

---

[42] O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining «Xalq ta’limi sohasidagi ilmiy-tadqiqot faoliyatini qo’llab-quvvatlash hamda uzluksiz kasbiy rivojlantirish tizimini joriy qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida» 2021 yil 25 yanvardagi PQ4963-son qarori. 07/21/4963/0064

[43] Mannabov.J.T. Masofaviy ta’lim jarayonida o‘qituvchilarning texnologik kompetentligini takomillashtirish. Monografiya. – Samarqand: “SamDCHTI” nashriyoti”, 2023. – 125 bet.

[44] Dmitriyeva V.F. Distansionnoye obucheniye: sushnost, problemi vnedreniya /V.F.Dmitriyeva, V.M. Gladskoy, V.A.Ryabov, V.L.Prokofyev, P.I.Samoylenko, I.A.Solovyev // Spesialist. - 1996. -S. 36-39.

[45] Andreyev.A.A. Distansionnoye obucheniye v Rossii: istoriya i sovremennost. - http://www.distedu.m/konf/4KONF-DO/3 2/html .

[46] Distansionnoye obucheniye / Pod red. Ye. S.Polat. - M.: Gumanit. izd. sentr VLADOS, 1998.-192 s.

Raqamli platformalar - bu o‘quv jarayonini modullarga ajratish, boshqarish va baholash imkonini beruvchi onlayn tizimlar. Ular orqali tarbiyachilar malaka oshirish kurslarini masofadan turib o‘zlashtirishi, videodarslar va amaliy topshiriqlarni bajarishi, forumlarda fikr almashishi va sertifikat olishi mumkin. Masalan, Moodle, Google Classroom, Microsoft Teams kabi tizimlar kurs materiallarini joylashtirish, interaktiv topshiriqlar berish va natijalarni avtomatik qayd etish imkoniyatini beradi. Bu esa an’anaviy darslardan farqli ravishda teng imkoniyatlar yaratadi, vaqt va joydan qat’iy nazar bilim olishni ta’minlaydi.

Onlayn ta’limning asosiy afzalligi-moslashuvchanlik va shaxsiylashtirishdir. Tarbiyachilar real vaqt rejimida (sinxron) yoki keyinroq (asinxron) darslarni o‘zlashtira oladilar. Bundan tashqari, learning analytics vositalari orqali har bir tinglovchining faoliyati, topshiriqlarni bajarish tezligi va sifatini kuzatish mumkin. Bu malaka oshirish jarayonining samaradorligini oshiradi hamda kompetensiyaviy yondashuvni ta’minlaydi.

Oliy ta’lim muassasalari raqamli platformalarni nafaqat talabalar uchun, balki pedagog kadrlarni qayta tayyorlash va malaka oshirish jarayonida ham qo‘llashga alohida e’tibor qaratmoqda. “Uzluksiz kasbiy rivojlanish” konsepsiyasida pedagoglar uchun kurslar modullashtirilgan, ya’ni nazariy bilim, amaliy topshiriq va refleksiya qismlaridan iborat. Har bir modul yakunida elektron portfel to‘ldiriladi va kompetensiyalarni baholash natijasi chiqariladi. Shu jihatdan raqamli platformalar tarbiyachilarning kasbiy transversallik kompetensiyalarini (kommunikativlik, muammoni hal qilish, ijodkorlik, raqamli savodxonlik) rivojlantirishga xizmat qiladi.

Masalan, tarbiyachilar uchun onlayn “Raqamli metodika” kursini quyidagicha tashkil etilishimiz mumkin:

1-modul-“Raqamli savodxonlik va media gigiyena” - videodars + test.

2-modul-“Onlayn o‘yin texnologiyalarini qo‘llash” - amaliy topshiriq + forum muhokamasi.

3-modul-“Bolalar bilan virtual muloqot etikasini shakllantirish” - vebinar. Natijada tarbiyachilar raqamli muhitda faoliyat o‘tish, xavfsizlik qoidalariga rioya qilish va ijodiy metodlarni joriy etish ko‘nikmalariga ega bo‘ladilar.

Xulosa qilib aytganda, raqamli platformalar va onlayn ta’lim pedagog kadrlar, ayniqsa tarbiyachilarning malakasini oshirish jarayonida zamonaviy va samarali mexanizm sifatida shakllanmoqda. Ular orqali o‘quv jarayonining uzluksizligi, moslashuvchanligi va shaxsiylashtirilishi ta’minlanadi. Malaka oshirish kurslarining LMS, vebinar, videodars va mikroo‘qitish modullari asosida tashkil etilishi tarbiyachilarning transversal kompetensiyalarini: raqamli savodxonlik, kommunikativlik, ijodkorlik, muammoni hal qilish ko‘nikmalarini rivojlantirishda katta imkoniyat yaratadi.

O‘zbekiston Respublikasida qabul qilingan normativ-huquqiy hujjatlar: Ta’lim to‘g‘risidagi qonun, PQ-231, VMQ-867, VMQ-559, PQ-4884, PQ-4642, PQ-4963 va boshqalar pedagoglarning uzluksiz kasbiy rivojlanishini ta’minlashda onlayn ta’limning asosiy o‘rin tutishini belgilab berdi. Bu esa tarbiyachilarni raqobatbardosh mutaxassis sifatida shakllantirish, ta’lim sifatini oshirish va xalqaro tajribaga mos rivojlanishni ta’minlaydi.

Shunday qilib, raqamli platformalar va onlayn ta’limning samarali integratsiyasi tarbiyachilarning kasbiy malakasini oshirishda innovatsion yondashuv bo‘lib xizmat qiladi, ularning faoliyatida uzluksiz kasbiy rivojlanish konsepsiyasini amaliyotga tatbiq etishga imkon yaratadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida” gi Qonuni, 23.09.2020 yildagi O‘RQ-637-son 16-modda lex.uz
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori, 21.06.2024 yildagi PQ-231-son “Maktabgacha va maktab ta’limi tashkilotlari xodimlarini uzluksiz kasbiy rivojlantirish tizimini takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida lex.uz
3. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori, 20.12.2024 yildagi 867-son “Maktabgacha va maktab ta’limi xodimlarining uzluksiz kasbiy rivojlantirish tizimini takomillashtirish to‘g‘risida lex.uz
4. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori, 03.10.2022 yildagi 559-son “Oliy ta’lim tashkilotlarida masofaviy ta’lim shaklini joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida lex.uz
5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori, 06.11.2020 yildagi PQ-4884-son “Ta’lim-tarbiya tizimini yanada takomillashtirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida lex.uz
6. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori, 17.03.2020 yildagi PQ-4642-son “Toshkent shahrida raqamli texnologiyalarni keng joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida” lex.uz
7. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining «Xalq ta’limi sohasidagi ilmiy-tadqiqot faoliyatini qo‘llab-quvvatlash hamda uzluksiz kasbiy rivojlantirish tizimini joriy qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida» 2021 yil 25 yanvardagi PQ-4963-son qarori. 07/21/4963/0064
8. Mannabov.J.T. Masofaviy ta’lim jarayonida o‘qituvchilarning texnologik kompetentligini takomillashtirish. Monografiya. – Samarqand: “SamDCHTI” nashriyoti”, 2023. – 125 bet.
9. V.F. Dmitriyeva. Distansionnoye obucheniye: sushnost, problemi vnedreniya /V.F.Dmitriyeva, V.M. Gladskoy, V.A.Ryabov, V.L.Prokofyev, P.I.Samoylenko, I.A.Solovyev // Spesialist. - 1996. -S. 36-39.
10. A.A. Andreyev. Distansionnoye obucheniye v Rossii: istoriya i sovremennost. -http://www.distedu.m/konf/4KONF-DO/3 2/html .
11. Ye.S. Polat. Distansionnoye obucheniye / Pod red. - M.: Gumanit. izd. sentr VLADOS, 1998.-192 s

ENHANCING PEDAGOGICAL COMPETENCE IN HIGHER EDUCATION THROUGH ONLINE LEARNING MODALITIES

Akhmadjonov Avazbek Akmaljon ugli,
Teacher, Kokand University
e-mail: aaxmadjonov77@gmail.com

Abstract

The contemporary landscape of higher education is characterized by a rapid and irreversible digital transformation, necessitating a fundamental modernization of pedagogical competence development systems for university faculty. The core research problem addressed in this article is the significant gap between the traditional, episodic models of professional development and the continuous, integrated need for digital-pedagogical skills required for effective online and blended learning. This study analyzes the efficacy of various online modalities—including Massive Open Online Courses (MOOCs), micro-credentials, webinars, and Virtual Communities of Practice (VCoPs)—as mechanisms for building comprehensive pedagogical competence. Utilizing a desk research methodology that synthesizes existing scholarly literature and case studies, the findings demonstrate that these online strategies significantly enhance the accessibility, flexibility, personalization, and scalability of faculty development. The study concludes that the integration of online learning into professional development is not a supplementary option but a strategic imperative for building the capacity of a modern educator. Practical recommendations include the institutional curation of high-quality digital resources, the formal incentivization of continuous learning through recognition systems, and the development of internal online training platforms tailored to specific institutional contexts and needs.

Keywords: pedagogical competence, online learning, faculty development, higher education, digital pedagogy, MOOCs, micro-credentials, blended learning, professional growth.

Аннотация

Современный ландшафт высшего образования характеризуется быстрой и необратимой цифровой трансформацией, что требует фундаментальной модернизации систем развития педагогической компетентности преподавателей вузов. Основная исследовательская проблема, рассматриваемая в данной статье, заключается в значительном разрыве между традиционными, эпизодическими моделями профессионального развития и непрерывной, интегрированной потребностью в цифрово-педагогических навыках, необходимых для эффективного онлайн и смешанного обучения. В данном исследовании анализируется эффективность различных онлайн-модальностей—включая массовые открытые онлайн-курсы (МООК), микрокредиты, вебинары и виртуальные сообщества практики (VCoPs)—в качестве механизмов формирования комплексной педагогической компетентности. Используя методологию кабинетного исследования, синтезирующую существующую научную литературу и case studies, результаты демонстрируют, что эти онлайн-стратегии значительно повышают доступность, гибкость, персонализацию и масштабируемость развития преподавательского состава. Исследование завершается выводом о том, что интеграция онлайн-обучения в профессиональное развитие является не дополнительной опцией, а стратегическим императивом для наращивания потенциала современного педагога. Практические рекомендации включают институциональный отбор

высококачественных цифровых ресурсов, формальное стимулирование непрерывного обучения через системы признания и разработку внутренних онлайн-платформ для обучения, адаптированных к конкретным институциональным контекстам и потребностям.

Ключевые слова: педагогическая компетентность, онлайн-обучение, развитие преподавателей, высшее образование, цифровая педагогика, MOOK, микрокредиты, смешанное обучение, профессиональный рост.

Introduction

The global higher education sector has undergone a profound and accelerated transformation, largely catalyzed by the recent pandemic, which necessitated a rapid, and often unprepared, shift to remote and online instruction. This seismic shift revealed a critical and pre-existing deficit: a vast number of experienced university educators, while possessing deep expertise in their respective disciplines, lacked the essential digital pedagogical competence required to design, facilitate, and assess effective learning in a virtual environment [1,24]. Pedagogical competence, traditionally understood as the integrated set of knowledge, skills, and attitudes required for effective teaching in a physical classroom, has now dramatically expanded. In the 21st century, it inherently encompasses digital literacy, sophisticated online course design, data-driven assessment strategies, and the facilitation of engaging virtual learning communities [2,18]. The traditional paradigm of in-service teacher training, often characterized by infrequent, one-off workshops and seminars, is fundamentally ill-suited to address this continuous and evolving need for upskilling.

Consequently, this article posits that online learning modalities present the most viable, effective, and sustainable solution for the continuous pedagogical development of university faculty. These modalities offer unparalleled scalability, flexibility, personalization, and access to global best practices and networks of expertise. By engaging in online professional development (OPD), educators not only acquire new skills but also experience the learning process from a student’s perspective. This meta-experience is invaluable, fostering greater empathy, a deeper understanding of the medium's possibilities and challenges, and providing a model for their own teaching practices. The core argument is that to teach effectively online, one must learn effectively online. This study will analyze the existing models of online professional development, evaluate their effectiveness in building holistic pedagogical competence, discuss the challenges to their widespread adoption, and propose a structured framework for their integration into higher education institutions.

Literature Review

The theoretical foundation of this research is built upon two interconnected pillars: the evolving concept of pedagogical competence in the digital age and the theory of connectivism as a driver for modern professional learning. The foundational work of Shulman [3,48] on Pedagogical Content Knowledge (PCK) established the importance of teachers mastering not only their subject matter (content knowledge) but also the methods for teaching it effectively (pedagogical knowledge). This concept was crucially expanded by Mishra and

Koehler [2,22] into the Technological Pedagogical Content Knowledge (TPACK) framework. TPACK argues that effective technology integration requires an understanding of the complex interplay between Content, Pedagogy, and Technology. It is not enough to know the technology; one must understand how it can transform the teaching and learning of specific content. This framework provides the definitive lens for defining digital-pedagogical competence, positioning it as the intersection where technological knowledge, pedagogical knowledge, and content knowledge converge to create effective, context-specific learning experiences [4,112].

Connectivism and Online Professional Development

Traditional professional development often follows a behaviorist or cognitivist approach, where knowledge is transmitted from an expert to a passive audience. However, the nature of knowledge in the digital age is dynamic, distributed, and networked. Siemens [5,15] proposed connectivism as "a learning theory for the digital age," which posits that learning resides not only in the individual but also in non-human appliances and networks. The capacity to know more is more critical than what is currently known, and the ability to see connections between fields, ideas, and concepts is a core skill. This theory directly supports the use of online modalities for professional development. MOOCs, VCoPs, and webinar networks are quintessential connectivist environments. Learning occurs through forming connections with other people, information sources, and digital tools, making the process continuous, social, and aligned with the way knowledge is created and shared in the modern world [6,77]. Scholarly literature has begun to extensively document the efficacy of various OPD models. Garrison’s Community of Inquiry (CoI) framework [4,95], with its three presences—social, cognitive, and teaching—provides a robust model for designing and evaluating meaningful online learning experiences for faculty, emphasizing that learning is a collaborative process. Research on MOOCs highlights their strength in providing access to world-class instruction and creating global learning communities, though completion rates can be a concern [7,201]. Conversely, micro-credentials and digital badges address this by offering shorter, focused, and stackable learning units that provide tangible evidence of skill mastery [8,34]. Furthermore, Wenger’s theory of communities of practice [9,58] underpins the value of VCoPs, where learning is situated in practice and occurs through sustained mutual engagement, joint enterprise, and a shared repertoire of resources.

Methodology

This study employs a qualitative desk research methodology, also known as a literature-based discourse analysis. This approach involves the systematic collection, critical evaluation, and synthesis of existing scholarly literature, peer-reviewed journal articles, books, and reputable reports on the topics of online learning, faculty development, pedagogical competence, and educational technology.

The research process involved several key stages: First, a comprehensive literature search was conducted using academic databases (e.g., Google Scholar,

Scopus, Web of Science) with keywords such as "online faculty development," "digital pedagogical competence," "MOOCs for teachers," "virtual communities of practice," and "micro-credentials in higher education." Second, the identified sources were screened for relevance, prioritizing recent studies (from the last decade) and seminal works that established key theoretical frameworks. Finally, the information was analyzed thematically to identify recurring patterns, central arguments, evidence of effectiveness, reported challenges, and emerging best practices. The goal of this methodology is not to generate new primary data but to provide a comprehensive, analytical, and critical synthesis of the current state of knowledge to build a compelling evidence-based argument.

Discussion

The analysis of literature reveals that a multi-faceted approach to OPD is most effective, with different modalities serving complementary functions in building a comprehensive skill set.

MOOCs, offered on platforms like Coursera, EdX, and FutureLearn, provide structured and comprehensive learning pathways on key topics. For instance, the University of Michigan’s "Teaching and Learning in the Higher Education Classroom" or the Commonwealth Education Trust’s "Foundations of Teaching for Learning" series offer robust introductions to core pedagogical principles, now infused with digital context. Their strength lies in their scalability and access to world-renowned experts and institutions. They are particularly effective for building foundational TPACK, allowing educators to systematically understand the integration of technology, pedagogy, and content [7,205]. However, their massive nature can sometimes lack personalization, and low completion rates suggest that without external motivation or support, engagement can wane.

This modality addresses the limitations of MOOCs by offering short, focused, and practical learning experiences aimed at mastering a discrete skill. Examples include badges for "Designing Authentic Online Assessments," "Facilitating Online Discussions," or "Using [Specific LMS] Advanced Features." They offer flexibility and allow faculty to address their most immediate needs directly. The value of a digital badge lies in its function as a verifiable, portable credential that can be displayed on digital portfolios and LinkedIn profiles, providing tangible recognition for acquired skills. This can be a powerful motivator and helps in building a culture of continuous, just-in-time learning [8,37].

Live webinars hosted by educational technology companies, teaching and learning centers, or expert practitioners provide timely and interactive training on specific tools, policies, or pedagogical techniques. Their primary advantage is immediacy and the opportunity for live Question-and-Answer sessions, making them ideal for solving urgent problems. Recorded webinars also become valuable asynchronous resources. They foster a sense of connection and real-time engagement, which can be crucial for addressing feelings of isolation that can accompany online teaching.

Virtual Communities of Practice (VCoPs) for Sustained Collaborative Learning

Perhaps the most powerful modality for sustainable growth is engagement in VCoPs. Platforms like Twitter (via hashtags like #HigherEd, #EdTech), LinkedIn groups, or institutional-specific forums enable continuous, informal learning. In these spaces, educators share resources, troubleshoot problems, celebrate successes, and critically reflect on their practice within a supportive network of peers. This aligns perfectly with Wenger's theory [9,62], where learning is social and situated in the daily practice of teaching. VCoPs help transform professional development from a discrete event into a continuous process of becoming, fostering a professional identity that is adaptive and digitally fluent.

Despite the clear benefits, the integration of OPD faces significant institutional and individual barriers.

- **Challenge 1: Lack of Time and Institutional Incentive.** Faculty members are often burdened by high teaching loads, research obligations, and administrative duties [1,26]. Engaging in OPD is frequently perceived as an extra, unpaid task.
  - **Proposed Solution:** Institutions must formally integrate OPD into their strategic plans. This can include linking successful completion of certified programs to promotion and tenure criteria, providing monetary stipends or professional development funds, and granting formal workload relief for engaging in substantial training.
- **Challenge 2: Variable Quality and Overwhelming Choice.** The sheer volume of available online resources can be paralyzing, and quality is not always guaranteed.
  - **Proposed Solution:** Universities should establish a Center for Teaching Excellence (CTE) or a similar body tasked with curating a "verified list" of high-quality OPD resources (MOOCs, webinar series, etc.). This CTE can also offer internal consulting to help faculty choose the right pathways for their goals.
- **Challenge 3: Lack of Local Context.** International MOOCs may not address specific institutional policies, cultural contexts, or the specific Learning Management System (LMS) used locally.
  - **Proposed Solution:** Develop in-house, bespoke online training modules that address local needs. These can be shorter micro-courses that complement external resources, ensuring relevance and practical application within the institution's unique ecosystem.

Conclusion and Recommendations

The digital transformation of higher education is not a temporary disruption but a permanent new reality. Consequently, investing in the continuous online pedagogical upskilling of faculty has transitioned from a peripheral concern to a core strategic imperative for institutional resilience and excellence. Online learning modalities for professional development are far more than a convenient alternative; they are a powerful, coherent, and sustainable means to build the TPACK necessary for 21st-century teaching and learning. By experiencing these modalities as learners, faculty themselves become better online educators.

To successfully implement this vision, the following recommendations are proposed:

1. **Institutional Strategy:** Integrate OPD into the formal reward and recognition structures of the university, making it a valued and incentivized component of academic career progression.
2. **Curated Support:** Establish a dedicated Center for Teaching Excellence to curate high-quality external resources and develop internal, context-specific online training modules and micro-credentials.
3. **Community Building:** Proactively foster and support Virtual Communities of Practice, both within the institution and by encouraging participation in global networks, to promote collaborative and continuous learning.
4. **Resource Allocation:** Dedicate a specific budget for faculty OPD, covering subscriptions to premium platforms, fees for certified micro-credentials, and stipends for participation.

By embracing a strategic and supported approach to online professional development, universities can cultivate a culture of continuous innovation, collaboration, and pedagogical excellence, ultimately ensuring that they are fulfilling their primary mission: providing a high-quality and relevant education to all students.

References:

1. Bates, A.W. (2019). *Teaching in a Digital Age: Guidelines for Designing Teaching and Learning*. Tony Bates Associates Ltd.
2. Mishra, P., & Koehler, M. J. (2006). Technological Pedagogical Content Knowledge: A Framework for Teacher Knowledge. *Teachers College Record*, *108*(6), 1017-1054.
3. Shulman, L. S. (1986). Those Who Understand: Knowledge Growth in Teaching. *Educational Researcher*, *15*(2), 4-14.
4. Garrison, D. R. (2017). *E-Learning in the 21st Century: A Community of Inquiry Framework for Research and Practice* (3rd ed.). Routledge.
5. Siemens, G. (2005). Connectivism: A Learning Theory for the Digital Age. *International Journal of Instructional Technology and Distance Learning*, *2*(1), 3-10.
6. Siemens, G., & Baker, R. S. (2012). Learning Analytics and Educational Data Mining: Towards Communication and Collaboration. In *Proceedings of the 2nd International Conference on Learning Analytics and Knowledge* (pp. 252-254). ACM.
7. Kaplan, A. M., & Haenlein, M. (2016). Higher education and the digital revolution: About MOOCs, SPOCs, social media, and the Cookie Monster. *Business Horizons*, *59*(4), 441-450.
8. Carey, K. L., & Stefaniak, J. E. (2018). An exploration of the utility of digital badging in higher education settings. *Educational Technology Research and Development, 66*(5), 1211–1229.
9. Wenger, E. (1998). *Communities of Practice: Learning, Meaning, and Identity*. Cambridge University Press.

THE ROLE OF DIGITAL TECHNOLOGIES AND ONLINE LEARNING TOOLS IN ENHANCING THE PROFESSIONAL DEVELOPMENT OF TEACHING STAFF

Yokubjonova Dilnavozxon Serobjon qizi,

Qo‘qon Universiteti Jahon tillari

kafedrasi o‘qituvchisi

gmail: yokubjonovadilnavoz@gmail.com

ABSTRACT

This article examines the role of modern digital technologies and online learning tools in the professional development of teaching staff. The widespread integration of digital platforms in education has significantly improved the effectiveness of professional training and skills enhancement for educators. The study analyzes the impact of digital technologies on pedagogical practices, identifies opportunities and challenges in their implementation, and proposes strategies to overcome existing barriers. The findings demonstrate that digital tools enable a more interactive, personalized, and flexible approach to teacher professional development. Additionally, the article emphasizes the need for continuous training and methodological support to help educators effectively utilize these technologies. This research contributes both scientifically and practically by outlining ways to expand the use of digital innovations in the education sector.

Keywords: teaching staff, professional development, digital technologies, online learning, educational platforms, pedagogical innovation, interactive learning

ANNOTATSIYA

Ushbu maqola zamonaviy raqamli texnologiyalar va onlayn ta’lim vositalarining pedagog kadrlar malakasini oshirishdagi rolini o‘rganadi. Ta’lim sohasida raqamli platformalarning keng joriy etilishi pedagog kadrlarning kasbiy tayyorgarligi va ko‘nikmalarini oshirish samaradorligini sezilarli darajada yaxshiladi. Tadqiqot raqamli texnologiyalarning pedagogik amaliyotga ta’sirini tahlil qiladi, ularning joriy etilishidagi imkoniyatlar va muammolarni aniqlaydi hamda mavjud to‘siqlarni yengish strategiyalarini taklif etadi. Natijalar raqamli vositalar o‘qituvchilarning kasbiy rivojlanishini yanada interaktiv, shaxsiylashtirilgan va moslashuvchan usullar bilan ta’minlash imkonini berishini ko‘rsatadi. Shuningdek, maqolada pedagoglarga ushbu texnologiyalardan samarali foydalanish uchun doimiy trening va metodik yordam zarurligi ta’kidlanadi. Ushbu tadqiqot ilmiy va amaliy jihatdan ta’lim sohasida raqamli innovatsiyalarni kengaytirish yo‘llarini belgilaydi.

Kalit so‘zlar: pedagog kadrlar, kasbiy rivojlanish, raqamli texnologiyalar, onlayn ta’lim, ta’lim platformalari, pedagogik innovatsiya, interaktiv o‘rganish

АННОТАЦИЯ

В статье рассматривается роль современных цифровых технологий и онлайн-обучающих инструментов в профессиональном развитии педагогических кадров. Широкое внедрение цифровых платформ в образование значительно повысило эффективность профессиональной подготовки и повышения квалификации педагогов. В исследовании анализируется влияние цифровых технологий на педагогическую практику, выявляются возможности и проблемы их внедрения, а также предлагаются стратегии преодоления существующих барьеров. Результаты показывают, что цифровые инструменты обеспечивают более интерактивный, персонализированный и гибкий подход к профессиональному развитию учителей. Кроме того, в статье подчеркивается необходимость постоянного обучения и методической поддержки для эффективного использования этих технологий педагогами. Исследование вносит научный и практический вклад, обозначая пути расширения использования цифровых инноваций в сфере образования.

Ключевые слова: педагогические кадры, профессиональное развитие, цифровые технологии, онлайн-обучение, образовательные платформы, педагогические инновации, интерактивное обучение

Introduction

In the 21st century, education systems worldwide are undergoing significant transformations driven by rapid technological progress and changing societal needs. These developments present new challenges and demands, making continuous professional development (CPD) for teaching staff more essential than ever. Teachers must constantly update their skills, knowledge, and teaching methodologies to keep pace with evolving curricula, diverse student needs, and innovative educational approaches. The rapid advancement of information and communication technologies (ICT) has created unprecedented opportunities to support and enhance teacher professional development [3]. Digital technologies enable educators to access the latest teaching methods, research, and best practices from anywhere in the world. Through online platforms, teachers can participate in interactive training programs that offer flexibility in time and pace, allowing them to balance professional learning with their existing responsibilities. This accessibility is particularly valuable for educators in remote or underserved areas who may face challenges attending traditional in-person workshops or courses. Moreover, digital tools foster collaboration and networking among educators across different regions, enabling the exchange of ideas, experiences, and resources. This connectedness enriches the learning process and promotes the dissemination of innovative pedagogical techniques. The COVID-19 pandemic has further underscored the critical role of digital platforms in maintaining

uninterrupted professional learning during times of crisis. As schools and training centers temporarily closed, online learning became the primary means for teachers to continue their professional development.

Literature Review and Methodology

Research on teacher professional development increasingly highlights the transformative role of digital technologies and online learning platforms. Studies by Smith (2021) and Davis (2020) emphasize that digital tools enhance flexibility, accessibility, and engagement in professional learning for educators. According to Ismoilov and Karimova (2022), online courses and webinars allow teachers to update their skills regardless of geographical or time constraints, fostering continuous growth. Moreover, Nazarova (2020) points out that interactive elements such as quizzes, forums, and video demonstrations improve knowledge retention and practical application. However, challenges such as limited digital literacy and unequal access to technology remain prevalent (Kucher, 2021; Tursunov, 2022). These barriers affect the overall effectiveness of digital professional development programs and highlight the need for targeted support and infrastructure improvement. This study employs a mixed-methods approach to explore the impact of digital technologies on teachers’ professional development. Quantitative data were collected through surveys administered to 150 educators across urban and rural schools, focusing on their experiences with online training platforms, accessibility, and perceived benefits. The survey included Likert-scale items assessing digital literacy, motivation, and satisfaction with the digital learning environment. Qualitative data were gathered through semi-structured interviews with 15 teachers and 5 educational administrators to gain deeper insights into the practical challenges and successes encountered during digital training. Thematic analysis was used to identify recurring patterns and themes related to usability, engagement, and support needs[5]. By combining quantitative and qualitative methods, this research provides a comprehensive understanding of how digital tools influence teacher professional growth. The findings aim to inform policymakers and educational institutions on best practices for integrating digital technologies effectively and addressing barriers to ensure equitable, high-quality professional development for all educators.

Results

The quantitative survey results revealed that 78% of participating teachers regularly use digital platforms for professional development, with 65% reporting increased access to diverse learning materials compared to traditional methods. Most respondents (72%) felt that online courses offered greater flexibility, allowing them to balance training with teaching responsibilities. However, only 54% expressed confidence in their digital literacy skills, highlighting a significant need for further training in this area. Motivation levels varied, with 60% of teachers reporting high engagement during interactive online sessions, while 25% found it challenging to maintain focus without face-to-face interaction. Rural

educators, in particular, reported difficulties due to unstable internet connections and lack of appropriate devices, which negatively impacted their learning experience[1]. Qualitative interviews supported these findings, with teachers praising the convenience and variety of resources but emphasizing the necessity of technical support and guidance to maximize benefits. Administrators noted that while digital platforms broaden access, inconsistent infrastructure and digital competency gaps remain major obstacles. Interviewees also highlighted the importance of peer collaboration and feedback mechanisms to enhance the effectiveness of online professional development.

Discussion

The findings of this study underscore the growing importance of digital technologies and online learning platforms in the professional development of teachers. The high usage rates and positive feedback regarding flexibility and resource availability align with previous research (Smith, 2021; Ismoilov & Karimova, 2022) that highlights the advantages of digital learning for educators. Flexibility in time and location allows teachers to engage in continuous learning without disrupting their work schedules, which is crucial for sustaining professional growth. However, the study also reveals significant challenges that echo concerns raised by Kucher (2021) and Nazarova (2020), particularly regarding digital literacy and infrastructure. The lower confidence levels in digital skills suggest a critical need for targeted training programs to equip educators with the necessary competencies to effectively utilize online platforms. Additionally, disparities in internet access and technology availability, especially in rural areas, pose barriers to equitable professional development. The qualitative insights emphasize that beyond technical access, fostering motivation and peer collaboration is essential for meaningful learning experiences. Interactive features and community support can counteract the isolation often associated with online learning. While digital technologies offer transformative potential for teacher professional development, maximizing their benefits requires addressing digital divides and providing ongoing technical and motivational support. Policymakers and educational leaders should prioritize these areas to ensure inclusive and effective professional learning environments.

Conclusion

This study highlights the crucial role of digital technologies and online learning platforms in enhancing the professional development of teaching staff. The flexibility, accessibility, and diversity of resources offered by digital tools have transformed traditional approaches to teacher training, enabling educators to learn continuously and adapt to changing educational demands. The ability to engage in remote, self-paced, and interactive learning empowers teachers to improve their pedagogical skills effectively. However, the research also identifies significant challenges that must be addressed to fully realize the potential of digital professional development. These include gaps in digital literacy, uneven access to

reliable internet and devices, and motivational barriers faced by some educators. Particularly in rural and underserved regions, infrastructural limitations hinder equal participation, highlighting the need for targeted interventions. To maximize the benefits of digital professional development, education systems must invest in improving teachers’ digital competencies, upgrading technical infrastructure, and designing engaging, collaborative online learning experiences. Supporting educators through ongoing technical assistance and fostering peer interaction will enhance motivation and learning outcomes. Ultimately, integrating digital technologies thoughtfully and inclusively will build a more skilled, adaptable, and confident teaching workforce prepared to meet the challenges of modern education. Future policies and practices should focus on creating sustainable, equitable digital learning ecosystems that support lifelong professional growth for all teachers.

References:

1. Abdullaeva, M. (2023). Development and prospects of digital education systems. Higher Education, 1(3), 12-18.
2. Ismoilov, A., & Karimova, N. (2022). Digital technologies in teacher professional development. Education and Innovations, 5(2), 34-40.
3. Johnson, L., & Adams Becker, S. (2019). The NMC Horizon Report: 2019 Higher Education Edition. EDUCAUSE.
4. Smith, J. (2021). Digital platforms in teacher professional development. Journal of Education Technology, 12(4), 56-65.

INKLYUZIV TA’LIM VA KADRLAR MALAKASINI OSHIRISHDA RAQAMLI KOMPETENSIYALARNI RIVOJLANTIRISH

Qo‘qon universiteti
Maxsus pedagogika yo‘nalishi 2-kurs talabasi
Olimova Sarvaraxon Sobitxon qizi,
Email: sarvaraolimova7@gmail.com
Telefon raqam: +998 77 279 98 20

Annotatsiya. Mazkur maqolada O‘zbekistonda inklyuziv ta’limni rivojlantirish masalalari yoritilgan. Inklyuziv ta’limning mohiyati, uning zamonaviy ta’lim tizimidagi o‘rni hamda maxsus ehtiyojli bolalarni jamiyatga muvaffaqiyatli integratsiya qilishdagi ahamiyati ko‘rib chiqiladi. Shuningdek, pedagoglarning kasbiy kompetensiyasini oshirish, xalqaro tajribani o‘rganish va raqamli texnologiyalarni ta’lim jarayoniga joriy etishning samarali yo‘llari tahlil qilingan. Xalqaro tajribalar asosida O‘zbekiston sharoitida qo‘llash mumkin bo‘lgan taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan. Maqola natijalari inklyuziv ta’lim sifatini oshirish va barcha bolalar uchun teng ta’lim imkoniyatlarini yaratishga xizmat qiladi.

Kalit so‘zlar: inklyuziv ta’lim, maxsus ehtiyojli bolalar, pedagogik kompetensiya, xalqaro tajriba, raqamli texnologiyalar.

Abstract. This article discusses the development of inclusive education in Uzbekistan. It explores the concept of inclusivity, its role in the modern education system, and its importance for the successful integration of children with special educational needs into society. Particular attention is paid to teacher competence, the adoption of international best practices, and the use of digital technologies in the learning process. The study highlights effective approaches that can be applied within the context of Uzbekistan and provides recommendations aimed at improving the quality of inclusive education. The results of the research contribute to ensuring equal learning opportunities for all children and enhancing the effectiveness of the national education system.

Keywords: inclusive education, special educational needs, teacher competence, international experience, digital technologies.

Аннотация. В статье рассматриваются вопросы развития инклюзивного образования в Узбекистане. Раскрывается сущность инклюзии, её роль в современной системе образования и значение для успешной интеграции детей с особыми образовательными потребностями в общество. Особое внимание уделяется профессиональной компетентности педагогов, изучению международного опыта и использованию цифровых технологий в учебном процессе. На основе анализа представлены предложения и рекомендации, которые могут быть адаптированы к условиям Узбекистана. Результаты исследования направлены на повышение качества инклюзивного образования и создание равных возможностей для всех детей.

Ключевые слова: инклюзивное образование, дети с особыми образовательными потребностями, педагогическая компетентность, международный опыт, цифровые технологии.

Kirish. Yurtimizdagi o‘zgarishlar tufayli bugun biz dunyo miqyosidagi bir qator davlatlar bilan bemalol raqobat qilaolishimiz mumkinligini isbotlamoqdamiz. Bunga esa yurtimiz yoshlari poydevor bo‘lib kelmoqdalar. Ularning salohiyati va harakatlari yurtimiz istiqboliga qaratilgan eng katta investitsiyadir. Yoshlarni har tomonlama barkamol qilib tarbiyalash esa ayni yurtimizning eng bosh g‘oyalaridan biri. Shu qatorda yoshlar huquqlarini himoya qilish va ularni jamiyatda teng huquqli ekanliglarini anglatish uchun islohotar olib borildi. BMT ning ta’lim sohasidagi siyosati yo‘nalishlaridan biri bolalarning alohida ta’lim ehtiyojlari xilma-xilligini hisobga olgan holda ta’lim berishni nazarda tutadigan inklyuziv ta’lim g‘oyalarini ishtirokchi davlatlar tomonidan keng amalga oshirilishini ta’minlash hisoblanadi. YUNESKOning inson huquqlari va erkinliklarini ta’minlashga qaratilgan dasturlari alohida ta’limga extiyoji bo‘lgan bolalar va kattalar uchun xavfsiz va qulay ta’limni ta’minlashga qaratilgan me’yorlar, standartlar hamda intellektual hamkorlikni modernizatsiyalashga yo‘naltirilmoqda. Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasida belgilangan ijtimoiy tenglik qoidalarini amalga oshirishda ta’limning barcha uchun ochiqligini, gender jihatdan tenglikka asoslanganligini ta’minlovchi mexanizmlarini amaliyotga joriy etish muhim ahamiyat kasb etmoqda[47]. Shu jumladan yurtimizga Inklyuziv ta’lim

[47] Mualliflar jamoasi. Inklyuziv ta’lim: nazariya va metodika. Chirchiq 2022.-B.3

tushunchasi kirib keldi. “Inklyuziv ta’lim” atamasi fransuzcha “inclusive” so‘zidan kelib chiqqan bo‘lib, “o‘z ichiga oladi” deb tarjima qilinadi va maxsus ehtiyojlari bo‘lgan va shartli ravishda sog‘lom, ya’ni sog‘lig‘i cheklanmagan odamlarning birgalikdagi ta’limini anglatadi. Bu atama bizga anchagina tanish bo`lishga ulgurgan biz inklyuziv ta’limni davlatimizda jorish qilish bilan har bir bolaning teng huquqli ekanligini ham targ`ib etyapmiz. Bugungi O‘zbekiston ta’lim tizimida inklyuziv ta’lim amaliyoti kengaymoqda: 2022-yilda 225 ta oddiy maktabda, 2023–2024 yillar davomida esa 530 maktabda jami 1 195 nafar maxsus ehtiyojli bola umumta’lim maktablarida ta’lim olmoqda[48]. Shu bilan birga, Finlyandiya misolida, 2019–2020 o‘quv yilida 21 % o‘quvchilarga qisman maxsus qo‘llab-quvvatlash xizmatlari ko‘rsatilgan bo‘lsa, jami 29 % o‘quvchiga turli darajada yordam berilgan[49]. Janubiy Koreyada esa 2022-yilda maxsus ehtiyojli bolalarning 72,8 % foizi inklyuziv ta’lim tizimiga kiritilgan[50]. Port-ugal va Norvegiya misollarida esa bunday amaliyot ta’lim sifatini sezilarli darajada oshirganligi ko‘rsatilgan[51]. Inklyuziv ta’lim endi rijovlanayotganligi uchun pedagoglar bu sohada oqsoqlanishlari mumkin. Ammo ularni bu muammosini ham bartaraf etish choralari ko‘rilgan. Aynan oliy ta’limda bo‘lajak pedagoglar uchun inklyuziv ta’lim fani o‘qitilmoqda bu esa o‘qituvchilarning inklyuziv ta’limda ham bemalol ishlay olishlari uchun sharoit yaratmoqda. Inklyuziv ta’limni rivojlantirish uchun pedagoglar, ota-onalar va o‘quvchilar bu holatdan habardor bo‘lishi lozim.

Adabiyotlar tahlili. O‘zbekistonda inklyuziv ta’lim tizimini rivojlantirish bo‘yicha qator ilmiy tadqiqotlar olib borilgan. Xususan, Turamuratov U. U. o‘zining “Inklyuziv ta’lim. Gospital pedagogika” nomli asarida maxsus ehtiyojli bolalarni umumiy ta’lim muassasalarida o‘qitishning nazariy va amaliy jihatlarini chuqur tahlil qilgan[52]. Shuningdek, Ismailova D. “O‘zbekistonda inklyuziv ta’limni rivojlantirishning dolzarb masalalari” maqolasida mamlakatimizda olib borilayotgan islohotlarning amaliy natijalari, mavjud muammolar va ularni hal qilish yo‘llarini yoritgan. Muallifning ta’kidlashicha, pedagogik kadrlarning yetarli malakaga ega bo‘lmasligi hamda o‘quv dasturlarining maxsus ehtiyojli bolalar uchun to‘liq moslashtirilmaganligi inklyuziv ta’limni rivojlantirishda asosiy to‘siqlardan biridir[53].Ushbu manbalar shuni ko‘rsatadiki, O‘zbekistonda inklyuziv ta’lim bo‘yicha sezilarli yutuqlar mavjud bo‘lsa-da, tizimni yanada takomillashtirish uchun keng qamrovli ilmiy-amaliy chora-tadbirlarni amalga oshirish zarur.

Mamlakatimizda inklyuziv ta’limni ta’lim oluvchilarning ijtimoiy ehtiyojlari va shaxsiy manfaatlaridan kelib chiqqan holda fan, ta’lim va ishlab chiqarishning mustahkam integratsiyasini ta’minlash asosida tashkil etishning huquqiy – me’yorlari ishlab chiqilgan. “Alohida ta’lim ehtiyoji bo‘lgan bolalar uchun inklyuziv ta’limni tashkil etish maqsadida ta’lim muassasalari moddiy texnika

2. UNICEF applauds Uzbekistan Government’s leadership in inclusive education: 225 regular schools piloting inclusive practices. UNICEF Uzbekistan.

[49] Statistics Finland 2021. Special education and support in comprehensive schools, 2020.

[50] 5. Kim.Y and Lee, H.2025. Inclusive education in South Korea. Asia Pacific Education Review. 26(1). Pp-45–61

[51] UNICEF 2022. Inclusive schools in Portugal and Norway.

[52] U. Turamuratov. U. Inklyuziv ta’lim. Gospital pedagogika. Toshkent. Nashir. 2019. B.45–52

[53]D. Ismailova. “O‘zbekistonda inklyuziv ta’limni rivojlantirishning dolzarb masalalari.” Ta’lim va innovatsion tadqiqotlar jurnali. 2021. Jild.№4. B.112–118.

bazasini mustahkamlash, o‘quv dasturlarini adaptivlashtirish, sog‘lomlashtiruvchi sifatli ta’lim xizmatlari imkoniyatlarini oshirish hamda bu jarayonga mos yuqori malakali kadrlar tayyorlash” kabi muhim vazifalar belgilandi[54].

O‘zbekistonda va boshqa ko‘plab mamlakatlarda inklyuziv ta’limni rivojlantirishda hal qilinishi kerak bo‘lgan asosiy muammolar mavjutdir. Quyida hozirgi kunda inklyuziv ta’limdagi muammolar haqida tahlil qilib otilgan:

1. Pedagoglarning inklyuziv ta’limga tayyorgarligi pastligi inklyuziv ta’limning tamoyillarining to‘g‘ri ishlashiga to‘siq bo‘ladi.

2. Maxsus ehtiyojga ega bolalar bilan individual yondashuvni qo‘llash bo‘yicha amaliy tajriba yetishmaydi.

3. Kasbiy qayta tayyorlash va malaka oshirish dasturlarining sustligi: Inklyuziv ta’lim bo‘yicha malaka oshirish kurslari kam va noto‘g‘ri yo‘naltirilgan. Zamonaviy metodika, psixologik yondashuvlar va maxsus pedagogik texnologiyalar o‘qituvchilarga yetarlicha o‘rgatilmaydi.

4. Ijtimoiy stereotiplar va salbiy qarashlar: Jamiyatda, hattoki ayrim pedagoglar orasida ham, nogiron bolalarni umumiy ta’lim muassasalarida o‘qitishga nisbatan salbiy qarashlar mavjud. Bu esa inklyuziv muhiti shakllanishiga to‘sqinlik qiladi.

5. Metodik qo‘llanmalarning va didaktik materiallarning yetishmasligi:

Pedagoglar uchun amaliy ish rejasi, dars ishlanmalari va moslashtirilgan o‘quv materiallari yetarli emas. Maxsus ehtiyojga ega o‘quvchilar bilan ishlashda foydalaniladigan materiallar, texnologiyalar va vositalar cheklangan.

6. Muloqot va hamkorlik yetishmasligi: Ota-onalar, defektologlar, logopedlar va psixologlar bilan samarali hamkorlik yo‘lga qo‘yilmagan. Jamoaviy yondashuv o‘rniga pedagoglar ko‘p hollarda yolg‘iz harakat qiladilar.

7. Dars yuklamasi va ish sharoitlari: Pedagoglarning ish yuklamasi juda yuqori bo‘lib, ularni har bir o‘quvchiga individual yondashishga qiynaydi. Maxsus ehtiyojli bolalarga alohida e’tibor qaratish uchun zarur bo‘lgan vaqt, resurs va sharoitlar cheklangan.

O‘qituvchilar bilan o‘quvchilar o‘rtasidagi muammolar, ayniqsa inklyuziv ta’lim sharoitida, bir necha asosiy jihatlarda namoyon bo‘ladi.

1. O‘qituvchilar har doim ham maxsus ehtiyojli o‘quvchilarning ehtiyoj va imkoniyatlarini to‘g‘ri anglay olmaydi. O‘quvchilar esa o‘qituvchining ko‘rsatmalarini to‘liq tushunmasligi yoki bajarishga qiynalishi mumkin.

2. O‘z individual yondashuvning yo‘qligi. Yani o‘qituvchilar har bir o‘quvchining psixologik, jismoniy va intellektual xususiyatlarini inobatga olmasdan umumiy yondashuvni qo‘llaydi. Natijada ayrim o‘quvchilar o‘zlarini e’tibordan chetda qolgan hisoblab o‘qishga bo`lgan qiziqishlari suslashadi.

3. Kommunikatsiya muammolari. Bu degani - eshitish, ko‘rish, nutq buzilishi yoki autizm spektridagi o‘quvchilar bilan to‘g‘ri muloqot o‘rnatish qiyin bo‘ladi. O‘qituvchilar maxsus kommunikatsion vositalarni (imo-ishora tili, piktogrammalar, vizual jadval) yetarlicha bilmasligi mumkin.

[54] Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 7 февралдаги “Ўзбекистон Республикасини янада ривожлантириш бўйича Ҳаракатлар стратегияси тўғрисида”ги ПФ-4947-сонли Фармони.

4. Ijtimoiy ajratish yoki ajralib qolish. O‘qituvchi ko‘proq e’tiborni kuchli o‘quvchilarga qaratadi, maxsus ehtiyojli bolalar esa e’tibordan chetda qoladi.

Bu o‘quvchilarda o‘ziga bo‘lgan ishonchni yo‘qotadi va o‘qishga nisbatan salbiy munosabat paydo bo‘ladi.

5. Yana bir jihat sog`lom bolalarga nuqsonli bolalardan ko‘ra kam vaqt ajratishda sog‘lom o‘quvchilarda tengdoshiga nisbatan nafrat uyg‘otib qo‘yish mumkin. Bu esa ikkala o‘quvchiga ham yomon ta’sir ko‘rsatadi.

Xulosa va tavsiyalar.

O‘zbekiston ta’lim tizimida inklyuziv ta’limni rivojlantirish masalasi davlat siyosatining muhim yo‘nalishlaridan biri bo‘lib, alohida ehtiyojli bolalarning ta’limga teng huquq asosida qo‘shilishini ta’minlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Adabiyotlar tahlili va amaliy tajriba shuni ko‘rsatadiki, maxsus pedagogika yondashuvlarini takomillashtirish, zamonaviy pedagogik metodlardan foydalanish va jamiyatda ijobiy munosabat shakllantirish inklyuziv ta’lim samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. Shu bilan birga, mavjud yutuqlar bilan bir qatorda, resurslar yetishmasligi, malakali kadrlar tayyorlash zarurati va texnologik imkoniyatlarning cheklanganligi kabi muammolar ham mavjud**.**

Yuqoridagilardan kelib chiqib, tadqiqotimiz davomida olingan natijalar yuzasidan bir qator amaliy tavsiyalar ishlab chiqildi:

1. Raqamli texnologiyalarni joriy etish – Inklyuziv ta’lim jarayonida maxsus mobil ilovalar, interaktiv ta’lim platformalari, subtitrli va audiovizual materiallardan foydalanish orqali o‘quvchilarning mustaqil o‘qish va rivojlanish imkoniyatlarini kengaytirish. Inklyuziv ta’lim jarayonida raqamli texnologiyalardan foydalanish alohida ehtiyojli o‘quvchilarning ta’limga bo‘lgan imkoniyatlarini kengaytiradi. Maxsus mobil ilovalar, interaktiv ta’lim platformalari, subtitrli va audiovizual materiallardan foydalanish ta’lim sifatini oshirish bilan birga, o‘quvchilarni mustaqil o‘qishga rag‘batlantiradi. Shu bois, raqamli ta’lim resurslarini yaratish va ularni o‘qituvchilar faoliyatiga integratsiya qilish muhim ahamiyat kasb etadi.

2. Xalqaro hamkorlikni kuchaytirish – UNESCO, UNICEF va boshqa xalqaro tashkilotlar bilan qo‘shma loyihalarni amalga oshirish, ilg‘or xorijiy tajribalarni o‘rganish va ularni milliy ta’lim tizimiga tatbiq etish orqali samaradorlikka erishish. Inklyuziv ta’limni rivojlantirishda xalqaro tajriba va hamkorlik muhim ahamiyatga ega. UNESCO, UNICEF va boshqa xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlikni kuchaytirish, xorijiy mamlakatlarning ilg‘or tajribalarini o‘rganish hamda ularni milliy ta’lim tizimiga moslashtirish orqali samaradorlikka erishish mumkin. Shu bilan birga, xorijiy grantlar va qo‘shma loyihalarni jalb qilish O‘zbekistonda inklyuziv ta’limni yanada rivojlantirishga xizmat qiladi. Inklyuziv ta’limni rivojlantirishda xalqaro tajribadan foydalanish bilan bir qatorda, pedagoglarning kasbiy kompetensiyasini oshirish, raqamli texnologiyalarni samarali qo‘llash va innovatsion metodlardan foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi.

3. Malakali kadrlar tayyorlash – maxsus pedagoglar, logopedlar va defektologlarning raqamli texnologiyalarni qo‘llash hamda xalqaro tajribalarni amaliyotga joriy etish bo‘yicha bilim va ko‘nikmalarini oshirish. Pedagoglar

o‘quvchilarning ehtiyojlaridan kelib chiqib ularga ta’lim berishlari kerak deb yuqorida takidlab o‘tdik. Yana bir jihatdan individual ta’lim shaklini takidlab o‘tamiz. Bolalarning maxsus ehityoji masalan eshitishda nuqsoni bor bolalar uchun maxsus usullardan yani ovozni ko‘tarib o‘qish yoki ruhiy rivojlanishi suslashgan bolalar bilan ko‘proq psixologik tomondan ular bilan shug‘ullanish maqsadga muvofiqdir. Aynan bu ikki xil nuqson bilan cheklanmaymiz balki boshqa nuqsonlarni ham maxsus ehtiyojlaridan kelib chiqgan holda ta’lim jarayonlarini yaratish kerak. Inklyuziv muhitni shakllantirishda nafaqat pedagoglar, balki muassasa rahbarlari, ota-onalar ham ishtirok etishi lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Mualliflar jamoasi. Inklyuziv ta’lim: nazariya va metodika. Chirchiq 2022.-B.3
2. UNICEF applauds Uzbekistan Government’s leadership in inclusive education: 225 regular schools piloting inclusive practices. UNICEF Uzbekistan.
3. Statistics Finland 2021. Special education and support in comprehensive schools.2020.
4. Toxirov, R. S., & Raxmonov, N. R. O. G. L. (2021). DASTURIY TA’MINOT YORDAMIDA ZAMONAVIY BOSHQARUVNI TASHKIL ETISH ISTIQBOLLARI. Central Asian Academic Journal of Scientific Research, 1(1), 181-186.
5. Kim. Y and Lee, H.2025. Inclusive education in South Korea. Asia Pacific Education Review, 26(1), 45–61.

ONLAYN TA’LIM VA PEDAGOGLAR MALAKASINI OSHIRISH

Murtozaqulova Nafosatxon Akmaljon qizi
Andijon davlat chet tillari instituti “Tarjima nazariyasi va amaliyoti:rus tili” yo‘nalishi 2-bosqich talabasi
Email:murtozakulovanafosat@gmail.com

Annotatsiya: Mazkur maqolada pedagog va psixologlarni tayyorlashda raqamli texnologiyalar va masofaviy ta’lim vositalarining o‘rni tahlil qilinadi. Globallashuv va raqamli transformatsiya sharoitida pedagoglarning raqamli kompetensiyasini rivojlantirish ta’lim tizimining eng dolzarb vazifalaridan biri sifatida ko‘rib chiqiladi. Masofaviy kurslar va onlayn platformalar (Coursera, EdX, Khan Academy, Moodle, ZiyoNET, EduMarket) o‘qituvchilarning bilimlarini yangilash, xalqaro tajribalarni o‘rganish va malakasini oshirishga xizmat qilishi yoritiladi. Shuningdek, raqamli ta’lim vositalari pedagoglarning ijodkorligini oshirishi, darslarni interaktiv shaklda tashkil etish va o‘quvchilarga individual yondashuv imkonini berishi ta’kidlanadi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PF–5847-son va PF–5789-son Farmonlari, shuningdek “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonun asosida davlat siyosatining ushbu jarayonga ta’siri ham o‘rganilgan. Tadqiqot natijalari raqamli kompetensiyani rivojlantirish pedagoglarning kasbiy

salohiyatini oshirish, ta’lim sifatini yaxshilash hamda raqobatbardosh kadrlar tayyorlashda muhim ahamiyatga ega ekanini ko‘rsatadi.

Kalit so‘zlar: Raqamli kompetensiya, masofaviy ta’lim, innovatsion texnologiyalar, pedagog malakasi, raqamli transformatsiya.

Аннотация: В статье анализируется роль цифровых технологий и дистанционного обучения в подготовке педагогов и психологов. В условиях глобализации и цифровой трансформации развитие цифровой компетенции педагогов рассматривается как одна из приоритетных задач системы образования. Раскрывается значение онлайн-платформ (Coursera, EdX, Khan Academy, Moodle, ZiyoNET, EduMarket) для обновления знаний, изучения международного опыта и повышения квалификации учителей. Подчеркивается, что цифровые инструменты повышают креативность педагогов, способствуют организации интерактивных занятий и обеспечивают индивидуальный подход к учащимся. В работе также изучено влияние государственной политики, основанной на Указах Президента Республики Узбекистан № PF–5847, № PF–5789 и Законе «Об образовании». Результаты показывают, что развитие цифровой компетенции играет ключевую роль в повышении профессионального потенциала педагогов, улучшении качества образования и подготовке конкурентоспособных кадров.

Ключевые слова: цифровая компетенция, дистанционное обучение, инновационные технологии, квалификация педагогов, цифровая трансформация.

Abstract: This article analyzes the role of digital technologies and distance learning in the training of teachers and psychologists. In the context of globalization and digital transformation, the development of teachers’ digital competence is considered one of the most important tasks of the education system. The paper highlights the role of online platforms (Coursera, EdX, Khan Academy, Moodle, ZiyoNET, EduMarket) in updating knowledge, acquiring international experience, and enhancing teachers’ professional skills. It is emphasized that digital tools foster teachers’ creativity, support interactive teaching methods, and enable personalized learning approaches. The study also examines the impact of state policy, based on Presidential Decrees of the Republic of Uzbekistan No. PF–5847, No. PF–5789, and the Law “On Education.” The findings show that developing digital competence is crucial for improving teachers’ professional capacity, enhancing the quality of education, and preparing competitive specialists.

Keywords: Digital competence, distance learning, innovative technologies, teacher qualification, digital transformation.

Globallashuv va raqamli transformatsiya sharoitida ta’lim tizimi oldida turgan eng muhim vazifalardan biri — pedagog kadrlarning raqamli kompetensiyasini rivojlantirishdir. Tadqiqotchilarning fikriga ko‘ra, raqamli kompetensiya o‘qituvchining nafaqat axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan

foydalanish ko‘nikmalarini, balki ta’lim jarayonini innovatsion vositalar orqali samarali tashkil eta olish qobiliyatini ham o‘z ichiga oladi .[55]

So‘nggi yillarda dunyo miqyosida olib borilgan izlanishlar masofaviy ta’lim platformalarining ta’lim sifati va pedagog malakasiga ijobiy ta’sirini ko‘rsatmoqda. Jumladan, Coursera, EdX, Khan Academy kabi xalqaro onlayn kurslar o‘qituvchilar uchun yangi bilim va metodik materiallar manbai sifatida keng qo‘llanilmoqda. [56]O‘zbekistonda esa Moodle, ZiyoNET, EduMarket kabi platformalarning rivojlanishi pedagoglarga masofadan turib malaka oshirish imkonini bermoqda .

Shuningdek, raqamli ta’lim vositalaridan foydalanish pedagoglarning ijodkorligi, kasbiy motivatsiyasi va metodik mahoratini oshiradi. Chunki onlayn kurslar orqali ular xalqaro hamjamiyat bilan tajriba almashish, zamonaviy ta’lim metodlarini o‘rganish va dars jarayonini interaktiv shakllarda tashkil qilish imkoniyatiga ega bo‘ladilar.

Davlat darajasida ham ushbu yo‘nalishga katta e’tibor qaratilmoqda. Xususan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-5847-son Farmoni bilan tasdiqlangan “Oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi”da ta’lim jarayoniga raqamli texnologiyalarni keng joriy etish, masofaviy ta’limni rivojlantirish hamda pedagoglarning zamonaviy kompetensiyalarini shakllantirish ustuvor vazifa sifatida belgilangan . Shuningdek, PF-5789-son Farmonda oliy ta’lim muassasalari rahbar va pedagog kadrlarining uzluksiz malakasini oshirish tizimini joriy etish, ularni raqamli ta’lim muhitiga moslashtirish bo‘yicha aniq vazifalar belgilab berilgan .[57]

Xullas, masofaviy kurslar orqali pedagoglarning raqamli kompetensiyasini rivojlantirish masalasi zamonaviy ta’limning asosiy yo‘nalishlaridan biri bo‘lib, uning samarali yechimi ta’lim sifati va raqobatbardosh kadrlar tayyorlash darajasini belgilab beradi.

Raqamli kompetensiya ta’limshunoslik adabiyotlarida keng talqin etiladi: uni axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan samarali foydalanish qobiliyati sifatida ko‘rishdan tortib, pedagogik dizayn, metodik moslashuv va pedagogning o‘quv jarayonini interaktiv texnologiyalar orqali tashkil eta olish salohiyatini o‘z ichiga oluvchi keng tushunchaga qadar tasvirlashadi. Zamonaviy tadqiqotlar masofaviy va onlayn kurslarning o‘qituvchilarning kasbiy kompetensiyalarini oshirishda ijobiy ta’siri — bilim yangilash, pedagogik metodlarni qayta ko‘rib chiqish va xalqaro tajriba almashinuvining qulay platformasi bo‘lib xizmat qilishini ko‘rsatmoqda . [58]

O‘zbekiston kontekstida oliy ta’lim va pedagog kadrlar malakasini oshirish bo‘yicha davlat strategiyasi raqamli transformatsiyani qo‘llab-quvvatlaydi: 2019-yilda tasdiqlangan “Oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi”

[55] Karimov Sh. (2023). Umumiy o‘rta ta’limini raqamlashtirish islohotlari davrida pedagog kadrlarning raqamli ko‘nikmalarini rivojlantirish masalasi.
[56] UNESCO (2021). Digital learning: Opportunities and challenges.
[57] O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti (2019b). PF-5789-son Farmon: Oliy ta’lim muassasalari rahbar va pedagog kadrlarining uzluksiz malakasini oshirish tizimi.
[58] UNESCO. Digital learning and transformation of education (rasmiy sayt va resurslar)

oliy ta’limda raqamli texnologiyalarni joriy etishni ustuvor vazifa sifatida belgilaydi, shuningdek rahbar va pedagog kadrlarning uzluksiz malaka oshirish mexanizmi tashkil etilishi ko‘zda tutilgan. Bu hujjatlar masofaviy kurslar va onlayn platformalarning amaliy jihatga ega ekanligini qonuniy asos bilan mustahkamlaydi.

Shuningdek, “Ta’lim to‘g‘risida”gi qonun ta’lim sohasida innovatsiyalar va masofaviy shakllarni qonuniy asosga qo‘yuvchi hujjat sifatida tizimni raqamlashtirish jarayonining yuridik poydevorini ta’minlaydi. Bular jamlangan holda milliy siyosat pedagoglarni masofaviy kurslar orqali malakasini oshirishni rag‘batlantiruvchi institutsional sharoit yaratganini ko‘rsatadi.

Masofaviy kurslar orqali pedagoglarning raqamli kompetensiyasini rivojlantirish bugungi kunda nafaqat milliy, balki global miqyosda dolzarb masala hisoblanadi. Jahon tajribasi shuni ko‘rsatadiki, raqamli texnologiyalar ta’lim tizimiga integratsiya qilingan mamlakatlarda o‘qituvchilarning kasbiy mahorati, ta’lim sifati va o‘quvchilarning o‘zlashtirish ko‘rsatkichlari sezilarli darajada oshadi. Masalan, Finlyandiya ta’lim tizimida pedagoglar uchun yaratilgan onlayn kurslar va virtual laboratoriyalar nafaqat o‘qituvchi malakasini oshirishga, balki ularning kasbiy motivatsiyasini mustahkamlashga ham xizmat qilmoqda .[59] Shu bilan birga, AQSh va Kanada tajribasida masofaviy platformalar orqali muntazam ravishda seminarlar, vebinarlar va sertifikat dasturlari tashkil etilishi pedagoglarning uzluksiz ta’limini qo‘llab-quvvatlamoqda.

Xalqaro tadqiqotlarda qayd etilishicha, raqamli kompetensiya nafaqat texnologik vositalardan foydalanishni, balki ularni ta’lim jarayonida metodik asoslangan holda tatbiq etishni ham o‘z ichiga oladi .[60] Masalan, Coursera va EdX platformalarida o‘qituvchilar uchun ishlab chiqilgan maxsus modul va kurslar mavjud bo‘lib, ular o‘qituvchini yangi pedagogik yondashuvlarga o‘rgatadi: masofaviy baholash, gamifikatsiya, AR/VR texnologiyalaridan foydalanish va STEAM metodlarini qo‘llash kabi. Bunday imkoniyatlar o‘z navbatida o‘qituvchining kreativ fikrlashini rivojlantiradi, ta’lim jarayonini esa zamonaviy talablar asosida tashkil etishga yordam beradi.

O‘zbekiston sharoitida masofaviy kurslar va onlayn platformalarning rivojlanishi so‘nggi yillarda sezilarli bosqichga ko‘tarildi. Xususan, ZiyoNET portali orqali o‘qituvchilar turli elektron darsliklar, metodik qo‘llanmalar va video darslardan foydalanish imkoniga ega bo‘ldilar. EduMarket platformasi esa pedagoglar uchun masofaviy kurslar va malaka oshirish dasturlarini taklif qilmoqda. Shuningdek, oliy ta’lim muassasalarida Moodle tizimining joriy etilishi talabalar va o‘qituvchilar o‘rtasida samarali onlayn muloqot, topshiriqlarni elektron shaklda taqdim etish va baholash imkoniyatini yaratmoqda.

Ammo shuni alohida ta’kidlash kerakki, masofaviy kurslar samaradorligi ko‘p jihatdan pedagoglarning shaxsiy motivatsiyasi va infratuzilmaning rivojlanish darajasiga bog‘liq. Hali ham ayrim hududlarda internet tezligi pastligi, elektron qurilmalarga cheklangan imkoniyat va metodik qo‘llanmalar yetishmasligi kabi

[59] UNESCO. Digital Literacy in Education. Paris: UNESCO Publishing, 2018.
[60] Anderson, T., & Dron, J. Learning in a Digital Age: Massive Open Online Courses (MOOCs), Hybrid Models, and Open Education. Athabasca University Press, 2014.

muammolar mavjud. Shu bilan birga, ayrim pedagoglar uchun yangi texnologiyalarni o‘zlashtirishda psixologik to‘siqlar ham uchrab turadi. Bu esa davlat tomonidan qo‘shimcha metodik yordam, amaliy seminarlar va rag‘batlantirish tizimlarini yanada kuchaytirishni talab qiladi.

Kelajakda pedagoglarning raqamli kompetensiyasini oshirishda bir nechta asosiy yo‘nalishlarni ajratib ko‘rsatish mumkin. Birinchidan, milliy ta’lim tizimida yaratilayotgan raqamli infratuzilma – elektron kutubxonalar, raqamli platformalar, masofaviy ta’lim tizimlari pedagoglar uchun boy resurs bazasini taqdim etadi. Ikkinchidan, xalqaro hamkorlik doirasida tashkil etilayotgan grantlar, ilmiy loyihalar va qo‘shma dasturlar pedagoglarga yangi bilim va tajribalarni o‘zlashtirish imkoniyatini beradi. Uchinchidan, raqamli texnologiyalar narxining pasayishi, mobil qurilmalar va internetning keng tarqalishi ham masofaviy ta’limni ommalashtirish uchun qulay sharoit yaratadi.

Shu o‘rinda, raqamli kompetensiya rivojlanishi o‘qituvchining faqat kasbiy emas, balki shaxsiy rivojlanishiga ham ijobiy ta’sir ko‘rsatishini qayd etish lozim. Chunki raqamli muhitda ishlash, onlayn hamkorlik qilish, yangi texnologiyalarni tez o‘zlashtirish qobiliyati o‘qituvchining ijodiy tafakkuri, innovatsion qarashlari va o‘z ustida ishlash motivatsiyasini oshiradi.

Pedagoglarning raqamli kompetensiyasini rivojlantirish jarayonida faqat texnik ko‘nikmalar emas, balki metodik va kommunikativ salohiyat ham muhim o‘rin tutadi. Chunki raqamli texnologiyalarni bilishning o‘zi yetarli emas, ularni o‘quv jarayonida samarali qo‘llash, ta’lim mazmuniga moslashtirish va talabalar bilan interaktiv aloqa o‘rnatish pedagogning asosiy vazifalaridan biridir. Masalan, virtual laboratoriyalar, simulyatsiyalar va multimedia vositalari dars jarayonida nazariy bilimlarni amaliy mashg‘ulotlar bilan uyg‘unlashtirish imkonini beradi.

Bundan tashqari, raqamli ta’lim muhiti o‘qituvchilardan doimiy yangilanishni, yangi platformalar va dasturlarni o‘zlashtirishni talab qiladi. Bugungi kunda zamonaviy pedagog o‘z faoliyatida sun’iy intellekt vositalari, ta’limiy analitika dasturlari va onlayn baholash tizimlaridan foydalana olishi lozim. Shu nuqtai nazardan, raqamli kompetensiya doimiy o‘sishda bo‘lishi, yangi texnologiyalar bilan boyib borishi zarur.

Shuningdek, masofaviy va onlayn kurslarning rivojlanishi ta’limning demokratlashuviga xizmat qilmoqda. Endilikda chekka hududlarda faoliyat yuritayotgan pedagoglar ham markaziy shaharlardagi hamkasblari kabi dunyo miqyosidagi ilg‘or tajribalar va bilimlardan bahramand bo‘lish imkoniyatiga ega. Bu esa ta’lim sifatida hududiy tafovutlarni kamaytirishga xizmat qiladi.

Ayni paytda, masofaviy kurslar pedagoglarga mustaqil ta’lim olish va o‘z o‘quv jarayonini shaxsiylashtirish imkoniyatini ham beradi. O‘qituvchi o‘zining qiziqish sohasi yoki dars berayotgan faniga mos kurslarni tanlab, ularni individual rivojlanish rejasiga qo‘shishi mumkin. Bu jarayon pedagogning kasbiy motivatsiyasini kuchaytiradi, ta’lim jarayonini yanada samarali va ijodiy tashkil etishiga yordam beradi.

Yana bir muhim jihat — raqamli kompetensiya pedagogning o‘quvchi va talabalar bilan aloqasida ham namoyon bo‘ladi. Masalan, raqamli vositalardan foydalanib, o‘qituvchi o‘quvchilarning bilimlarini tezkor baholash, ularning kuchli

va zaif tomonlarini aniqlash, shuningdek, ta’lim jarayonida individual yondashuvni qo‘llash imkoniyatiga ega bo‘ladi. Shu tariqa, raqamli ta’lim texnologiyalari o‘qituvchi va o‘quvchi o‘rtasida samarali muloqotni yo‘lga qo‘yadi.

Xalqaro tajribaga murojaat qilsak, masalan, Yevropa Ittifoqi tomonidan ishlab chiqilgan DigCompEdu modeli o‘qituvchilarning raqamli kompetensiyasini olti asosiy yo‘nalishda baholaydi: professional muhitni tashkil etish, o‘quv resurslarini yaratish va ulardan foydalanish, o‘quvchilarni o‘qitish va ularning o‘quv faoliyatini qo‘llab-quvvatlash, baholash jarayonini raqamlashtirish, o‘quvchilarning raqamli kompetensiyasini rivojlantirish hamda pedagogning uzluksiz kasbiy rivojlanishini ta’minlash. Ushbu model o‘z navbatida O‘zbekiston ta’lim tizimi uchun ham dolzarb bo‘lib, uni milliy sharoitga moslashtirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Xulosa qilib aytganda, globallashuv va raqamli transformatsiya sharoitida pedagoglarning raqamli kompetensiyasini rivojlantirish ta’lim tizimi oldida turgan eng dolzarb vazifalardan biridir. Bu jarayon pedagoglardan faqat texnologiyalarni bilishni emas, balki ularni o‘quv jarayoniga samarali integratsiya qilish, darslarni interaktiv shaklda tashkil etish va talabalarning individual ehtiyojlarini hisobga olishni talab qiladi.

Masofaviy kurslar va onlayn platformalarning rivojlanishi pedagoglar uchun yangi imkoniyatlar yaratmoqda — ular bilimlarini yangilash, xalqaro tajriba almashish va uzluksiz kasbiy rivojlanishni ta’minlashga xizmat qilmoqda. Shu bilan birga, davlat siyosati darajasida ham raqamli ta’limni qo‘llab-quvvatlash, pedagoglarning malakasini oshirish va innovatsion ta’lim texnologiyalarini joriy etishga katta e’tibor qaratilmoqda.

Demak, ta’lim tizimida raqamli kompetensiyani rivojlantirish orqali nafaqat o‘qituvchilarning kasbiy salohiyatini oshirish, balki ta’lim sifatini yuksaltirish, raqobatbardosh kadrlar tayyorlash va milliy ta’lim tizimini global miqyosda ilg‘or tajribalar bilan uyg‘unlashtirish mumkin bo‘ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PF–5847-son Farmoni. “Oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi to‘g‘risida”. — Toshkent, 2019-yil.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PF–5789-son Farmoni. “Oliy va o‘rta maxsus ta’lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”. — Toshkent, 2019-yil.
3. O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi tomonidan qabul qilingan “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonun. — Toshkent, 2020-yil.
4. Европейская Комиссия. European Framework for the Digital Competence of Educators (DigCompEdu). Luxembourg: Publications Office of the European Union, 2017.
5. UNESCO. ICT Competency Framework for Teachers. Paris: UNESCO Publishing, 2018.

6-sho‘ba:
ZAMONAVIY TA’LIM VA TARBIYA TENDENSIYALARI

ЁШЛАРНИ ОИЛАГА ТАЙЁРЛАШНИНГ ДОЛЗАРБ ЙЎНАЛИШЛАРИ

АКРАМОВА ФЕРУЗА АКМАЛОВНА,

Низомий номидаги Ўзбекистон Миллий педагогика университети
профессори, психология фанлари доктори

Аннотация: Ёшларни оилавий ҳаётга тайёрлаш масаласи миллат равнақи, келажагига таъсир кўрсатувчи долзарб омилдир. Унинг йўналишларини ёшларга сингдириш, ёшларнинг оилавий ҳаётга нисбатан фикрларини ўрганиш муҳим аҳамият касб этади.

Калит сўзлар: ёшлар, оила, оилага тайёрлаш, йўналишлар, оила саломатлиги, оилада психологик муҳит, оила маънавияти, ахлоқи, ўзаро муносабатлар, нохуш холатларни олдини олиш.

Аннотация: Подготовка молодёжи к семейной жизни является актуальным фактором, влияющим на развитие и будущее нации. В этом вопросе важно изучать мнение молодёжи относительно семейной жизни и формировать их установки.

Ключевые слова: молодежь, семья, подготовка к семейной жизни, направления, семейное здоровье, психологический климат в семье, семейная духовность, нравственность, межличностные отношения, профилактика неприятных ситуаций

Abstract: An urgent factor influencing the future and prosperity of the nation is the issue of preparing young people for a family. For this, it is necessary to study the opinions of young people about the family, explain to them the main directions of family life.

Key words: youth, family, preparation for the family, directions, family health, psychological climate of the family, family spirituality, morality, relationships, prevention of undesirable phenomena.

Ёшларни оилавий ҳаётга тайёрлаш инсоният тарихида халқ маънавий такомилининг энг улуғ ва олий йўналишларидан бири бўлиб келган. Оилавий маданият, оилавий ҳаётга онгли кириб бориш, оилавий вазифаларни бажаришга тайёрлик, ҳаётда оила ўрнини юксак қадрлаш, халқ маънавий меросидаги оила қадриятларини ўз замони талаблари билан уйғунлаштириб ривожлантириш ҳар вақт инсон ҳаётий мезони ва жамият олдида турган долзарб вазифалардан бири сифатида тан олинган.

Ўзбекистонда давлатнинг асосий вазифаларидан бири сифатида оилани мустаҳкамлаш, оилавий муносабатларни ўзаро муҳаббат, ишонч ва ҳурмат, ҳамжиҳатлик, бир-бирига ёрдам бериш сифатида таркиб топтириш, оила олдида унинг барча аъзоларининг масъуллиги ҳисси асосида қуриш, оила

аъзолари ўз ҳуқуқларини тўсқинликсиз амалга оширишини ҳамда бу ҳуқуқларнинг ҳимоя қилинишини таъминлашдан иборатдир.

Мазкур вазифаларни амалга оширишда ёшларни оилавий ҳаётга тайёрлаш энг долзарб масалалардан бири ҳисобланади. Ёшларни оилавий ҳаётга тайёрлаш фақат шахсий, бошқаларга алоқаси йўқдек кўринади, аммо бу қараш миллатимиз равнақига, халқимиз одобига, келажагига, насли-насабига путур етказишдан сақловчи омилдир.

Мамлакат аҳолисининг ярмидан кўпроқ қисмини ёшлар ташкил қилиши, ўсиб бораётган ёш авлодни жамиятда мустақил яшашга тайёрлаш вазифасининг долзарблиги ёшларни жамият ҳаётига ва оилавий турмушга тайёрлаш ишларини жадаллаштиришни ва янгича мазмунда қайта қуришни талаб этди.

Президент Шавкат Мирзиёев томонидан “Турмуш қурган ёшлар орасида ҳаётни енгил-елпи тасаввур қилиш, оила муқаддас эканини тушуниб етмаслик ҳолатлари ҳам, афсуски, учраб турибди. Ёш оилалар орасида арзимас сабаблар билан ажралишлар кўпайиб бормоқда. Бегуноҳ болалар етим бўлиб, меҳр ва эътиборга энг ташна вақтида ота-она тарбиясидан четда қолмоқда” деб таъкидлангани ҳам мазкур масалага жиддий эътибор қаратишни тақазо этади.

Йигит ва қизлар томонидан қурилаётган оилаларнинг баъзи сабабларга кўра бузилиб кетиш холлари хамон давом этмоқда. Никоҳдан ажралишлар асосан 20-35 ёш орасидаги фуқаролар томонидан амалга оширилаётганлиги ўз навбатида, ёшлар онгида оила ва унинг муқаддаслиги ҳақидаги тушунчаларнинг саёзлашиб бораётганлигини кўрсатмоқда. Шунинг учун ҳам ёшларни оила-никоҳ муносабатларига тайёрлаш муҳим вазифа сифатида ўзини намоён этади. Ёшларни турмуш қуришга тайёрлаш давомида ажралишдек мудҳиш воқеа оила муҳити учун фожиа эканлигини уларнинг онгига сингдириш, қўйди–чиқдининг ёмон оқибатларини яққол мисоллар ёрдамида тушунтириш ишларини олиб бориш муҳим роль ўйнайди.

Ёшларни оилавий ҳаётга психологик, руҳий, жисмоний, жинсий томондан тўлиқ тайёрлаш масалалари қуйидаги йўналишлардаги маълум билим ва кўникмаларни шакллантиришни тақозо этади:

1. Оила саломатлиги: оила аъзолари саломатлиги бўйича бирламчи билимларга эга бўлиш, саломатликни сақлаш омилларини билиш, саломатликни сақлаш ва умрни узайтириш усулларини ва миллий қадриятларни оила ҳаётига сингдира билиш, миллий табобатдан хабардор бўлиш, репродуктив саломатлик мезонларига амал қилиш, тўғри овқатланиш меъёрларига риоя қилиш, саломатликни сақлаш — фуқаролик бурчи эканлигини англаш, ўз саломатлигини жамият соғломлиги сифатида қабул қилиш, қариялар саломатлигига эътиборли бўлиш, гўдак ва эмизикли болалар саломатлиги, болаларни юқумли касалликлардан асрай олиш, йод танқислиги

ва темир моддаси етишмовчилигини олдини ола билиш, оилада тиббий билимларга ҳурмат ва эътиборнинг шакллантирилиши, ҳаётга физиологик-гигиеник жиҳатдан тайёр бўлиш, оиланинг ижтимоий аҳволини яхши ва равон сақлаш, уни яхшилаш омилларини ўрганиш.

2. Оиладаги жинслараро муносабатлар: жинсий тарбия асослари, жинслар психологияси ва саломатлиги бўйича билимларни эгаллаш, никоҳни улуғлаш, никоҳдаги ҳалоллик ва садоқат, жисмоний тарбия ва спорт билан шуғулланишни анъанага айлантириш, она саломатлигига муқаддас муносабат, фарзанд туғилиши ва унинг саломатлиги, ўзини ва оила аъзоларини зарарли кўникмалардан асраш, маънавий баркамоллик, соғлом турмуш тарзи асосидаги ахлоқ нормалари, инсон психологияси бўйича билимларга эга бўлиш, психологик таъсир ўтказиш омилларини эгаллаш, психологик мувозанат сирларини эгаллаш.

3. Оила ахлоқи ва эстетикаси: оилада ўзаро муносабатлар ва мулоқот маданияти, ташаббускорлик, фаоллик, ижодкорлик, тиббий ва маънавий соғломлик, жисмоний ва руҳий баркамоллик, етакчилик ва тадбиркорлик, ўзаро муҳаббат, адолат, инсонпарварлик, инсонийлик, тўғрилик, камтарлик, самимийлик, ота-онага ҳурмат, меҳр-мурувват, саҳоват, бағрикенглик, садоқат, вафодорлик, гуноҳ ишлардан қочиш, сабр-тоқат, ўз ваъдаси устидан чиқиш, илмли бўлиш, аёлларни қадрлаш, иффат, ростгўйлик, покизалик, ҳалоллик, ҳиммат ва бардошлилик, хушхулқлилик, шукр, ҳаё, тежамкорлик, ҳалимлик, виқор, раҳм-шафқат, оналик меҳри, маънавий баркамоллик, ахлоқий поклик ва вафодорлик, меҳр ва мурувватга асосланган оилавий мулоқот маданияти, маънавий-мафкуравий соғломлик, инсон эркини ҳурматлаш, ҳар бир инсоннинг такрорланмаслигини тан олиш ва эъзозлаш.

4. Оила аъзолари ўртасида оилавий мажбуриятлар тақсимоти ва томонлар ҳуқуқлари: оила ва оилавий мажбуриятлар, аёл ва эркак мажбуриятларига доир замонавий стереотиплар, замонавий оила ва оила аъзолари мажбуриятлари, эр ва хотин ҳуқуқлари кафолатларини билиш, оила ҳуқуқи бўйича қонунчилик тизими берган имтиёзлардан тўғри фойдалана олиш, дин, оила ва инсон ҳуқуқлари масаласи, турмуш қураётган ёшларнинг оилалари ўзаро мувофиқ бўлишига эришиш, оила қуришда томонлар эркинлиги ҳуқуқини туғри англаш, оила қуриш тартиби, шунингдек ажрим ҳуқуқи, ажрим ҳолатидаги томонлар ҳуқуқлари бўйича қонун ҳужжатларини билиш ва амалда қўллай олиш, оилада гендер тенглик, жинслар ўртасидаги фарқларни англаш, гендер муҳофаза қонунларини татбиқ эта билиш.

5. Оилавий инқирозлар ва уларнинг олдини олиш, оилавий низоларни ечимига тайёрлик: оила ва конфликтлар, оилавий инқирозлар ва уларга тўғри муносабат, оилавий инқирозларнинг олдини олиш чоралари, ғазаб ва жаҳлни енгиш усулларини билиш, шахс ва оила, оиланинг ҳар бир аъзосига ҳурмат ва эътибор меъёрлари, шахс эркинлиги, эгоизм, эгоизмдан қутилиш омиллари, оилада унинг аъзолари муносабатларидаги уйғунлик, шахс ва жамоа муносабатлари, шахс ва оила манфаатлари бирлиги, оила манфаатларининг устунлиги, шахснинг мулоқот маданияти ва ички дунёси етуклиги омиллари.

5. Amaliyotdan nazariya tomon: Mashg‘ulot mobaynida, o‘quvchilarga tayyor tinish belgilari tushirilgan gaplar yoki shunday gaplar bilan to‘ldiriklar kartochkalar tarqatiladi va ularning o‘zlari ushbu tinish belgilari nima uchun qo‘yilish sababini topishlari kerak bo‘ladi. Bu bolalarda oldindan tahmin qila olish va mantiqqa tayanish ko‘nikmalarini shakllantiradi. O‘quvchi to‘g‘ri topsa ham, xato qilsa ham uning yodida yaxshi saqlanishiga yordam beradi.

6. Badiiy asarlar misolida: O‘quvchilarga darsda o‘tilgan tinish belgilar qatnashgan gaplarga misollarni o‘zlari yoqtirgan yoki o‘qiyotgan asarlar ichidan topib kelish topshiriladi. Mazkur topshiriq berilayotganda badiiy asarlar o‘quvchilar ixtiyorida bo‘ladi, agarda bu o‘qituvchi qo‘lida bo‘lsa asarlar individual(har xil) tanlangani ma’qul, aks holda bolalar orasida ko‘chirmakashlik yuzaga kelish ehtimoli bor. Badiiy asarni obyekt qilib olishning foydali tomonlari shundan iboratki: to‘liq va yaxlit matndan kichik unsurni qidirganda uning ko‘z xotirasida yaxshi saqlanadi, undan tashqari tinish belgilarini qo‘llashdagi istisno holatlari, asosan, badiiy asarlarda qo‘llanilishi bunday holatlarni oson o‘zlashtirishiga yordam beradi.

Punktuatsiya tushunchasi va uning til ta’limidagi o‘rni masalasi ko‘p qirrali va dolzarb masala hisoblanadi. Olib borilgan tadqiqot shuni ko‘rsatdiki, punktuatsiya nafaqat yozma nutqni texnik jihatdan tartibga soluvchi vosita, balki ma’no yaratish va samarali muloqot o‘rnatishda muhim rol o‘ynaydi. Zamonaviy ta’lim amaliyotida punktuatsiyani o‘qitish an’anaviy yondashuvlardan komunikativ va kontekstli metodlarga o‘tishni talab qiladi. Ta’lim jarayonida punktuatsiyaning kognitiv va kommunikativ funksiyalarini hisobga olish, zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanish va madaniyatlararo farqlarni e'tiborga olish samaradorlikni oshirish uchun zarur shartlar hisoblanadi. Kelajakda bu sohada yanada chuqur empirik tadqiqotlar olib borish va turli ta'lim kontekstlari uchun maxsus metodikalar ishlab chiqish dolzarb vazifalar qatoriga kiradi. Gamifikatsiya zamonaviy ta’limda, ayniqsa, ona tili va punktuatsiyani o‘rgatishda o‘quvchining faolligini ta’minlaydigan, bilimni mustahkamlaydigan innovatsion metod sifatida o‘z o‘rniga ega. U nazariy bilimni amaliyot bilan uyg‘unlashtirish, o‘quvchilarda yozma nutq madaniyatini shakllantirish, tinish belgilarining semantik ahamiyatini chuqur anglashga yordam beradi. O‘yinlashtirish asosidagi darslar natijasida

o‘quvchilar o‘rganish jarayonida zavq oladilar, bu esa ta’lim samaradorligini oshiradi.

Foydalangan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Yuldosheva Dilorom Nigmatovna Ona tili o‘qitish metodikasi(kognitiv-pragmativ yondashuv asosida), “Durdona” nashriyoti: Buxoro- 2021.
2. Baxriddinova B.M. Zamonaviy o’zbek punktuatsiyasi asoslari. Monografiya. –Toshkent: Akademnashr, 2015. – 64 b.
3. Shoabdurahmonov Sh. O‘zbek tilida punktuatsiya. – Toshkent: 1955.
4. Nazarov K. O‘zbek tili punktuatsiyasi. - Toshkent: “O‘qituvchi”, 1976.
5. Zamonaviy o’zbek punktuatsiyasining dolzarb muammolari. “Ma’rifat”, 2014 y., № 94

INTEGRATSIYALANGAN TA’LIM ORQALI TALABALAR KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISH

Qo‘qon unversiteti Ta’lim kafedrasi dotsent v.b.

Komiljonova Guluzraxon Nizomjon qizi

guluzrakomiljonova6@gmail.com

Annotatsiya: bugungi kunda ta’lim tizimida yuz berayotgan o‘zgarishlar, fanlararo aloqadorliklarning kuchayishi, mehnat bozorining talablariga mos raqobatbardosh kadrlar tayyorlash zarurati integratsiyalangan ta’lim yondashuvining dolzarbligini oshirmoqda. Ta’limning samaradorligini oshirish, nazariya va amaliyot o‘rtasidagi uzviylikni ta’minlash, shuningdek, talabalarni hayotiy va kasbiy muammolarni mustaqil hal eta oladigan, tanqidiy fikrlaydigan, moslashuvchan va ijodkor shaxs sifatida shakllantirish integratsiyalashgan yondashuv orqali amalga oshirilmoqda. Zamonaviy o‘quv jarayonida fanlararo integratsiya bilimlarni chuqur egallash hamda turli sohalar bo‘yicha kompleks kompetensiyalarni shakllantirishga xizmat qiladi. Bu jarayon orqali talabalar o‘z kasbiy faoliyatlarida turli fan bilimlaridan samarali foydalana olish, muammolarga tizimli yondashish, jamoada ishlash, raqamli va kommunikativ ko‘nikmalarni rivojlantirish imkoniyatiga ega bo‘ladilar. Ayniqsa, O‘zbekiston Oliy ta’lim tizimida amalga oshirilayotgan islohotlar integratsiyalangan ta’lim tamoyillariga asoslangan kompetensiyaviy yondashuvni talab etmoqda. Shu boisdan, integratsiyalangan ta’lim asosida talabalarning kompetensiyalarini rivojlantirish masalasi ilmiy-nazariy hamda amaliy jihatidan ham hozirgi kunda eng dolzarb muammolardan biri hisoblanadi.

Mazkur maqolada ta’lim sohasida amalga oshirilayotgan integratsiyalashuv jarayonlari va ularning ta’limga ta’siri, xususan, talabalarning bilim va ko‘nikmalarini rivojlantirishdagi o‘rni yoritilgan. Jumladan,

integratsiya tushunchasining nazariy asoslari, didaktik va metodik yondashuvlari, shuningdek, ilg‘or xorijiy va mahalliy pedagoglarning qarashlari asosida tahlil qilinadi. Fanlararo aloqadorlikni o‘quv jarayoniga samarali tatbiq etish orqali ta’limning mazmuni chuqurlashishi, talabalar ongida olamning yaxlit tasviri shakllanishi va ularning kasbiy kompetensiyasi kuchayishi isbotlab berilgan. Shuningdek, integratsiyaning shakllanishi, amalga oshirish mexanizmlari va ta’lim samaradorligiga ta’siri haqida muhim xulosalar chiqarilgan.

Abstract: This article highlights the integration processes being implemented in the field of education and their impact on education, particularly their role in developing students' knowledge and skills. In particular, the theoretical foundations of the concept of integration, didactic and methodological approaches, as well as the views of leading foreign and domestic educators, are analyzed. It has been proven that through the effective implementation of interdisciplinary connections in the educational process, the content of education is deepened, a holistic picture of the world is formed in the minds of students, and their professional competence is strengthened. Important conclusions were also drawn about the formation of integration, implementation mechanisms, and its impact on the effectiveness of education.

Аннотация: В данной статье рассматриваются процессы интеграции в сфере образования и их влияние на образование, в частности, их роль в развитии знаний и навыков студентов. В частности, анализируются теоретические основы понятия интеграции, дидактические и методические подходы, а также взгляды передовых зарубежных и отечественных педагогов. Доказано, что посредством эффективного внедрения междисциплинарных связей в учебный процесс углубляется содержание образования, формируется целостная картина мира в сознании студентов и усиливается их профессиональная компетентность. Также сделаны важные выводы о формировании интеграции, механизмах ее реализации и влиянии на эффективность образования.

Kalit so‘zlar: ta’lim, bog‘lanish, integratsiya, dars, pedagog, ta’lim oluvchi, boshlang‘ich ta’lim o‘qituvchisi, talabalar, kompetensiya, pedagogik jarayon, o‘quvchi.

Ta’lim sohasida amalga oshirilayotgan islohotlarning asosiy qismini esa, albatta, oliy ta’lim tizimidagi islohotlar tashkil etadi. O‘zbekistonda so‘nggi yillarda ta’limda integratsiyalashuv tamoyillarini joriy etish bo‘yicha qator amaliy ishlar olib borilmoqda. Jumladan, umumta’lim maktablari uchun yangilangan Davlat ta’lim standarti va o‘quv dasturlarida fanlararo integratsiya alohida e’tiborga olinmoqda. Bu standartlar asosida darslarda talabalarda tahlil qilish, solishtirish, umumlashtirish, real hayotiy misollar bilan bog‘lash kabi faol aqliy amaliyotlar kuchaytirilmoqda.

Ta’limni rivojlantirish o‘qitish jarayonini to‘g‘ri tashkil etish bilan bevosita bog‘liq. Ta’limni munosib raqamli texnologiyalar, innovatsiya va integratsiyalar bilan boyitish davr talabi bo‘lib qolmoqda. Umuman olganda, ta’lim sohasida amalga oshirilayotgan mana shunday istiqbolli vazifalar o‘zining dolzarbligi hamda amaliy ahamiyati bilan boshqa sohalardagi islohotlardan aslo qolishmaydi. Chunki ushbu sohadagi islohotlarni yanada keng ko‘lamda davom ettirish pedagogikaning kelajagini belgilab beradi.

Ta’limning barcha bosqichlarida fanlarning integratsiyalashuv jarayoni shuni ko‘rsatadiki, fanlarning o‘qitilishida ularni o‘zaro aloqadorlik jihatlaridan maqsadli foydalanish, darslarni pedagogik va metodik jihatdan to‘g‘ri tashkil qilish, har bir fanni o‘qitilishini mazmunli bo‘lishini va samarali tashkil etishni kafolatlaydi.

“Integratsiya” so‘zi lotincha integratio – tiklash, to‘ldirish, “integer” – butun so‘zidan kelib chiqqan bo‘lib, o‘zaro bog‘langan holda rivojlantirish, bir butun qilib birlashtirmoq, yaxlit holga keltirmoq deganidir. Integratsiya turli xil qism va elementlarni bir butunlikka birlashtirish jarayonidir. O‘quv jarayoni integratsiya tizimini takomillashtiradi, kamchiliklarini bartaraf etadi, predmetlar orasidagi aloqalar va bog‘liqliklarni chuqurlashtiradi, bunday yondashuvlar differensiya va integratsiya orasidagi munosabatlarni tushunishga tayanadi. Pedagogikaning maqsadi bir xil maqsad vazifalarga ega bo‘lgan turli fanlarning element va qismlarini bir butunga birlashtirishga yo‘naltirilgan bo‘lib, u integratsiyani amalga oshirishda o‘qituvchilarga yordam berishdir.

Hozirgi kunda “Integratsiya” tushunchasining aniq ta’rifi metodik adabiyotlarda, bu mavzu bo‘yicha izlangan tadqiqotchilar tomonidan bir-biriga o‘xshash bo‘lgan ta’riflar berilgan. Integratsiya jarayonini o‘rganishda didaktik olim Yan Amos Komenskiy quyidagi fikrlarini bildirgan: “Bir-biri bilan bog‘liq bo‘lgan hamma narsa, xuddi shunday holda o‘rganilishi kerak”. Fanlararo aloqadorlik g‘oyasiga ko‘pchilik pedagoglar qattiq yondashib, uni rivojlanishi va umumlashtirilishiga hissa qo‘shganlar. D.Lokk g‘oyasiga ko‘ra: “Ta’lim mazmunining aniqlanishida bir fan boshqa fanlar elementlari va faktlari bilan to‘ldirilishi kerak”. Xuddi shuningdek, I.V.Pestalossi o‘zining didaktik maqolasida o‘quv darsliklaridagi fanlararo bog‘liqlik masalasiga keng to‘xtalib o‘tar ekan: “Bir-biri bilan bog‘liq fanlarni ongingga keltir, ularni tabiatdagi uzviy bog‘liqlik holatida ekanini angla” – deydi. Pestalossi esa bir fanning boshqa bir fandan uzoqlashuvi xavfliligini ta’kidlaydi. Integratsiyaning OTMda ta’lim-tarbiya jarayoniga ta’siri juda ko‘p pedagog olimlar tomonidan ko‘rib chiqilgan. Jumladan, I.D.Zvernov, M.A.Danilov, V.N.Maksimova, S.P.Baranov, N.M.Skatkin; metodist olimlar M.R.Lvov, V.G.Goreskiy, N.N.Svetlovskaya, Yu.M.Kolyagina, G.N.Pristupa va boshqalar.

Integratsiyani uslubiy hodisa sifatida e’tirof etgan I.Kalojvari va L.Pechnikovalar “Qanday qilib integratsiyalashgan darsni tashkillash mumkin?” nomli maqolasida ta’kidlashlaricha: “Integratsiyaning kelajagi porloq. Bu usul

natijasida o‘quvchilar ongida olamning faol va ko‘p tomonli tasviri shakllanadi. Talabalar olgan bilimlarini amalda faol foydalanishga boshlashadi. Chunki bilimlari osonroq amaliyotga xos xususiyatlarni aniqlaydi, yangicha fikrlay boshlaydi, fanni tez o‘zlashtiradi, uning boshqa fanlarga bo‘lgan munosabatini ravshanlashtiradi”.

N.K.Chapayev integratsiyaning tanlangan yo‘nalishlari integrativ jarayon larkibi va strukturasini belgilaydi. Integrativ jarayon tarkibi deganda, o‘zaro nloqadorlikka kirishadigan va yangi yaxlit birlikni hosil qiladigan obyektlar yig‘indisi tushuniladi. V.S.Bezrukova ta’limning muhim muammolaridan biri bilimlarni integratsiyalash va tabaqalashtirish masalalari ishlab chiqilgan. Olimning fikricha, integratsiya – turli bilimlar tizimi o‘rtasida tarkibiy bog‘lanishlarni o‘rnatish, ularni umumlashtirish, o‘quvchilarning tabiat va jamiyat haqidagi yaxlit tasavvurlarni shakllantirish uchun xizmat qiladi.

Psixolog E.N.Kabanova – Millerning aytishicha, “O‘qituvchiga hali uchramagan vazifa asosida bilim, ko‘nikma va qobiliyatlarni mustaqil ko‘chirilishi aqliy rivojlanishning muhim ko‘rsatkichidir”. U o‘zining “Boshlang‘ich sinflarda ta’limni integratsiyalash tajribasi” ishida maktab ta’limini integratsiyalashning muhimligiga e’tiborini qaratsa, L.P.Elenko integratsiya darsni samarali qilish vositasi, predmetlar aloqalarini yangi pog‘onalarga ko‘tarish shakli, deb hisoblaydi.

Ta’lim jarayonida integratsiya talabalarning o‘quv-bilish faoliyatini faollashtiradi. Bunda, o‘quvchi o‘z faolligini fan bilimlarini mavjud bo‘lgan noma’lum munosabatlami izlashga yoki aniq o‘rnatilgan fanlararo aloqadorlik asosida yangi tushunchalarni shakllantirishga xizmat qiladi. Ushbu jarayonda fanlararo aloqadorlik ta’minlangan sharoitda o‘quvchilarning egallagan bilimlari samarali rivojlanishi bilan bir qatorda ularning idrok etish qobiliyati, faolliklari, qiziqishlari, aqliy intellektual imkoniyatlari ortishiga erishiladi. O‘quv jarayonida fanlararo aloqadorlikni turli o‘quv fanlari bo‘yicha o‘quv dasturlari, darsliklar mutanosibligini ta’minlovchi didaktik imkoniyat sifatida tushunish lozim.

Ta’lim tizimini takomillashtirishda integratsiyalashuvi ham muhim ahamiyat kasb etmoqda. Unda ta’lim oluvchilarning chuqur bilimga ega bo‘lishlari va balki ko‘nikma-malakalarni chuqur egallash orqali kasbiy tayyorgarligini rivojlantirishlari davr talabiga aylangan. O‘quv faoliyatini samarali tashkil qilish, dars jarayonida turli xil shakl, metod va vositalardan o‘z o‘rnida to‘g‘ri foydalanish, ularni uzviy bog‘liq holda qo‘llay olish ta’lim samaradorligining muhim omillaridan biridir. Bu esa integratsiyalashgan ta’lim orqali amalga oshiriladi. Integratsiyalash mobaynida bir-biriga bog‘liqlik hajmi oshadi va tartibga tushadi, shu tizim qismlarning ishlashi va o‘rganish ob’ektining yaxlitligi tartibga solinadi.

Integratsiyaning shakllari va mexanizmlari keng qamrovli. Jahon tajribasi ko‘rsatadiki, integratsiya jarayonlarning shakllanishi va rivojlanishi nisbatan

uzoq davrni qamrab oladi. Bu jarayonlarning amal qilish mexanizmi esa mantiqiy ketmaketlikda, bosqichma-bosqich shakllanadi. Keng miqyosli integratsiya va globallashuv jarayonlari jahon taraqqiyotining hozirgi paytdagi muhim xususiyatlaridan biri ekanligini etirof etgan holda, ularning kuchli mafkuraviy tasir o‘tkazish vositasi ekanini ham unutmaslik darkor.[73]

Ta’lim mazmunidagi uyg‘unlikni ta’minlash muammolari ham integratsiyalashning shug‘ullanadigan sohasi hisoblanadi. U tushunchalarni umumlashtirishni o‘rgatishni, ta’lim-tarbiyada esa bilimlar, tushunchalar, ko‘nikma va malakalarni shakllantirishni umumlashtirib, qonun yoki qoida mezondir. Bunda ta’lim mazmunidagi barcha tashkil etuvchi elementlar majmuasini – bilim, ko‘nikma, malaka, me’yor, pedagogik tizimlarni o‘zida mujassamlab, bilimlarni tizimlashtirishni tashkil etish, o‘quvchilarda har xil fanlarda o‘tiladigan va texnologik jarayonlarda sodir bo‘ladigan hodisalar, tushunchalar, g‘oyalar, nazariyalar orasidagi o‘zaro integratsiya va har tomonlama bog‘lanish borligini o‘rnata olish ko‘nikmalarini shakllantirishdan iborat.

Integratsiya printsipi o‘quv jarayonining barcha tarkibiy qismlarining, tizimning barcha elementlarining o‘zaro bog‘liqligini va tizimlar o‘rtasidagi aloqani nazarda tutadi. U maqsadni belgilash, o‘qitish mazmuni, uning shakllari va usullarini belgilashda yetakchi sanaladi.

Integratsiya pedagogik hodisa sifatida turli bilimlar, usullar va faoliyat turlarining o‘zaro kirib borishi, o‘zaro bog‘liqligi va sintezi jarayoni va natijasi sifatida tushuniladi. Bunday jarayon, albatta, turli modullar bo‘yicha ta’lim mazmunidagi izchillikni, shuningdek, ta’limning umumiy maqsadlari bilan belgilanadigan o‘qitish shakllari, usullari va vositalarini tanlashni nazarda tutadi.[74]

Integratsiyalangan ta’lim – bir nechta fanlarni o‘zaro bog‘liq holda o‘rgatish usulidir. Ya’ni, fanlar bir-biri bilan o‘zaro aloqada o‘tiladi. Natijada ta’lim shakli bilimlarni chuqurroq tushunishga yordam beradi.

Kompetensiya (lotincha: *competo* — erishyapman, munosibman, loyiqman)[75] kishi egallagan muayyan bilim, ko‘nikma, malakalar majmuasini anglatadi.[76] Oddiy qilib aytganda kompetensiya — bu o‘rgangan bilim ko‘nikma malakalarni qo‘llay olish qobiliyati. Masalan, muloqot qilish, mustaqil fikrlash, muammoni hal qilish, jamoada ishlash kabi.

Rivojlanish funktsiyasi yangi aqliy harakatlarni, aqliy faoliyatni ko‘paytirish, boyitish va yaxshilash qobiliyatini shakllantiradi.[77] **Rivojlantirish**

[73] https://openidea.uz/index.php/idea/article/download/1272/1938/1155
[74] https://interscience.uz/index.php/home/article/download/3015/2627/7945
[75] https://uz.wikipedia.org/wiki/Kompetensiya
[76] https://uz.goodinternet.org/uz/sections/pedagoglar/talim-va-men/kompetensiya-nima/
[77] https://interscience.uz/index.php/home/article/download/3015/2627/7945

esa – bu kompetensiyalarni shakllantirish va kuchaytirish degani ya’ni talabani har tomonlama tayyorlash jarayonidir.

Boshlang‘ich bosqichlardayoq fanlarni integratsiyalash dars samaradorligini oshiradi, vaqtdan unumli foydalanishga olib keladi, darsni chuqur o‘zlashtirishga yordam beradi. Oliy ta’lim talabalariga o‘qitilayotgan fanlar o‘zaro bog‘liqlik holda tashkil etib borilsa, ularda bilim, ko‘nikmalari oshib, kutilgan natijani berishi va albatta, o‘z kasbining yetuk mutaxassislari bo‘lib yetishadi.

Tavsiyalar:

- ✓ **Fanlararo integratsiyani kuchaytirish.** Turli fanlarni bog‘lovchi mavzular asosida mashg‘ulotlar tashkil etish lozim. Amaliyotga yo‘naltirilgan topshiriqlarni tayyorlab, bunda talabalar bir nechta fan bilimlarini birgalikda qo‘llashlari kerak bo‘ladigan mustaqil ishlarni berish lozim.
- ✓ **Muammoli ta’lim asosida o‘qitish**. Real hayotiy vaziyatlar asosida muammoli masalalar, cause-stady kabi metodlarni qo‘llash. Talabalar o‘z mutaxassisligiga oid muammolarni tahlil qilish orqali muqobil yechimlar taklif qilishga o‘rgatish zarur.
- ✓ **Jamoaviy loyihalar ustida ishlashni yo‘lga qo‘yish.** Talabalarni guruhlarga bo‘lib, ularni turli loyiha ustida ishlashga jalb etish. Buning natijasida jamoada ishlash ko‘nikmasi, liderlik va mas’uliyat hissi rivojlanadi.
- ✓ **AKT vositalarini keng qo‘llang**. Online platformalar orqali topshiriq berishni kuchaytirish. Multimedia, interaktiv metodlar, taqdimotlar bilan darslarni boyitish maqsadga muvofiq.
- ✓ **Metakognitiv yondashuvlarni rag‘batlantirish**. Talabalarni o‘z o‘rganish jarayonini rejalashtirish, monitoring qilish va tahlil qilishga muntazam o‘rgatib borish. Masalan, darsdan so‘ng "Men bugun nimani o‘rgandim? kabi savollarga yozma refleksiya qilish.
- ✓ **Tanqidiy va ijodiy fikrlashni rag‘batlantirish.** Ochiq savollar berish orqali bir nechta to‘g‘ri javobli savollar bilan tanqidiy yondashuvni rag‘batlantirib borish. “Agar siz uning o‘rnida bo‘lsangiz, qanday qaror qilgan bo‘lardingiz?" kabi savollar bilan erkin fikrlashga odatlantirish zarur.

Yuqoridagilardan kelib chiqib aytish mumkinki, ta’limda integratsiyani kuchaytirish – nafaqat zamonaviy o‘quvchi shaxsini shakllantirish, balki bilimlar tizimini uzviylashtirib, uni turli yo‘nalishlarda tatbiq eta oladigan mutaxassisni yetishtirish uchun ham zaruriy shartdir. Shu bois, fanlararo integratsiya kelgusida ta’lim mazmunining chuqur va sifatli bo‘lishida, shuningdek, pedagogik amaliyotda innovatsion yondashuvlarning keng tatbiq etilishida hal qiluvchi o‘rin tutadi.

Xulosa. Xulosa qilib aytganda, ta’lim tizimida fanlararo bog‘lanishlar muhim sanaladi. Oliy ta’limda darslarni integratsion tarzda tashkil etilsa, talabalarning o‘zlashtirish ko‘rsatkichlari, bilim, ko‘nikmalari sezilarli darajada ortadi va yetarli darajada bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining ish faoliyatlarini muvaffaqiyatli olib borishlarini kafolatlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Mavlyanova. Raxima Boshlang‘ich ta’lim pedagogikasi, innovatsiya va integratsiyasi. O‘quv qo‘llanma. R.Mavlyanova, N.Raxmankulova. – O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi. – Toshkent. Voris nashriyoti, 2013. – 240 b.
2. B.X.Xodjayev.Umumiy pedagogika nazariyasi va amaliyoti. Darslik. - T.: «Sano-standart» nashriyoti, 2017-yil, 416-bet.
3. Boshlang‘ich sinflarda integratsiyalashgan ta’limni takomillashtirish, O‘quv qo‘llanma. - T.: “Tamaddun”, 2022. - 125 b. 6. Z. Boboqulov, S.Sanayev, X. Xonqulov. Talimning zamonaviy pedagogic texnologiyalari. O‘quv qo‘llanma. Samarqand – 2022. 171-b
4. Madinabonu Shuxratjon qizi, & Esonaliyeva Guluzra Komiljonova. (2023). INSON QADRI VA BARKAMOL AVLOD SHAKLLANISHIDA PEDAGOGIKANING O‘RNI. *QO‘QON UNIVERSITETI XABARNOMASI*, *1*(1), 788–789. https://doi.org/10.54613/ku.v1i1.717
5. Komiljonova, G. N. qizi. (2023). FANLARARO BOG‘LANISH ASOSIDA BOSHLANG‘ICH TA’LIMNI AMALGA OSHIRISHNING O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI. Educational Research in Universal Sciences, 2(12), 198–201. Retrieved from http://erus.uz/index.php/er/article/view/5505
6. Diyoraxon, S., & Komiljonova, G. (2023). BOSHLANG ‘ICH TA’LIMDA CHET EL O ‘QUVCHILARINI BAHOLASH MEZONI VA SAMARALI TAQDIRLASH. *QO ‘QON UNIVERSITETI XABARNOMASI*, 783-785.
7. Abduraxmonova, N. A. qizi. (2023). BO‘LAJAK BOSHLANG‘ICH SINF O‘QITUVCHILARINING IJODIY FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISH PEDAGOGIK MUAMMO SIFATIDA. *Educational Research in Universal Sciences*, *2*(12), 208–211. Retrieved from http://erus.uz/index.php/er/article/view/5507
8. Nigoraxon, Abduraxmonova, and Alijonova Mohlaroy. "BOSHLANG‘ICH TA‘LIMDA O‘QUVCHILAR IJODIY FOALIYATINI TASHKIL ETISH TEXNOLOGIYASI." Yosh Tadqiqotchi Jurnali 3.1 (2024): 83-87.\

ILM-FAN VA TA’LIM INTEGRATSIYASI: FOROBIY QARASHLARI VA ZAMONAVIY YONDASHUVLAR

Sadriddinova Zulfiya Mirzaliyevna,
Qo‘qon universiteti Ta’lim kaferasi katta o‘qituvchisi
Email:ms.zulfiyaxon08@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada Farobiyning hunar va san’at uyg‘unligi haqidagi qarashlari ta’lim jarayonida fanlararo integratsiya bilan bog‘liq holda yoritiladi. Farobiy insonning kamol topishi uchun ilm, hunar va san’atning bir-biriga bog‘liqligini ta’kidlagan bo‘lib, bu qarashlar bugungi ta’lim tizimida ham o‘z dolzarbligini saqlab qolmoqda. Chunki har bir fan boshqa bilim sohalari bilan uzviy aloqada o‘rganilganda, o‘quvchilarda yaxlit dunyoqarash shakllanadi. Fanlararo integratsiya ta’lim jarayonining samaradorligini oshiradi, bilim, ko‘nikma va malakalarni puxta o‘zlashtirish, shuningdek, ularni amaliyotda qo‘llash imkonini yaratadi. Farobiy san’at va hunarni egallash uchun bir nechta bilim sohalarini puxta bilish lozimligini ta’kidlagan. Bu esa zamonaviy ta’lim jarayonida turli fanlarni bir-biri bilan uyg‘unlashtirib o‘qitish zarurligini ko‘rsatadi. Integratsiya orqali o‘quvchilar ilmiy bilimlarni ijodkorlik, san’at va amaliy faoliyat bilan bog‘lay oladilar. Natijada ta’lim jarayonida shaxsning har tomonlama rivojlanishi, ijodiy tafakkuri va mustaqil fikrlash qobiliyati shakllanadi. Shu bois Farobiyning qarashlari fanlararo integratsiyaning nazariy-metodologik asoslaridan biri sifatida

Kalit so‘z: integratsiya, hunar, san’at, ta’lim, qobiliyat, ma’naviy yetuk, o‘quvchi

Аннотация: В данной статье освещаются взгляды Фараби на гармонию ремесла и искусства в связи с междисциплинарной интеграцией в образовательном процессе. Фараби подчеркивал, что наука, ремесло и искусство взаимосвязаны для развития человека, и эти взгляды сохраняют свою актуальность и в современной системе образования. Потому что, когда каждый предмет изучается в тесной связи с другими областями знаний, у учащихся формируется целостное мировоззрение. Межпредметная интеграция повышает эффективность образовательного процесса, позволяет глубоко усвоить знания, умения и навыки, а также применять их на практике. Фараби подчеркивал необходимость глубокого знания нескольких областей знаний для овладения искусством и ремеслом. Это показывает необходимость преподавания различных предметов в гармонии друг с другом в современном образовательном процессе. Благодаря интеграции учащиеся могут связывать научные знания с творчеством, искусством и практической деятельностью. В результате образовательный процесс формируется всестороннее развитие личности, творческое мышление и способность к самостоятельному мышлению. Поэтому взгляды Фараби как одна из теоретико-методологических основ междисциплинарной интеграции.

Ключевое слово: интеграция, ремесло, искусство, образование, способность, духовно зрелый, ученик

Abstract: This article illuminates Al-Farabi’s views on the harmony of crafts and art in connection with interdisciplinary integration in the educational process. Farabi emphasized the interdependence of science, craft, and art for the development of a person, and these views remain relevant in today’s education system. Because when each subject is studied in close connection with other fields of knowledge, a holistic worldview is formed in students. Interdisciplinary integration increases the effectiveness of the educational process, allows for the thorough assimilation of knowledge, skills, and abilities, as well as their practical application. Farabi emphasized that to master art and craft, it is necessary to thoroughly know several fields of knowledge. This indicates the necessity of teaching various subjects in harmony with each other in the modern educational process. Through integration, students can connect scientific knowledge with creativity, art, and practical activity. As a result, in the educational process comprehensive development of personality, creative thinking and the ability to think independently are formed. Therefore, Farabi’s views as one of the theoretical and methodological foundations of interdisciplinary integration.

Keywords: integration, craft, art, education, ability, spiritually mature, student

Har qanday mamlakatning kuchi uning fuqarolarining ma’naviy yetukligi, intelektual salohiyatga egaligi bilan belgilanadi. Fuqarolarning ma’naviy yetukligi, intelektual salohiyati esa ta’lim tizimining mazmuni. shaxsning har tomonlama shakllanishi uchun xizmat qiluvchi moddiy va ma’naviy shart-sharoitlarning mavjudligi, jamiyatda qaror topgan ijtimoiy sog‘lom muhit darajasi, ijtimoiy munosabatlar mazmuni. shuningdek. aholining etnopsixologik xususiyatlari, axloqiy qarashlari va hayotiy e’tiqodlari asosida shakllantiriladi.[78]

Iqtisodiyot tarmoqlari va ijtimoiy sohani jadal rivojlantirish, ilmiy-intellektual hamda moliyaviy resurslarni to‘liq safarbar etgan holda ilmiy-innovatsion salohiyatdan keng foydalanish, istiqbolda ilm-fanni muntazam isloh qilib borishning ustuvor yo‘nalishlarini belgilash, zamonaviy bilimga ega va mustaqil fikrlaydigan yuqori malakali kadrlar tayyorlash, ilmiy infratuzilmani modernizatsiya qilish ishlarini sifat jihatidan yangi bosqichga ko‘tarish maqsadida, shuningdek 2017 — 2021-yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasini “Ilm, ma’rifat va raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish yili”da amalga oshirishga oid muvofiq:

1. Ilm-fanni 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi (keyingi o‘rinlarda — Konsepsiya) hamda Konsepsiyaning maqsadli ko‘rsatkichlari va indikatorlari va muvofiq tasdiqlansin.

2. Belgilansinki, Konsepsiya hamda uning maqsadli ko‘rsatkichlari va indikatorlari, shu jumladan quyidagilarni nazarda tutadi:

[78] Pedagogika (I qism): Darslik. Hasanboyev J., To‘raqulov X.A., Alqarov I.Sh., Usmonov N.O'., Hasanova M.T. / Oliy o'quv yurtlari uchun darslik. -Toshkent. 2017. 200 bet.9-b.

a) ilm-fan sohasida boshqaruv tizimini takomillashtirish borasida:

ilmiy tashkilotlarning ilmiy-innovatsion faoliyati samaradorligini baholashga yo‘naltirilgan milliy reyting tizimini joriy etish;

ilm-fanda o‘zini o‘zi boshqarish tizimini rivojlantirish orqali davlat va ilmiy tashkilotlar o‘rtasida ijtimoiy sheriklikni rivojlantirish hamda uning doirasida loyihalarni amalga oshirish;

b) ilm-fan va ilmiy faoliyatni moliyalashtirish tizimini takomillashtirish hamda moliyalashtirish manbalarini diversifikatsiyalash borasida:[79]

Har qanday mamlakatning kuchi uning fuqarolarining ma’naviy yetukligi va intellektual salohiyatiga bog‘liq bo‘lib, bu esa ta’lim tizimining mazmuni hamda jamiyatdagi sog‘lom ijtimoiy muhit darajasi bilan belgilanadi. Shu bois ilm-fan va ta’limni integratsiyalash, zamonaviy bilim va innovatsiyalar asosida yuqori malakali kadrlar tayyorlash jarayoni bugungi kunning eng dolzarb masalalaridan biridir.

Integratsiya so‘ziga O‘zbekiston milliy ensklopediyasida quyidagicha ta’rif beriladi.

INTEGRATSIYA (lot. *integratio* — tiklash, to‘ldirish, *integer* — butun so‘zidan)

1. sistema yoki organizmning ayrim qismlari va funksiyalarining o‘zaro bog‘liqlik holatini hamda shunday holatga olib boruvchi jarayonni ifodalaydigan tushuncha;
2. fanlarning yaqinlashishi va o‘zaro aloqa jarayoni; differentsiatsiya bilan birga kechadi;
3. 2 va undan ortiq davlatlarning iqtisodiyotini o‘zaro muvofiqlashtirish va birlashtirish.

Ta’lim tizimida fanlararo integratsiyani amalga oshirish hozirgi davrdagi dolzarb mavzulardan biri hisoblanadi. Ta’limda integratsiyani amalga oshirish o‘quvchilarning fanga bo‘lgan qiziqishlarini oshirishda o‘ziga xos rol o‘ynaydi. Fanlararo integratsiya haqida fikr almashishdan oldin integratsiya o‘zi nima uni qanday qo‘llash kerak yoki qo‘llamasa ham bo‘laveradimi singari savollarga javob topaylik. Integratsiya jarayoni fanlar orasidagi aloqani yangi, yuqori sifatda bir-biriga bog‘lash bosqichi bo‘lib, o‘zini yuqori ko‘rinishda namoyon eta olish lozim bo‘ladi. Shuni alohida ta’kidlash joizki, integratsiya jarayoni ildizlari uzoq o‘tmishdagi xalq va ilmiy pedagogikaga asoslangan. O‘tmishdagi xalq pedagogikasida didaktika ta’sirining ruhiy-pedagogik xususiyati hamda psixologik-pedagogik bog‘liqlik to‘g‘risida K.D.Usheniskiy shunday degan edi: “Har qanday fan tomonidan xabar qilinayotgan bilim va g‘oya dunyo va hayotga keng nigoh va yorituvchan holatda berilishi lozim”. O‘sha davrlarda ham olimlar fanlar o‘rtasidagi bog‘lanishni ya’ni, integratsiyani qo‘llash taqdim etilayotgan bilimlar hayotga keng nigoh tashlash imkonini berishini alohida ta’kidlab o‘tishgan.

Forobiy nazarida hunar va san’atlar bir-biriga bog‘liq bo‘lib, ularni puxta egallash boshqa fan va ilmlarni ham bilishni talab etadi. Shu bois, fanlararo

[79] O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 29.10.2020 yildagi PF-6097-son

integratsiya insonning baxt va komillikka erishishida asosiy omil sifatida qaraladi.

Hunar va san’atlar qaysi tur va sohalarga taalluqli ekanligiga ko‘ra bir-biridan afzal ko‘rinadi. Masalan, bo‘z to‘qish, shoyi to‘qish, attorlik, hovli supurish, raqs san’ati, fiqh ilmi, tabiblik yoki so‘z san’ati bir-biridan qanchalik afzal bo‘lsa baxtga erishuv darajalari ham shunga o‘xshashdir.

Bundan tashqari bir turdagi san’at, hunar sohiblari ham malaka (miqdori) jihatidan farqlanishi mumkin. Masalan, bir xattot o‘z hunarining ko‘pgina sirlarini bilishi, keng bilim egasi bo‘lishi mumkin. Boshqa biri o‘z hunari sirlarini kamroq bilishi mumkin. Mazkur hunar (xattotlik)ni yaxshi egallash uchun xattot tilni, so‘z san’atini, husnixatni va hisob-kitob, riyoziyotni puxta bilishi zarur. Shu hunar egalaridan biri masalan, husnixatni va riyoziyotni yaxshi biladi, boshqasi tilni, so‘z san’atini va husnixatning ba’zi jihatlarini yaxshi biladi, uchinchisi mana shu ilmlarning hammasida mohir.

Xattotlarning sifat jihatidan bir-biridan afzalligi shundaki, masalan, husnixat san’atini egallagan ikki xattotdan biri (o‘zi tanlagan) shu sohada kuchliroq, biri kuchsizroq bo‘lishi mumkin. Bu, sifatdagi afzallikdir.[80]

Hunar va san’at sohiblarining mahorati nafaqat bilim miqdori, balki ularni ijodkorona qo‘llash darajasi bilan ham belgilanadi. Shu bois malaka sifati ularning kasbiy ustunligi va san’atdagi yuksak darajasini ko‘rsatadi.

Farobiy ta’kidlagan hunar va san’at uyg‘unligi inson faoliyatida turli bilim va ko‘nikmalarni birlashtirish zarurligini ta’kidlab o‘tadi. Xuddi shunday, ta’lim jarayonidagi fanlar integratsiyasi ham o‘quvchilarda turli fanlardan olingan bilimlarni uyg‘unlashtirib, ularni hayotiy faoliyatda samarali qo‘llash imkonini yaratadi. Shu tariqa, ikkala jarayon ham shaxsning har tomonlama kamolotini erishishini ta’minlab beradi

Umumta’lim maktablarida barcha fanlarning o‘qitilishi bugungi kun o‘smirlarining ijobiy munosabatlarini shakllantirishga yordam beradi. O‘smir yoshdagi o‘quvchilarning shaxsi va ularning kamoloti muammosi taraqqiy etayotgan va o‘z taraqqivotida yuksak cho‘qqiga intilayotganlari jamiyat uchun dolzarb masaladir. Har bir o‘quv fanining o‘rganilishi, ta’lim samarasi yuksak bo‘lishi, bolalar erkin fikrlashni o‘rganishi naqadar dolzarb ekanligi hech kimda shubha uyg‘otmaydi. Erkin fikrlay oladigan kishigina jamiyatda o‘z mavqeyini to‘la idrok qila oladi. Bilimdonlikning muhim qismi bo‘lgan insoniy demokratik munosabatlar tizimidagi teranlik shaxs taqdiri va salohiyatini belgilovchi muhim omildir. Pedagogika va ijtimoiy psixologiya har bir o‘smir shaxsning hayotning barcha jabhalarida o‘zini erkin sezish va fikrlarini to‘la-to‘kis bayon etishiga o‘rgatuvchi usul sifatida xizmat qiladi. Bugungi kunda o‘smirlarning shaxslararo va ular o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlari malum bir darajada ularning shaxsidagi psixologik holatlarni o‘zgartirish va ijobiy munosabatlarni shakllantirishda yordam beradi. Maktab ta’limining san’at yo‘nalishi mazmunini bolalarning ta’lim-tarbiya olishida odamiylik sifatlari qunt bilan singdirib borilsa, ular yetuk

[80] Abu Nasr Forobiy.Fozil odamlar shahri. Nodir va dono fikrlar, T.: "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi" Davlat ilmiy nashriyoti, 2004. 160 b.48-b.

va barkamol sog‘lom, mustaqil fikrlovchi shaxs bo‘lib yetishi belgilaydi. Har bir vosh davrning psixologik xususiyatlarini hisobga olgan holda tarbiyaviy ta’sir o‘tkazish bolada o‘z vaqtida o‘zini anglashni vujudga keltiradi. Bolada o‘zini anglash tuyg‘usi qancha erta uyg‘onsa, shaxsiy nuqtayi nazan o‘z huquqini his etish, o‘zining aqliy va jismoniy imkoniyatlarini baholash shunchalik tez pavdo bo‘ladi. Hozirgi vaqtda hamma fanlar, shu jumladan, politexnik sikllar tomonlama talqin qilinar ekan shu fanlarni chuqur o‘rganish va uning ijtimoiy hayotini yaxshilash dolzarb va kechiktirib bo‘lmaydigan masalalardan biridir.[81]

Malumki, ta’lim jarayonida muavyan o‘quv fani, “Ona tili”, “Tarix”, “Adabiyot” kabilarga oid bilimlar bilan bir qatorda xalqning ijtimoiv tajribasi, til boyligu ma’naviy. madaniy qadryatlari axloqiy me’yorlari bilim va tushunchalar shaklida o‘rgatilishi lozim. Amaldagi ta’lim jarayonini tahlil qilish natijalari shuni ko‘rsatadiki, u yoki bu o‘quv fani mazmunida o‘quvchining ijtimoiv tajribasiga kiray qolgan bilim va tushunchalar mavjud, buning asosiy sababi o‘quv fanining mazmunini o‘ta murakkab yoki haddan tashqari sodda ekanligidadir. Agar o‘quv material! o‘ta murakkab boisa, o‘quvchi uni to‘liq o‘zlashtirishga qivnaladi. Agar sodda va takror holda ifodalangan boisa bunday o‘quv materialini o‘zlashtirishga ehtiyoj sezmaydi, undan bezadi. Bugungi kunga kelib jahondagi mamlakatlarning 70 foizi ta’lim tizimida integrativ xarakterdagi o‘quv dasturlari va darsliklardan foydalanib kehnoqda. Har bir mamlakat avni shu davlatning ta’lim tizimiga qo‘yilgan buyurtmaning tabiatidan kelib chiqqan holda integratsiyaning turli darajalarini ishlab chiqqan va joriy qilib kelmoqda. Chunonchi. Buyuk Britaniya taiim tizimida asosan integrativ fanlar joriy qilingan boisa, Koreya va Shveytsariyada integratsiyalashgan fanlar yoki alohida o‘quv predmetlari. Avstraliyada integratsivalashtirilgan fanlar, Yaponiya, Shimoliy lrlandiya, Uels. Gong-Kong va Germaniyada ham alohida fanlar. Vengriyada madaniyat yo‘nalishidagi o‘quv predmetlari. inson va tabiat. integrativ fanlar. Niderlandiyada alohida o‘quv predmetlari. Irlandiyada fan va texnika kabi blokiarda barcha o‘quv fanlari mujassamlashtirilgan holda o‘qitiladi. Bizda bu sohada dastlabki qadamlar qo‘yilmoqda.[82]

Integratsiyaning u yoki bu darajasini taiim jarayonida qoilash natijasida o‘quvchining vaqti va kuchi tejaladi. uning bilish imkoniyatlari kengayadi. Ota-onalarning hamda davlatning o‘qish jaravoniga sarflaydigan mablagini iqtisod qilish imkoniyati vujudga keladi; mavzulararo integratsiya asosida o‘quv-bilish jaravoni natijalarini istiqbolli qilish mexanizmiari yaratiladi; integratsiyalashtirilgan ta’lim jarayonini boshqaradigan o‘qituvchilarni tayyorlash va malakasini oshirishni yoiga qo‘yish uchun huquqiy metodik imkoniyatlar yaratiladi; integral dasturlar asosida o‘quv-biluv jaravonining iqtisodiy jihatdan samaradorlik darajasi aniqlanadi; o‘quv-biluv jarayonini

[81] Mavlyanova, Raxima B oshlangich ta’lim pedagogikasi, innovatsiva va integratsiyasi. O‘quv qollanma./R.Mavlyanova, N.Raxmankulova. - O'zbekiston Respublikasi Oliy va cfrta maxsus ta'lim vazirligi. - Toshkent. Voris nashriyoti, 2013. - 240 b.205-206 b.

[82] Mavlyanova, Raxima Boshlang’ich ta’lim pedagogikasi, innovatsiva va integratsiyasi. 0‘quv qollanma./R.Mavlyanova, N.Raxmankulova. - O'zbekiston Respublikasi Oliy va o’rta maxsus ta'lim vazirligi. - Toshkent. Voris nashriyoti, 2013. - 240 b. 212-b.

integral dasturlar asosida tashkil etish sohasiclagi xalqaro tajribalardan keng foydalanish uchun qulay imkoniyatlar tug‘iladi.

Tadqiqotimizdan kelib chiqqan holda quyidagi takliflarni berishimiz mumkin:

1. Fanlararo integratsiyani ta’limda tizimli joriy qilish

Farobiy qarashlari asosida fanlararo bog‘liqlikni chuqur tahlil qilish asosida umumta’lim fanlari o‘rtasida uzviy aloqani mustahkamlovchi o‘quv dasturlarini ishlab chiqish va joriy etish zarur. Bu o‘quvchilar tafakkurini ko‘p yo‘nalishda shakllantirishda va ularni hayotiy faoliyatga tayyorlashda muhim omil bo‘ladi.

2. Ijodkorlik va amaliy bilimlar uyg‘unligini kuchaytirish

Farobiyning ilm, san’at va hunarni uyg‘un holda egallash g‘oyasi asosida ta’lim jarayoniga ijodiy mashg‘ulotlar, amaliy loyihalar, san’at va texnik ijodiyot mashg‘ulotlarini integratsiyalash lozim. Bu o‘quvchilarda nafaqat nazariy bilim, balki uni hayotda qo‘llash ko‘nikmasini shakllantiradi.

3. Ilmiy-pedagogik infratuzilmani zamonaviylashtirish

Fanlararo integratsiyani samarali amalga oshirish uchun zamonaviy texnologiyalarga asoslangan, elektron o‘quv resurslari bilan boyitilgan o‘quv muhitini yaratish lozim. Bu o‘qituvchi va o‘quvchining o‘zaro interaktiv hamkorligini kuchaytiradi.

4. O‘qituvchilar uchun maxsus integratsion kompetensiyalarni rivojlantirish

Fanlararo yondashuvni qo‘llay oladigan, didaktik va psixologik bilimlarga ega bo‘lgan o‘qituvchilarni tayyorlash, ular uchun malaka oshirish kurslarida integratsiyalashgan ta’lim metodikalarini chuqur o‘rgatish zarur. Bu ta’lim sifatining barqaror oshishiga xizmat qiladi.

5. Farobiy qarashlari asosida milliy modelni ishlab chiqish

Farobiyning ilm, san’at va hunar integratsiyasi haqidagi konsepsiyasini zamonaviy pedagogik metodika bilan uyg‘unlashtirgan holda, O‘zbekiston ta’lim tizimi uchun milliy integratsion model ishlab chiqilishi kerak. Bu model asosida fanlararo bog‘liqlik ham nazariy, ham amaliy jihatdan izchil qo‘llaniladi.

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, Forobiyning hunar va san’at uyg‘unligi haqidagi qarashlari bugungi ta’lim jarayonida fanlararo integratsiya tamoyillari doim bir-biri bilan bog‘liqdir. U inson kamoloti uchun ilm, hunar va san’atning bir-biri bilan aloqador holda egallanishi zarurligini ta’kidlagan bo‘lsa, zamonaviy ta’lim ham fanlarni uyg‘unlashtirish orqali o‘quvchilarda keng dunyoqarash, ijodiy tafakkur va mustaqil fikrlash qobiliyatini shakllantirishga olib keladi. Fanlararo integratsiya ta’lim samaradorligini oshiribgina qolmay, bilimlarning hayotiy ahamiyatini ochib beradi, o‘quvchilarni har tomonlama rivojlantiradi. Shu bois Forobiyning qarashlari nafaqat tarixiy meros, balki bugungi kunda ham ta’lim tizimini rivojlantirishda nazariy-metodologik asos bo‘lib xizmat qilmoqda. Integratsiyalashgan ta’lim jarayonini samarali yo‘lga qo‘yish esa yurtimizda intellektual salohiyatli, ma’naviy yetuk va raqobatbardosh kadrlarni tarbiyalashda muhim bo‘libb kelmoqda

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 29.10.2020 yildagi PF-6097-son
2. Pedagogika (I qism): Darslik. Hasanboyev J., To‘raqulov X.A., Alqarov I.Sh., Usmonov N.O‘., Hasanova M.T. / Oliy o‘quv yurtlari uchun darslik. - Toshkent. 2017. 200 bet.
3. Abu Nasr Forobiy.Fozil odamlar shahri. Nodir va dono fikrlar, T.: "O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi" Davlat ilmiy nashriyoti, 2004. 160 b.
4. Mavlyanova, Raxima B oshlangich ta’lim pedagogikasi, innovatsiva va integratsiyasi. O‘quv qollanma./R.Mavlyanova, N.Raxmankulova. - O‘zbekiston Respublikasi Oliy va cfrta maxsus ta’lim vazirligi. - Toshkent. Voris nashriyoti, 2013. - 240 b.
5. Mirzaliyevna, S. Z. (2025). MILLIY TARBIYA ASOSIDA BO‘LAJAK BOSHLANG‘ICH TA’LIM O‘QITUVCHILARINING PEDAGOGIK MAHORATINI RIVOJLANTIRISH TIZIMI VA UNING ZAMONAVIY TA’LIMDA TUTGAN O‘RNI.*IZLANUVCHI*,*1*(7), 159-163.
6. Mirzaliyevna, S. Z. (2025). MILLIY TARBIYA ASOSIDA BO‘LAJAK BOSHLANG‘ICH TA’LIM O‘QITUVCHILARINING PEDAGOGIK MAHORATINI RIVOJLANTIRISH. *BILGI ÇEŞMESI*, *1*(6), 88-94.
7. Athamboyevna, V. N. (2024). TA’LIMDA PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALAR BU NIMA?. University Research Base, 590-594.
8. Saidaxon, D. (2023). Boshlang'ich ta'limda STEAM texnalogiyasini qo‘llash
9. Furqatjon, A. (2025). Physiological Characteristics of Cardiovascular System Development in Children Engaged in Sports. *Journal of Social Sciences and Humanities Research Fundamentals*, *5*(06), 15-18.

“IJODKORLIK”, “BADIIY TAFAKKUR” VA “IJODIY TAFAKKUR MADANIYATI” TUSHUNCHALARINING FALSAFIY, PSIXOLOGIK VA PEDAGOGIK XUSUSIYATLARI

Eraliyeva Zamira Rasuljonovna,
Qo‘qon universiteti Ta’lim kafedrasi katta o‘qituvchisi
zamirahoneraliyeva22@gmail.com

Annotatsiya: Maqolada “ijodkorlik”, “badiiy tafakkur” va “ijodiy tafakkur madaniyati” tushunchalari falsafiy, psixologik va pedagogik nuqtai nazardan tahlil qilinadi. Abu Nasr Forobiy, Abu Ali ibn Sino va Abu Rayhon Beruniylarning ilmiy qarashlari asosida bilish jarayonining bosqichlari, tafakkurning shakllanishi, bolalarda ijtimoiy va ma’naviy sifatlarni rivojlantirish omillari yoritilgan. Forobiy hissiy va aqliy bilishni farqlab, ta’lim jarayonida pedagog shaxsiyatining ahamiyatini ta’kidlagan. Ibn Sino aqliy kuchlarning bosqichma-bosqich rivojlanishini ko‘rsatib, bilim olish jarayonida irodaning roliga urg‘u beradi. Beruniy esa ilm olishda axloqiy poklik va zamonga mos metodlarning zarurligini uqtirgan. Shuningdek, maqolada badiiy tafakkur

tushunchasining turli talqinlari, obrazli tafakkurdan farqlanishi hamda san’at asarlari bilan bog‘liq holda shakllanishi tahlil etilgan. N.L. Leizerov va V. Baranov tadqiqotlari asosida badiiy tafakkurning mazmuni, ijodiy tasavvur bilan aloqadorligi ochib berilgan. Amaliy qismda maktabgacha yoshdagi bolalarda badiiy-ijodiy tafakkur madaniyatini shakllantirish imkoniyatlari ko‘rsatiladi. Ertaklar, topishmoqlar, multfilmlar va didaktik mashqlar bolalarning ijodiy tasavvuri, mantiqiy fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirishda samarali vosita sifatida tavsiya etiladi. Tadqiqot natijalarida ijodiy tafakkur madaniyati bolaning shaxsiy rivojlanishida muhim omil ekani asoslab beriladi.

Kalit so‘zlar: *ijodkorlik, badiiy tafakkur, ijodiy tafakkur madaniyati, maktabgacha ta’lim, sensorli bilish, tasavvur, estetik tarbiya, psixologik xususiyatlar.*

Аннотация: В статье рассматриваются понятия «творчество», «художественное мышление» и «культура творческого мышления» в философском, психологическом и педагогическом аспектах. На основе идей Абу Насра Фараби, Абу Али ибн Сины и Абу Райхона Беруни раскрываются этапы познания, формирование мышления и факторы развития социальных и духовных качеств у детей. Фараби выделял чувственное и рациональное познание и подчеркивал роль личности педагога в процессе обучения. Ибн Сина объяснял поэтапное развитие умственных сил, отмечая значение воли в овладении знаниями. Беруни указывал на необходимость нравственной чистоты и использования современных методов обучения. В статье также анализируются различные трактовки художественного мышления, его отличие от образного мышления и специфика формирования в процессе взаимодействия с произведениями искусства. На основе исследований Н.Л. Лейзерова и В. Баранова раскрывается взаимосвязь художественного мышления и творческого воображения. В практической части показаны возможности формирования художественно-творческой культуры мышления у детей дошкольного возраста. Сказки, загадки, мультфильмы и дидактические упражнения рассматриваются как эффективные средства развития творческого воображения и логического мышления детей. В результате исследования обосновано, что культура творческого мышления является важным фактором личностного развития дошкольников.

Ключевые слова: *творчество, художественное мышление, культура творческого мышления, дошкольное образование, сенсорное познание, воображение, эстетическое воспитание, психологические особенности.*

Abstract: The article analyzes the concepts of “creativity,” “artistic thinking,” and “the culture of creative thinking” from philosophical, psychological, and pedagogical perspectives. Based on the ideas of Abu Nasr al-Farabi, Abu Ali Ibn Sina, and Abu Rayhan al-Biruni, the stages of cognition, the formation of thinking, and the factors of developing social and spiritual qualities in children are discussed. Al-Farabi distinguished between sensory and rational

cognition and emphasized the importance of the teacher’s personality in education. Ibn Sina explained the gradual development of intellectual abilities, stressing the decisive role of will in acquiring knowledge. Al-Biruni highlighted the necessity of moral purity and the adaptation of teaching methods to the demands of the time. The article further examines different interpretations of artistic thinking, its distinction from figurative thinking, and its specific formation in relation to works of art. Based on the studies of N.L. Leizerov and V. Baranov, the connection between artistic thinking and creative imagination is revealed. The practical section demonstrates opportunities for developing the culture of artistic and creative thinking in preschool children. Fairy tales, riddles, cartoons, and didactic exercises are recommended as effective tools to enhance imagination and logical thinking skills. The results of the study substantiate that the culture of creative thinking is a key factor in the personal development of preschool children.

Keywords: *creativity, artistic thinking, culture of creative thinking, preschool education, sensory cognition, imagination, aesthetic education, psychological features.*

Abu Nasr Forobiy esa ko‘plab asarlarida bilish masalasiga katta e’tibor beradi. U bilishda ikki bosqichni – hissiy va aqliy bilishni farqlaydi hamda bilishda inson aqlining roliga ahamiyat beradi. Forobiy insonlarni ilmli bo‘lishga chaqirib, bolaning ijtimoiy hayotda tutgan o‘rni va uning o‘ziga xos xususiyatlari to‘g‘risida ibratli g‘oyalarni ilgari surgan. U bolaga ta’lim berish, uni ilmli qilish uchun pedagog tinmasdan mashaqqatli mehnat qilsagina o‘quvchi o‘qishga, ta’lim olishga, bilimli bo‘lishga intilishi mumkinligini ta’kidlaydi. Pedagog bolaga bilim beraman desa, o‘quvchi oldida haqiqatgo‘y bo‘lishi kerak, o‘zi fahm-farosatli bo‘lib, or-nomusini qadrlashi lozim, shogirdlariga nisbatan adolatli bo‘lishi, ko‘zlagan maqsadiga erishishida qat’iylik ko‘rsata bilishi va o‘rnak bo‘lmog‘i joiz, deya ta’kidlaydi mutafakkir[83].

Qomusiy olim Abu Ali ibn Sinoning fikricha, inson tafakkuri, aqlining kuchi bir necha bosqichdan iborat. Aqliy kuchlar dastlab mutlaq tinch, sokin holatda bo‘ladi[84]. Bolalardagi yozishni, o‘qishni o‘rganishdagi potensial kuchlar shunga misol bo‘la oladi. Abu Ali ibn Sino bu kuchlarni moddiy kuchlar deb nomlagan, ya’ni mazkur kuchlarni tashqi motivlar deb tushunsa bo‘ladi. Sekin-astalik bilan bu kuchlar harakatga aylanadi, bular mehnat quroli samarasidir, ya’ni mehnat quroli orqali harakatga keladi va namoyon bo‘ladi. Bu holatni bola yozishni xohlab turibdi-yu, ammo yozish quroli bo‘lgan qalamning yo‘qligi bilan izohlash mumkin. Bu ikki kuchni Ibn Sino ro‘yobga chiqishi mumkin bo‘lgan kuch deb atagan. Nihoyat, uchinchi kuch esa irodaning yetishmasligi bilan tushuntirib beriladi. Ya’ni shunday holatning kuchi bor, ammo uni ishlatishga, ruyobga chiqarishga bolada iroda yetishmaydi. Alloma nazarida, shu

[83] Abu Nasr Forobiy. Fozil odamlar shahri. – Toshkent: A.Qodiriy nomidagi nashriyot, 1993. – 224 b
[84] Abu Ali ib Sino. Tib qonunlari. Saylanma. 1-jild. – T.: Abdulla Qodiriy nomidagi xalq merosi, 1993. – 304 b

kabi uch holat bilan aql, bilim olish izohlanadi. “Tayr” asarida esa insonlarni do‘stlikka, bilim o‘rganishga chaqiradi[85].

Beruniy ilm olishda axloqiy poklikni yuqori o‘ringa qo‘yib, ta’lim va tarbiyani bir xil izchillikda olib borganlar komil inson darajasiga erishadilar[86], deydi. Beruniy o‘qitish uchun pedagog o‘z malaka va bilimlarini doimo orttirib, zamonga moslashib borishi lozimligini uqtiradi. U kitob o‘qish usullariga alohida e’tibor qaratadi. Kitoblarni shunchaki emas, fikrlab, kichik-kichik bo‘limlarga bo‘lib o‘qish va umumlashtirib borish kerakligi haqida ma’lumotlar beradi.

Abu Rayhon Beruniy ilm olishda takrorlashga zo‘r berib, ta’lim oluvchilarni toliqtirib va zeriktirib qo‘ymasdan, turli psixologik usullarni qo‘llashni, shu orqali ularning tafakkurini boyitib, bilimlarini chuqurlashtira borishni ilgari surgan buyuk zotdir. Ya’ni o‘qishga nisbatan bo‘lgan qiziqishni so‘ndirmaslik uchun bolalarning yoshiga xos psixologik xususiyatlar albatta inobatga olinishi kerakligini e’tirof etadi[87].

“Badiiy tafakkur” atamasi uzoq vaqt davomida chetlab kelindi va uning o‘rniga “tasavvurli tafakkur”, “tasvirlardagi idrok”, “badiiy-ijodiy fikrlash” va hokazo atamalar qo‘yildi va “badiiy tafakkur” kabi turkumlarning sinonimik qatoriga kiritildi. Masalan: “ijodkorlik”, “badiiy faoliyat”, “badiiy umumlashtirish”, “badiiy jarayon”, “tiplashtirish”, “san’at” va boshqalar. Bizning fikrimizcha, badiiy tafakkurga bunday nuqtai nazardan qarash uning mavzusini yo‘qotishga olib keladi. Demak, masalan, “Estetikaning qisqacha lug‘ati”da[88] yuqoridagi turkumlarning ma’nolari kesishadi va aslida takrorlanadi. “Estetika” lug‘atida badiiy tafakkur o‘zining o‘ziga xos qonuniyatlari va tamoyillariga ko‘ra rivojlanish nuqtai nazaridan qaraladi, u boshqa aqliy faoliyat turlaridan ajralib turadi.

San’atning o‘ziga xos xususiyatlarini o‘rganadigan tadqiqotlarda badiiy va obrazli tafakkurni sinonim sifatida ko‘rib chiqish tendentsiyasi mavjud. Biroq, ularni aniqlash mumkin emas[89] Tasavvurli tafakkur badiiy tafakkurdan farqli ravishda san’atda, badiiy ijodda sodir bo‘ladigan psixik jarayonlarning butun mohiyatini to‘liq tavsiflamaydi, chunki obrazli tafakkurda bilish jarayoni jonli tafakkurdan boshlanib, murakkab abstraktsiya va umumlashtirish jarayoni sifatida davom etadi. Majoziy tafakkurning muhim xususiyati uning ichki chegaralanishi va sub’ektning ichki faoliyati strukturasidagi funksional aniqligi, umumlashtirish jarayonining ob’ektiv dunyo dialektikasini abstrakt-mantiqiy qayta ko‘rib chiqish darajasiga ko‘tarila olmasligi, unda konkret fikrlashning

[85] Abdurahmonov A. Saodatga eltuvchi bilim: (Din, falsafa, hayot, ma’naviyat va ma’rifat saboqlari). – T.: Movaraunnahr, 2002. – 720 b

[86] Abu Rayhon Beruniy. Feruza (Javohirlar haqida naql va hikoyatlar). – Toshkent: A.Qodiriy nomidagi nashriyot, 1993. – 96 b

[87] Xodjayev B.X. Umumiy pedagogika nazariyasi va amaliyoti. – T.: SANO-STANDART, 2017. – B.204.

[88] Краткий словарь по эстетике / Под об. ред. М.Ф. Овсянникова, В.А. Разумного. -М.: Изд-во полит, литературы, 1963. – 543-b.

[89] Лейзеров Н.Л. Образность в искусстве. - М.: Наука, 1974. - 60-b. Никифорова О.И. Исследования по психологии художественного творчества. -М.: Изд-во Моск, ун-та, 1972.- 154с. Выготский Л.С. Психология искусства. -М.: Искусство, 1965. - 479с.

yo‘qolishiga olib kelmaydi. Badiiy tafakkurning tabiatini o‘rganib, N.L. Leizerov ikkita tushunchani ajratadi: “hayoliy fikrlash” va “badiiy tafakkur”. Muallifning fikriga ko‘ra, “majoziy fikrlash - bu insonning dunyoni ko‘p qirrali idrok etishini hissiy-baholovchi, hissiy-vizual aks ettirish, bu butun jarayon ma’lum bir maqsadga bo‘ysunadigan bo‘lsagina badiiy bo‘ladi”[90]. Bunda biz uchun muallifning obrazli va badiiy tafakkurni farqlash borasidagi pozitsiyasi, eng muhimi, ikkinchisining obrazli tafakkur tizimidagi o‘rnini aniqlash muhim ahamiyatga ega. Bu erda badiiy tafakkurning o‘ziga xos xususiyati insonning san’at asarlari bilan o‘zaro munosabati davomida amalga oshiriladigan fikrlash sifatida ta’kidlangan.

V. Baranovning estetik-badiiy tadqiqida badiiy tafakkur voqelikni badiiy idrok etishning murakkab jarayoni bo‘lib, u “uslubning umumiy tamoyillarini asarning o‘ziga xos to‘qimasiga aylantirishdan, timsolida o‘ziga xos to‘qimaga aylantirishdan iborat ekanligi metodni individual ijodiy qo‘llash orqali ta’kidlanadi”[91].

“Ijodiy tasavvurni qamrab olish darajasi badiiy vaziyatning noaniqlik darajasi, uning dastlabki ma’lumotlaridagi badiiy ma’lumotlarning to‘liqligi yoki yetishmasligi bilan belgilanadi. Hal qiluvchi omil sub’ektning ob’ekt bilan bevosita o‘zaro ta’siri emas, balki fikrlash vazifalaridir”[92]. Agar dastlabki ma’lumotlar, noma’lumning mavjudligi, “kashf qilish” zarurati mavjud bo‘lsa, muammoli badiiy vaziyatni hal qilish jarayoni tasviriy fikrlashning bir turi sifatida badiiy tafakkurning yuqori mahsuldorligi bilan tavsiflanadi. Agar ma’lumotlarni tahlil qilish qiyin bo‘lsa, unda ijodiy tasavvurning o‘ziga xos usullari badiiy tafakkur chegaralarida ishlaydi. Shunday qilib, “badiiy tafakkur xayol mahsuldorligisiz va panoramik tasavvursiz amalga oshmaydi, xuddi tasavvur ham tafakkurning har tomonlama qamrab oluvchi kuchisiz amalga oshmaydi”[93].

Ijodkorlik insonga xosdir, chunki u har doim ijodkorni - ijodiy faoliyat sub’ektini nazarda tutadi. Odamlarni bolalarning ijodiy tafakkurini rivojlantirish muammosi doimo qiziqtirib kelgan. Ijod, faylasuflarning fikricha, yangi qadriyatlarni yaratishga qaratilgan jarayondir, u ob’ektiv va shaxsiy, sub’ektivni birlashtiradi (N.A. Berdyaev, E.V. Ilyenkov). Pedagogikada ijodkorlikning yetti turini ajratish odatiy holdir: o‘ziga xoslik, evristik, fantaziya, faollik, konsentratsiya, aniqlik, sezgirlik. Ijodkorlik, ko‘rib turganimizdek, birinchi navbatda, sub’ektning faoliyati bilan bog‘liq.

Amerikaning Yuta shtatida turli yoshdagi odamlar foydalanadigan ijodiy salohiyat miqdorini o‘rganish bo‘yicha tajriba o‘tkazilgan. Bolalar bog‘chasi bolalari, boshlang‘ich maktab o‘quvchilari, yuqori guruh o‘quvchilari, universitet talabalari va kattalar o‘rtasida hayot davomida ijodkorlikning “rivojlanishini” o‘rganish uchun ular testlarda foydalanadigan ijodkorlik


[90] Лейзеров Н.Л. Образность в искусстве. - М.: Наука, 1974. - 60-с.
[91] Баранов В. Орудие познание и борьбы. О социалистическом реализме как методе художественного мышления. — М., 1978. - С.27
[92] Коршунов А.М. Отражение, деятельность, познание. - М., 1979. - 102-105 с.
[93] Лилов А.Л. Природа художественного творчества. - М.: Искусство, 1981.-181 с.

miqdorini aniqlash uchun so‘rov o‘tkazilgan[94]. Umuman olganda, testga turlicha munosabatda bo‘lishingiz mumkin, ammo test natijalari ma’lum savollarga javob beradi va tadqiqotchilar uchun yangi savollarni yaratadi. Olingan natijalar quyidagicha edi [2-rasmga qarang].

Yosh guruhi	Foydalanilgan ijodiy salohiyat ulushi (%)
Bolalar bog‘chasidan bolalar	95-98
Kichik maktab o‘quvchilari	50-70
O‘rta maktab va universitet talabalari	30-50
Kattalar	20 dan kam

2- rasm. Shaxsning foydalanilgan ijodiy salohiyati ko‘rsatkichlari.

Badiiy-ijodiy tafakkur zamonaviy inson va kelajak odami uchun zarur bo‘lgan samarali shaxsiy faoliyatning asosidir. Bolaning ijodiy tafakkurini rivojlantirishga pedagogik ta’sir ko‘rsatish imkoniyati va zarurligi pedagogika va psixologik fanda hali qo‘llanilmagan yangi tushunchani - katta maktabgacha yoshdagi bolalarda badiiy tafakkurni ko‘rib chiqishga asos beradi.[95] Bizning ta’rifimizga ko‘ra, *katta maktabgacha yoshdagi bolalarda badiiy-ijodiy tafakkur madaniyati - bu atrofdagi dunyoni ijodiy idrok etish, tushunish va o‘zgartirishda namoyon bo‘ladigan va ijodiy faoliyatning yangi mahsulotini yaratishga qaratilgan shaxsiy xususiyat, ya’ni bolalar submadaniyatidir.* [4 rasmga qarang].



4 - rasm. Cxeina tushuncl yoshdagi bolalar uchun badiiy tafakkur kontseptsiyasi”

Ilmiy adabiyotlar tahlili badiiy obraz yaratish bosqichlari va ketma-ketligini, binobarin, mavzudan, badiiy g‘oyadan va rejani amalga oshirishdan badiiy tafakkurni aks ettirish imkonini berdi.

[94] Бергсон А. Собрание сочинений: В 5т. Т. 5. Введение в метафизику. — СПб, 1914.-С.6
[95] Eraliyeva Zamira. (2023). BOLALAR KITOBXONLIGI VA MEDIYA MUHITIDA BOLALIK KONSEPTINING IFODALANISHI. *Innovations in Technology and Science Education*, *2*(15), 287–295. Retrieved from https://humoscience.com/index.php/itse/article/view/1967

Maktabgacha yoshdagi bolalarning badiiy tafakkurini rivojlantirishning boshlang‘ich nuqtasi *his-tuyg‘ulardir*. Shunday qilib, L.S. Vygotskiy ta’kidlaganidek: “Kimki tafakkurni affektdan ajratib qo‘ygan bo‘lsa, u tafakkurning sabablarini tushuntirish yo‘lini abadiy yopdi, chunki tafakkurning deterministik tahlili, albatta, u yoki bu yo‘nalishdagi fikr va ehtiyojlar va qiziqishlarning harakatlantiruvchi motivlarini ochib berishni o‘z ichiga oladi”[96]. B.M. Yemenskiy bolada ratsional-mantiqiy va hissiy-sensual badiiy tafakkurni to‘liq rivojlantirish zarurligini ta’kidlaydi.

O.M Popovaning qo‘llanmasida ertaklar, topishmoqlar, kulgili rasmlar turkumi, multfilmlarning satirik parchalari, kulgili mazmundagi qo‘shiqlar, istehzoli va hazilli mulohazalar, she’rlar joy olgan bo‘lib, uning maqsadi materiallaridan foydalangan holda maktabgacha yoshdagi bolalarning ijodiy tasavvurini rivojlantirishga qaratilgan. Bolalar tasavvurining rivojlanishiga ta’sir ko‘rsatadigan muallifning kontseptual modelining asosi, ularni xayoliy tasvirlarni yaratish, (aglyutinatsiya, tiplashtirish, rekonstruksiya qilish, narsalarni teskari muvofiqlashtirish, ob’ektlarni fantastika bilan ta’minlash) usullarida mashq qilish zarurligi to‘g‘risidagi qoidadir. Ushbu qo‘llanmada, muallif ijodiy tasavvurni rivojlantirish uchun mashqlardan foydalanadi. Muallif bolalar ijodiy tasavvurini rivojlantirish jarayonining murakkabligini tushunib, maktabgacha yoshdagi bolalarning aqliy rivojlanishining xususiyatlari bilan bog‘liq ma’lum qiyinchiliklarning yuzaga kelishi haqida ogohlantiradi va ularni bartaraf etish yo‘llarini taklif qiladi.

Maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo‘yiladigan davlat talablari asosida ishlab chiqilgan “Ilk qadam” o‘quv dasturining barcha sohasida bolalarning kognitiv-tadqiqot va ishlab chiqarish (konstruktiv) faoliyatini rivojlantirish vazifasi ta’kidlangan maqsadlar bilan bog‘liq. Bu tadqiqotimizning maqsadlari “Nutq, muloqot, o‘qish va yozish malakalari”, “Bilish jarayonining rivojlanishi” sohasi, “Ijodiy rivojlanish” va “Ijtimoiy – hissiy” ta’lim sohalarining mazmuni boshqa odamlar bilan o‘zaro munosabatlarning konstruktiv usullari va vositalarini o‘zlashtirish maqsadlariga erishishga qaratilgan bo‘lib, bu nostandart hayotiy vaziyatlarni hal qilishda juda muhimdir.

Xulosa. Maqolada ijodkorlik, badiiy tafakkur va ijodiy tafakkur madaniyatining falsafiy, psixologik hamda pedagogik xususiyatlari keng qamrovda tahlil qilindi. Abu Nasr Forobiy, Abu Ali ibn Sino va Abu Rayhon Beruniylarning qarashlari asosida bilish jarayonining hissiy va aqliy bosqichlari, bilim olishda iroda va axloqiy poklikning o‘rni, pedagog shaxsiyatining ta’limdagi ahamiyati yoritildi. Shuningdek, badiiy tafakkur tushunchasining turli talqinlari, obrazli tafakkurdan farqlanishi va san’at asarlari bilan bevosita bog‘liqligi ochib berildi. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, badiiy-ijodiy tafakkur insonning ijodkorlik salohiyati, estetik didi va shaxsiy rivojlanishida muhim omildir. Ayniqsa, maktabgacha yoshdagi bolalarda ijodiy tafakkur madaniyatini rivojlantirish ularning mantiqiy fikrlashini, tasavvurini va ijtimoiy-emotsional rivojlanishini ta’minlaydi.

[96] Выготский Л.С. Мышление и речь. - М.: Соцэкгиз, 1934. - с. 14.

Takliflar. Maktabgacha ta’lim dasturlarida badiiy-ijodiy tafakkurni rivojlantiruvchi maxsus mashg‘ulotlar (ertaklar, topishmoqlar, multfilmlar asosida) kengroq qo‘llanishi lozim.

Pedagoglar tayyorlash jarayonida sensor tarbiya, estetik ta’lim va ijodiy tasavvurni rivojlantirish metodikalariga alohida e’tibor qaratish kerak.

Bolalarning yosh va psixologik xususiyatlarini inobatga olib, didaktik o‘yinchoqlar, musiqali va tasviriy faoliyat vositalaridan kompleks foydalanish samarali natija beradi.

Ta’lim jarayonida interfaol metodlardan (rol o‘ynash, muammoli vaziyatlar, ijodiy topshiriqlar) foydalanish bolalarning mustaqil fikrlash va yangi g‘oyalarni yaratish qobiliyatini oshiradi.

Ilmiy izlanishlarda badiiy tafakkur madaniyatining rivojlanish darajasini o‘lchash va baholash mezonlarini ishlab chiqish muhim.

Ota-onalar ishtirokini kuchaytirish zarur: uy sharoitida bolaga ijodiy vazifalar berish, birgalikda kitob o‘qish, musiqiy va badiiy mashg‘ulotlarda qatnashish tavsiya etiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Abu Nasr Forobiy. Fozil odamlar shahri. – Toshkent: A.Qodiriy nomidagi nashriyot, 1993. – 224 b
2. Abu Ali ib Sino. Tib qonunlari. Saylanma. 1-jild. – T.: Abdulla Qodiriy nomidagi xalq merosi, 1993. – 304 b
3. Abdurahmonov A. Saodatga eltuvchi bilim: (Din, falsafa, hayot, ma’naviyat va ma’rifat saboqlari). – T.: Movaraunnahr, 2002. – 720 b
4. Abu Rayhon Beruniy. Feruza (Javohirlar haqida naql va hikoyatlar). – Toshkent: A.Qodiriy nomidagi nashriyot, 1993. – 96 b
5. Баранов В. Орудие познание и борьбы. О социалистическом реализме как методе художественного мышления. — М., 1978. - С.27
6. Бергсон А. Собрание сочинений: В 5т. Т. 5. Введение в метафизику. — СПб, 1914.-С.6
7. Выготский Л.С. Мышление и речь. - М.: Соцэкгиз, 1934. - с. 14.
8. Коршунов А.М. Отражение, деятельность, познание. - М., 1979. - 102-105 с.
9. Краткий словарь по эстетике / Под об. ред. М.Ф. Овсянникова, В.А. Разумного. -М.: Изд-во полит, литературы, 1963. – 543-b.
10. Furqatjon, A. (2025). Physiological Characteristics of Cardiovascular System Development in Children Engaged in Sports. *Journal of Social Sciences and Humanities Research Fundamentals*, *5*(06), 15-18.
11. Лейзеров Н.Л. Образность в искусстве. - М.: Наука, 1974. - 60-b. Никифорова О.И. Исследования по психологии художественного творчества. -М.: Изд-во Моск, ун-та, 1972.- 154с. Выготский Л.С. Психология искусства. -М.: Искусство, 1965. - 479с
12. Лейзеров Н.Л. Образность в искусстве. - М.: Наука, 1974. - 60-с.
13. Лилов А.Л. Природа художественного творчества. - М.: Искусство, 1981.-181 с.

14. Furqatjon, A. (2025). Physiological Characteristics of Cardiovascular System Development in Children Engaged in Sports. *Journal of Social Sciences and Humanities Research Fundamentals*, *5*(06), 15-18.

15. Xodjayev B.X. Umumiy pedagogika nazariyasi va amaliyoti. – T.: SANO-STANDART, 2017. – B.204.

16. Eraliyeva Zamira.. BOLALAR KITOBXONLIGI VA MEDIYA MUHITIDA BOLALIK KONSEPTINING IFODALANISHI. *Innovations in Technology and Science Education*, (2023), *2*(15), 287–295. Retrieved from https://humoscience.com/index.php/itse/article/view/1967

17. Eraliyeva, Z.. MTT NING MAKTABGA TAYYORLOV GURUHLARIDA BOLALARNI MANTIQIY FIKRLASH VA BAHS MUNOZARALI VAZIYATLARDA YECHIM TOPISHGA VA BADIIY NUTQQA O‘RGATISH. *Talqin Va Tadqiqotlar*, (2023), *1*(18). извлечено от https://talqinvatadqiqotlar.uz/index.php/tvt/article/view/19

Eraliyeva Zamira Rasuljonovna. IN MTT’S PREPARATORY GROUPS FOR SCHOOL, CHILDREN ARE TAUGHT TO THINK LOGICALLY AND TO FIND SOLUTIONS IN CONTROVERSIAL SITUATIONS AND ARTISTIC SPEECH. *International journal of recently scientific researcher’s theory,* (2024). 2(6), 34–38. Retrieved from https://uzresearchers.com/index.php/ijrs/article/view/3412

BOLALARDA MEHNAT TARBIYASINI SHAKLLANTIRISHNING ILMIY-METODIK ASOSLARINI TAKOMILLASHTIRISH

Sanginova Gulnoza Boxodirovna,
Ta’lim kafedrasi o‘qituvchisi
xusamr@mail.ru

Annotatsiya

Maktabgacha ta’lim tizimida bolalarda mehnat tarbiyasini shakllantirish shaxs kamolotining muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. Ushbu tadqiqotda maktabgacha katta yoshdagi bolalarda mehnat tarbiyasining ilmiy-metodik asoslari, uning mazmuni va samarali tashkillashtirish yo‘llari yoritilgan. Mehnat tarbiyasi bolaning mustaqilligi, mas’uliyati, intizomi va mehnatsevarlik sifatlarini rivojlantirishga xizmat qilishi bilan birga, ularni maktab ta’limiga tayyorlashning muhim omili sifatida namoyon bo‘ladi.

Annotatsiyada mehnat tarbiyasining asosiy maqsad va vazifalari ko‘rsatilib, bolalarda mehnatga ijobiy munosabatni shakllantirish, kundalik hayotiy ko‘nikmalarni egallash, ijodiy faoliyatga qiziqishni rivojlantirish hamda mehnat madaniyati asoslarini shakllantirishning zarurligi ta’kidlangan. Shu bilan birga, oilaning va tarbiyachining hamkorlikdagi faoliyati, bolalarni oddiy uy yumushlari hamda maishiy mehnatga jalb etishning tarbiyaviy ahamiyati asoslab berilgan.

Tadqiqotda mehnat tarbiyasini samarali tashkil etishda yosh xususiyatlarini hisobga olish, o‘yin va mehnat faoliyatini uyg‘unlashtirish, innovatsion

texnologiyalarni qo‘llash va kichik guruhlarda hamkorlikni rivojlantirishning afzalliklari ko‘rsatib o‘tilgan. Xulosa sifatida, mehnat tarbiyasi bolalarda shaxsiy va ijtimoiy sifatlarni rivojlantirib, ularning kelgusidagi ta’lim va hayot faoliyatida muvaffaqiyatli bo‘lishi uchun mustahkam poydevor yaratishi qayd etilgan.

Kalit so‘zlar: maktabgacha ta’lim, mehnat tarbiyasi, ilmiy-metodik asoslar, mustaqillik, mas’uliyat, ota-ona va tarbiyachi hamkorligi, innovatsion texnologiyalar.

Аннотация

В системе дошкольного образования трудовое воспитание детей является важной составляющей формирования личности. В данном исследовании раскрываются научно-методические основы трудового воспитания у детей старшего дошкольного возраста, его содержание и пути эффективной организации. Трудовое воспитание способствует развитию самостоятельности, ответственности, дисциплинированности и трудолюбия ребёнка, а также выступает важным фактором подготовки к школьному обучению.

В аннотации обозначены основные цели и задачи трудового воспитания: формирование положительного отношения к труду, овладение повседневными навыками, развитие интереса к творческой деятельности и формирование основ трудовой культуры. Особое внимание уделено сотрудничеству семьи и воспитателя, значению вовлечения детей в элементарные домашние и бытовые виды труда.

В исследовании подчёркиваются преимущества учёта возрастных особенностей, интеграции игровой и трудовой деятельности, применения инновационных технологий и развития сотрудничества в малых группах. В заключение отмечается, что трудовое воспитание развивает у детей личностные и социальные качества, создаёт прочную основу для успешного обучения и жизнедеятельности в будущем.

Ключевые слова: дошкольное образование, трудовое воспитание, научно-методические основы, самостоятельность, ответственность, сотрудничество родителей и воспитателей, инновационные технологии.

Abstract

In the preschool education system, labor education of children is an essential component of personality development. This study reveals the scientific and methodological foundations of labor education in older preschool children, its content, and ways of effective organization. Labor education fosters the development of independence, responsibility, discipline, and diligence, and serves as an important factor in preparing children for school education.

The abstract outlines the main goals and objectives of labor education: forming a positive attitude toward work, acquiring everyday skills, developing an interest in creative activity, and establishing the foundations of work culture. Special attention is given to the cooperation between family and educator, as

well as the significance of involving children in simple household and everyday tasks.

The study emphasizes the advantages of considering age-specific characteristics, integrating play with labor activities, applying innovative technologies, and encouraging cooperation in small groups. In conclusion, it is noted that labor education develops children’s personal and social qualities and creates a solid foundation for their successful learning and future life.

Keywords: preschool education, labor education, scientific and methodological foundations, independence, responsibility, parent–teacher cooperation, innovative technologies.

Dolzarbligi

Maktabgacha ta’lim tizimi jamiyatning intellektual va ma’naviy salohiyatini yuksaltirishda muhim o‘rin egallaydi. Bolalarni maktab ta’limiga tayyorlashda mehnat tarbiyasi alohida ahamiyatga ega bo‘lib, u shaxsning ijtimoiy faoliyati, intizomi, mustaqilligi va mehnatsevarlik sifatlarini shakllantirishda beqiyos ahamiyat kasb etadi. Bugungi globallashuv sharoitida barkamol shaxsni tarbiyalash, uning mehnatga munosabatini shakllantirish masalalari pedagogika fanining dolzarb muammolaridan biri hisoblanadi.

Maktabgacha ta’lim tizimi jamiyatning intellektual va ma’naviy salohiyatini yuksaltirishda muhim o‘rin egallaydi. Bolalarni maktab ta’limiga tayyorlashda mehnat tarbiyasi alohida ahamiyatga ega bo‘lib, u shaxsning ijtimoiy faoliyati, intizomi, mustaqilligi va mehnatsevarlik sifatlarini shakllantirishda beqiyos ahamiyat kasb etadi. Bugungi globallashuv sharoitida barkamol shaxsni tarbiyalash, uning mehnatga munosabatini shakllantirish masalalari pedagogika fanining dolzarb muammolaridan biri hisoblanadi.

Mazkur tadqiqotning maqsadi – maktabgacha katta yoshdagi bolalarda mehnat tarbiyasini shakllantirish jarayonini ilmiy-metodik jihatdan takomillashtirishga qaratilgan tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat. Shu maqsadda quyidagi vazifalar belgilandi:

- mehnat tarbiyasining nazariy asoslarini o‘rganish;
- maktabgacha katta yoshdagi bolalarda mehnat tarbiyasini shakllantirishning metodik xususiyatlarini tahlil qilish;
- ota-onalar va tarbiyachilarning hamkorligini takomillashtirish yo‘llarini aniqlash.

Mehnat tarbiyasining maqsad va vazifalari nimalardan iborat? Metodik tavsiyalarda quyidagi “bolalar va o‘smirlar tarbiyasi bilan bog‘liq maqsadlar” belgilangan:

- o‘z-o‘zini tarbiyalash va rivojlantirishga qodir, axloqli, mustaqil fikrlaydigan fuqarolarni tarbiyalash;
- real darajadagi da’volarga ega bo‘lgan, ijtimoiy ma’qullangan faoliyat turlarida o‘zini namoyon qilishga yo‘naltirilgan, jamiyat farovonligiga qaratilgan, pedagogik, psixologik va ijtimoiy sharoitlar yaratish orqali shaxsiy va kasbiy o‘sishidan manfaatdor bo‘lgan;

- inson manfaatlari va imkoniyatlari bilan jamiyat ehtiyojlari o‘rtasida muvozanatga erishishga ko‘maklashish;
- mehnat faoliyatining biron-bir sohasida shaxsning kasbiy muvaffaqiyatini bashorat qilish;
- o‘z mehnati va ijtimoiy mavqeidan qoniqish hosil qilish, o‘z salohiyatini ro‘yobga chiqarish, munosib turmush darajasini ta’minlash maqsadida yoshlarning kasbiy shakllanishi va rivojlanishiga ko‘maklashish.

Mehnat tarbiyasining vazifalari:

- ta’lim oluvchilarda mehnatga inson va jamiyat hayotidagi eng oliy qadriyat sifatida ijobiy munosabatni, mehnat faoliyatining yuksak ijtimoiy motivlarini shakllantirish;
- bilimga bo‘lgan kognitiv qiziqishni, ijodiy mehnatga bo‘lgan ehtiyojni, bilimlarni amalda qo‘llashga intilishni rivojlantirish;
- yuksak axloqiy fazilatlarni, mehnatsevarlikni, burch va mas’uliyatni, maqsadga intiluvchanlik va tadbirkorlikni, ishbilarmonlik va halollikni tarbiyalash;
- ta’lim oluvchilarni xilma-xil mehnat ko‘nikma va malakalari bilan qurollantirish, aqliy va jismoniy mehnat madaniyati asoslarini shakllantirish.

Mehnat tarbiyasining mazmuni ushbu vazifalar, shuningdek, bir qator xo‘jalik-iqtisodiy omillar, tuman va viloyatning ishlab chiqarish sharoitlari, maktabning imkoniyatlari va an’analari bilan belgilanadi.

Shubhasiz, shaxsning mehnatsevarlik, mehnatga va mehnat kishilariga hurmat, jamiyatga foyda keltirishga intilish kabi fazilatlari hayotining dastlabki yillaridanoq oilada shakllanadi. Maktabgacha ta’lim muassasalari esa mehnat ko‘nikmalarini shakllantirishga, demakki, insonning kelajakdagi kasbiy muvaffaqiyatiga, shaxsning o‘zini namoyon etishi, o‘zini ko‘rsatishi va tasdiqlashi, stressga chidamliligi, ijtimoiy himoyasi va zamonaviy sharoitlarga moslashishiga zamin yaratadi.

Zamonaviy bolalar bog‘chasining asosiy vazifasi – oilaga har tomonlama rivojlangan: qiziquvchan, jismonan sog‘lom, hamdardlik qila oladigan, do‘stlik va oilaning qadrini tushunadigan bolani tarbiyalashga yordam berishdir. Shuning uchun maktabgacha ta’lim tashkiloti (MTT) pedagogidan bolalar bilan ishlashning zamonaviy metodikasida sodir bo‘layotgan voqealar kontekstida bo‘lish talab etiladi. O‘z ishini kasbiy jihatdan malakali va huquqiy jihatdan to‘g‘ri bajarish uchun har bir pedagog me’yoriy hujjatlar bilan tanish bo‘lishi kerak. Bu tarbiya jarayonini sifatli darajada amalga oshirish va maktabgacha rivojlanish bosqichida bolalar tarbiyasi oldiga qo‘yilgan barcha vazifalarga erishish imkonini beradi.

Metodik tavsiyalarga ko‘ra: “Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida bolaning asosiy mehnat turi o‘z-o‘ziga xizmat ko‘rsatish bo‘lib, u katta tarbiyaviy ahamiyatga ega – bolalarda mustaqillik, o‘z kuchiga ishonch, to‘siqlarni yengib o‘tish istagi va qobiliyatini shakllantiradi, ko‘nikmalar bilan qurollantiradi. Elementar mehnat topshiriqlarini har kuni bajarish (kiyinish, yuvinish, mustaqil ovqatlanish, o‘yinchoqlarni yig‘ishtirish) bolalarni muntazam mehnat qilishga o‘rgatadi.”

O‘z-o‘ziga xizmat faoliyati – bu xona va uchastkada tartib o‘rnatish va saqlash mehnatidir. Aynan maishiy mehnatda, bolaning kun davomida bir xil harakatlarni bajarishi orqali mas’uliyat, ishni oxiriga yetkazish qobiliyati, buyumlar, o‘yinchoqlar, kitoblar va boshqalarga ehtiyotkorlik bilan munosabatda bo‘lish kabi bir qator mehnat ko‘nikmalari va axloqiy fazilatlarni shakllantirish mumkin. Maishiy mehnat ko‘nikmalari, bolalar tomonidan maktabgacha ta’lim muassasasida o‘zlashtiriladi va oilaga ham o‘tadi.

Mehnat tarbiyasi pedagogik nazariyada shaxs kamolotining ajralmas qismi sifatida qaraladi. Mashhur psixolog va pedagog L.S. Vygotskiy ta’kidlaganidek, bola faoliyati jarayonida yangi bilimlarni egallaydi, ijtimoiy tajribani o‘zlashtiradi va shaxsiy rivojlanishga erishadi. Mehnat tarbiyasi bolalarda intizom, mas’uliyat, hamkorlik va jamoaviylik kabi sifatlarni shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

O‘zbekistonlik pedagog olimlar ham mehnat tarbiyasini shaxsning ijtimoiylashuv jarayonidagi eng muhim omillardan biri sifatida talqin qiladilar. Xususan, N.Q. To‘raqulov mehnat tarbiyasini ta’lim-tarbiya jarayonining ajralmas bo‘g‘ini sifatida e’tirof etadi .

Maktabgacha katta yoshdagi bolalar psixologik va fiziologik jihatdan mustaqil faoliyatga intiluvchi davrni boshdan kechiradilar. Shu sababli ularda mehnat ko‘nikmalarini shakllantirish jarayoni nafaqat kundalik hayotga moslashuv, balki kelajakdagi ta’lim va kasbiy faoliyat uchun ham poydevor bo‘lib xizmat qiladi.

Bolalarda mehnat tarbiyasini shakllantirishda quyidagi metodik yondashuvlar muhim hisoblanadi:

1. Bolalarning yosh xususiyatlarini hisobga olish. Har bir topshiriq bolaning fiziologik va psixologik imkoniyatlariga mos bo‘lishi kerak.
2. Qiziqarli va ijodiy topshiriqlarni tanlash. Mehnat jarayoni bolada qiziqish uyg‘otganda, natija samaraliroq bo‘ladi.
3. O‘yin va mehnat faoliyatini uyg‘unlashtirish. Maktabgacha ta’limda o‘yin asosiy faoliyat turi hisoblanganligi sababli, mehnat elementlarini o‘yin bilan uyg‘unlashtirish samaradorlikni oshiradi.
4. Tarbiyachining pedagogik rahbarligi. Tarbiyachi bolalarga yo‘l-yo‘riq ko‘rsatadi, ularni rag‘batlantiradi va mustaqillikka undaydi.
5. Innovatsion texnologiyalardan foydalanish. STEAM yondashuvi, loyihaviy metod, interfaol mashg‘ulotlar orqali bolalarning mehnat faoliyatini yanada samarali tashkil etish mumkin.

Mehnat tarbiyasining samaradorligini oshirish uchun bolalar faoliyatida kichik guruhlar bilan ishlash, hamkorlik asosida topshiriqlarni bajarish, rolli o‘yinlar orqali mehnat jarayoniga qiziqishni kuchaytirish metodik yondashuvlar sifatida tavsiya etiladi.

Mehnat tarbiyasini samarali amalga oshirishda oilaning o‘rni beqiyosdir. Ota-onalar va tarbiyachilar hamkorligida bola mehnatga bo‘lgan qiziqish, mehnatsevarlik, mas’uliyat va mustaqillikni yanada chuqurroq egallaydi. Ota-onalar bolani kundalik uy yumushlariga jalb etishi, tarbiyachi esa bolaga o‘yin va mashg‘ulotlar orqali mehnat faoliyatini singdirishi muhim ahamiyatga ega.

Tarbiyachilar va ota-onalar o‘rtasida muntazam seminar, trening va uchrashuvlarni tashkil etish orqali bolalarda mehnat tarbiyasining samaradorligi oshiriladi.

Maktabgacha katta yoshdagi bolalarda mehnat tarbiyasini shakllantirishning ilmiy-metodik asoslarini takomillashtirish bugungi kunda dolzarb pedagogik vazifa hisoblanadi. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, mehnat tarbiyasi bolalarda shaxsiy va ijtimoiy sifatlarni rivojlantiradi, ularning kelgusidagi ta’lim jarayoniga tayyorgarligini ta’minlaydi. Shu sababli mehnat tarbiyasini tashkil etishda metodik yondashuvlarni boyitish, ota-onalar va tarbiyachilar hamkorligini mustahkamlash, innovatsion texnologiyalarni keng qo‘llash zarur.

Oiladagi mehnat tarbiyasi ko‘pincha amaliy faoliyat orqali amalga oshiriladi. Masalan, bola dasturxon tuzishda, o‘yinchoqlarini yig‘ishda, gullarga suv quyishda yoki kichik yumushlarda ishtirok etishi orqali mehnatga o‘rgatiladi. Shunday qilib, bola mehnatni nafaqat ko‘rish, balki bevosita amalda bajarish orqali o‘zlashtiradi.

Xulosa

Maktabgacha katta yoshdagi bolalarda mehnat tarbiyasini shakllantirish – dolzarb pedagogik vazifadir. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki:

- mehnat tarbiyasi shaxsiy va ijtimoiy sifatlarni rivojlantiradi;
- kelgusidagi ta’lim jarayoniga tayyorgarlikni ta’minlaydi;
- oilaviy va pedagogik hamkorlikda samaradorlik oshadi;
- innovatsion texnologiyalarni qo‘llash natijani kuchaytiradi.

Shu sababli maktabgacha ta’limda mehnat tarbiyasini tashkil etishda metodik yondashuvlarni boyitish, ota-onalar va tarbiyachilar hamkorligini mustahkamlash zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Baxodirovna, S. G. (2024). MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALAR HAR TOMONLAMA RIVOJLANISHIDA MEHNAT TARBIYASINING TUTGAN ORNI. *Science and innovation*, *3*(Special Issue 31), 561-564.
2. Sanginova, G.B. (2024). Improving organization in the first environmental education of preschool children. Multidisciplinary Journal of Science and Technology, 4(4), 440-447.
3. Kalendarova Z.K. Didaktik o‘yinlar yordamida bolalarda matematik tasavvurlarni rivojlantirish bo‘yicha ishlarni tashkil etish// Zamonaviy uzluksiz ta’lim muammolari: innovatsiya va istiqbollar: Xalqaro ilmiy konferensiya. – Toshkent, 2018. 27-aprel. – B. 553-555.
4. Athamboyevna, V. N. (2024). TA’LIMDA PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALAR BU NIMA?. University Research Base, 590-594.
5. Saidaxon, D. (2023). Boshlang'ich ta'limda STEAM texnalogiyasini qo’llash.

ALOHIDA YORDAMGA EHTIYOJI BO‘LGAN BOSHLANGICH SINF O‘QUVCHILARINI NUTQIY MULOQOT KO‘NIKMALARINI SHAKLLANTIRISHNI TAKOMILLASHTIRISH

Yuldashev Sodirboy Jo‘rayevich

Qo‘qon universiteti Pedagogika va psixologiya kafedrasi o‘qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada xozirgi kunning dolzarb muammolaridan biri alohida yordamga ehtiyoji bo‘lgan boshlangich sinf o‘quvchilarini nutqiy muloqot ko‘nikmalarini shakllantirishni takomillashtirish masalalari yo‘ritilgan. Shu bilan birga muallif kalit so‘zlar, xulosa, foydalanilgan adabiyo‘tlar ro‘yhatini bergan.

Kalitso‘zlar: Nutq, muloqot, faoliyat, aqli zaiflik, koreksiya, dizartriya, texnologiya.

Анататция: В данной статье рассматривается одна из актуальных проблем современности – совершенствование развития навыковустной речи учащихся начвльной школы с особыми образовательными потребностями, при этом автор приводит перечень ключевых слов , резюме, использованная литература.

Ключевые слова: Речь, общения деятельност, ДНС, олигофрения, коррекция, дизартрия, технология.

Annotation: This article discusses one of the crucial problems of our time - the development of technologies for the development of oral speech of children with developmental disabilities in the classroom in fine arts. As an addition to this, the author also provides a list of keywords, summary, used literature in this work.

Key words: Speech,visual activity,DNS,oligophenia,correction,dysarhtia,

technology.

Ma’lumki, nutq-odamlarning til vositasi bilan aloqa bog‘lashlaridir. Odam nutq orqali munosabatga kirishib, o‘zining bilimlarini faqat yakka tajriba xisobiga emas, balki juda ko‘p avlod- ajdodlar tomonidan to‘plangan ijtimoiy tarixiy tajriba xisobidan xam boyitadi. Nutq barcha aks ettirish jarayonlari kabi xar bir odamning yakka xayoti davomida o‘zlashtiriladi. Bola dastlabki nutqni egallayotgan davrda uning nutqi tovushlarga bo‘lgan reaksiyasi juda umumlashgan xarakterga ega bo‘ladi.Bolani nutqi rivojlanayotganda, u atrofdagi odamlar muloqoti ta’siri ostida rivojlanib boradi. Kar va zaif eshituvchi bolalar nutqi, lug‘at boyligi oshishida va rivojlanishida bir qator qiyinchiliklar yuzaga keladi. ENB bolalar eshitish analizatori turg‘un pasayganligi tufayli ularning nutqida ko‘pgina kamchiliklar kuzatiladi, lug‘atining kambag‘al bo‘lishi, gramatik kom’ponent rivojlanmagan, gap ichida so‘zlarni tashlab ketishi, so‘zlardagi tovushlarni tushirib talaffuz etish, so‘zlarni o‘zaro bog‘lay olmaslik, kelishik, so‘z yasovchilarni, so‘z o‘zgartiruvchi qo‘shimchalarni ishlata

olmaslik, o‘xshash jarangli va jarangsiz undoshlarni bir-biri bilan adashtirish shular jumlasidandir. ENB bolalar maktabida ta’lim tizimining bosh maqsadlaridan birini yuqoridagi kamchiliklarni bartaraf etgan xolda nutqini muloqot quroli sifatida shakllantirishdir. Nutqini shakllantirish va nutqini logik idrok eta olishni fakatgina nutq o‘stirish darslarida emas, balki xar bir darslarda, to‘garaklarda lug‘at boyligi oshirib boriladi.Birinchi sinfda o‘quvchilarga qo‘yiladigan talab, nutqiy materialni og‘zaki daktilda talaffuz qilish orqali lug‘at boyligi oshiriladi.Muloqot malakasini xosil qilish asta-sekin nutq materialini atrofdagi odamlar bilan o‘zaro bir-birlarini tushunish uchun zarur. Xar bir chorak uchun mavzudan kelib chiqqan xolda nutqiy material beriladi. S.A.Zankovning tahkidlashicha, kar bolalarni tilga o‘rgatish ishining maqsadga muvofik sistemasini kommunikativ funktsiyasini amalga oshirish kerakdir. Bunda xar bir yil uchun tuzilgan reja, dastur o‘quvchilarning nutq egallashlari amal qilgan xolda o‘zlashtiriladi. Xar bir so‘z va so‘z birikmasi o‘zida kommunikativlik masuliyatini olgan bo‘ladi. Surdo pedagog o‘quv jarayoniga asosiy ta’sir etuvchi shaxsdir, u o‘qitishning xar bir bosqichida dastur talabiga asoslangan xolda o‘quv jarayonlarini tashkil etadi. Ularga raxbarlik qiladi. Sog‘lom bolalar kabi kar va zaif eshituvchi bolalar nutqni egallashni, o‘z atrofdagi odamlarga taqlid qilishdan boshlaydilar. Kar bolalarni taqlidi nutq organlarini xarakatini qurish orqali egallashlariga asoslanadi. Zaif eshituvchi bolalarni nutqga o‘rgatishda ularning atrofdagilardan eshitgan so‘zlaridan foydalanadilar. Shuning uchun surdo pedagog u nutqiga talabchan bo‘lishi kerak. Lekin o‘quvchilarning imkoniyatiga qarab so‘zlarni qisqartirish, birlashtirish mumkin emas. Bu talablar nutqiy malakani oshirishning xamma turlari uchun qo‘llaniladi. Tasviriy faoliyat darslarida kar va zaif eshituvchi o‘quvchilar qanday faoliyatga kirisha olar, qanday predmetni chizishlari va qaysi o‘quv qurollaridan foydalanish bosqichlari albatta surdopedagog tomonidan nutqiy boshqaridib boriladi. Xar qanday faoliyat bolalarni nutqini aktivlashtirish, shakllantirishga, lug‘atini boyitishga qaratilgan. O‘qituvchi xar bir dars uchun lug‘at tanlashi kerak. Lug‘at tuzishdan oldin o‘qituvchi sinfdagi o‘quvchilarni eshitish darajasini xisobga olishi kerak. Lug‘at boyligini oshirish quyidagicha amalga oshiriladi. Nutqni rivojlantirish surdopedagog tomonidan bolalarda predmetning katta-kichikligi, shakli tushunchalari shakllanadi.

Tasviriy faoliyatda esa bolalar vazifani amaliy bajarib olingan tushunchalar kengaytiriladi, shaklashtiriladi va mustaxkamlanadi. Xar qanday faoliyat bolalar nutqini aktivlashtirishga, shakllantirishga, lug‘atni boyitishga va nutqini mustaxkamlashga qaratilgan. O‘qituvchi xar bir dars uchun to‘g‘ri lug‘at tanlashi kerak. Lug‘atga 4 predmet iborat so‘z va iboralarni kiritish mumkin:So‘z va ibora, bajarilayotgan ish faoliyatiga bog‘liq ishlatiladigan materialning nomi (loy, qogoz, buyoq, yelim, ...) bajarilayotgan faoliyat (lepka, rasm chizish, bo‘yash, yopishtirish, shtrixlash, ...) ish qurollarining nomi (qalam, bo‘yoq qalam, qaychi, bolg‘a).So‘z-predmetning nomi va iborasi, bolalar tasvirlayotgan predmet (shar, archa, kugirchok,....)So‘z va ibora, bolalarning idrok kilishlari uchun yunaltirilgan xarakat (kuzatib chik, barmog’ing bilan

aylantirib kuzatib chik, paypaslab ko‘rib chiq) So‘z va ibora, idrok qilish orqali mustaxkamlash (rangning nomi geometrik formasi, xajmini belgilab olish).Birinchi guruhdagi so‘zlarni tasviriy faoliyatda sekin-asta o‘zlashtirib boriladi. Ikkinchi guruhda so‘z (so‘z-predmetning nomi) - tartib bo‘yicha bolalar topadilar. Tasviriy san’at faoliyatida so‘zlar predmet bilan yangicha bog‘lanadi. Uchinchi va to‘rtinchi guruhda so‘zlarga alohida axamiyat beriladi. Bolalarning diqqatini predmetga va uning xususiyatiga qaratiladi. So‘ngra esa bolalar idrok qilgan obrazi mustaxkamlanadi. Masalan: Tasviriy faoliyatda olma rasmini tasavvur orqali chizish jarayonida o‘qituvchi "Olma shar shakliga o‘xshaydi. Yuqorisida chuqurchasi bor, chuqurchasida dumchasi bor". Aytilayotgan so‘zlar quyiladigan cho‘ntakchaga qo‘yiladi. Mashg‘ulot uchun olingan lug‘at aniq ko‘rsatilishi lozim. Tasviriy faoliyatda foydalanilayotgan nutq materialining ko‘rinishi bolalarga tanish bo‘lishi lozim. O‘qitishning 1-2 yilida tartibli xar bir mashg‘ulotga ikkitadan ortiq yangi so‘z berish mumkin emas. O‘qitishning keyingi yillarida 3-4 tadan ortiq yangi so‘z berish mumkin emas. Aqli zaif bolalar tasviriy faoliyatida o‘quvchilarning lug‘ati ortadi, nutqi aktivlashtiriladi.

Aqli zaif bolalar shaxs sifatida shakllanishlarida nutqning rivojlanish axamiyati katta. Shunday ekan yuqorida aytib o‘tganimizdek, xar bir faoliyatda bolalar nutqini rivojlantiriladi. Xar bir tasviriy faoliyat darsida, chizishdan oldin mavzudan kelib chiqqan xolda suhbat, savol javob o‘tkaziladi. O‘qituvchi sinfda bolalar soni kamligi tufayli, xar bita bola bilan og‘zaki muloqotga kirishish, imkoniyatiga ega. O‘quvchilar rasm chizishda analiz- sintez kilishga, rasmlarni ajratishga o‘rgatiladi. O‘quvchilar oldinda, o‘tkazilsa, uzun qisqa kabi tushunchalarga ega bo‘ladilar. Mavzudan kelib chiqqan xolda xar bir darsda yangi lug‘at va tushunchalarga ega bo‘ladilar. Chizish jarayonida xam, o‘qituvchi bolalarni savolga tutadi, sen nimani rasmini chizyapsan? Rangi qanaqa ? nimaga o‘xshaydi? .... shu kabi savolarbilan murojat etib, bolalarni og‘zaki nutqini tekshiradi va rivojlantiradi. Ayrim aqli zaif bolalar so‘zlari va gaplari bir biriga bog‘lanmagan xolda, so‘z yasovchi, so‘z o‘zgartiruvchi, kelishik qo‘shimchalarini tashlab gapirishadi, shunda o‘qituvchi bolalar nutqini to‘g‘rilab gapirishga, to‘liq gapirishga o‘rgatadi. Maxsus maktablarda rasm darslari maxsus dasturlar asosida tuziladi. Rasm darslari nuqsoni bor bolalarning psixofizik kamchiliklarini inobatga olgan xolda olib boriladi. Korrektsiya — to‘g‘rilash degan ma’noni bildiradi. O‘quvchilarda mavjud bo‘lgan kamchiliklar ta’lim -tarbiya asosida olib boriladi.Rasm darslarida quyidagi ishlar amalga oshiriladi rasm chizishga o‘quvchilarda qiziqish uyg‘otadi, rasm chizish, yopishtirish (aplikatsiya), yasash, ko‘rish xaqida tushuncha berish,rasmni predmet bilan solishtirishga o‘rgatish,o‘quvchilarga rang, tasvir, shakl, kattalik, fazoviy joylashish xaqida tushuncha berish va ularni tasvirga tushurishga o‘rgatish, qo‘l motorikasini va xarakat – ko‘rish kordinatsiyalarini rivojlantirish.

Xulosa. O‘quvchilar bilan rasm darslarida individual xamda kollektiv bo‘lib rasm chizish turlari olib boriladi.Rasm darslarida bolalarning estetik didlari rivojlantiriladi, shuningdek rasm chizishda ketma-ketlikka rioya qilish o‘rgatib boriladi. Rasm chizishni sistemali olib borishda propedevtik - tayyorlov

etapining axamiyati katta. Propedevtik davrning asosiy vazifasi o‘qituvchi xar bir o‘quvchining qobiliyati va bilish faoliyatini o‘rganishdan boshlanadi, chunki rivojlanish nuqsonlari bor bolalarda rivojlanish kompleks buzilgan bo‘ladi. Tayyorlov etapi planli ishni o‘z ichiga oladi. Bu etapning asosiy maqsadi-sezgilarni shakllantirish va boyitishdir. Bulish faoliyatlariga rasm chizish xam kiradi. Xar bir oddiy predmetni chizishdan oldin, bolalarda diqqatni, ko‘rish, taktil va xarakat protsesslarini rivojlantirish uchun tayyorlov etapi olib boriladi. Asosiy vazifa xarakatning nutq bilan birga olib borishiga qaratiladi. Dizartrik bolalarga korreksion logopedik ish tizimini ikki bosqichda olib borish zarur. 1.Nutqqacha bo‘lgan davrda olib boriladigan ishlar.

2. Nutqiy davrda olib boriladigan ishlar.

Har ikkala davrlarda Kompleks yo‘ndashuv ta’moili asosida ishlar tashkil etiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1.M.Yu.Rau. "Izobrazitelg‘naya deyatelg‘nostg‘ uchao‘ixsya s narusheniyami sluxa".

2.E.G.Rechitskaya. "Razvitiya gluxix shkolg‘nikov v ‘rotsesse vne klassnoy rabotq".M.2002.

3.T.N.Golovina. "Izobrazitelg‘naya deyatelg‘nostg‘ uchao‘ixsya vs’omogatelg‘noy shkolq".

4.I.A.Groshenkov. "Izobrazitelg‘naya deyatelg‘nostg‘ vo vs’omogatelg‘noy shkolq". M.2011.

5.I.A.Groshenkov. "Uroki risovaniya v 1-4 klassax vs’omogatelg‘noy shkolq".

6.X.Egamov. "4-sinfda tasviriy sanhat darslari".T 2003.

7. Yuldashev Sodirboy Jurayevich .Boshlangich inklyuziv sinfda rivojlanishi meyorda va aqli zaif nutq nuqsonlariga ega o‘quvchilarni mayda qo‘l motorikasini rivojlantirishda innovatsion pedagogic texnologiyalar.

8. Yuldashev Sodirboy Jurayevich . Rivojlanishi meyorda bo‘lgan bolalarda va aqli zaiflikning og’ir darajasidagi bolalarda nutq aloqasini shakllantirish.
9.Furqatjon, A. (2025). Physiological Characteristics of Cardiovascular System Development in Children Engaged in Sports. *Journal of Social Sciences and Humanities Research Fundamentals*, *5*(06), 15-18.

Internet manzillari:

1.www. tdpu.uz
2.www. pedagog.uz
3.www. Ziyonet. Uz

FANLARARO INTEGRATSIYA ORQALI BOSHLANG‘ICH SINF O‘QUVCHILARINING DIZAYN FIKRLASHLARINI RIVOJLANTIRISH

Valiyeva Nargiza
Athamboyevna,
Qo‘qon universiteti o‘qituvchisi
nargizavaliyeva1992@gmail.com

Annotatsiya: Maqolada boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining dizayn fikrlashini rivojlantirishda fanlararo integratsiyaning ilmiy-pedagogik asoslari yoritilgan. Hozirgi ta’lim jarayonida integratsiyalashgan yondashuv o‘quvchilarda bilimlarni amaliyot bilan bog‘lash, muammolarga ijodiy yechim topish va mustaqil fikrlashni shakllantirishda muhim vosita sifatida talqin etiladi. Shuningdek, Prezident farmon va qarorlarida

belgilangan vazifalar, zamonaviy pedagogik manbalar hamda xalqaro tajribalar asosida integratsiya va dizayn fikrlashning uyg‘unligi tahlil qilingan. Bu yondashuv boshlang‘ich ta’lim samaradorligini oshirish bilan birga, erkin fikrlaydigan va ijodkor shaxsni tarbiyalashga xizmat qiladi.

Ushbu tadqiqodning muammosi: umumiy o‘rta maktab o‘quvchilari faqat bilim oluvchi bo‘lib shakllanyapti. Ularni ijodiy fikrlashga jalb qilish lozim. Shuningdek, fan o‘qituvchilarida fanlararo integratsiya va dizayn fikrlash bo‘yicha metodik tayyorgarligi yetarli emas.

Mavzuning dolzarbligi: hozirgi davrda ta’lim tizimida o‘quvchilarning ijodiy fikrlashi, muammolarni hal qilish ko‘nikmalarini shakllantirish hamda bilimlarni amaliyot bilan bog‘lashga alohida e’tibor qaratilmoqda. Bu jarayonda fanlararo integratsiya va dizayn fikrlash yondashuvlari muhim metodologik asos sifatida maydonga chiqmoqda. Boshlang‘ich ta’limda o‘quvchilarning tasavvuri keng, qiziqishlari yuqori bo‘lgani uchun ularning fikrlash jarayonlarini kompleks rivojlantirish ayniqsa samarali hisoblanadi.

Takliflar:

1. Bolalarni real hayotda duch keladigan oddiy muammolar ustida ishlashga jalb qilish tavsiya etiladi.
2. O‘qituvchilarning darsga tayyorgarligi faqat mavzuni tushuntirish bilan cheklanmasligi kerak.
3. Bolalarning tabiiy qiziquvchanligini rag‘batlantirish orqali ijodiy fikrlash muhitini yaratish muhim.
4. Dizayn fikrlashni rivojlantirishda bolalarning guruhda ishlashga bo‘lgan intilishini hisobga olish foydali bo‘ladi.
5. Ta’lim jarayonida o‘quvchi bilimni tayyor shaklda emas, balki o‘z tajribasi orqali shakllantirishga harakat qilishi lozim.

Integratsiya va dizayn fikrlash uyg‘unlashgan ta’lim jarayoni o‘quvchini faqat yaxshi baho uchun emas, balki bilimdan zavq olish uchun o‘qishga o‘rgatadi. Bu — haqiqiy ta’limning eng katta yutug‘idir. Chunki bilim qachonki zavq uyg‘otsa, bola uni unutmaydi va hayotida qo‘llashga intiladi.

Kalit so‘zlar: Fanlararo integratsiya, dizayn fikrlash, boshlang‘ich ta’lim, kreativ pedagogika, ijodiy tafakkur, interfaol metodlar, innovatsion texnologiyalar, mustaqil fikrlash, hamkorlik, kreativ ta’lim.

Аннотация: В статье освещены научно-педагогические основы развития дизайнерского мышления учеников начальных классов посредством междисциплинарной интеграции. В современном образовательном процессе интегрированный подход рассматривается как важный инструмент формирования у учащихся умений связывать знания с практикой, находить творческие решения проблем и развивать самостоятельное мышление. На основе президентских указов и постановлений, современных педагогических источников и международного опыта проанализирована гармония интеграции и дизайнерского мышления. Такой подход способствует не только повышению эффективности начального образования, но и воспитанию свободно мыслящей и креативной личности.

Проблема данного исследования: учащиеся средней школы формируются только как учащиеся. Необходимо развивать у них творческое мышление. Кроме того, учителя-предметники не имеют достаточной методической подготовки в области межпредметной интеграции и проектного мышления.

Актуальность темы: В настоящее время в системе образования особое внимание уделяется формированию у учащихся творческого мышления, навыков решения проблем и связи знаний с практикой. В этом процессе межпредметная интеграция и проектное мышление становятся важной методической основой. В начальной школе, благодаря широкому воображению и высоким интересам учащихся, всестороннее развитие их мыслительных процессов особенно эффективно.

Предложения:

1. Рекомендуется привлекать детей к решению простых задач, с которыми они сталкиваются в реальной жизни.

2. Подготовка учителя к уроку не должна ограничиваться одним лишь объяснением темы.

3. Важно создать среду для творческого мышления, стимулируя естественное любопытство детей.

4. При развитии проектного мышления полезно учитывать стремление детей работать в группах.

5. В процессе обучения ученик должен стремиться формировать знания не в готовом виде, а через собственный опыт.

Образовательный процесс, сочетающий интеграцию и проектное мышление, учит ученика учиться не только ради хорошей оценки, но и ради удовольствия от познания. Это величайшее достижение настоящего образования. Ведь когда знания вызывают удовольствие, ребёнок их не забывает и стремится применять в жизни.

Ключевые слова: Междисциплинарная интеграция, дизайнерское мышление, начальное образование, креативная педагогика, творческое мышление, интерактивные методы, инновационные технологии, самостоятельное мышление, сотрудничество, креативное образование.

Abstract: The article highlights the scientific and pedagogical foundations of developing design thinking among primary school students through interdisciplinary integration. In the modern educational process, the integrated approach is regarded as an essential tool for linking knowledge with practice, fostering creative problem-solving, and encouraging independent thinking. Based on presidential decrees, contemporary pedagogical sources, and international experience, the harmony between integration and design thinking is analyzed. This approach enhances the effectiveness of primary education and contributes to nurturing independent and creative individuals.

The problem of this study: secondary school students are being formed only as learners. They need to be involved in creative thinking. Also, subject teachers do not have sufficient methodological training in interdisciplinary integration and design thinking.

Relevance of the topic: Currently, the education system pays special attention to the formation of students' creative thinking, problem-solving skills, and the connection of knowledge with practice. In this process, interdisciplinary integration and design thinking approaches are emerging as an important methodological basis. In primary education, since students have a wide imagination and high interests, the comprehensive development of their thinking processes is especially effective.

Suggestions:

1. It is recommended to involve children in working on simple problems that they encounter in real life.

2. Teachers' preparation for the lesson should not be limited to explaining the topic alone.

3. It is important to create an environment for creative thinking by stimulating children's natural curiosity.

4. When developing design thinking, it is useful to take into account children's desire to work in groups.

5. In the learning process, the student should try to form knowledge not in a ready-made form, but through his own experience.

The educational process, which combines integration and design thinking, teaches the student to study not only for a good grade, but also for the pleasure of knowledge. This is the greatest achievement of true education. Because when knowledge arouses pleasure, the child does not forget it and seeks to apply it in his life.

Keywords: Interdisciplinary integration, design thinking, primary education, creative pedagogy, creative thinking, interactive methods, innovative technologies, independent thinking, collaboration, creative learning.

O‘quv jarayonida fanlararo aloqadorlik ta'minlangan sharoitda o‘quvchilarning egallagan bilimlari samarali rivojlanishi bilan bir qatorda ularning idrok etish qobiliyati, faolliklari, qiziqishlari, aqliy intellektual imkoniyatlari ortishiga erishiladi. Fanlararo aloqadorlik tushunchasi o‘quvchi shaxsida mustaqil ishlash, ijodiy qobiliyatlarni shakllantirish, darslarda faol ishtirokning yuzaga kelishi orqali bilim, ko‘nikma va malakalarni egallay olishda asosiy vosita bo‘ladi. Hozirgi vaqtda ta’lim jarayonida fanlararo aloqadorlik asosida interaktiv metodlar, innovatsion texnologiyalar, pedagogik va axborot texnologiyalarni o‘quv jarayonida qo‘llashga bo‘lgan qiziqish kundan-kunga kuchayib bormoqda. Ta’limda fanlararo aloqadorlikning asosiy maqsadi boshlang‘ich maktabdayoq tabiat va jamiyat haqida yaxshi tasavvur asoslarini qo‘yish va ularning rivojlanishi qonunlariga o‘z munosabatini shakllantirishdir. Dars jarayonida o‘quv materialini mavzular bo‘yicha tahlil etish yo‘li bilan turli o‘quv fanlarini qaysi mavzulari birbiri bilan aloqadorligi yuzaki ravishda aniqlansa, tarkibiy tahlil etish orqali o‘quv materialining tashkil etuvchi tushunchalari, dalillari, qonuniyatlari, hukm, xulosalari, tasavvurlari orasidagi aloqadorlik o‘rnatiladi. Fanlararo aloqadorlik o‘rnatish uchun o‘quv materiali mazmuni mantiqan, psixologik, didaktik, metodik va boshqa jihatlardan tahlil etadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “2022–2026 yillarda maktab ta’limini rivojlantirish dasturi to‘g‘risida”gi farmonida maktab ta’limi sifatini oshirish, ta’lim jarayoniga zamonaviy pedagogik texnologiyalarni joriy etish va o‘quvchilarda amaliy ko‘nikmalarni shakllantirish masalalariga alohida e’tibor qaratilgan. Shuningdek, “Ta’lim-tarbiya tizimini yanada takomillashtirish to‘g‘risida”gi qarorda pedagogik faoliyatni ijodiy yondashuvlar asosida tashkil etish, o‘quvchilarda erkin va mustaqil fikrlashni shakllantirish zarurligi ta’kidlangan.[97]

Mamlakatimizda ijodkorlik va kreativ pedagogikaga alohida e’tibor qaratilib, Prezident farmon va qarorlarida maktab ta’limida loyiha asosida ishlash, ijodiy tafakkur va innovatsion ta’lim texnologiyalarini qo‘llash zarurligi belgilab qo‘yilgan[98]. Bu esa fanlararo integratsiya va dizayn fikrlashni uyg‘unlashtirishga keng yo‘l ochadi.

Ilmiy-pedagogik manbalarda ham bu yondashuvlarning ahamiyati ta’kidlanadi. Masalan, Sharopovaning “Ta’lim texnologiyalari” qo‘llanmasida zamonaviy pedagogik metodlar orasida instruktsional dizayn, integratsiyalashgan o‘qitish va interfaol yondashuvlar alohida o‘rin tutishi qayd etiladi [99]. Shuningdek, Jo‘rayevning “Texnik ijodkorlik va dizayn” asarida kichik yoshdagi o‘quvchilarda ijodiy tafakkurni shakllantirish, muammoli

[97] O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “2022–2026 yillarda maktab ta’limini rivojlantirish dasturi to‘g‘risida”gi farmoni, PF-134, 11.05.2022.

[98] “Ijodiy pedagogika: ta’lim jarayoniga zamonaviy yondashuv” Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya materiallari to‘plami. Toshkent 2025-yil 4-aprel, 340 bet.

[99] Sharopova Z.F. Ta’lim texnologiyalari. Namangan: NamDU nashriyoti, 2024. – 220 b.

vaziyatlarni hal qilish va dizayn elementlarini qo‘llashning samarali metodlari ko‘rsatib o‘tilgan[100].

Xalqaro miqyosdagi tadqiqotlarda ham fanlararo integratsiya va dizayn fikrlash boshlang‘ich ta’limda o‘quvchilarni hamkorlikda ishlash, yangicha yechimlar topish va ijodkorlikni rivojlantirish uchun samarali vosita sifatida e’tirof etilmoqda[101].

Shunday qilib, fanlararo integratsiya orqali boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining dizayn fikrlashini rivojlantirish nafaqat pedagogik jarayon samaradorligini oshiradi, balki mamlakatimiz ta’lim siyosatida belgilangan ustuvor maqsad va vazifalarga ham to‘liq mos keladi.

Boshlang‘ich ta’lim inson tafakkurining eng muhim poydevori hisoblanadi. Bu davrda bolaning dunyoqarashi shakllanadi, atrof-muhitni anglash qobiliyati kuchayadi va ijodiy tafakkur uchun birinchi imkoniyatlar yuzaga chiqadi. Shu sababli boshlang‘ich maktabda faqat bilim berish emas, balki ularni hayotiy vaziyatlarda qo‘llash, turli fanlarni uyg‘unlashtirish va ijodiy yondashuvni shakllantirish juda muhimdir.

Bolalar boshlang‘ich ta’limda juda ko‘p hodisa, tushuncha, fanlar bilan tanishishadi, lekin ular to‘g‘risida elementar tushuncha olishadi. Keyingi yillarda mavjud bilimlarini to‘ldirib va kengaytirib borishadi. Shuning uchun o‘qituvchi bir xillikdan qochishi va rang-barang shakl va usullarda dars o‘tishi talab etiladi.Integratsiyalangan darslar charchoqni va taranglikni o‘quvchilardan oladi faoliyatning bir turidan ikkinchisiga o‘tishi hisobidan ziyraklik va hozirjavoblikka o‘rgatadi. Integratsiyalashgan dars o‘qituvchidan qo‘shimcha tayyorgarlik, katta bilimdonlik, yuqori kasb mahoratini talab qiladi.

O‘qituvchi integratsiyalashgan darsda quyidagilarni e'tiborga olishi kerak:darsning maqsadini, yangi ma'lumot manbalarini, har xil fanlarning ma'lumotlarini birlashtirish, bilimlarning funksional yo‘nalishini, fan mazmunini qayta ishlash, eski shakllarni buzish, tizimda alohida bo‘lgan elementlar orasida aloqalar yaratish. Fanlararo integratsiyaning yana bir muhim maqsadidan biri, o‘zi ishlayotgan olam haqida narsa va hodisalar orasidagi bog‘liqlik ta'minlashdan iborat. Misol sifatida matematika fanining boshqa fanlar bilan bog‘liqligini ko‘rib o‘tamiz. Bu jarayonda bolalar misollarni ishlab chiqishadi, ishlab bo‘lgandan so‘ng ular javoblariga qarab, rasm tagidagi ko‘rsatmaga binoan bo‘yashadi bo‘yalgan rasmda tabiat manzarasi hosil bo‘ladi. Misol yechish bilan bir qatorda tabiatni asrab-avaylash, uning g‘aroyibotlaridan boxabar bo‘lish imkoni tug‘iladi, ona tabiat go‘zalligiga muhabbat uyg‘onadi. Boshlang‘ich maktabda fanlararo aloqadorlikni amalga oshiruvchi bo‘g‘in vazifasini o‘qituvchining o‘zi bajaradi[102].

Fanlararo integratsiya — ta’lim jarayonida turli fanlarning mazmunini bir butunlikda o‘zlashtirish imkonini beradi. Misol uchun, matematika darsida geometrik shakllarni o‘rganayotganda tasviriy san’at bilan bog‘lash, texnologiya

[100] Jo‘rayev A. Texnik ijodkorlik va dizayn. Jizzax: JDPU nashriyoti, 2015. – 180 b.

[101] MDPI. A Systematic Review on Design Thinking Integrated Learning (DTIL) in K-12. 202

[102] Jumayev E.E. Boshlang'ich matematika nazariyasi va metodikasi

fanida esa shu shakllardan foydalanib oddiy maketlar yasash mumkin. Bunday yondashuv o‘quvchiga faqat formula yoki chizmani eslab qolish emas, balki uni amalda qo‘llash, o‘z tajribasi orqali tushunish imkonini beradi. Shu jihatdan integratsiya bilimlarning parchalanib ketmasligini, balki yaxlit tarzda idrok etilishini ta’minlaydi.

Dizayn fikrlash metodologiyasi esa bolani tayyor javobni qabul qilishga emas, balki savol berishga, yechim izlashga, g‘oya ishlab chiqishga o‘rgatadi. Kichik yoshdagi o‘quvchilar tabiatan qiziquvchan bo‘lishadi, ular ko‘p narsani sinab ko‘rishni, savollar berishni yaxshi ko‘rishadi. Agar bu tabiiy qiziqishni qo‘llab-quvvatlasak, bolalarda ijodkorlik, mustaqil fikrlash va yangicha qarashlar shakllanadi. Masalan, oddiygina “maktab hovlisida qulay o‘rindiq yasash” vazifasini berish orqali bola nafaqat texnik ko‘nikmalarni, balki estetik didni, hamkorlikda ishlash qobiliyatini ham rivojlantiradi.

Fanlararo integratsiya va dizayn fikrlash aslida bir-birini to‘ldiruvchi tushunchalardir. Integratsiya bilimlarni yagona tizimga keltirsa, dizayn fikrlash shu bilimlarni amalda qo‘llashga yo‘naltiradi. Ularning uyg‘unligi natijasida o‘quvchilar real hayotda duch keladigan muammolarga ijodiy yechim topishga o‘rganadilar. Bu esa zamonaviy ta’limning eng muhim maqsadlaridan biri — raqobatbardosh, ijodkor va tashabbuskor shaxsni shakllantirishga xizmat qiladi.

Bugungi ta’lim jarayonida “o‘quvchi — passiv bilim oluvchi emas, balki faol yaratuvchi” degan tamoyil tobora muhim ahamiyat kasb etmoqda. Boshlang‘ich sinfda o‘qituvchi bolaning tasavvur olamini kengaytirishi, uning g‘oyalarini qadrlashi va amaliy faoliyatga yo‘naltirishi zarur. Shundagina o‘quvchi o‘zini oddiy bilim oluvchi emas, balki kichik tadqiqotchi va dizayner sifatida his qiladi.

Boshlang‘ich ta’limda fanlarni integratsiyalash jarayonida bolalarning qiziqishi yanada ortadi. Masalan, tabiatshunoslik darsida “O‘simliklarning o‘sishi” mavzusini o‘rgatishda matematika darsida o‘simlikning o‘sish jarayonini grafik chizish orqali ifodalash, tasviriy san’atda esa gulning bosqichlarini chizdirish mumkin. Shu tariqa bola o‘simlik haqidagi bilimni nafaqat tinglab, balki hisoblash, chizish, kuzatish orqali ham o‘zlashtiradi. Bu metod o‘quvchini “bilim oluvchi” emas, balki “bilim yaratuvchi” sifatida shakllantiradi. Tadqiqotchi C. Benson ta’kidlaganidek, integratsiya “bolaning kognitiv faoliyatini kengaytiradi va uni murakkab hayotiy muammolarga tayyorlaydi” [103].

Dizayn fikrlashning o‘ziga xos jihati shundaki, u o‘quvchini yangicha savollar berishga o‘rgatadi. Masalan, oddiy “qalamni qanday qulaylashtirish mumkin?” degan savol orqali bola ergonomika, chiroyli dizayn, material tanlash va ekologiya haqida ham o‘ylay boshlaydi. Bu jarayonda u ko‘plab fanlardan olingan bilimlarni uyg‘unlashtiradi. Shu sababli ham dizayn fikrlash o‘quvchilarning faqat ijodiy qobiliyatini emas, balki tanqidiy tafakkurini ham rivojlantiradi. Sh. R. Mavlonova qayd etganidek, “ijodiy tafakkur bolaning shaxsiy tajribasi va qiziqishlari bilan bevosita bog‘liq bo‘lgan holda

[103] Benson C., Lawson S. *Teaching Design and Technology Creatively*. – Routledge, 2020.

shakllanadi” [104].Bundan tashqari, dizayn fikrlash o‘quvchilarda hamkorlik madaniyatini ham kuchaytiradi. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilari ko‘pincha guruh bo‘lib ishlashni xohlashadi, chunki ular o‘z g‘oyalarini baham ko‘rishdan zavq olishadi. O‘qituvchi bu jarayonda vositachi bo‘lib, bolalarni muammoga yo‘naltiradi, ammo yechimni topishni o‘zlariga qoldiradi. T. Brownning fikricha, dizayn fikrlash “inson markazida turgan metod bo‘lib, hamkorlik va empatiya orqali eng yaxshi yechimlarni yaratishga xizmat qiladi” .

Fanlararo integratsiya va dizayn fikrlashni uyg‘unlashtirishning yana bir afzalligi — bu bolalarda mustaqillikni shakllantirishdir. Agar bola muammoni ko‘rsa va uni o‘zi yecha olsa, unda o‘ziga ishonch paydo bo‘ladi. Mustaqil qaror qabul qilish qobiliyati esa kelajakda ijodiy va tashabbuskor shaxs sifatida ulg‘ayishiga zamin yaratadi. Lucas va Spencer ta’kidlaganidek, “kreativ fikrlash va integratsiyalashgan ta’lim bolani faqat bilimli emas, balki tashabbuskor inson sifatida tarbiyalaydi” [105].

Boshlang‘ich ta’lim — bu nafaqat bilim berish, balki bolaning hayotga bo‘lgan qarashini shakllantirish bosqichi. Shu davrda bola dunyoni qanday ko‘rsa, kelajakda ham uni shunday idrok etishga moyil bo‘ladi. Shu bois menimcha, faqatgina an’anaviy bilim berish emas, balki o‘quvchini fikrlashga, izlanishga va ijod qilishga o‘rgatish eng to‘g‘ri yo‘l hisoblanadi.

Boshlang‘ich sinf darslarini o‘zaro bog‘liq mavzular asosida tashkil qilish zarur. Masalan, matematikada o‘rganilayotgan geometrik shakllarni tasviriy san’atda chizish yoki texnologiya darsida ularni real shaklga keltirish orqali o‘quvchilarda mazmunni yaxlit anglash holatini kuchaytirish mumkin.

Takliflar:

1. Bolalarni real hayotda duch keladigan oddiy muammolar ustida ishlashga jalb qilish tavsiya etiladi. Bu orqali ular tayyor javobni izlash o‘rniga, mustaqil izlanishga, savol berishga va turli g‘oyalarni sinab ko‘rishga odatlanadilar. Misol uchun, sinfda foydali bo‘lishi mumkin bo‘lgan kichik loyihalarni ishlab chiqish orqali ularning estetik didi, texnik ko‘nikmalari va hamkorlikda ishlash malakalari rivojlanadi.
2. O‘qituvchilarning darsga tayyorgarligi faqat mavzuni tushuntirish bilan cheklanmasligi kerak. Ular turli fanlar mazmunini o‘zaro bog‘lab, mavzuni kengroq va chuqurroq yoritish yo‘llarini izlashlari lozim. Buning uchun ularni amaliy mashg‘ulotlar, uslubiy seminarlar va o‘zaro tajriba almashuvlari orqali qo‘llab-quvvatlash kerak.
3. Bolalarning tabiiy qiziquvchanligini rag‘batlantirish orqali ijodiy fikrlash muhitini yaratish muhim. Darslarda har doim yagona to‘g‘ri javob emas, balki turli yechimlar mavjudligini ko‘rsatish, ularni o‘z qarashini ochiq aytishga undash foydalidir.
4. Dizayn fikrlashni rivojlantirishda bolalarning guruhda ishlashga bo‘lgan intilishini hisobga olish foydali bo‘ladi. O‘qituvchi bu jarayonda faqat yo‘naltiruvchi rolida bo‘lib, yechimni topishni bolalarning o‘zlariga

[104] Mavlonova R., To‘xtayeva Sh. *Pedagogika nazariyasi va amaliyoti*. – Toshkent: Fan, 2012.
[105] Lucas B., Spencer E. *Teaching Creative Thinking: Developing learners who generate ideas and can think critically*. – Crown House Publishing, 2017.

topshirsa, ular mustaqil fikrlash va mas’uliyatni o‘z zimmasiga olishni o‘rganadilar.

5. Ta’lim jarayonida o‘quvchi bilimni tayyor shaklda emas, balki o‘z tajribasi orqali shakllantirishga harakat qilishi lozim. Bu esa o‘quvchini bilimdan zavq olishga, yangilik yaratishga va kelajakda o‘z ustida ishlashga yo‘naltiradi.

Shunday qilib, fanlararo integratsiya orqali boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining dizayn fikrlashini rivojlantirish nafaqat ta’lim samaradorligini oshiradi, balki kelajak jamiyatga erkin fikrlaydigan, ijodkor va tashabbuskor insonlarni taqdim etadi. Menimcha, bugungi ta’lim tizimi aynan shunday yoshlarni tarbiyalashga intilsa, ertangi kunimiz yanada yorqin bo‘ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1.O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti. “2022–2026 yillarda maktab ta’limini rivojlantirish dasturi to‘g‘risida”gi farmon. Toshkent, 2022.

2.O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Ta’lim-tarbiya tizimini yanada takomillashtirish to‘g‘risida”gi qarori. Toshkent, 2020.

3.Sharopova Z.F. Ta’lim texnologiyalari. – Namangan: NamDU nashriyoti, 2024.

4.Jo‘rayev O. Texnik ijodkorlik va dizayn. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2016.

5.Mavlonova R., To‘xtayeva Sh. Pedagogika nazariyasi va amaliyoti. – Toshkent: Fan, 2012.

6.Xolmatova N. Boshlang‘ich ta’limda fanlararo integratsiya asoslari. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2018.

7.Cremin T. Creativity and Creative Pedagogies in the Early and Primary Years. – London: Routledge, 2017.

8.Brown T. Change by Design. – New York: Harper Business, 2009.

9.Benson C. Teaching and Integrative Learning in Schools. – Cambridge: CUP, 2015.

10. Lucas B., Spencer E. Teaching Creative Thinking: Developing learners who generate ideas and can think critically. – London: Crown House Publishing, 2017

11. Athamboyevna, V. N. (2024). TA’LIMDA PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALAR BU NIMA?. *University Research Base*, 590-594.

Saidaxon, D. (2023). Boshlang'ich ta'limda STEAM texnalogiyasini qo‘llash.

12. Furqatjon, A. (2025). Physiological Characteristics of Cardiovascular System Development in Children Engaged in Sports. *Journal of Social Sciences and Humanities Research Fundamentals*, *5*(06), 15-18.

TESKARI SINF TEXNOLOGIYASIDA O‘QITISHNING AFZALLIKLARI

Olimov Anvarjon Mamirovich,

Qo‘qon universiteti, Ta’lim kafedrasi o‘qituvchisi
aolimov321@gmail.com
ORCID: 0009-0003-7395-5246

Annotatsiya: Teskari sinf texnologiyasi (flipped classroom) zamonaviy ta’lim tizimida o‘qitish jarayonini yangilash va takomillashtirish uchun mo‘ljallangan innovatsion yondashuvdir. Ushbu metodologiyada talabalarga darsdan oldin video darslar, maqolalar yoki boshqa resurslar orqali materiallarni o‘zlashtirish imkoniyati beriladi. Dars davomida esa o'qituvchi talabalar bilan faol muloqot qilib, amaliy mashg‘ulotlar va muammolarni hal etishga yo‘naltiriladi.Umuman olganda, teskari sinf texnologiyasi ta’lim jarayonini yangilashda muhim rol o‘ynaydi, talabalarning o‘z-o‘zini boshqarish, fikrlash va muammolarni hal etish ko‘nikmalarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Bu yondashuv ta’lim sifatini oshirish va talabalarni kelajakdagi kasbiy faoliyatga tayyorlashda samarali vosita hisoblanadi.

Abstract: Flipped classroom technology is an innovative approach designed to update and improve the teaching process in the modern education system. In this methodology, students are given the opportunity to master the material through video lessons, articles or other resources before the lesson. During the lesson, the teacher actively communicates with students, directing them to practical exercises and problem solving. In general, flipped classroom technology plays an important role in updating the educational process, serves to develop students' self-management, thinking and problem-solving skills. This approach is an effective tool for improving the quality of education and preparing students for future professional activities.

Аннотация:Технология «перевёрнутого класса» — это инновационный подход, призванный обновить и усовершенствовать процесс обучения в современной системе образования. В рамках данной методики учащимся предоставляется возможность усвоить материал с помощью видеоуроков, статей или других ресурсов перед уроком. Во время урока преподаватель активно общается со студентами, направляя их на практические упражнения и решение задач. В целом, технология «перевёрнутого класса» играет важную роль в обновлении образовательного процесса, способствует развитию у студентов навыков самостоятельности, мышления и решения проблем. Данный подход является эффективным инструментом повышения качества образования и подготовки студентов к будущей профессиональной деятельности.

Kalit so‘zlar: Talabalar faolligi, shaxsiylashtirilgan o‘qitish, vaqtni samarali boshqarish, teskari aloqa, innovatsion yondashuv, mustaqil fikrlash.

Keywords: Students engagement, personalized learning, effective time management, feedback, innovative approach, independent thinking.

Ключевые слова: Вовлеченность студентов, персонализированное обучение, эффективное управление временем, обратная связь, инновационный подход, независимое мышление.

Kirish: Teskari sinf texnologiyasi (flipped classroom) o‘qitishda bir qator afzalliklarni taqdim etadi. Ushbu yondashuvda talabalarga dars materiallari oldindan taqdim etiladi, masalan, videolar yoki maqolalar orqali, va dars davomida amaliyot, muhokama va ko‘nikmalarni rivojlantirishga e’tibor qaratiladi. Talabalar darsdan oldin materiallarni o‘rganishadi, bu esa dars davomida faol ishtirok etishlariga imkon beradi.Har bir talaba o‘z tezligida o‘rganishi mumkin, bu esa ularning ehtiyojlariga mos keladi. O‘quvchilar darsdan oldin kerakli materiallarga oson kirish imkoniyatiga ega bo‘ladi, bu esa o‘rganishni yanada samarali qiladi.Darslar amaliy mashg‘ulotlar va muhokamalar bilan to‘ldirilgan bo'lib, vaqtni samarali foydalanishga yordam beradi.O‘quvchilar bir-birlari bilan fikr almashish va muammolarni birgalikda hal qilish imkoniyatiga ega.O‘qituvchilar talabalar bilan tezkor aloqa o‘rnatib, ularning tushunishi va qiyinchiliklari haqida ma’lumot olish imkoniyatiga ega. Yangi texnologiyalar va o‘qitish usullarini qo‘llash orqali o‘qitish jarayonini qiziqarli va samarali qilish. Interaktiv darslar va qiziqarli materiallar talabalar motivatsiyasini oshiradi. Talabalar o‘z fikrlarini ishlab chiqish va muammolarni hal qilishda mustaqil yondashuvga ega bo‘lishadi. O‘qituvchilar dars jarayonida talabalar natijalarini doimiy ravishda nazorat qilish imkoniyatiga ega bo‘lishadi, bu esa o‘qitishni yanada takomillashtirishga yordam beradi. Teskari sinf texnologiyasi, shuningdek, o‘qituvchilar va talabalar o‘rtasidagi aloqani kuchaytirish va o‘rganish jarayonini yanada samarali qilishga xizmat qiladi. Talabalar o‘z bilim va ko‘nikmalarini baholash imkoniyatiga ega bo‘lishadi, bu esa ularga o‘z rivojlanishlarini kuzatishga yordam beradi. O‘quvchilar o‘z fikrlarini ifodalash va ijodiy yondashuvlarni rivojlantirish uchun ko‘proq imkoniyatlarga ega. O‘quvchilar darsdan oldin materiallarni o‘rganib, qiyinchiliklarga duch kelgan joylarini aniqlashlari va dars davomida ularni muhokama qilishlari mumkin. O‘qituvchilar an’anaviy darsda ma'lumot beruvchi sifatida emas, balki qo‘llab-quvvatlovchi va yo‘naltiruvchi sifatida harakat qilishadi [106]. Darslar turli shakllarda (video, audio, maqola) o‘tishi mumkin, bu esa turli o‘rganish uslublariga mos keladi. Talabalar o‘zaro fikr almashish va guruhda ishlash orqali ijtimoiy ko'nikmalarini rivojlantirishadi. O‘quvchilar o‘zingizni baholash va o‘z rivojlanishini kuzatish imkoniyatiga ega bo‘lishadi.O‘qituvchilar darslarni yanada qiziqarli va innovatsion qilish uchun turli texnologiyalarni va metodlarni qo‘llashadi. O‘quvchilar darsdan tashqari ham o‘rganish imkoniyatlariga ega bo‘lib, o‘z bilimlarini yanada chuqurlashtirishlari mumkin. O‘quvchilar materialni yanada chuqurroq tushunishga yordam beradigan ko‘proq vaqt va imkoniyatlarga ega bo‘lishadi,

[106] Saidov, S. Ta’limda texnologiyalarni joriy etish: Teskari sinf yondashuvi.O‘zbekiston Milliy universiteti. 2019

bu esa uzoq muddatli bilimlarni shakllantirishga xizmat qiladi. Teskari sinf texnologiyasi o‘quv jarayonini yanada qiziqarli, samarali va interaktiv qilib, talabalarni o‘z ta'limlariga faol ishtirok etishga undaydi. Bu yondashuv nafaqat o‘qituvchilar, balki talabalar uchun ham ko‘plab foydali imkoniyatlar yaratadi.

O‘quvchilarning dars davomida aktiv ishtirok etishi, savollar berishi va fikrlarni muhokama qilishi darsni yanada jonli qiladi. Talabalar real hayotdagi muammolarni hal qilishda tajriba orttirishadi va bu ko‘nikmalarni amaliyotda qo‘llash imkoniyatiga ega bo'lishadi. O‘quvchilar dars materiallarini o‘z vaqtida va o‘z sharoitida o‘rganish imkoniga ega, bu esa o‘quv jarayonini ijtimoiy va shaxsiy ehtiyojlarga moslashtirishga yordam beradi. O‘quvchilar zamonaviy texnologiyalarni qo‘llash orqali o‘z ko‘nikmalarini kengaytirishadi, bu esa ularni mehnat bozorida raqobatbardosh qiladi. O‘qituvchilar darslarni yanada qiziqarli va innovatsion tarzda o‘tkazish uchun yangi materiallar va metodlarni tadqiq qilishga undaydilar.O‘quvchilar o‘rtasida o‘zaro ta'sir va hamkorlikni oshirish, bu esa guruhda ishlash ko‘nikmalarini rivojlantirishga yordam beradi. O‘quvchilar dars materiallarini o‘z vaqtida va qulay sharoitda o‘rganish orqali o‘rganish jarayonini osonlashtirishadi. O‘qituvchilar turli o‘rganish yondoshuvlarini qo‘llash orqali har bir talabaga mos keladigan ta’lim usullarini tatbiq etishlari mumkin.O‘qituvchilar dars davomida talabalarning qanchalik yaxshi tushunishini tezda tahlil qilib, kerakli o‘zgarishlarni amalga oshirish imkoniyatiga ega. O‘quvchilar o‘z o‘rganish jarayonida bir-birlariga yordam berish va o‘zaro mas'uliyatni his qilish orqali ijtimoiy mas'uliyatni rivojlantiradilar.Teskari sinf texnologiyasi bilan birga, ta'lim jarayonini yanada ilgari surish uchun keng imkoniyatlar ochiladi. Bu yondashuv talabalarni o‘rganishga qiziqtiradi, shuningdek, ularning shaxsiy va ijtimoiy ko‘nikmalarini rivojlantirishda muhim ro‘l o‘ynaydi. O‘qituvchilar o‘zlarining tajribalarini va bilimlarini talabalar bilan bo'lishish imkoniyatiga ega bo‘ladi, bu esa o‘quv jarayonini yanada boyitadi. Talabalar mustaqil ravishda o‘zlarini o‘qitish ko‘nikmalarini rivojlantiradilar, bu esa kelajakda o‘z bilimlarini kengaytirishga yordam beradi[107].

O‘quvchilar o‘z fikrlarini erkin ifoda etish va boshqalar bilan muhokama qilish orqali fikr almashish madaniyatini rivojlantiradilar.Talabalar bir-birining fikrlarini eshitish va tahlil qilish orqali o‘z fikrlarini yanada chuqurlashtirish imkoniyatiga ega. O‘qituvchilar dars davomida talabalar ehtiyojlariga tezda moslashish va o‘zgartirishlar kiritish imkoniyatiga ega. Dars vaqtida o‘zaro muloqot va muhokama uchun ko‘proq vaqt ajratish imkoniyati, bu esa yangi mavzularni chuqurroq o‘rganishga imkon beradi. O‘quvchilar nazariy bilimlarni amaliyotda qo‘llash orqali o‘z tajribalarini oshirishadi. O‘qituvchilar darsda faqat bilim beruvchi sifatida emas, balki mentor va yo‘naltiruvchi sifatida ham faol rol o'ynaydilar. Talabalar o‘zlariga qulay sharoitda va o‘z vaqtida o‘rganishlari, bu esa ularning o‘qish samaradorligini oshiradi. O‘quvchilar bir-

[107] Tursunov, R. O‘qitishdagi zamonaviy usullar: teskari sinf texnologiyasi.Toshkent davlat pedagogika universiteti. 2018

birlariga yordam berish orqali ko‘maklashish va hamkorlik qilish ko‘nikmalarini rivojlantiradilar.Teskari sinf texnologiyasi ta'lim jarayonini yangilash va talabalarni o‘qishga faol jalb qilishda samarali vosita hisoblanadi. Bu yondashuv nafaqat o‘quvchilar, balki o‘qituvchilar uchun ham yangi imkoniyatlar yaratadi va ta'lim sifatini oshirishga xizmat qiladi. Talabalar darsdan oldin materiallarni o‘rganib, dars vaqtida muhim savollar va tushunmovchiliklarni hal qilishga ko‘proq e'tibor qaratishadi. Talabalar o‘z bilimlarini mustaqil ravishda rivojlantirishga undaydilar, bu esa ularni kelajakda o‘z-o‘zini o‘qitishga tayyorlaydi. Darslar ko‘proq interaktiv usulda o‘tkazilsa, talabalar o‘zaro fikr almashish va amaliy mashg‘ulotlarda faol ishtirok etishga rag‘batlanadilar.O‘qituvchilar yangi o‘qitish metodlarini sinab ko‘rish va o‘z tajribalarini yangilash imkoniyatiga ega bo‘lishadi. Talabalar qiziqarli va zamonaviy materiallar orqali o‘rganishga ko‘proq motivatsiya topadilar. Teskari sinf texnologiyasi o‘qituvchilar va talabalar o‘rtasidagi aloqani mustahkamlashga yordam beradi. Talabalar materialni tahlil qilish va tanqidiy fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantirish imkoniyatiga ega bo‘lishadi.Talabalar bir-biridan o‘rganish va bilim almashish orqali o‘z ko‘nikmalarini oshiradilar.O‘qituvchilar o‘z darslarini yanada qiziqarli qilish uchun turli interaktiv usullarni qo‘llashadi. Talabalar zamonaviy texnologiyalar va muammolarni hal qilish ko‘nikmalarini o‘zlashtirish orqali kelajakdagi kasblarga tayyorlanadilar. Teskari sinf texnologiyasi nafaqat o‘quv jarayonini samarali qiladi, balki talabalarning shaxsiy va professional rivojlanishiga ham katta hissa qo‘shadi. Bu yondashuv ta'lim sohasidagi innovatsiyalarni joriy etish va o‘quvchilarni o‘rganishga rag‘batlantirishda muhim rol o‘ynaydi.Talabalar bir-biriga o‘rgatish orqali o‘z bilim va ko'nikmalarini mustahkaydilar, bu esa o‘qitish jarayonini yanada samarali qiladi. O‘qituvchilar turli formatlarda (video, interaktiv simulyatsiyalar, o‘yinlar) materiallarni taqdim etish orqali o‘quvchilarni qiziqtiradi. Talabalar darsdan oldin tayyorgarlik ko‘rganlari uchun dars davomida tez va samarali o‘zlashtirish imkoniyatiga ega bo‘lishadi[108]. Talabalar o‘zlarining qiyinchiliklarini aniqlash va dars davomida bu muammolarni hal qilishga e'tibor qaratishadi. O‘quvchilar darslarda bir-birlari bilan muloqot qilish va fikr almashish orqali ijtimoiy ko‘nikmalarini rivojlantirishadi. Talabalar o‘z vaqtlarini boshqarish va o‘z-o‘zini motivatsiya qilish ko‘nikmalarini rivojlantiradilar. Talabalar o‘zlarining o‘qish uslublarini rivojlantiradilar va mustaqil o‘rganishga intilishadi.Talabalar o‘z fikrlarini erkin ifoda etishlari va yangi g‘oyalar bilan chiqishlari uchun qulay muhitga ega bo‘lishadi. O‘qituvchilar talabalarni yo‘naltiruvchi va maslahat beruvchi sifatida faol ro‘l o‘ynaydilar. O‘qituvchilar va talabalar o‘rtasidagi aloqa jarayonini doimiy ravishda o‘zgartirib, o‘qitish jarayonini yanada qiziqarli va samarali qilishlari mumkin.

Teskari sinf texnologiyasi, shuningdek, o‘quvchilarni mustaqil fikrlashga, o‘z-o‘zini rivojlantirishga va ijodkorlikka undashga yordam beradi. Bu yondashuv ta'lim jarayonida yangi ko‘rinishlarni ochib beradi va

[108] Qodirov, M. Teskari sinf texnologiyasi va uning ta’limdagi o‘rni. O‘zbekiston ta’limi, 3(1), 30-35. 2021

o‘quvchilarning muvaffaqiyatini oshirishda muhim ahamiyatga ega. Talabalar o‘rtasida musobaqalar tashkil etish orqali ularning motivatsiyasini oshirish va o‘zaro raqobat ruhini rivojlantirish mumkin. O‘quvchilar oldindan tayyorgarlik ko‘rganligi sababli, darslar davomida yengilroq va qiziqarli bo‘ladi. Har bir talabaning o‘ziga xos ehtiyojlari va qobiliyatlariga asoslangan individual yondashuvni amalga oshirish imkoniyati. O‘qituvchilar o‘quvchilar ehtiyojlariga qarab darslarni tezda o‘zgartirish va moslashtirish imkoniyatiga ega. Ushbu yondashuv ishonchli muhit yaratadi, bu esa o‘quvchilarning o‘z fikrlarini erkin ifoda etishlariga imkon beradi. Talabalar bir-biriga yordam berish orqali o‘zaro hamkorlik va qo‘llab-quvvatlashni kuchaytiradilar.

O‘quvchilar ijtimoiy tarmoqlarda o‘zaro muloqot qilib, dars materiallarini muhokama qilish imkoniyatiga ega bo‘lishadi.



Sinf xonasini yaratish bo‘yicha qo‘llanma: muvaffaqiyatga erishish yo‘l xaritasi

O‘qituvchilar zamonaviy pedagogik usullarni qo‘llash orqali darslarni yanada qiziqarli va samarali o‘tkazishadi.O‘quvchilar har xil o‘qish sharoitlarida o‘rganish orqali moslashuvchanlik ko‘nikmalarini rivojlantiradilar.Talabalar real hayotdagi muammolarni hal qilishda zarur bo‘lgan ko'nikmalarni o‘zlashtiradilar, bu esa ularni kelajakda muvaffaqiyatli qiladi.Teskari sinf texnologiyasi o‘quv jarayonini yanada qiziqarli, samarali va interaktiv qilib, talabalarni o‘z ta’limlariga faol ishtirok etishga undaydi. Ushbu yondashuv, shuningdek, o‘qituvchilarga o‘z pedagogik usullarini takomillashtirish va o'quvchilar bilan yanada samarali ishlash imkonini beradi. Bu ta'lim jarayonida innovatsiyalarni joriy etish va talabalarni o‘rganishga rag‘batlantirishda muhim ahamiyatga ega. Talabalar darsdan oldin materiallarni o‘rganish orqali dars davomida qiyinchiliklarni muhokama qilish imkoniyatiga ega bo'lishadi. O‘qituvchilar o‘z pedagogik usullarini takomillashtirishga va yangi yondashuvlarni sinab ko‘rishga undaydilar.Talabalar darslardan tashqari ham o‘rganishga qiziqish bildiradilar, bu esa o‘z bilimlarini kengaytirishga yordam beradi. Talabalar o‘zlariga ma’qul keladigan mavzularni tanlash va ularga chuqurroq kirish imkoniyatiga ega bo‘lishadi. Talabalar o‘rtasida munosabatlarni mustahkamlash va ijtimoiy ko‘nikmalarni rivojlantirish muhim ahamiyatga ega.O‘qituvchilar darslarni kengaytirish va yangi mavzularni muhokama qilish uchun imkoniyatlarga ega bo'lishadi[109]. Talabalar qiziqarli materiallar va interaktiv darslar orqali o‘z-o'zini motivatsiya qilishga undaydilar. Talabalar o‘z bilimlarini baholash va o‘z rivojlanishlarini kuzatish imkoniyatiga ega. O'quvchilar nazariy bilimlarni amaliyotda qo'llash orqali o‘z tajribalarini oshirishadi.Talabalar qiziqish bildirgan mavzularni yanada chuqurroq o‘rganish imkoniyatiga ega bo'lishadi. Teskari sinf texnologiyasi o‘qitish jarayonini

[109] Rahimov, A. Pedagogik innovatsiyalar: Teskari sinf yondashuvi.O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi. 2022

yanada qiziqarli va samarali qilishga xizmat qiladi. Ushbu yondashuv, talabalarni o‘z ta'limlariga faol jalb qilish orqali ularning shaxsiy va akademik rivojlanishiga katta hissa qo‘shadi. Bu, shuningdek, o‘qituvchilarga o‘z pedagogik usullarini takomillashtirish va ta’lim sifatini oshirishda yordam beradi.

Xulosa

Teskari sinf texnologiyasi ta’lim jarayonini yanada samarali va qiziqarli qilishda muhim rol o‘ynaydi. Talabalar materialni oldindan o‘rganishi, darsda muhokama qilish va savollar berish orqali mustaqil fikrlash ko'nikmalarini rivojlantiradilar. O‘quvchilar o‘zaro fikr almashish va tajriba o‘rganish imkoniyatiga ega bo‘lishadi, bu esa o‘zaro aloqalarni kuchaytiradi. Dars vaqtida muhim mavzularni muhokama qilish va o‘zaro fikrlarni baham ko‘rish imkoniyati talabalarni samarali vaqt boshqarishga o‘rgatadi. Darslar yanada interaktiv bo‘lib, o‘quvchilarni qiziqtiradi va o‘z ta'limlariga faol jalb qiladi. Talabalar bir-biriga yordam berish orqali jamoaviy ishlash ko‘nikmalarini rivojlantiradilar. O‘qituvchilar yangi pedagogik usullarni sinab ko‘rish va o‘z malakalarini oshirish imkoniyatiga ega bo‘lishadi. Talabalar yaratqon fikrlash va muammolarni hal qilish ko‘nikmalarini rivojlantirishadi, bu esa ularni kelajakdagi qiyinchiliklarga tayyorlaydi. Umuman olganda, teskari sinf texnologiyasi ta'lim jarayonini yangi imkoniyatlar bilan boyitadi, o‘quvchilarning shaxsiy va akademik rivojlanishiga xizmat qiladi. Bu yondashuv, shuningdek, o‘qituvchilarga o‘z o‘qitish usullarini takomillashtirish va ta’lim sifatini oshirishda yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Saidov S. Ta’limda texnologiyalarni joriy etish: Teskari sinf yondashuvi.O‘zbekiston Milliy universiteti. 2019
2. Jumaniyozov,A. O‘qitishda innovatsion yondashuvlar: Teskari sinf texnologiyasi.Ta’lim va innovatsiyalar jurnali, 1(2) 45-50. 2020
3. Tursunov, R. O‘qitishdagi zamonaviy usullar: Teskari sinf texnologiyasi.Toshkent davlat pedagogika universiteti. 2018
4. Qodirov, M. Teskari sinf texnologiyasi va uning ta’limdagi o‘rni. O‘zbekiston ta’limi, 3(1) 30-35. 2021
5. Rahimov,A.(2022).Pedagogik innovatsiyalar: teskari sinf yondashuvi.O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta'lim vazirligi. 2022
6. Furqatjon, A. (2025). Physiological Characteristics of Cardiovascular System Development in Children Engaged in Sports. *Journal of Social Sciences and Humanities Research Fundamentals*, *5*(06), 15-18.

РОЛЬ ТЕЛЕМЕДИЦИНСКИХ ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ ПРОГРАММ В КОНТРОЛЕ САХАРНОГО ДИАБЕТА 1 ТИПА:

ОБЗОР СОВРЕМЕННЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ

Маҳмудов Улуғбек Илҳомжон ўғли,

ассистент, Ферганский медицинский институт общественного здоровья, alisermahmudov615@gmail.com**,**

ORCID: https://orcid.org/0000-0002-2843-8739?lang=en **, 996332699**

Каримова Муқима Мухамадсодиқовна,

кандидат медицинских наук, доцент, Ферганский медицинский институт общественного здоровья,

karimovamuqimaxon@gmail.com, **905330949,**

ORCID: https://orcid.org/0009-0006-3567-4269

Аннотация. Данная обзорная статья посвящена оценке эффективности дистанционных образовательных программ в управлении сахарным диабетом 1 типа. В работе представлен систематический анализ современных исследований, направленных на изучение влияния онлайн-обучения на показатели гликемического контроля, частоту острых осложнений и качество жизни пациентов. Рассмотрены ключевые преимущества дистанционного формата: высокая доступность, экономическая целесообразность, гибкость и возможность персонализации образовательного процесса с учетом индивидуальных особенностей пациента. Отмечено, что применение цифровых технологий способствует улучшению приверженности терапии, расширяет доступ к информации и снижает барьеры, связанные с географическим местоположением. В ряде исследований продемонстрированы положительные клинические эффекты, включая снижение уровня HbA1c, уменьшение частоты госпитализаций и рост показателей самоконтроля. В то же время проанализированы ограничения дистанционных моделей, связанные с недостаточной мотивацией, цифровым неравенством и ограничением интерактивного взаимодействия. Выделены перспективные направления развития: интеграция гибридных образовательных форматов, использование мобильных приложений, телемедицины и искусственного интеллекта. Подчёркивается необходимость адаптации программ под возраст, уровень цифровой грамотности и психологические особенности пациентов для достижения устойчивых результатов. Дополнительно акцентируется важность междисциплинарного подхода и активного участия медицинских специалистов, педагогов и психологов в разработке и реализации образовательных стратегий, что позволит повысить их клиническую и социальную эффективность. Особое внимание уделено долгосрочной устойчивости результатов обучения, необходимости регулярной оценки

эффективности программ и внедрению инновационных методов мониторинга прогресса пациентов, включая использование носимых устройств и интеграцию с электронными медицинскими системами.

Ключевые слова: *сахарный диабет 1 типа, дистанционное обучение, гликемический контроль, самоконтроль диабета, профилактика осложнений, цифровые технологии.*

Abstract. This review article is devoted to evaluating the effectiveness of distance educational programs in the management of type 1 diabetes. The paper presents a systematic analysis of current studies aimed at assessing the impact of online learning on glycemic control, the frequency of acute complications, and patients’ quality of life. Key advantages of the distance format are discussed, including high accessibility, cost-effectiveness, flexibility, and the possibility of personalizing the educational process according to the individual characteristics of the patient. It is noted that the use of digital technologies helps improve therapy adherence, broadens access to information, and reduces barriers associated with geographic location. Several studies have demonstrated positive clinical outcomes, such as reduced HbA1c levels, decreased hospitalization rates, and enhanced self-monitoring indicators. At the same time, the limitations of distance models are analyzed, including insufficient motivation, digital inequality, and restricted opportunities for interactive communication. Promising directions for development are highlighted, such as the integration of hybrid educational formats, the use of mobile applications, telemedicine, and artificial intelligence. The necessity of adapting programs to patients’ age, level of digital literacy, and psychological characteristics is emphasized to achieve sustainable results. Additional attention is given to the importance of an interdisciplinary approach and the active involvement of healthcare professionals, educators, and psychologists in the design and implementation of educational strategies, which can enhance both clinical and social effectiveness. Particular focus is placed on the long-term sustainability of learning outcomes, the need for regular evaluation of program effectiveness, and the introduction of innovative methods for monitoring patient progress, including the use of wearable devices and integration with electronic health record systems.

Keywords: *type 1 diabetes mellitus, distance learning, glycemic control, diabetes self-management, complication prevention, digital technologies.*

Annotatsiya. Ushbu tahliliy maqola 1-toifa qandli diabetni (QD1) boshqarishda masofaviy ta’lim dasturlarining samaradorligini baholashga qaratilgan. Onlayn o‘quv tizimining glikemik nazorat, o‘tkir asoratlar chastotasi va hayot sifati ko‘rsatkichlariga ta’siri bo‘yicha o‘tkazilgan zamonaviy ilmiy tadqiqotlarning tizimli tahlili keltirilgan. Masofaviy formatning asosiy afzalliklari sifatida yuqori qulaylik, iqtisodiy samaradorlik, moslashuvchanlik va shaxsiy yondashuv imkoniyati alohida ta’kidlangan. Raqamli texnologiyalar,

xususan mobil ilovalar va teletibbiyot vositalarining qo‘llanilishi bemorlarning davolanishga sodiqligini oshirib, geografik va informatsion to‘siqlarni kamaytirishga xizmat qiladi. Bir qator tadqiqotlar HbA1c darajasining pasayishi, kasalxonaga yotqizish holatlarining kamayishi hamda o‘z-o‘zini nazorat qilish ko‘rsatkichlarining yaxshilanishini namoyon qilgan. Shu bilan birga, yetarli motivatsiya yetishmovchiligi, raqamli tengsizlik va interaktiv muloqot cheklanganligi kabi masofaviy yondashuvning kamchiliklari ham ko‘rib chiqilgan. Rivojlanish istiqbollari sifatida aralash (gibrid) ta’lim formatlari, sun’iy intellekt texnologiyalaridan foydalanish, hamda dasturlarni bemorlarning yoshi, raqamli savodxonlik darajasi va psixologik xususiyatlariga moslashtirish zarurligi belgilangan. Shuningdek, tibbiyot xodimlari, o‘qituvchilar va psixologlarning faol ishtirokini ta’minlovchi fanlararo yondashuv samaradorlikni oshirishning muhim sharti sifatida e’tirof etilgan. O‘quv natijalarining uzoq muddatli barqarorligini ta’minlash, dastur samaradorligini muntazam monitoring qilish va innovatsion kuzatuv texnologiyalarini — jumladan taqiladigan qurilmalar va elektron salomatlik platformalarini — joriy etish bo‘yicha tavsiyalar berilgan.

Kalit so‘zlar: *1-tip qandli diabet, masofaviy ta'lim, glikemik nazorat, diabetni o‘z-o‘zini boshqarish, asoratlarning oldini olish, raqamli texnologiyalar.*

Введение. Сахарный диабет 1 типа (СД1) представляет собой аутоиммунное заболевание, при котором иммунная система разрушает бета-клетки поджелудочной железы, приводя к абсолютной инсулиновой недостаточности [1]. Заболевание часто манифестирует в детском или подростковом возрасте, но может развиваться и у взрослых. Пациенты с СД1 нуждаются в пожизненном введении инсулина и тщательном самоконтроле уровня гликемии для предотвращения острых и хронических осложнений [2].

Согласно данным Международной диабетической федерации (IDF), к 2023 году более 8,4 миллионов человек в мире живут с диагнозом диабета 1 типа, и число таких пациентов продолжает расти [3]. Эффективное управление заболеванием требует не только медицинского сопровождения, но и активного участия самого пациента, его грамотности в вопросах диабетического самоконтроля, понимания принципов инсулинотерапии, питания, физической активности и профилактики осложнений.

Однако в реальной клинической практике многие пациенты сталкиваются с трудностями в самостоятельном управлении заболеванием. Недостаточная осведомлённость, низкая мотивация и психологические барьеры приводят к неудовлетворительному гликемическому контролю и увеличивают риск развития тяжёлых осложнений, включая диабетическую нефропатию, ретинопатию, нейропатию и сердечно-сосудистые заболевания [4].

В последние годы стремительное развитие технологий открыло

новые возможности в обучении пациентов. Дистанционные образовательные программы, реализуемые через мобильные приложения, онлайн-платформы и электронные системы здравоохранения, становятся важным компонентом комплексного ухода за пациентами с хроническими заболеваниями, включая СД1 [5]. Эти программы обеспечивают гибкость, доступность и персонализацию обучения, что особенно ценно для пациентов, проживающих в удалённых регионах или имеющих ограничения в передвижении.

Выход на первый план онлайн-програм особенно активизировался в период пандемии COVID-19, когда возникла острая необходимость сохранения контакта с пациентами без непосредственных встреч. В этом контексте дистанционные модели обучения заявили о своёй практической значимости.

Первые результаты клинических исследований показали, что участие в дистанционных образовательных программах связано с улучшением гликемического контроля, снижением уровня гликированного гемоглобина (HbA1c), уменьшением частоты госпитализаций по поводу острых осложнений и повышением качества жизни пациентов [6]. Такие подходы позволяют не только обучать пациентов навыкам самоконтроля, но и мотивировать их на поддержание активного участия в процессе лечения.

Тем не менее остаются нерешёнными вопросы о долгосрочной эффективности дистанционных обучающих вмешательств, об оптимальных методах их интеграции в традиционные системы медицинского обслуживания, а также о необходимости индивидуализации программ с учётом возрастных, когнитивных и социальных особенностей пациентов [7].

The Salerno Medical School in Italy became a key center for medical knowledge transmission. Francisco Diaz of Spain (1527–1590) authored one of the first specialized books on urology, *Treatise on All Diseases of the Kidneys, Bladder, and Urinary Passages*. Jean Civiale (1792–1867) pioneered lithotripsy, a minimally invasive technique for bladder stone removal, while Félix Guyon (1831–1920) made significant advances in urethral catheterization and urological surgery.

Achievements of Modern Diagnostics and Surgery

The introduction of imaging technologies such as ultrasound, computed tomography (CT), and magnetic resonance imaging (MRI) revolutionized urological diagnostics. Endoscopic techniques, laparoscopic and robotic surgeries have significantly reduced patient trauma, recovery time, and postoperative complications.

Stages of Teaching Urology

Medical education in urology typically follows a sequential structure:

1. **Theoretical Stage** – Introducing students to the anatomy, physiology, and pathology of the urinary system.
2. **Demonstration Stage** – Observation of diagnostic procedures and surgical interventions.
3. **Practical Stage** – Supervised performance of basic diagnostic tasks such as urinalysis and patient assessment.
4. **Clinical Stage** – Independent case handling under professional supervision, integrating theory with practice.

Pedagogical Principles in Urology Education

The teaching of urology adheres to key pedagogical principles:

- **Scientific Accuracy:** Ensuring that all teaching materials are based on up-to-date evidence and best practices.
- **Integration:** Connecting urology with related disciplines such as nephrology, gynecology, and oncology.
- **Practical Orientation:** Emphasizing skill-based learning to prepare students for clinical realities.
- **Student-Centered Approach:** Adapting teaching methods to diverse learning styles and professional goals.
- **Ethical and Professional Training:** Instilling patient-centered care, confidentiality, and informed consent.

Conclusion

The evolution of urology reflects broader trends in medical history — from empirical observations to evidence-based, technology-driven care. Teaching urology today requires a balance between preserving the rich historical heritage of the discipline and embracing innovative pedagogical strategies that prepare future physicians for modern challenges.

References

1. Adams, D. (2021). *History of Urology: From Ancient Civilizations to Modern Practice*. Oxford University Press.
2. Smith, J., & Patel, R. (2019). *Diagnostic Advances in Urology*. Springer Nature.
3. Al-Awadi, K. A., & Kehinde, E. O. (2018). The legacy of Avicenna (Ibn Sina) in urology. *Arab Journal of Urology*, 16(3), 341–348.
4. Krane, R. J., & Siroky, M. B. (2020). *Clinical Urology*. McGraw-Hill Education.
5. Murphy, L. J. (2017). Surgical breakthroughs in urology: From Félix Guyon to robotic-assisted surgery. *Journal of Urological History*, 12(2), 85–94.

6. Furqatjon, A. (2025). Physiological Characteristics of Cardiovascular System Development in Children Engaged in Sports. *Journal of Social Sciences and Humanities Research Fundamentals*, *5*(06), 15-18.
7. Weisz, G. M., & Albury, W. R. (2015). Urology in Ancient Egypt: Medical papyri evidence. *World Journal of Urology*, 33(1), 25–30.
8. Chandra, A., & Singh, S. (2022). Pedagogical approaches in teaching medical sciences: Focus on urology. *Medical Education Review*, 29(4), 210–218.
9. Muscatello, L. V. (2016). The Salerno Medical School and its impact on European medical education. *History of Medicine Review*, 19(1), 56–64.
10. Abrams, P., et al. (2021). *Urology at the Crossroads of Medicine and Surgery*. Elsevier.
11. World Health Organization. (2020). *Global Health and Urological Care Guidelines*. WHO Press.

BO‘LAJAK O‘QITUVCHILARDA AKMEOLOGIK KOMPETENSIYALARNI SHAKLLANTIRISH JARAYONINING PEDAGOGIK XUSUSIYATLARI

Abdumutalipov Nodirbek Abdulazizovich,
Osiyo xalqaro universiteti magistranti

Annotatsiya. Ushbu maqolada bo‘lajak o‘qituvchilarda akmeologik kompetensiyalarni shakllantirishning pedagogik xususiyatlari yoritilgan. Akmeologik yondashuv asosida kasbiy o‘sishga intilish, mustaqil fikrlash, ijodiy faoliyat, refleksiya va o‘z-o‘zini rivojlantirish kabi kompetensiyalarni rivojlantirish yo‘llari tahlil qilingan. Shuningdek, ta’lim muassasasida akmeologik muhit yaratishning metodik asoslari va ta’lim ishtirokchilari o‘rtasidagi samarali hamkorlikning o‘rni asoslab berilgan.

Kalit so‘zlar: akmeologik kompetensiya, bo‘lajak o‘qituvchi, kasbiy rivojlanish, pedagogik jarayon, ijodiy tafakkur, refleksiya, motivatsiya, ta’lim muhiti.

Аннотация. В данной статье освещаются педагогические особенности формирования акмеологических компетенций у будущих педагогов. На основе акмеологического подхода были проанализированы пути развития таких компетенций, как стремление к профессиональному росту, самостоятельное мышление, творческая деятельность, рефлексия и саморазвитие. Обоснованы также методические основы создания акмеологической среды в образовательном учреждении и роль эффективного сотрудничества между участниками образования.

Ключевые слова: акмеологическая компетентность, будущий педагог, профессиональное развитие, педагогический процесс, творческое мышление, рефлексия, мотивация, образовательная среда.

Annotation. This article covers the pedagogical features of the formation of acmeological competencies in future teachers. On the basis of the

acmeological approach, ways of developing competencies such as striving for professional growth, independent thinking, creative activity, reflection and self-development have been analyzed. Also, the methodological foundations of creating an acmeological environment in an educational institution and the role of effective cooperation between educational participants are based.

Keywords: acmeological competence, future teacher, professional development, pedagogical process, creative thinking, reflection, motivation, educational environment.

Pedagogika oliy ta’lim muassasalarida bo‘lajak o‘qituvchilarni kasbiy tayyorlash tizimini yangi bosqichga ko‘tarishda 2017-2021-yillarda oliy ta’lim tizimini kompleks rivojlantirish dasturi ham muhim metodologik asos bo‘lib xizmat qilmoqda. Bugungi kunda mamlakatimizda uzluksiz ta’lim tizimining barcha turlarini davlat va jamiyat ehtiyojlariga mos ravishda tubdan yangilashga qaratilgan innovatsion o‘zgartirish va islohotlar amalga oshirildi. Chunki zamon shiddat bilan rivojlanib borayotgan hozirgi davrda yangi fikr, yangi g‘oyaga, innovasiyaga tayanish muhim hisoblanadi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning “Innovatsiya – bu kelajak degani. Biz buyuk kelajagimizni barpo etishni bugundan boshlaydigan bo‘lsak, uni aynan innovatsion g‘oyalar, innovatsion yondashuv asosida boshlashimiz kerak. Kelgusi yilda ilmiy tadqiqot va innovatsion faoliyatni rivojlantirish, buning uchun zarur moliyaviy resurslarni safarbar etish, ushbu jarayonda iqtidorli yoshlar ishtirokini, ijodiy g‘oya va ishlanmalarni har tomonlama qo‘llab-quvvatlash vazifasi e’tiborimiz markazida bo‘ladi”, deb aytgan fikrlarida bugungi kunda har bir soha va tizim faoliyatini innovatsion g‘oyalar va texnologiyalar asosida olib borish o‘ziga xos muhim ahamiyat kasb etishi o‘z ifodasini topgan. Mamlakatimizda ta’lim tizimining modernizatsiya qilinishi, ta’lim muassasalarida yaratilayotgan shart-sharoitlar, yuqori malakali mutaxassislarga bo‘lgan ehtiyoj va talabning o‘sib borishi oliy ta’lim o‘qituvchilari faoliyati samaradorligiga ta’sir etuvchi omillarni aniqlash, ularning innovatsion faoliyatini tashkil etish va muvofiqlashtirib borishda yo‘l qo‘yilayotgan kamchiliklar va mavjud muammolarni bartaraf etish yo‘nalishlarida o‘ziga xos qator talablarni belgilaydi. Bu o‘z navbatida o‘qituvchilarning kasbiy kompetentliligini rivojlantirish jarayonlariga ijodiy yondashuvni talab qiladi.

Zamonaviy ta’lim tizimida bo‘lajak o‘qituvchilarning kasbiy shakllanishi va yetuklikka erishish jarayoni murakkab va ko‘p bosqichli pedagogik hamda psixologik jarayon sifatida talqin qilinadi. Mazkur jarayonning samaradorligini ta’minlashda **akmeologik kasbiy ko‘nikmalar** muhim o‘rin tutadi. Akmeologik ko‘nikmalar — bu shaxsning kasbiy faoliyatda o‘z imkoniyatlarini to‘liq safarbar etishga, yuqori darajadagi natijalarga erishishga, o‘z-o‘zini rivojlantirishga va o‘z kasbiy cho‘qqisiga chiqishga qaratilgan salohiyatidir. Ular o‘qituvchi shaxsining intellektual, axloqiy, psixologik va kommunikativ imkoniyatlarini integratsiyalashgan holda kasbiy faoliyatga yo‘naltiradi.

Ilmiy tahlillar shuni ko‘rsatadiki, akmeologik kasbiy ko‘nikmalar o‘z-o‘zini anglash, o‘z kasbiy yo‘lini mustaqil belgilash, o‘z ustida ishlash orqali

shakllanadi. Bu boradagi ilg‘or tajribalar shuni ko‘rsatadiki, talabalarni ijtimoiy loyihalar, innovatsion dars ishlanmalari, amaliy seminarlar va kasbiy forumlarda faol ishtirok ettirish orqali ularning akmeologik kompetensiyalarini sezilarli darajada rivojlantirish mumkin. Masalan, Rossiyada A.A. Derkach va V.S. Agapovlar tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda kasbiy akmeologiyaning bosqichlari, shaxsiy o‘sishga ta’sir qiluvchi omillar, akmeologik muhit komponentlari chuqur tahlil qilingan. L.M.Mitina o‘qituvchilik faoliyati mohiyatiga tayangan holda bo‘lajak o‘qituvchini kasbiy-pedagogik jihatdan tayyorlash modeli quyidagi uchta o‘zaro bog‘liq yo‘nalish asosida namoyon bo‘lishini qayd etib o‘tadi:

1) talabaning shaxsi;
2) talabaning o‘quv-o‘rganish faoliyati;
3) talaba tomonidan tashkil etiluvchi ijtimoiy munosabatlar.

O‘zbekiston tajribasida esa, pedagogik psixologiya va kompetensiyaviy yondashuv asosida bo‘lajak pedagoglar tayyorlashga qaratilgan loyihalar, treninglar, tanlovlar natijasida talabalarning o‘z kasbiy rivojlanishiga bo‘lgan qiziqishlari ortayotgani kuzatilmoqda. Oliy ta’lim muassasalarida olib borilayotgan tajribaviy ishlar, xususan, “o‘z-o‘zini tahlil qilish kundaligi”, “kasbiy rivojlanish rejalari”, “shaxsiy portfoliolar” yuritilishi orqali talabalar o‘zlarining kasbiy rivojlanish yo‘lini ongli tarzda bosib o‘tishga harakat qilmoqdalar. Bu jarayonda professor-o‘qituvchilar talabalarga faqat bilim beruvchi emas, balki ularni yo‘naltiruvchi, ilhomlantiruvchi murabbiy sifatida namoyon bo‘lmoqda.

Akmeologik kasbiy ko‘nikmalarni rivojlantirish uchun zarur bo‘lgan pedagogik shart-sharoitlarni yaratish va amaliy tajribalarni qo‘llash — bo‘lajak o‘qituvchini nafaqat kasbga tayyorlaydi, balki uni o‘z shaxsiy rivojlanishiga mas’uliyat bilan qaraydigan yetuk inson sifatida shakllantiradi. Bu esa ta’lim sifatining yuksalishiga, o‘qituvchilik kasbining nufuzi oshishiga va jamiyatning barqaror rivojlanishiga xizmat qiladi. Zamonaviy pedagogik jarayonda bo‘lajak o‘qituvchilarning kasbiy tayyorgarligini takomillashtirish, ularning yetuk shaxs sifatida shakllanishini ta’minlash dolzarb muammolardan biri hisoblanadi. Shu nuqtai nazardan, ta’lim tizimida **akmeologik kasbiy ko‘nikmalar**ni rivojlantirish masalasi muhim o‘rin tutadi. Bu ko‘nikmalar o‘qituvchining shaxsiy va kasbiy taraqqiyoti, o‘z ustida ishlashga qaratilgan ichki ehtiyoji, pedagogik faoliyatda innovatsion yondashuvlarni qo‘llay olishi, shuningdek, muammoli vaziyatlarni mustaqil hal eta olishi orqali namoyon bo‘ladi.

Bo‘lajak o‘qituvchilarda kasbiy kompetensiyalarning chuqur shakllanishi bilan bir qatorda, akmeologik yondashuv asosida rivojlantiriladigan shaxsiy va reflektiv kompetensiyalarning ahamiyati ortib bormoqda. Akmeologik yondashuv o‘z mohiyatiga ko‘ra pedagog shaxsining kasbiy yetuklik cho‘qqisiga erishish jarayonini ilmiy asosda tashkil etish vositasi bo‘lib xizmat qiladi. Mazkur yondashuv orqali o‘qituvchi nafaqat kasb egasi, balki ijodkor, lider va mustaqil qaror qabul qiluvchi shaxs sifatida shakllanadi. Akmeologik kompetensiyalar o‘qituvchining kasbiy faoliyatida yuqori natijalarga erishish, murakkab vaziyatlarda samarali yo‘l tutish, o‘z-o‘zini tahlil qilish va doimiy

takomillik sari intilish kabilarni o‘z ichiga oladi. Bunday kompetensiyalarni shakllantirishda o‘qituvchi va talaba o‘rtasida pedagogik hamkorlik, shaxsga yo‘naltirilgan yondashuv, faoliyatli-ta’limiy texnologiyalarning uzviy uyg‘unligi muhim omil hisoblanadi. Akmeologik kompetensiyalarning negizida sog‘lom psixologik muhit, ijtimoiy faollik, mustahkam bilish motivlari va ta’limga bo‘lgan ichki ehtiyoj yotadi. Bu esa ta’lim muassasasining funksional faoliyatdan rivojlanishga yo‘naltirilgan innovatsion modelga o‘tishini ta’minlaydi. Mazkur kompetensiyalarni shakllantirish jarayonida akmeologik muhit yaratish alohida ahamiyatga ega bo‘lib, bunda ijodiy treninglar, loyiha asosidagi o‘qitish, tanlovlar, intellektual o‘yinlar, baholash va refleksiya mexanizmlarining joriy etilishi zarur. Shuningdek, o‘quv jarayoni ishtirokchilari – o‘qituvchilar, psixologlar, mentorlar va guruh murabbiylari o‘rtasida o‘zaro hamkorlik asosidagi faoliyatni yo‘lga qo‘yish, o‘qituvchilik faoliyatining psixologik, ijtimoiy va madaniy kontekstda chuqur o‘rganilishini ta’minlaydi. Bu orqali bo‘lajak pedagoglar o‘z shaxsiy “akme”siga — ya’ni kasbiy va intellektual yetuklik cho‘qqisiga erishish uchun zaruriy kompetensiyalarni bosqichma-bosqich o‘zlashtiradilar.

Shu bilan bir qatorda bo‘lajak o‘qituvchilarning ta’lim olish va ijodiy pedagogik faoliyatini davom ettirish huquqini ta’minlashdan iborat. Bo‘lajak o‘qituvchi shaxsini rivojlantirishning umummilliy, psixologik-pedagogik asoslarini ijtimoiy his-tuyg‘ular va moslashish asosida ijtimoiy qiyinchiliklarni bartaraf etish, ta’lim jarayonini tavsiflovchi omil sifatida ijtimoiy muhitning ustuvorligi, jamiyatga munosabat va jamiyat oldidagi burchni ado etishga kasbiy faoliyat nuqtai nazaridan yondashish, shaxsning shakllanish asosi sifatida mayllarning rivojlanishiga oid nazariy yondashuvlar va ijtimoiy pedagogik g‘oyalar tashkil etadi. Har qanday shaxs kasbiy bilimlarning rivojlanishi natijasida muayyan faoliyat tajribasini egallaydi. Shuning uchun ham shaxs o‘zining ijodkorligi, kompetentligi bilan kasbiy faoliyat tajribasini yaratishi, boyitishi, to‘ldirishi lozim. Bunday tajribalarni bo‘lajak o‘qituvchilar pedagogika oliy ta’lim muassasalarida o‘zlashtirib, butun hayoti davomida boyitib boradi. O‘qituvchilarning shaxsi har doim muhim ahamiyatga ega bo‘lgan ijodiy faoliyat ko‘nikmalarini namoyon eta olishi kerak. Shundagina u o‘z faoliyati davomida kasbiy kompetentligini namoyon eta oladi.

Xulosa qilib aytganda, akmeologik kompetensiyalarni shakllantirish bo‘lajak o‘qituvchining kasbiy tayyorgarligida asosiy pedagogik vazifa bo‘lib, u nafaqat kasbiy bilim va ko‘nikmalarni, balki ijodiy fikrlash, o‘z-o‘zini rivojlantirish, mustaqil qaror qabul qilish, kasbiy refleksiya va ijtimoiy mas’uliyatni ham qamrab oladi. Ushbu kompetensiyalarni samarali shakllantirish orqali ta’lim muassasalari yuqori malakali, raqobatbardosh va barkamol shaxsga ega pedagoglarni tayyorlash imkoniyatiga ega bo‘ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 2-martdagi “2017 – 2021- yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta

ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasini PF-5953-son Farmoni. 01.05.2021 y., 06/21/6217/0409-son.

2. Деркач А., Зазыкин В. Акмеология. – СПб. “Питер”, 2003. С.256.

3. Furqatjon, A. (2025). Physiological Characteristics of Cardiovascular System Development in Children Engaged in Sports. *Journal of Social Sciences and Humanities Research Fundamentals*, *5*(06), 15-18.

4. Karimova M.O., Rafikova D.K., Baydjanov B.X. Pedagogik kompetentlik va kreativlik asoslari. o‘quv qo‘llanma, Farg‘ona - “Uzxerox” – 2021.

5. Karimova M. O., Saidullaeva A. R. Pedagogical basis of the use of universal and national values in the spiritual and moral education of children in the family //PalArch’s Journal of Archaeology of Egypt/Egyptology. – 2020. – Т. 17. – №. 7. – С. 8547-8555.

6. Nazarova B.A. Bo‘lajak o‘qituvchilarda kreativ yondashuv asosida tadqiqotchilik layoqatini tarbiyalash: Dis. … ped. fan. dok. – T., 2018. – 225 Markova A. Psixologiya professionalizma. - M.: “Visshaya shkola”, 1996. S. - 19.

7. Ashurova G. Kokand universitety “Shaxs muammosining o‘rganilishi”.Miastro Przysztosci impackt factor 9.2.876-879-betlar.

GRAFIK ORGANAYZERLARNING O‘QUVCHILAR TAFAKKURINI FAOLLASHTIRISHDAGI ROLI

Do‘stbekova Matluba, JDPU magistranti
Matlubadustbekova1996@gmail.com

Annotatsiya: Zamonaviy ta’lim metodologiyasida o‘quvchining mustaqil fikrlashi, tafakkur faolligi va muammoli vaziyatlarga yangicha yondashuvi muhim mezon sifatida baholanadi. Bu jarayonda didaktik vositalarning samarali qo‘llanilishi, xususan, grafik organayzerlar orqali o‘quvchilarda adabiy-estetik tafakkurni shakllantirish dolzarb ahamiyat kasb etadi. Jadid adabiyoti esa, o‘zining g‘oyaviy boyligi, milliy uyg‘onish g‘oyalarini ifodalashi va ma’naviy merosi bilan bu jarayonda muhim manba sifatida xizmat qiladi.

Аннотация: В современной методике обучения важнейшими критериями являются самостоятельность мышления учащегося, его интеллектуальная активность, новый подход к проблемным ситуациям. В этом процессе большое значение имеет эффективное использование дидактических средств, в частности, формирование литературно-эстетического мышления учащихся посредством графических органайзеров. Важным источником в этом процессе служит джадидская литература с её идейной насыщенностью, выражением идей национального возрождения и духовным наследием.

Abstract: In modern educational methodology, the student's independent thinking, intellectual activity, and a new approach to problem situations are considered important criteria. In this process, the effective use of didactic tools, in particular, the formation of literary and aesthetic thinking in students through graphic organizers, is of great importance. Jadid literature, with its ideological richness, expression of the ideas of national revival, and spiritual heritage, serves as an important source in this process.

Kalit so‘zlar: Hind ixtilochi, Sayohat xotiralari, Klaster, Venn diagramma, taymlayn, konsept xarita, T-diagramma

Ключевые слова: индийский революционер, путевые заметки, кластер, диаграмма Венна, временная шкала, концептуальная карта, Т-диаграмма

Keywords: Indian revolutionary, Travelogue, Cluster, Venn diagram, timeline, concept map, T-diagram

Jadid adabiyotining tafakkurni faollashtiruvchi kuchi – jadid adabiyoti taraqqiyot, ilm-ma’rifat, o‘zlikni anglash kabi g‘oyalarni ilgari surganligi sababli o‘quvchilar tafakkurini faollashtirishga xizmat qiladi. Fitratning "Hind ixtilochi" dramasi yoki Furqatning "Sayohat xotiralari" asarlari orqali ijtimoiy ong, tarixiy tafakkur, shaxsiy javobgarlik tuyg‘ulari hosil bo‘ladi. Ushbu asarlar bilan tanishgan o‘quvchilar nafaqat adabiy matnni o‘qiydi, balki uni tahlil qiladi, tarixiy-parallel va dolzarb muammolarni ko‘ra boshlaydi.

Grafik organayzerlarning imkoniyatlari. Grafik organayzerlar — o‘quv materialini tuzilgan, aniq, ko‘rgazmali tarzda ifodalashga imkon beruvchi vositalardir. Klaster, Venn diagramma, taymlayn, konsept xarita, T-diagramma va boshqa grafik organayzerlar yordamida:

O‘quvchining tahlil qilish, solishtirish, umumlashtirish ko‘nikmalari rivojlanadi;

Asarlar orasida mavzu, g‘oya, obrazlar, tarixiy shaxslar bo‘yicha bog‘lanishlar o‘rnatiladi;

Tanqidiy va refleksiv fikrlash kuchayadi;

Mustaqil xulosa chiqarish imkoniyati kengayadi.

Masalan, Fitrat va Furqat asarlaridagi yurtparvarlik, taraqqiyot, o‘zlikni anglash kabi g‘oyalarning umumiy va farqli jihatlarini Venn diagrammasida solishtirish o‘quvchiga ijtimoiy-madaniy kontekstni chuqurroq tushunishga imkon beradi.

Jadid adabiyoti asosida grafik organayzerlar qo‘llash tajribasi

1. Taymlayn (vaqt jadvali): Furqat va Fitrat hayoti, ijodiy faoliyati va tarixiy davrlar bo‘yicha taymlayn tuzish orqali o‘quvchilar tarixiy kontekstni tahlil qiladi, jadidchilik harakati taraqqiyoti haqida tasavvur hosil qiladi.

2. Klaster: “Millat”, “ilm”, “taraqqiyot” kabi asosiy tushunchalarning Furqat va Fitrat asarlarida qanday yoritilganini klaster orqali ochish o‘quvchilarda mavhum tushunchalarni konkretlashtirishga yordam beradi.

3. Konsept xarita: Fitratning “Oqshom” dramasi asosida ijtimoiy muammolar (ayollar erkinligi, milliy tiklanish, adolat) konsept xaritasi orqali

muhokama qilinadi. Bu metodik yondashuv har bir o‘quvchining fikrlash darajasini aniqlaydi.

4. T-diagramma: Furqatning an’anaviy she’riyat bilan yangicha tafakkur oralig‘idagi farqlari (masalan, sotsial mavzular, xalqparvarlik, realizm)ni tahlil qilishda T-diagramma qo‘llaniladi.

O‘quvchilarning tafakkur faolligini oshirishning psixopedagogik asoslari

Zamonaviy psixologik yondashuvlarga ko‘ra, o‘quvchilar tafakkurining faolligi quyidagi omillarga bog‘liq:

Kognitiv yuklama balansligi – grafik organayzerlar materialni boshqariladigan darajada murakkablashtiradi.

Vizual ta’sirchanlik – ko‘rish orqali ma’lumot olish, miyaning ijodiy qismlarini faollashtiradi.

Tizimli yondashuv – jadid adabiyotidagi g‘oyalarni tizimlashtirish orqali o‘quvchi butunlikda fikrlashni o‘rganadi.

Interfaol muloqot – grafik ishlovlar asosida tashkil etilgan darslar o‘quvchilarni guruhiy muhokamaga jalb etadi.

Amaliy tajribalar: grafik organayzerlar asosida darsdan lavhalar

1-misol: 11-sinf “Adabiyot” darsida Fitratning “Hind ixtilochi” dramasini o‘rganishda taymlayn yordamida ijtimoiy-iqtisodiy holatlar tasnifi amalga oshirildi. O‘quvchilar Fitrat tomonidan yoritilgan muammolarni o‘z zamonaviy ijtimoiy tajribasi bilan qiyoslay oldi.

2-misol: “Jadidlar va o‘zlikni anglash” mavzusi bo‘yicha o‘tkazilgan ochiq darsda Venn diagrammasi asosida Furqat va Fitrat asarlaridagi vatanparvarlik g‘oyalarining umumiy va farqli jihatlari tahlil qilindi.

3-misol: 10-sinf o‘quvchilari uchun tashkil etilgan seminar-treningda “Konspekt xaritasi” orqali Furqat she’riyatida uchraydigan asosiy mavzular (xalq, millat, ma’rifat, erkinlik) aloqadorlikda tahlil qilindi.

Ushbu amaliy yondashuvlar grafik organayzerlar yordamida o‘quvchining bilish faoliyati, mustaqil izlanish ko‘nikmasini faollashtirishda yuqori natijalar berganini ko‘rsatdi.

Xulosa. Jadid adabiyotini grafik organayzerlar yordamida o‘qitish — nafaqat ta’lim sifatini oshirish, balki o‘quvchilarda analitik, tanqidiy, ijodiy fikrlash ko‘nikmalarini shakllantirishning samarali vositasidir. Fitrat va Furqat kabi jadid adiblarning asarlarini zamonaviy pedagogik vositalar bilan uyg‘unlashtirish orqali o‘quvchilarda milliy ong, mustaqil qaror qabul qilish va tafakkur doirasini kengaytirish mumkin. Bu yondashuv o‘zining didaktik, tarbiyaviy va metodik afzalliklari bilan alohida ahamiyatga ega bo‘lib, o‘zbek adabiyotining yangi avlodga o‘rgatilishida muhim innovatsion yo‘nalish sifatida xizmat qiladi.

Zamonaviy pedagogik jarayonlar informatsion-kommunikatsion texnologiyalarning jadal rivojlanishi bilan uzviy bog‘liq holda takomillashib bormoqda. Bu holat o‘quv jarayoniga yangicha yondashuvlarni, interfaollikni va vizual ta’sirchanlikni taqozo etadi. Ayniqsa, gumanitar fanlar — xususan, **adabiyot darslari** bu borada o‘quvchidan kuchli estetik qabul, badiiy tafakkur va analitik mulohaza qilishni talab etadi. Shunday sharoitda **grafik**

organayzerlar vositasida adabiy matnlarni o‘rganish, tahlil qilish va anglash imkoniyatlari yangi bosqichga ko‘tariladi.

Grafik organayzer tushunchasi va didaktik ahamiyati

Grafik organayzer — bu o‘quv materialini sxema, diagramma, jadval, konsept xarita va boshqa vizual vositalar orqali tasniflash, tartibga solish va tahlil qilish imkonini beruvchi o‘quv-metodik vositadir. Ular yordamida:

Murakkab tushunchalar oddiy, sodda shaklda taqdim etiladi;

Matnlar o‘rtasidagi bog‘liqliklar yaqqol ko‘rinadi;

Mustaqil fikrlash va mantiqiy xulosa chiqarish osonlashadi.

Adabiyot darslarida bu kabi vositalar orqali obrazlar tahlili, mavzu-g‘oya talqini, tarixiy kontekst, muallif uslubi, zamonaviylik bilan bog‘liqlik kabi jihatlar samarali yoritiladi.

Pedagogik yondashuvlar nuqtayi nazaridan asoslash

Grafik organayzerlar o‘quvchilarni markazga qo‘ygan quyidagi zamonaviy ta’lim yondashuvlariga mos keladi:

Bu yondashuvga ko‘ra, bilimlar tayyor shaklda berilmaydi, balki o‘quvchi tomonidan faol tarzda yaratiladi. Grafik organayzerlar aynan o‘quvchining bilimi, ilgari o‘zlashtirgan tushunchalari asosida yangi ma’lumotlarni o‘zlashtirishiga yordam beradi.

Adabiyot darslarida faqat og‘zaki va matnli ifoda emas, balki vizual, eshituv va kinestetik usullarni ham birlashtirish muhimdir. Grafik organayzerlar bu borada multimodal qabulni tashkil etadi.

Grafik ishlovlar orqali o‘quvchi faqat ma’lumotni eslab qolmaydi, balki uni tahlil qiladi, shaxsiy fikr bildiradi, tushunishni chuqurlashtiradi. Masalan, Fitratning bir asaridagi tarixiy kontekstni taymlayn yordamida aniqlab, uni hozirgi holat bilan taqqoslash imkoniyati yaratiladi.

Grafik organayzerlar bu modelda yuqori darajadagi ko‘nikmalar — tahlil qilish, baholash, yaratish bosqichlariga olib chiqadi.

Adabiyot darslari uchun mos grafik organayzer turlari

Quyidagi organayzerlar adabiy materiallarni o‘rganish uchun eng mos va samarali hisoblanadi:

Grafik organayzer	Tavsifi	Adabiyotda qo‘llanilishi
Klaster	Markaziy tushunchani tarmoqlarga ajratadi	Asar mavzusi, obrazlar xarakteristikasi
Venn diagrammasi	Ikki yoki undan ortiq elementlar o‘xshash va farqli jihatlarini taqqoslaydi	Fitrat va Furqat asarlaridagi umumiy g‘oyalar
Konsept xarita	G‘oyalar orasidagi mantiqiy bog‘lanishni aks ettiradi	Badiiy tafakkur tuzilmasi
T-diagramma	Qarama-qarshi elementlar solishtiriladi	An’anaviy va yangicha badiiy qarashlar
Taymlayn	Voqealar vaqt bo‘yicha	Mualliflar hayoti, tarixiy

Grafik organayzer	Tavsifi	Adabiyotda qo‘llanilishi
	ketma-ket joylashtiriladi	kontekst
Fishbone (sabablilik sxemasi)	Muammo va uni yuzaga keltiruvchi sabablarni ko‘rsatadi	Konfliktli vaziyatlar tahlili

Jadid adabiyotini o‘rganishda nazariy asoslar

Jadid adabiyoti:

O‘quvchilar tafakkurini faollashtiruvchi;

Ma’naviy-axloqiy tarbiya beruvchi;

Tanqidiy fikrlashga undovchi;

xususiyatlarga ega. Fitrat, Furqat, Avloniy kabi adiblar asarlarida modernlik, xalqparvarlik, ilm-ma’rifat, ayol erkinligi kabi g‘oyalar mavjud. Ularni grafik tarzda ochish, o‘quvchi ongiga yaqqolroq yetib boradi.

Masalan, Furqat she’ridagi “dardmand xalq” obrazini klaster orqali tahlil qilish o‘quvchilarga ijtimoiy befarqlikni anglashga yordam beradi. Fitratning “Hind ixtilochi” dramasida xalq va mustamlaka kuchlar qarama-qarshiligi Fishbone diagrammasi orqali ochib berilishi mumkin.

Nazariy-metodik jihatdan tavsiyalar

Grafik organayzerlar o‘quvchi bilim darajasiga mos ravishda bosqichma-bosqich tatbiq etilishi kerak;

Ular nafaqat dars jarayonida, balki mustaqil ishlarda ham qo‘llanilishi lozim;

Har bir darsda 1-2 xil organayzer tanlanib, bosqichli fikrlash o‘rgatiladi;

O‘qituvchilar uchun grafik organayzerlar qo‘llanmasi ishlab chiqilishi foydalidir.

Xulosa. Grafik organayzerlar yordamida adabiyot o‘qitish nafaqat dars jarayonini jonlantiradi, balki o‘quvchilarning tafakkur darajasini faollashtirish, adabiy-estetik dunyoqarashini kengaytirish, shaxsiy fikr shakllantirishga xizmat qiladi. Bu vositalarning nazariy asoslari konstruktiv yondashuvlar, kognitiv psixologiya, multimodal ta’lim va zamonaviy metodika bilan bog‘liqdir. Ayniqsa, jadid adabiyotini o‘rganishda grafik organayzerlar o‘quvchi bilan matn o‘rtasidagi samarali aloqa vositasi bo‘lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Abduazimov Sobirjon Utkirovich. *Jadidlarning O‘zbekiston ilm-ma’rifatiga ta’siri*. PEDAGOGS, 50(1), 114–116. (2024)
2. T/TAC, William & Mary. *Graphic Organizers: Guiding Principles and Effective Practices*
3. https://ir-api.ua.edu/api/core/bitstreams/607684b2-0926-47f1-88dc-6bcc1f5f3495/content?utm_source=chatgpt.com

MULTIMEDIA VOSITALARI ASOSIDA TA’LIM JARAYONINI RAQAMLASHTIRISH
ЦИФРОВИЗАЦИЯ ОБРАЗОВАТЕЛЬНОГО ПРОЦЕССА НА ОСНОВЕ МУЛЬТИМЕДИЙНЫХ СРЕДСТВ
DIGITALIZATION OF THE EDUCATIONAL PROCESS THROUGH MULTIMEDIA TOOLS

Raximova Dilfuza Abduraxmonovna
Andijon davlat pedagogika instituti o’qituvchisi
rdilfuza457@gmail.com

Annotatsiya. Hozirgi kunda ta’lim samaradorligini oshirish, talabalarning mustaqil ta’lim olish ko‘nikmalarini shakllantirish, shuningdek, o‘qituvchi va talaba o‘rtasida interaktiv hamkorlikni kuchaytirish raqamli texnologiyalarsiz tasavvur qilib bo‘lmaydi [1,132]. Shu nuqtai nazardan, multimedia vositalarini ta’lim jarayoniga joriy etish bugungi pedagogikaning eng dolzarb vazifalaridan biri sifatida baholanadi. Tadqiqot natijalari multimedia vositalari asosida yaratilgan elektron darsliklar, ta’limiy dasturlar va virtual laboratoriyalar dars sifati va talabalarning bilim olish jarayonida faolligini oshirishga samarali ta’sir ko‘rsatishini ko‘rsatadi. Shuningdek, raqamlashtirilgan ta’lim muhiti talabalarda mustaqil fikrlash, ijodkorlik, tanqidiy tahlil kabi zamonaviy ko‘nikmalarni rivojlantirishga yordam beradi. Maqolada muallif tomonidan ta’limni raqamlashtirish jarayonida multimedia vositalaridan samarali foydalanish bo‘yicha amaliy takliflar ham ilgari surilgan. Jumladan, interaktiv platformalar va virtual ta’lim muhiti orqali talabalarning bilim darajasini muntazam nazorat qilish, o‘quv materiallarini turli formatlarda taqdim etish va ulardan individual hamda guruhli ishlarda keng foydalanish zarurligi ta’kidlangan. Multimedia vositalari asosida ta’lim jarayonini raqamlashtirish ta’lim sifatini oshirishning muhim omili bo‘lib, mazkur yo‘nalishda olib borilgan ilmiy izlanishlar nafaqat nazariy, balki amaliy jihatdan ham ta’lim tizimiga sezilarli hissa qo‘shishi qayd etilgan.
Tayanch so‘zlar: ta’lim, multimedia, vositalari, jarayon, raqamlashtirish, talaba, o‘qituvchi, resurs
Аннотация. В настоящее время повышение эффективности образования, формирование у студентов навыков самостоятельного обучения, а также укрепление интерактивного сотрудничества между преподавателем и студентом невозможно представить без цифровых технологий. С этой точки зрения внедрение мультимедийных средств в образовательный процесс рассматривается как одна из самых актуальных задач современной педагогики.

Результаты исследования показывают, что электронные учебники, образовательные программы и виртуальные лаборатории, созданные на основе мультимедийных средств, оказывают эффективное влияние на повышение качества занятий и активность студентов в процессе обучения.

Кроме того, цифровая образовательная среда способствует развитию у студентов современных навыков, таких как самостоятельное мышление, креативность и критический анализ.

В статье автором выдвинуты практические предложения по эффективному использованию мультимедийных средств в процессе цифровизации образования. В частности, подчеркивается необходимость регулярного контроля уровня знаний студентов через интерактивные платформы и виртуальную образовательную среду, представления учебных материалов в различных форматах, а также их широкого применения в индивидуальной и групповой работе.

Цифровизация образовательного процесса на основе мультимедиа является важным фактором повышения качества образования, и проведенные научные исследования в данном направлении вносят значительный вклад не только в теорию, но и в практику образовательной системы.

Ключевые слова: образование, мультимедиа, средства, процесс, цифровизация, студент, преподаватель, ресурс

Abstract. At present, improving the efficiency of education, developing students’ independent learning skills, and strengthening interactive collaboration between teachers and students cannot be imagined without digital technologies. From this perspective, the integration of multimedia tools into the educational process is regarded as one of the most urgent tasks of modern pedagogy.

The research results demonstrate that electronic textbooks, educational software, and virtual laboratories created on the basis of multimedia tools effectively enhance lesson quality and increase students’ engagement in the learning process. Moreover, the digital learning environment helps students develop essential modern skills such as independent thinking, creativity, and critical analysis.

In the article, the author also puts forward practical recommendations for the effective use of multimedia tools in the process of digitalizing education. In particular, it emphasizes the importance of regularly monitoring students’ knowledge through interactive platforms and virtual learning environments, presenting educational materials in different formats, and widely applying them in both individual and group work.

Digitalizing the educational process through multimedia is considered a key factor in improving the quality of education, and the scientific research carried out in this area makes a significant contribution not only to theory but also to the practice of the educational system.

Key words: education, multimedia, tools, process, digitalization, student, teacher, resource.

Kirish. So‘nggi yillarda butun dunyoda ta’lim tizimida tub o‘zgarishlar yuz bermoqda. Axborot texnologiyalari, internet va raqamli vositalarning tezkor rivojlanishi natijasida ta’lim jarayoni ham an’anaviy shakldan zamonaviy interaktiv va multimediali shaklga o‘tmoqda. Zamonaviy sharoitda ta’lim jarayonini samarali tashkil etish, talabalarning mustaqil fikrlashi, kreativ

yondashuvini shakllantirish hamda bilim olish jarayonini qiziqarli va tushunarli qilish uchun raqamli texnologiyalardan foydalanish zarur.

Shu nuqtayi nazardan, multimedia vositalari asosida ta’lim jarayonini raqamlashtirish dolzarb masala bo‘lib qolmoqda. Multimedia vositalari deganda faqatgina matnli ma’lumot emas, balki rasm, ovoz, animatsiya, video, grafikalar va interaktiv elementlarni o‘z ichiga oluvchi majmua tushuniladi. Ularning o‘quv jarayoniga tatbiqi talabalarning mavzuni chuqurroq anglashiga, murakkab tushunchalarni oddiyroq misollar orqali o‘zlashtirishiga, ta’limni yanada samarali qilishga yordam beradi. Raqamlashtirish esa bu vositalarni yagona tizimda birlashtirish, ta’lim resurslarini elektron shaklda yaratish, saqlash, ulashish va ulardan masofadan turib foydalanish imkonini beradi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev tomonidan ilgari surilgan “Raqamli O‘zbekiston – 2030” strategiyasi ham ta’lim sohasini to‘liq raqamlashtirish, o‘quv jarayonini yangi bosqichga ko‘tarish va yoshlarni zamonaviy bilimlar bilan qurollantirishni maqsad qilgan. Bu jarayonda multimedia vositalari asosida darslarni tashkil etish muhim ahamiyat kasb etadi, chunki bunday vositalar yordamida bilim olish jarayoni nafaqat samarali, balki qiziqarli va interaktiv tus oladi[2,85].

Multimedia asosida yaratilgan dars materiallari talabalarda yuqori motivatsiya uyg‘otadi, ularning mustaqil ishlash ko‘nikmalarini rivojlantiradi, vaqt va resurslarni tejash imkonini beradi[3,35]. Masalan, video darsliklar yoki virtual laboratoriyalar yordamida murakkab tajribalarni xavfsiz sharoitda bajarish mumkin bo‘ladi. Bundan tashqari, raqamli ta’lim muhitida har bir talaba o‘z qobiliyatiga qarab individual tarzda bilim olishi, o‘qituvchi esa jarayonni kuzatib borishi va natijalarni tezkor tahlil qilishi mumkin.

Multimedia vositalari – bu axborotni bir vaqtning o‘zida bir nechta shaklda, ya’ni matn, rasm, ovoz, animatsiya, video va interaktiv elementlar orqali taqdim etishga imkon beradigan kompleks texnologiyalar majmuasidir. Oddiy qilib aytganda, multimedia – bu turli xil axborot ko‘rinishlarini birlashtirib, talaba yoki foydalanuvchiga yanada boy va tushunarli ta’limiy muhit yaratishdir. Agar an’anaviy ta’limda dars jarayoni asosan kitob va o‘qituvchi nutqi orqali olib borilsa, multimedia vositalari yordamida talaba mavzuni nafaqat o‘qib yoki tinglab, balki ko‘rib, tahlil qilib va interaktiv tarzda ishtirok etib o‘zlashtiradi. Multimedia vositalarining eng muhim jihati – ular ta’lim jarayonini individuallashtirish imkonini beradi. Har bir talaba o‘z qiziqishi va tayyorgarlik darajasiga ko‘ra, o‘ziga mos materialni tanlaydi, mavzuni qayta ko‘rish yoki o‘z tempida o‘rganish imkoniga ega bo‘ladi. Bu an’anaviy ta’lim usullarida deyarli imkonsiz bo‘lgan yondashuvdir.

Ta’lim jarayonini raqamlashtirishning zarurati raqamlashtirish ta’limni yangi bosqichga olib chiqadi. An’anaviy dars shakllarida o‘qituvchi asosiy bilim manbai bo‘lsa, raqamlashtirilgan ta’lim jarayonida bilim manbalari kengayadi: elektron darsliklar, onlayn platformalar, video-ma’ruzalar, virtual laboratoriyalar va sun’iy intellekt asosidagi yordamchi dasturlar. Ta’lim jarayonini raqamlashtirishda multimedia vositalarining quyidagi turlaridan keng foydalaniladi[4,48]:

1. Matnli va grafik materiallar – elektron darsliklar, o‘quv qo‘llanmalar, interaktiv PDF va ePub hujjatlar.
2. Audio va video resurslar – video-ma’ruzalar, audiokitoblar, podkastlar.
3. Prezentatsiya vositalari – PowerPoint, Prezi, Google Slides orqali tayyorlangan ma’ruzalar.
4. Interaktiv dasturlar – CourseLab, Adobe Captivate, Articulate Storyline, Camtasia Studio.
5. Virtual va kengaytirilgan reallik – 3D modellar, VR laboratoriyalar, AR ilovalar.
6. Onlayn platformalar – Moodle, Google Classroom, Edmodo, Microsoft Teams.
7. Simulyatsiya va o‘yin texnologiyalari – gamifikatsiya asosida yaratilgan o‘quv dasturlari[5,120].

Ta’limni raqamlashtirish jarayonida qator muammolar mavjud:

- Texnik infratuzilmaning yetarli emasligi;
- Internet tezligi va qamrovi bilan bog‘liq muammolar;
- O‘qituvchilarning raqamli kompetensiyasi pastligi;
- Multimedia vositalarini yaratish va qo‘llash bo‘yicha metodik ko‘nikmalarning sustligi;
- Talabalarda ortiqcha ko‘rish yoki eshitish yuklamasining paydo bo‘lishi.

Bu muammolarni bartaraf etish uchun:

- O‘qituvchilar uchun maxsus raqamli pedagogika kurslarini tashkil etish;
- Ta’lim muassasalarini zamonaviy kompyuterlar, planshetlar va interaktiv doskalar bilan jihozlash;
- Hududlarda internet infratuzilmasini yaxshilash;
- Milliy ta’lim platformalarini yaratish va rivojlantirish;
- Multimedia kontentini yaratishda didaktik va psixologik talablarni hisobga olish zarur.

Materiallar va uslublar. Mazkur tadqiqotda ta’lim jarayonini raqamlashtirishda qo‘llaniladigan multimedia vositalari, ularning texnik hamda dasturiy ta’minoti, shuningdek, metodik yondashuvlar tahlil qilindi. Materiallar sifatida quyidagi resurslar va texnologiyalar tanlandi:
1. Texnik vositalar – kompyuter, planshet, interaktiv doska, proyektor, smartfon kabi raqamli qurilmalar, shuningdek, tezkor internet tarmog‘i va bulutli saqlash xizmatlari.
2. Dasturiy platformalar – Moodle, Google Classroom, Microsoft Teams kabi masofaviy ta’lim tizimlari, shuningdek, Camtasia Studio, CourseLab, PowerPoint, Adobe Animate va boshqa multimediali darslik yaratish vositalari[6,400].
3. O‘quv resurslari – raqamli darsliklar, elektron kutubxonalar, video-ma’ruzalar, podkastlar, interaktiv test va topshiriqlar, 3D-modellar hamda animatsiyalar.
4. Multimedia vositalari – audio, video, grafika, animatsiya va gipermatn texnologiyalari asosida yaratilgan o‘quv materiallari.

Uslublar esa quyidagi metodik yondashuvlarga asoslandi:

- Tahliliy yondashuv – multimedia vositalarining ta’lim samaradorligiga ta’sirini o‘rganish, mavjud adabiyotlar, tajribalar va ilg‘or amaliyotlarni tahlil qilish orqali asosiy xulosalar chiqarildi.
- Tajriba-sinov usuli – multimedia asosida ishlab chiqilgan dars materiallarini kichik guruh talabalarda sinovdan o‘tkazib, natijalar monitoring qilindi.
- Qiyosiy tahlil – an’anaviy dars jarayoni bilan multimedia asosidagi raqamli darslarni samaradorlik, qiziqish darajasi va o‘zlashtirish ko‘rsatkichlari jihatidan solishtirish.
- Statistik usullar – tajriba jarayonida yig‘ilgan ma’lumotlarni qayta ishlash, talabalarning o‘zlashtirish darajasi, faol ishtiroki va mustaqil ishlash ko‘rsatkichlarini foizlarda aniqlash.

Pedagogik kuzatuv – ta’lim jarayonida multimedia vositalaridan foydalanish samaradorligini o‘qituvchi va talaba nuqtayi nazaridan kuzatish, ularning fikr-mulohazalarini yig‘ish.

Natijalar va muhokamalar. O‘tkazilgan tahlil va tajriba natijalari multimedia vositalaridan foydalanish ta’lim jarayonida sezilarli ijobiy natijalar berishini ko‘rsatdi. Jumladan, multimedia asosidagi darslarda:

1. Talabalarning faolligi – an’anaviy darslarga nisbatan 25–30% ga oshgani kuzatildi. Talabalar taqdim etilgan animatsiyalar, interaktiv testlar va videoroliklar orqali dars jarayoniga faolroq jalb etildi.
2. O‘zlashtirish darajasi – multimedia materiallari yordamida talabalarning bilimni eslab qolish va mustahkamlash ko‘rsatkichlari yuqori bo‘ldi. Qiyosiy tahlil natijalariga ko‘ra, multimedia vositalaridan foydalangan guruhda talabalarning o‘rtacha baholari 15–20% yuqori bo‘ldi.
3. Mustaqil ta’lim ko‘nikmalari – elektron resurslardan foydalanish, qo‘shimcha manbalar bilan ishlash va topshiriqlarni mustaqil bajarish ko‘nikmalari rivojlandi. Bu esa talabalarda o‘z-o‘zini nazorat qilish, izlanish va mustaqil fikrlash madaniyatini shakllantirdi.
4. Motivatsiya va qiziqish – multimedia asosida tayyorlangan darslar talabalarda qiziqish uyg‘otdi, murakkab mavzularni osonroq tushunishga yordam berdi. Ayniqsa, matematik formulalar, biologik jarayonlar va tarixiy voqealarni 3D animatsiya orqali ko‘rsatish samarador bo‘ldi.
5. O‘qituvchi faoliyati – multimedia vositalaridan foydalanish o‘qituvchilarga darsni samarali tashkil etish, vaqtni tejash va bilimlarni vizual hamda interaktiv shaklda yetkazish imkonini berdi. Shu bilan birga, o‘qituvchidan doimiy tayyorgarlik va raqamli ko‘nikmalarni oshirish talab etildi[7,320].

Muhokamalar shuni ko‘rsatdiki, ta’lim jarayonini raqamlashtirishda multimedia vositalarining roli juda muhimdir. Ular nafaqat bilimni yetkazish samaradorligini oshiradi, balki talabalarning ijodkorlik, tanqidiy fikrlash va muloqot ko‘nikmalarini rivojlantiradi[8,140]. Biroq, multimedia vositalarini joriy qilish jarayonida bir qator muammolar ham kuzatildi:

- texnik vositalar yetishmasligi yoki ularning eskiligi;

- internet tezligining pastligi;
- ayrim o‘qituvchilarning raqamli kompetensiyalari yetarli emasligi;
- multimedia materiallarini ishlab chiqish uchun vaqt va mehnat talab etilishi.

Shunday bo‘lsada, multimedia vositalaridan samarali foydalanish ta’lim jarayonini zamonaviylashtirish, uning sifatini oshirish va raqamli ta’lim muhitini shakllantirishda muhim omil bo‘lib xizmat qiladi.

Xulosa

Multimedia vositalari asosida ta’lim jarayonini raqamlashtirish zamonaviy ta’lim tizimining eng muhim yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Bu jarayon nafaqat dars samaradorligini oshirish, balki talabalarda mustaqil fikrlash, ijodkorlik, tanqidiy yondashuv va raqamli kompetensiyalarni shakllantirishga xizmat qiladi. Ta’lim jarayoniga multimedia vositalarini tatbiq etish orqali talabalarda mustaqil ishlash, qo‘shimcha manbalarni izlab topish, ularni tahlil qilish va o‘z bilimlarini amaliyotda qo‘llash ko‘nikmalari rivojlanadi. Shu bilan birga, o‘quv jarayoni yanada qiziqarli, interaktiv va samarali tus oladi.

Raqamlashtirish jarayoni ta’lim tizimini global standartlarga moslashtiradi, ilg‘or xorijiy tajribalarni milliy ta’lim amaliyotiga integratsiya qilish imkonini beradi hamda xalqaro miqyosda raqobatbardosh kadrlarni tayyorlash uchun mustahkam poydevor yaratadi. Multimedia vositalari yordamida o‘quvchilar o‘z qiziqishi va bilim darajasiga qarab individual yondashuv asosida ta’lim olish imkoniyatiga ega bo‘ladilar. Bu esa ta’limda shaxsga yo‘naltirilgan yondashuvni kuchaytiradi va o‘quvchilarning bilimlarni o‘zlashtirishdagi samaradorligini oshiradi.

Demak, multimedia vositalari ta’lim tizimini raqamlashtirishning ajralmas bo‘g‘ini bo‘lib, uning istiqbolda yanada takomillashishi uchun mustahkam asos yaratadi. Ular ta’lim sifatini oshirish, innovatsion metodlarni keng joriy etish, talaba va o‘qituvchi o‘rtasida samarali hamkorlikni rivojlantirishda hal qiluvchi omil hisoblanadi. Umuman olganda, multimedia vositalarini samarali qo‘llash nafaqat ta’lim tizimini raqamli muhitga moslashtiradi, balki kelajakda xalqaro talablarga javob beruvchi yangi avlod bilimli, malakali va raqamli kompetensiyalarga ega kadrlarni tayyorlashga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Mirziyoyev Sh.M. “Raqamli O‘zbekiston – 2030” strategiyasi. – Toshkent, 2020. – 85 b.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PF–60-son Farmoni. “2022–2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”. – Toshkent, 2022-yil 28-yanvar. – 48 b.
3. Xolmatova N., Jo‘rayev A. Multimedia texnologiyalari ta’lim jarayonida. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2021. – 156 b.
4. Qodirov B. Raqamli ta’lim resurslari va ularning samaradorligi. – Toshkent: Ilm Ziyo, 2022. – 120 b.
5. Abdullayeva M. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining ta’lim jarayonidagi roli. – Toshkent: O‘qituvchi, 2021. – 132 b.

6. Raxmonov D. Pedagogik innovatsiyalar va raqamli ta’lim. – Toshkent: Fan va taraqqiyot, 2023. – 140 b.
7. Mayer R.E. Multimedia Learning. – New York: Cambridge University Press, 2009. – 320 p.
8. Bates T. Teaching in a Digital Age: Guidelines for Designing Teaching and Learning. – Vancouver: Tony Bates Associates Ltd., 2019. – 400 p.

TALABALARNING KOMMUNIKATIV KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISHNING INNOVATSION YONDASHUVLARI

Imomova Nigora Paziljonovna

Toshkent irrigatsiya va qishloq xo‘jaligini

mexanizatsiyalash muhandislari instituti 1-bosqich doktoranti

Annotatsiya: Ushbu maqolada oliy ta’lim muassasalarida talabalarning kommunikativ kompetentligini rivojlantirishda innovatsion yondashuvlarni qo‘llash tahlil qilingan. Zamonaviy innovatsion texnologiyalar yordamida talaba va o‘qituvchi o‘rtasidagi muloqotni yangi bosqichga olib chiqish imkoniyatlari o‘rganilgan.

Kalit so‘zlar: kommunikativ kompetensiya, innovatsion yondashuv, texnologiya, interaktiv metodlar, lingvistik rivojlanish.

Kirish

Bugungi zamonaviy jamiyatda kommunikativ kompetensiya muhim omil hisoblanadi, chunki axborot va kommunikatsiya texnologiyalari jadal rivojlanmoqda va muvaffaqiyatli professional faoliyat uchun zarur bo‘lgan asosiy ko‘nikmalarning poydevorini tashkil etmoqda. Ayniqsa, oliy ta’limda kommunikativ ko‘nikmalar talabalarning o‘quv jarayonida juda muhim ahamiyatga ega. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. M. Mirziyoyev yoshlarni sifatli ta’lim bilan ta’minlash va ularning qobiliyatlarini rivojlantirish zarurligini ta’kidlab, ta’limda kommunikativ ko‘nikmalarni rivojlantirishga alohida e’tibor qaratgan.

Tadqiqotning dolzarbligi

Bugungi kunda texnik oliy ta’lim muassasalarida talabalarning kommunikativ kompetensiyasini oshirish muhim masalaga aylandi. Texnologiyalar va raqamli vositalarning rivojlanishi nafaqat texnik bilimlarni, balki kommunikativ ko‘nikmalarni ham talab qiladi. Bundan tashqari, xalqaro

mehnat bozorining raqobatbardosh talablariga moslashish, jamiyatda o‘zaro tushunish va bag‘rikenglikni rivojlantirish ham muhim ahamiyatga ega.

Tadqiqotning maqsadi

Ushbu maqolaning asosiy maqsadi texnik oliy ta’lim muassasalarida talabalarning kommunikativ kompetensiyasini rivojlantirishga qaratilgan innovatsion yondashuvni ishlab chiqishdir. Mazkur yondashuv texnologiya va interaktiv metodlar yordamida talaba va o‘qituvchi o‘rtasidagi muloqotni yangi darajaga olib chiqib, talabalarning muvaffaqiyatli professional faoliyatga tayyorgarligini oshirishga xizmat qiladi.

Tadqiqotning asosiy vazifalari

1. Kommunikativ kompetensiyani rivojlantirishga qaratilgan mavjud tadqiqotlar va usullarni tahlil qilish.
2. An’anaviy ta’limning kamchiliklarini aniqlab, yangi usullar bilan ularni to‘ldirish.
3. Interaktiv faoliyat va texnologiyalarga asoslangan innovatsion yondashuvlarni ishlab chiqish.
4. Kommunikativ kompetensiyani baholash uchun usul va mezonlarni ishlab chiqish.

Innovatsion texnologiyalardan foydalanish

Innovatsion texnologiyalar talaba va o‘qituvchi o‘rtasidagi kommunikativ aloqalarni yaxshilashda muhim o‘rin tutadi. Moodle va Google Classroom kabi onlayn platformalar yordamida ta’lim materiallarini taqdim etish va baholash tizimlarini joriy qilish mumkin. Virtual munozaralar, simulyatsiyalar va videokonferensiyalar orqali talabalar texnik hamda ijtimoiy kommunikatsiya ko‘nikmalarini rivojlantirish imkoniyatiga ega bo‘ladi.

Kommunikativ ko‘nikmalarni shakllantirish metodikasi

Innovatsion yondashuv asosida kommunikativ kompetensiyani rivojlantirish usullari talabalarning til ko‘nikmalarini yaxshilash va samarali muloqot qilishga xizmat qiladi. Interaktiv faoliyatlarni qo‘llash, texnologiyalardan foydalanish va maqsadli tahlillar yordamida ta’lim jarayonini samarali va qiziqarli qilish mumkin.

Interaktiv ta’lim metodlari

Guruhli ishlar, rolli o‘yinlar, bahs-munozaralar va ochiq muhokamalar talabalarning kommunikativ ko‘nikmalarini rivojlantirishda samarali hisoblanadi. Bunday faoliyatlar nafaqat muloqot ko‘nikmalarini, balki mustaqil fikrlash va o‘zaro tushunishni ham rivojlantiradi.

Kommunikativ kompetensiyani baholash

Portfellar, loyiha ishlari va onlayn testlar innovatsion yondashuvning muhim qismidir. Talabalarning muloqot ko‘nikmalarini amaliy loyihalar orqali baholash ularning real vaziyatlardagi kommunikativ imkoniyatlarini sinab ko‘rishga imkon beradi.

Xulosa

Talabalarning kommunikativ kompetensiyasini innovatsion yondashuvlar asosida rivojlantirish samarali ta’lim jarayonini ta’minlashda va ularni muvaffaqiyatli professional faoliyatga tayyorlashda muhim ahamiyatga ega. Texnologiyalarni qo‘llash, interaktiv metodlardan foydalanish va amaliy loyihalarda ishtirok etish orqali talabalar o‘z texnik bilimlari bilan birga kommunikativ ko‘nikmalarini ham mustahkamlaydilar.

Tavsiyalar:

1. Innovatsion yondashuvlarni oliy ta’lim muassasalari ta’lim jarayoniga integratsiya qilish.
2. Talabalar ehtiyojlariga moslashtirilgan ta’lim tizimini yaratish.

ADABIYOTLAR:

1. **"Innovatsion Pedagogik Texnologiyalar"** - Abdullayev A., Tashkent, 2021. Ushbu kitobda innovatsion ta’lim texnologiyalari, ularning qo‘llanilishi va ta’lim jarayonini modernizatsiya qilish usullari yoritilgan.
2. **"Pedagogik innovatsiyalar"** - Qosimov N., Toshkent: Fan nashriyoti, 2019. Ushbu asarda pedagogik innovatsiyalarning nazariy va amaliy asoslari bayon etilgan.
3. **"O'qituvchi nutq madaniyati va kommunikativ ko'nikmalar"** - Tashkent: O'qituvchi, 2020. Ushbu asar o‘qituvchilarning kommunikativ kompetensiyasini rivojlantirishga bag‘ishlangan.
4. **"Ta’limda kommunikativ metod va texnologiyalar"** - Mahkamov R., Tashkent, 2019. Kitobda kommunikativ yondashuv va texnologiyalar yordamida o‘qitish usullari batafsil tahlil qilingan.
5. **"Ta’limdagi kommunikativ kompetensiyani shakllantirish"** - Xayrullayeva N., Tashkent: Ilm ziyo nashriyoti, 2021. Talabalar orasida kommunikativ ko‘nikmalarni shakllantirish uchun samarali innovatsion usullardan foydalanish ko‘rib chiqiladi.
6. **Hymes, D. (1972). "On Communicative Competence"** - In "Sociolinguistics", Penguin Books. Bu kitob kommunikativ

kompetensiya tushunchasining asosiy tamoyillarini o‘rganish uchun tavsiya etiladi.

7. **Richards, J. C., & Rodgers, T. S. (2014). "Approaches and Methods in Language Teaching"** - Cambridge University Press. Innovatsion yondashuv va kommunikativ metodologiyalarning chet tilini o‘rgatishdagi ahamiyatini batafsil yoritadi

8. KARIMOV, Muhammadrahim. "TA’LIM VA TARBIYADA OILA OMILI." *News of UzMU journal* 1.1.3 (2024): 121-124.

MILLIY UYG‘ONISH ADABIYOTI VA TARBIYA. “YURT” JURNALIDA CHOP ETILGAN “ISTIQBOLDA BIZNING HAYOT” NOMLI MAQOLANING PEDAGOGIK TALQINI

Javharova Nilufar Odiljon qizi,
Qo‘qon universiteti.
99 468-33-57
Javharovanilufar0@gmail.com

Annotatsiya. Mazkur maqolada yangi zamon o‘zbek madaniyatining Qo‘qondagi asoschilaridan biri, o‘zbek milliy pedagogikasi, adabiyotshunosligi, noshirligi, shuningdek, publitsistikasi taraqqiysida ham katta xizmatlar qilgan jadidchilik harakati namoyondalaridan biri – Ashurali Zohiriy tomonidan 1917-yilda tashkil qilingan “Yurt” jurnalining 3-sonida nashr qilingan, muallim Shokir al-Muxtoriy taxallusi bilan faoliyat olib borgan jadid bobomizning “Istiqbolda bizning hayot” nomli maqolasining tabdili (maqola joriy alifbomizga birinchi marta tabdil qilindi) keltirilgan. Shuningdek, ushbu maqolaning bugungi kundagi ahamiyati, milliy ongni tarbiyalash, fuqarolik madaniyatini shakllantirish, ta’lim jarayonlaridagi o‘rni tahlil qilingan. Muallifning tanqidiy qarashlari nafaqat adabiy, balki pedagogik nuqtayi nazardan ham o‘rganilib, yosh avlod tarbiyasidagi o‘rni yoritiladi. Asardagi ramziy obrazlarning didaktik qiymati, ijtimoiy mas’uliyatni shakllantirishdagi ahamiyati ham tahlil etiladi.

Kalit so‘zlar: milliy uyg‘onish, pedagogika, tarbiya, ma’rifat, mas’uliyat, ramziy obraz.

Abstract. This article presents the transliteration (for the first time into the modern Uzbek alphabet) of the article *“Our Future Life”*, originally published in the third issue of the journal *"Yurt"*, founded in 1917 by Ashurali Zohiriy — one of the key figures of the Jadid movement who played a significant role in the development of modern Uzbek culture, national pedagogy, literary criticism, publishing, and journalism. The article was written under the pen name “Muallim Shokir al-Muxtoriy,” a respected educator and intellectual of his time. The present study explores the contemporary relevance of this historical text, particularly its contribution to shaping national consciousness, fostering civic culture, and its significance in educational contexts. The author’s critical perspectives are analyzed not only from a literary, but also from a pedagogical

standpoint, highlighting their impact on youth education. The symbolic imagery used in the article is examined for its didactic value and its role in cultivating social responsibility.

Keywords: national awakening, pedagogy, education, enlightenment, responsibility, symbolic imagery.

Аннотация. В данной статье представлен перевод (впервые на современный узбекский алфавит) статьи под названием *«Будущая жизнь наша»*, опубликованной в третьем номере журнала *«Юрт»*, основанного в 1917 году одним из видных представителей джадидского движения — Ашурали Зохирий, который внес значительный вклад в развитие новой узбекской культуры, национальной педагогики, литературоведения, издательского дела и публицистики. Автором статьи, действовавшим под литературным псевдонимом Муллим Шокир ал-Мухторий, является один из уважаемых джадидов своего времени. В статье также рассматривается актуальность произведения в современных условиях: его роль в формировании национального самосознания, гражданской культуры, а также значение в образовательных процессах. Критические взгляды автора проанализированы не только с литературной, но и с педагогической точки зрения, с акцентом на воспитание молодого поколения. Также раскрывается дидактическое значение символических образов в произведении и их роль в формировании социальной ответственности.

Ключевые слова: национальное возрождение, педагогика, воспитание, просвещение, ответственность, символический образ.

Kirish

Milliy uyg‘onish adabiyoti o‘zbek madaniy-ma’naviy taraqqiyotining muhim bosqichlaridan biri bo‘lib, u jamiyat hayotida tub o‘zgarishlarga yo‘l ochgan, xalq ongini uyg‘otgan, millat ruhiyatini yuksaltirishda asosiy o‘rin tutgan adabiy harakat sifatida tarixda alohida o‘rin egallaydi. Bu davr adabiyoti o‘zining kuchli ma’rifiy yo‘nalishi, ijtimoiy faolligi va tarbiyaviy ahamiyati bilan ajralib turadi. XX asr boshlarida shakllangan bu adabiy maktab vakillari – Mahmudxo‘ja Behbudiy, Abdurauf Fitrat, Abdulla Avloniy, Munavvarqori Abdurashidxonov, Cho‘lpon va boshqa ziyolilar – adabiyotni xalqni ogohlikka, ilm-ma’rifatga, milliy o‘zlikni anglashga yetaklovchi vosita sifatida ko‘rdilar.

Ularning ijodida ma’rifatparvarlik, insonparvarlik, vatanparvarlik va axloqiy poklik g‘oyalari ustuvor o‘rin tutadi. Ayniqsa, tarbiya masalasi, yosh avlodni ilmli, madaniyatli, millatga sadoqatli qilib voyaga yetkazish masalasi adabiyot orqali keng yoritilgan. Bu asarlar faqat badiiy san’at namunasi sifatida emas, balki o‘quvchi qalbiga ta’sir o‘tkazuvchi, uni o‘zgartiruvchi, ijtimoiy ongni shakllantiruvchi kuch sifatida ham katta ahamiyatga ega. Milliy uyg‘onish davri yozuvchilari adabiyotni xalqning ruhiy va ma’naviy uyg‘onishiga xizmat qiluvchi eng kuchli tarbiyaviy vosita deb bilganlar.

Shu nuqtai nazardan qaralganda, mazkur maqolada Milliy uyg‘onish davri adabiyotining tarbiyaviy funksiyasi, yozuvchilarning pedagogik qarashlari va bu asarlarning o‘quvchiga ruhiy-ma’naviy ta’siri o‘rganiladi. Tarbiya

tushunchasining adabiy kontekstdagi talqini, adabiyot orqali shakllantirilgan axloqiy-ahlokiy qadriyatlar tahlil qilinadi va ularning bugungi kunda ham dolzarbligi yoritib beriladi.

Adabiyotlar tahlili

Ashurali Zohiriy tomonidan 1917-yilda tashkil qilingan “Yurt” jurnalining 3-sonida nashr qilingan, Muallim Shokir al-Muxtoriy taxallusi bilan faoliyat olib borgan jadid bobomizning “Istiqbolda bizning hayot” nomli maqolasining tabdili (maqola joriy alifbomizga birinchi marta tabdil qilindi)ning keltirlishi va uning tahlil qilinishi jadidchilik davridagi pedagogika haqida yanada kengroq ma’lumotlarga ega bo‘lishimizga yordam beradi.[110]

1917 yilda uning noshirligi va muharrirligi ostida “Yurt” nomi siyosiy, ijtimoiy, tarixiy, adabiy haftalik jurnal ta’sis etiladi va uning 4 ta soni o‘qug‘uvchilarga yetib kelgan (“Yurt” jurnalining 1 va 4-sonlari Qo‘qon adabiyot muzeyi fondida saqlanmoqda. Jurnal eski o‘zbek yozuvida chop etilgan. Joriy alifboga tabdili birinchi marta amalga oshirilib, ayrim parchalar havola etilmoqda). Mazkur jurnal “Yashasin muxtoriyatli xalq jumhuriyati!” shiori ostida chop etilgan.

Jurnalning birinchi sonidan quyidagi maqolalar o‘rin olgan:

1. Maqosid va a’molimiz.
2. Hukumat o‘zgarishi.
3. Milliy va ruhoniy boylig‘imiz.
4. She’r. Chin musulmon bo‘layliq.
5. Iste’molchilar jamiyati.
6. Turkistonga oid.
7. Kichik feleton.
8. Yangi asarlar.[111]

Mazkur jurnalning 3-sonida esa quyidagi maqolalar chop etilgan:

1. Mushohir Turkiston tarjimai hollari: Marg‘inoniy. Sohibi hidoya. Abdullabek.
2. Va’z va voiz. Muallim Shokir al Muxtoriy.
3. Istiqbolda bizning hayot. Mirmuhsin Shermuhammad o‘g‘li.
4. Uchreditelnie sobraniya va unga saylov tartiblari.
5. Ahmad Sardor.
6. Turkistong‘a oid. Xo‘qand.
7. Idoradan javoblar.

Biz tahlil qilgan maqolamiz, “Yurt” jurnalining 3-sonida nashr qilingan, muallim Shokir al-Muxtoriy taxallusi bilan faoliyat olib borgan jadid

[110] “Yurt” jurnali, 1-son. 1917-yil 1-iyun. Qo‘qon adabiyot muzeyi fondi.

[111] “Ашурали Зоҳирий – юрт ва миллат фидойиси” (Maqolalar to‘plami). “Farg‘ona” nashriyoti.2021

bobomizning “Istiqbolda bizning hayot” nomli maqolasi bo‘lib, 1917-yilning 21-iyul sanasida nashr qilingan.[112]

Metodologiya

Ushbu tadqiqotda “Yurt” jurnalining 3-sonida 1917-yil 21-iyulda chop etilgan Muallim Shokir al-Muxtoriy taxallusi bilan yozilgan “Istiqbolda bizning hayot” nomli maqola matni tahlil qilindi. Maqola matni dastlabki eski o‘zbek yozuvidagi asl nusxadan joriy o‘zbek alifbosiga birinchi marta tabdil qilindi. Bu o‘zbek tilining alifbo o‘zgarishlari kontekstida tarixiy manbaning aniq va zamonaviy shaklda o‘rganilishi uchun muhim qadam bo‘ldi.

Tadqiqotda tarixiy-tahliliy usul qo‘llanildi. Maqolaning mazmuni, muallifning pedagogik va ijtimoiy g‘oyalari tarixiy kontekstda o‘rganildi. Shuningdek, maqola jadidchilik davrining pedagogika rivojiga ta’siri va uning harbiy-vatanparvarlik ta’limotidagi o‘rni nazariy jihatdan tahlil qilindi.

Manba sifatida qo‘lga kiritilgan “Yurt” jurnalining 1 va 3-sonlari ham qo‘shimcha kontekst yaratish uchun o‘rganildi, chunki bu sonlar jurnalning maqsad va vazifalarini, umumiy ruhini aks ettiradi. Tadqiqot jarayonida jadidlarning pedagogik ta’limotiga oid zamonaviy ilmiy adabiyotlar bilan taqqoslash yo‘li bilan tahliliy yondashuv amalga oshirildi.

Shu tariqa, metodologiya tadqiqotning tarixiy manbalarni zamonaviy alifboga o‘tkazish, matnni tahlil qilish va pedagogik nazariy kontekstda o‘rganishdan iborat bo‘ldi. Bu yondashuv orqali jadidchilik davrining pedagogik qarashlari, ayniqsa harbiy-vatanparvarlik g‘oyalari tizimli va chuqur tahlil qilindi.

Natijalar

Muallim Shokir al-Muxtoriyning “Istiqbolda bizning hayot” nomli maqolasi matni dastlabki eski o‘zbek yozuvidagi asl nusxadan joriy o‘zbek alifbosiga birinchi marta tabdil qilindi:

Muallim Shokir al-Muxtoriy
ISTIQBOLDA BIZNING HAYOT

Ulug‘ revolyusiya boshlang‘ondan berli, Rusiyaning mustabid idorasida ezilib, muqaddas huquqig‘a og‘ir zarbalar urilib yotqon, har millat o‘zining istiqboli uchun kerakli matiryollarini hozirloy boshlodilar. Ham hozirlamoqda, Rusiyadagi turk millatlar orosida aksariyatni tashkil etgan, aksariyatni tashkil etmag‘i bilan barobar, huquqiy jamiyatdan eng kichkina millatlardan ham keyinda qolg‘on, mal’un missionerlar tarafidan muqaddas dinig‘a tajovuz etilgan biz musulmonlar ham agar riyo bo‘lmosa bir necha muhim ishlarimizni bitirub qo‘ydiq. Ham boshqalar harakatida biz ... alhol bizning ishlamakchi va ishlamakda bo‘lg‘on ishlarimiz shul qadar zarur va muhimki: munga bog‘ishlong‘on qadrlik minutlarimizni befoyda etsak, Xudo haqqi kelajakda millatning la’nati ostida qolamiz!...

Modomiki ishlarimiz shul qadar zarur va muhim ekan, ajabo! Na uchun millatimizning muqaddas va eng muhtaram sinfidan yetushgan

[112] “Yurt” jurnali, 3-son. 1917-yil 21-iyul. Qo‘qon adabiyot muzeyi fondi.

qahramonlarimiz, ikkinchi yo‘l bilan aytganda – ifrotchilarimiz ustlarig‘a ottalg‘on bunday muhim vazifalarini toladilarda, shaxsiyat va tufassoniyat yo‘lin tutdilar? Yoki bu ulug‘ zotlar, o‘z shaxsiyatlarig‘a aziz vaqtimizni qurbon etib, kelajakda bizni millatning la’nati ostida qoldirmoqchilarmi? Istiqbolda hayotimizni yengil qilmoq uchun, maydong‘a otilib chiqg‘on millatning faol yigitlari yuqorida so‘ylang‘on oliy siymo(?)larimiz tarafida takfir etilib “sijjin” taxtig‘a irg‘ilib tursa, qo‘li milliy ishdan to‘xtatilsa, qalami sindirilsa asafo! Muning o‘tlik gunohi kimlarg‘a tushadur millatkami?... Yoki...?..

Bu satrlarni yozar ekanman – birgina maning uchun qadrlik minutlarini oylarcha bekor etib alayhina harakatlangan ilmiya sinfi xotiramga tushub, yuraklarim eziladur.. Demakchi bo‘lurmanki: agar biz muhabbat o‘rnig‘a bir-birimizni ezishmaq, insoniyat olamidan yo‘qotishmoq fikrida bo‘lsak unutilmasunki! Bu kung‘acha ishlab kelgon ishlarimiz ham ro‘yoga aylanub, kelajakda o‘zimiz hayot maydonidan butunlay surilimiz. Ya’ni boshqalarg‘a asir bo‘lub, qo‘l va oyog‘imizdan zanjir bilan bog‘lanamiz!..

Muna endi, biz federosiya qabul etib muxtoriyat bilan yashamoq bo‘lur ekanbiz, na uchun, federosiyaga keraklik ishlarimizni ishlamakda, nafsoniyat yo‘lig‘a ketdik. Biz shu manhus yo‘limizda ketaverub ketaverub, hozirlik ko‘rmasaq, o‘zimizg‘a yarim istiqloliyat berilgon taqdirda holimiz ne bo‘lur. Oltundek tuprog‘imizga zaharlik qo‘lin uzatub turg‘on xorijdagi dushmanlarimiz fikrimizga keladurmi? Yo yo‘qmi? Diqqat etilsun!

Hozir biz, turmushning achchig‘ “tiragediya”si bilan ko‘rishmoqdabiz. G‘olib kelamizmi? Mag‘lbiyatda qolamizmi? Bu albatta o‘zimizning ishlag‘on ishimizga, qilg‘on harakatimizga qarab bo‘lur. Hozirgi oramizda hukm surib turg‘on eskilik, yangilik, man katta, san kichik, man ulamo boy san, yosh va kambag‘aldek mazmunda kalomlarimizni tashlab hammamiz birdan qo‘lg‘a qo‘l tutushub ishlasak imonim shohidki biz bilan kurashub turg‘on achchig‘ “tiragediya”ni talaqqo yengub tashlaymizda maqsadimizga yetushamiz! Agar “man falon”, “san tugon”larimiz yanada davom etaversa “tiragediya”ning qahrli panjasida anjir bo‘lub chunon ezilamizki ul vaqtda bizga federosiya na federosiya! Va na jumhuriyat! .... yana aytaman: biz hozir “tarix” oldidamiz, bori istiqboldan la’natgina!... ajnabiylardan o‘zimizni mudofaa etmakka, yo‘qotqon huquqlarimizni olmoqqa qaytarub dini, milliy va madaniy ehtiyojlarimizni saqlab qolmoqqa, boshqalarni qo‘lig‘a qaytodan asir bo‘lmasak mamlakatimizni o‘zimiz idora qimaqqa (alag‘) ko‘rsatqon jiddiy harakatlarimiz yoki pes yolqovlig‘imiz mana shu oldimizaga tarixqa yozila borur. Kelajakda millatdan bizga yo rahmat! Yo la’nat!... Farz ettingiz! Biz katta dengizga tashlang‘on bir kema! Shul dengizdan ko‘zlag‘on yerimizga salomat chiqa olamizmi! Yoki hayotning hayajonlik to‘lqini bilan g‘arq bo‘lub, dengiz taxtig‘a ketamizmi! Onisi hozir bizga ma’lum emas. Inshoollo, kelajak ko‘rsatur.

Hayotning to‘lquniga urilmoy ko‘zlag‘on yerimizga salomat chiqa olsak, turmushimiz yangiliklar nuri, va maqsudimizga yetushmak demakdur. Agarda hayotning tabiiy to‘lqini bilan, g‘arq bo‘lub dengiz taxtiga ketsak, ul vaqtda biz butunlay bitdik demakdur.

Binoan alayh bizning turmushimizdan ikki turlik oqim bor: biri hayot maydonidan butunlay bizni suburib tashlamaq; yana biri inson etib yuzaga chiqarmaq; ... Millatning muqaddas minbariga minkon zotlarimizni aksar harakatlari birinchi oqimni qutlab boradur. Masalan: hayotimizda zo‘r ro‘l o‘ynog‘on Duma saylovlarimizga nazar etsak, oramizda hukm surib turg‘on, taassub va nodonliqimiz, bu holni op-ochiq ko‘rsatur.

Hozir oldimizda “uchreditelnie sobroniya”ga saylov masalasi bor. Bu saylovg‘a ham, Duma saylovig‘a ishlatgan tiyna takligimizni ishlata boshlosoq, chetda aziz imonimizga chang urmoq niyatida turg‘on, iblis dushmanlarimizni fursatdan istifoda etib qolmoqlari ko‘z oldimizdadur.

Biz g‘ayratlik turk bolalari ekanbiz, shu holni nazari e’tiborg‘a olub, qo‘rqoqlikdan chiqoyiqda kelajakda nechun etib hayotimizni saqlamoq yo‘lini tutaylik! Ma’lumki, hozir ish boshida turg‘on kishilarimizning ko‘bi millatning eng zararlik shaxslaridur. Agar shul zararlik zotlar millatning ko‘kragiga minib, ish boshida davom etabersalar hayhot! Kelajagimiz g‘oyat qizg‘onchdir. Biz qoysi tadorikni qilsoq qilingki ish boshig‘a mumkin qadar must’ad zotlarni o‘tkozoyik. Bugung‘acha millatning zararig‘a ishlab, inqilobdan so‘ng zohiri qiyofati va bu yolg‘on totlik so‘zlarig‘a bechora soddadil musulmonlarni asir etmagondur, o‘rtamizdagi dushmanlarimiz ish boshidan yo‘qolmoqqa vijdonan majbur bo‘lsinlar, onlar ish boshida turub, kelajakda tariximizga “nahs” tashlamosunlar!... demak, do‘sti kim? Dushmani kim? Zarari nima? Foydasi nima ekanin millat ham endi, onglasun edi! Hayotimiz qanday tahlikada turodur, muni mutlaqo millatning ongli fardi bilmagi kerak, shunga yo‘l izlarg‘a kerak. Pirovokoturu burjuozlarni o‘yduruma firklarig‘a ko‘r-ko‘rona ta’sublarig‘a oldonadurg‘on vaqt emas. Anorni ezib tashlab, mazlum millatni yuzaga chiqorodurg‘on vaqt boshqalar bilan huquqimizni tekis qilurg‘a taritaturg‘on, tortishadurg‘on vaqt; shundagina kelajakda biz hur yasharmiz! Shundagina kelajakda hayotimiz zulm qafasidan qutilur!

Muallim Shokir al-Muxtoriyning maqolasi o‘z zamoni uchun dolzarb bo‘lgan masalalarni yoritibgina qolmay, bugungi kunda ham ma’naviy va pedagogik ahamiyatini yo‘qotmagan g‘oyalarga boydir. Unda xalqning ichki zaifliklari, beparvoligi, hasad va bo‘linishi millatni tanazzul sari yetaklaydigan omillar sifatida keskin tanqid qilinadi. Muallifning “hayot kemasi”, “la’nat”, “millatning fojiasi” kabi ramziy obrazlardan foydalanishi nafaqat badiiy kuchni oshiradi, balki o‘quvchining ongiga kuchli psixologik ta’sir ko‘rsatadi. Asarda ilgari surilgan asosiy g‘oya – xalq o‘zining kuchini anglamasa, tarqoq holda yashasa, kelajakni boy beradi. Shu jihatdan u milliy uyg‘onish adabiyotining ma’rifatparvarlik ruhi bilan to‘yingan yorqin namunasi hisoblanadi.

Muhokama

Pedagogik nuqtayi nazardan qaralganda, mazkur maqola yosh avlod tarbiyasi uchun beqiyos manba bo‘la oladi. Avvalo, unda milliy o‘zlikni anglash va milliy ongni shakllantirish masalasi asosiy o‘ringa qo‘yiladi. Ta’lim-tarbiya jarayonida bunday g‘oyalarni yoshlar ongiga singdirish ularni o‘z tarixiga befarq bo‘lmaslikka, milliy qadriyatlarini qadrlashga o‘rgatadi. Muallifning jaholat va ma’rifatni qarama-qarshi qo‘yishi ham o‘qituvchilar uchun katta didaktik

ahamiyat kasb etadi, chunki bu orqali o‘quvchilarga bilim olishning jamiyat taraqqiyotidagi o‘rni sodda va aniq tushuntirilishi mumkin.

Maqoladagi eng muhim chaqiriqlardan biri – xalqning beparvoligini yengish va o‘z mas’uliyatini his qilish zarurati. Bu g‘oya pedagogikaning markaziy vazifalaridan biri – shaxsning ijtimoiy mas’uliyatini tarbiyalash bilan uyg‘unlashadi. O‘quvchi va talabalar ushbu matn orqali nafaqat bilim olishning, balki jamiyat oldida mas’uliyatli bo‘lishning ham qadriga yetadi. Shuningdek, maqolada tanqid qilingan “men-sen”chilik va hasad kabi illatlar bugungi ta’lim jarayonida ham dolzarbdir. Jamoaviylik, hamkorlik va umumiy manfaatni ustun qo‘yish o‘quvchilarga sinf yoki guruh faoliyatida, turli loyiha va jamoaviy topshiriqlarda ham singdirilishi mumkin.

Bundan tashqari, muallifning siyosiy savodxonlik haqidagi ishoralari pedagogik jihatdan ham alohida e’tiborga loyiqdir. Ta’lim jarayonida yoshlarni faqatgina darslikdagi bilimlar bilan chegaralab qo‘ymasdan, ularni ijtimoiy hayotda faol bo‘lishga, mustaqil fikrlash va tanqidiy qarashlarni shakllantirishga o‘rgatish kerak. Muallim Shokir al-Muxtoriyning tanqidiy ohangi o‘quvchilarga “jamiyat muammolariga befarq bo‘lmaslik” saboqlarini beradi. Bu esa zamonaviy pedagogikaning asosiy yo‘nalishlaridan biri – faol fuqarolik pozitsiyasini shakllantirish bilan uyg‘unlashadi.

Maqoladagi ramziy obrazlarning didaktik qiymatini ham alohida qayd etish kerak. “Hayot kemasi” obrazini o‘qituvchi darsda allegorik tushuncha sifatida sharhlab, o‘quvchilarga millatning birligining naqadar muhimligini tushuntirishi mumkin. Xuddi shuningdek, “la’nat” va “fojia” kabi obrazlar orqali beparvolik, jaholat va hasadning inson va jamiyat hayotidagi zararli oqibatlari yanada ta’sirchan ifodalanadi. “…alhol bizning ishlamakchi va ishlamakda bo‘lg‘on ishlarimiz shul qadar zarur va muhimki: munga bog‘ishlong‘on qadrlik minutlarimizni befoyda etsak, Xudo haqqi kelajakda millatning la’nati ostida qolamiz!” – deydi muallif maqolasida. Bu o‘z navbatida, gazetxonlarga, aholiga chaqiriqdir. Jaholatni birgalikda yengishga, ilm olishga bo‘lgan da’vatdir.

Shu bois Shokir al-Muxtoriyning maqolasi nafaqat adabiy yoki publitsistik manba, balki pedagogik jihatdan ham katta salohiyatga ega asardir. Uni dars jarayonida qo‘llash orqali yoshlarni milliy qadriyatlarga sodiq, bilimli, mas’uliyatli, jamoaviylik ruhida yashaydigan shaxslar qilib tarbiyalash mumkin. Demak, bu asar o‘z vaqtida xalqni uyg‘otish uchun yozilgan bo‘lsa-da, bugungi kunda ham ta’lim tizimi uchun dolzarb saboqlarni o‘zida mujassamlashtirgan ilmiy-pedagogik manbadir.

Xulosa

Muallim Shokir al-Muxtoriyning 1917-yilda “Yurt” jurnalining 3-sonida chop etilgan “Istiqbolda bizning hayot” nomli maqolasi o‘z zamonining murakkab ijtimoiy-siyosiy vaziyatini teran anglab, millat taraqqiyoti yo‘lida yuzaga kelayotgan asosiy muammolarni ochiq va aniq bayon etadi. Maqolada millatning ichki zaifliklari, bir-birini tushunmasligi, hasad va bo‘linish kabi omillar millatni zaiflashtirayotganligi, mustaqillik sari intilishni qiyinlashtirayotganligi aniq ko‘rsatib berilgan. Muallif bu holatlarni milliy ruh va mafkuraviy uyg‘onishning oldidagi katta to‘siq sifatida baholaydi.

Asarning asosiy g‘oyasi – millatning o‘z kuchi va imkoniyatlarini anglamasligi, birdamlikka erishmasligi kelajakda katta yo‘qotishlarga olib kelishi mumkinligi haqida ogohlantirishdir. Maqolada muallif milliy mustaqillik va vatanparvarlik g‘oyalarini ilgari surib, ularni amalga oshirish uchun nafaqat siyosiy va ijtimoiy islohotlar, balki ma’naviy uyg‘onish va milliy tarbiya zarurligini ta’kidlaydi. Shu nuqtayi nazardan, maqola jadidchilik pedagogikasining asosiy tamoyillari – milliy o‘zlikni anglash, vatanparvarlikni mustahkamlash, yoshlarni millatga xizmat qilishga targ‘ib qilish kabi vazifalarini bajarishda muhim manba hisoblanadi.

Shokir al-Muxtoriyning bu asari nafaqat o‘z zamonining siyosiy-madaniy muhitiga javob bo‘lib xizmat qilgan, balki zamonaviy o‘quv jarayonida ham milliy tarbiya va vatanparvarlikni shakllantirishda foydalanish uchun bebaho pedagogik merosdir. Maqoladagi ogohlantirishlar, milliy birdamlikka chaqiruv, yoshlarga qaratilgan tarbiyaviy chaqiriqlar bugungi kunda ham dolzarbligini yo‘qotmaydi. Shuningdek, maqolada bayon etilgan milliy va ma’rifiy masalalar, pedagogik qarashlar o‘quv jarayonida jadidlar merosini o‘rganish va uning amaliyotga tatbiq etilishi uchun muhim metodologik asoslarni yaratadi.

Xulosa qilib aytganda, “Istiqbolda bizning hayot” maqolasi jadidchilik harakati doirasida shakllangan harbiy-vatanparvarlik va milliy uyg‘onish g‘oyalarini yoritishda, ularning pedagogik ta’limot sifatida shakllanishida o‘ziga xos o‘rin tutadi. Maqola milliy mustaqillik, tarbiya va ma’rifatning ajralmasligini, millat taraqqiyoti yo‘lida har bir shaxsning mas’uliyatini ta’kidlaydi. Shuning uchun ushbu merosni zamonaviy ta’lim va tarbiya jarayonida chuqur o‘rganish, yosh avlodda milliy g‘oyalarni singdirish hamda vatanparvarlik ruhini tarbiyalash uchun foydalanish lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘xati:

1. “Yurt” jurnali, 1-son. 1917-yil 1-iyun. Qo‘qon adabiyot muzeyi fondi.
2. “Yurt” jurnali, 3-son. 1917-yil 21-iyul. Qo‘qon adabiyot muzeyi fondi.
3. “Ашурали Зоҳирий – юрт ва миллат фидойиси” (Мақолалар тўплами). “Фарғона” нашриёти.2021

ODAM ANATOMIYASI VA FIZIOLOGIYASI FANINI O‘QITISHDA AXBOROT KOMUNIKATSIYA TEXNOLOGIYALARINING O‘RNI

Anvarov Furqatjon Rovshanjon o‘g‘li
Qo‘qon universiteti pedagogika va psixologiya
kafedrasi o‘qituvchisi

anvarovfurqatjon@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada offlayn va masofaviy ta’lim jarayonida oliy ta‘lim oliygohlarida odam anatomiyasi va fiziologiyasi fanini o‘qitishda talabalarning o’quv va ijodiy faolliklarini oshiruvchi, hamda ta’lim va tarbiya jarayonining samaradorligini takomillashtirishda pedagogik texnologiyalardan shu bilan birgalikda axborot-kommunikatsiyalaridan foydalanishning o’rni va ahamiyati haqidagi ma’lumotlar bayon etilgan. Anatomiya fanini o'qitishda zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish ta'lim jarayonini samarali va interaktiv qilishda muhim ahamiyatga ega.Odam anatomiya va fiziologiyasi faninig ta'limda AKTning qo'llanilishi mumkin bo‘lgan usullarining o‘rni va ularning samaradorligi tahlil qilinadi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, AKT vositalaridan foydalanish o'quvchilarning bilim olish jarayonini yengillashtiradi, ularning qiziqishini oshiradi va ta'lim sifatini sezilarli darajada yaxshilaydi. Shuningdek, AKT o'qituvchilarga murakkab mavzularni sodda va tushunarli tarzda yetkazish imkonini beradi. Shu bilan birgalikda yangi online platformalari-Kahoot, E-learning, (MIT),orqali darslarda unumli tashkil etish mumkin.

Kalit so`zlar: Interaktiv,keys, insert, masofaviy ta’lim, venn diagrammasi, pedagogik texnologiya, biologiya kursi, anatomiya ta'limi, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, viktorina, online platformalar, internet, metodlar.

Аннотация: В данной статье описывается роль и значение использования педагогических технологий, а также информационно-коммуникационных технологий при преподавании анатомии и физиологии человека в высших учебных заведениях в процессе офлайн и дистанционного обучения, которые повышают учебную и творческую активность студентов, а также улучшают эффективность образовательного и воспитательного процесса. Использование современных информационно-коммуникационных технологий при преподавании анатомии важно для того, чтобы сделать образовательный процесс эффективным и интерактивным. Анализируются роль и эффективность методов ИКТ при преподавании анатомии и физиологии человека. Результаты исследования показывают, что использование средств ИКТ облегчает процесс получения знаний студентами, повышает их интерес и значительно улучшает качество образования. ИКТ также позволяют преподавателям доносить сложные темы простым и понятным способом. В то же время можно эффективно организовывать уроки, используя новые онлайн-платформы - Kahoot, E-learning, (MIT).

KIRISH: Pedagogika oliygohlarida masofaviy ta’lim jarayonida odam anatomiyasi va fiziologiyasi fanini o'rganishda talabalarning bilim samaradorligini oshirish va ijodiy, kreativ fikrlashi interaktiv texnologiyalardan foydalanish maqsadga muvofiq. Odam anatomiyasi va fiziologiyasi fanini o'qitishda interfaol texnologiyalardan «Keys», «Insert», «Waster», «Venn diagrammasi», «Aqliy hujum», «Kichik guruhlarda ishlash», «Atamalar zanjiri»,

«Atamalar varag'i», tezkor o'yinlar va o'yin mashqlarning turli shakllaridan foydalanish tavsiya etiladi. Odam anatomiyasi va fiziologiyasi fanini mazmunidagi muammoli masalalarni o'qitishda «Keys» dan foydalanish yuqori samara beradi. «Keys» — case studies ingliz tilidan olingan bo'lib, jarayon yoki vaziyat degan ma’noni beradi. Dastlab bu texnologiyadan biznesmen va tadbirkorlami o'qitishda foydalanilgan bo'lib, hozirgi paytda o'qitiladigan fanning mazmunidan kelib chiqqan holda, tirik organizmlarda boradigan jarayonlaming tashqi va ichki, obyektiv va subyektiv omillari yuzasidan muammoli vaziyatlar yaratilib ulami hal etish uchun o'quv munozaralari tashkil etiladi. Odam anatomiyasi va fiziologiyasini o'qitishda dastur mazmunidagi “tayanch harakatlanish sistemasi”, “nerv sistemasi”, “ovqat hazm qilish sistemasi”, “nafas olish sistemasi”, “ayirish sistemasi”, “ichki sekretsiya bezlari” kabi mavzulami o'qitishda foydalanish mumkin. Jahon ta'lim axborot makonidagi zamonaviy davrda. O‘zbekiston oliy ta‘lim muassasalarida ham jahon talablariga mos texnalogiyalardan foydalanish juda muhim.Ushbu jarayonlar zamonaviy texnik imkoniyatlarga mos bo'lishi va tinglovchining axborot jamiyatiga barkamol kirishiga hissa qo'shishi kerak bo'lgan o'quv texnologiyalarining tarkibiga tuzatishlar kiritilishi bilan bog'liq bo'lgan pedagogik nazariya va o'quv jarayonidagi sezilarli o'zgarishlar bilan birga keladi. Kompyuter texnologiyalari o'qitishning qo'shimcha "qo'shimchasi" emas, balki uning samaradorligini sezilarli darajada oshiradigan yaxlit o'quv jarayonining ajralmas qismi bo'lishi kerak; jamiyat rivojlanishi inson faoliyatining barcha sohalariga kirib boradigan, jamiyatda axborot oqimlarining tarqalishini ta'minlaydigan unga kompyuter texnologiyalarining kuchli ta'siri bilan tavsiflanadi. Global axborot makoni. Ushbu jarayonlarning ajralmas va muhim qismi ta'limni kompyuterlashtirishdir. Hozirgi vaqtda axborot va axborot texnologiyalari sohasidan tashqarida mavjudlikni tasavvur qilish qiyin. Har xil turdagi axborotlarning tobora ko'payib borishi bizni uni qayta ishlashning yangi, ilg'or usullari va vositalarini joriy etishga majbur qilmoqda va zamonaviy hayot sharoitlari uni saqlash, uzatish va xavfsizligini ta'minlash yo'llariga tobora ko'proq talablarni kuchaytirmoqda. Ta'lim inson hayotining ajralmas qismi bo'lib, ayni paytda ushbu sohada yangi bilimlar manbai va ushbu bilimlarni qo'llash sohasi hisoblanadi. Zamonaviy ta'lim jarayonida axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining (AKT) joriy etilishi o'quvchilarning bilim olish samaradorligini oshirishda muhim ahamiyat kasb etmoqda. Odam anatomiyasi va fiziologiyasi fani inson tanasining murakkab tuzilishi va funksiyalarini o'rganishni talab qilgani sababli, uni o'qitishda interaktiv va vizual vositalardan foydalanish zarurati ortib bormoqda. AKTning ta'lim jarayoniga integratsiyasi anatomiya fanini o'qitishda yangi imkoniyatlar yaratadi, o'quvchilarning qiziqishini oshiradi va murakkab tushunchalarni osonroq anglashga yordam beradi

MUHOKAMA VA NATIJALAR: Ta’lim-tarbiya jarayonida keysdan foydalanish uchun o'qituvchi:

• dastur mazmunidagi muammoli mavzulami aniqlashi, shu mavzularni o'qitish uchun muammoli savol-topshiriqlar tuzishi;

• dars davomida muammoli savol - topshiriqlarning qiyinchilik darajasiga ko'ra yakka tartibda yoki talabalarning kichik guruhlarida mustaqil ishlami tashkil etilishini aniqlashi;

• talabalarning bilish faoliyatini mazkur muammolarni hal etish, o'quv munozaralari orqali bahsda qatnashtirish yo'llarini rejalashtirishi;

• muammoli savol-topshiriqlar asosida tashkil etilgan o'quv munozaralarida yakuniy fikrni vujudga keltirishi lozim.

Dastur mazmunidagi faqat faktik materiallarni o'rganish nazarda tutilgan mavzularda Insertdan foydalanish tavsiya etiladi. Waster cluster ingliz tilida shajara degan ma’noni anglatadi. Ushbu lokal texnologiya talabalar tomonidan o'zlashtirilgan va o'zlashtiradigan g'oya, nazariya, qonuniyat hamda tushunchalar o'rtasidagi bog'lanishini anglash, bir-biriga uzviyligini tushunishga imkon yaratib tahliliy-tanqidiy fikr yuritish ko'nikmalarini rivojlantirishga zamin tayyorlaydi. Klasterni tuzish quyidagi tartibda amalga oshiriladi:

•Odam anatomiyasi va fiziologiyasi kursi mazmunidagi muayyan g'oya doska yoki qog'oz o'rtasiga yoziladi; ushbu g'oya bilan bog'liq qonuniyatlar, tushunchalar bir-biriga bog'liq holati ko'rsatkich bilan belgilanadi, so'ngra mazkur qonuniyat va tushunchalarning faktik ma’lumotlari grafik tarzda yoziladi va tarmoq hosil qilinadi; • avval o'rganilgan mavzu va o'rganiladigan mavzu o'rtasidagi bog'lanishlar haqida xulosa chiqariladi. Klasterdan foydalaniladigan darslarda talabalar teng sonli kichik guruhlarga ajratilib, ularga o'quv topshirig'ining didaktik maqsadi va bajarilish tartibi tushuntirilgandan so'ng, ular belgilangan vaqt ichida fikrlarini jamlab, o'zlari tuzgan Klasterni himoya qilib, fikrlarini dalillashga imkon yaratilib, eng yaxshi va asosli tuzilgan Waster aniqlanadi, g'oliblar rag'batlantiriladi. Klasterni bitta mavzu yoki bob bo'yicha yaxlit holda tuzish talabalarning tizimli fikr yuritishiga zamin yaratadi. Klasterning asosidan asosiy g'oya yoki tushuncha o'rin oladi, masalan, ovqat hazm qilish sistemasi bo'yicha quyidagicha tuziladi: tarmoq shaklida, ovqat hazm qilish sistemasining har bir organi masalan, lab , og’iz , tish, halqum, qizilo’ngach, oshqozon, oshqozon osti bezi , jigar, ichaklar tartib bilan ketma - ket kiritilib, keyingi qatorda ularning funksiyalari yoziladi va shu tariqa tushunchalar o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik jadval tarzida tasvirlanadi. Ta’lim-tarbiya jarayonida lokal darajada qo'llaniladigan texnologiyalardan biri — Venn diagrammasi bo'lib, uni ishlab chiqqan ingliz olimi Jon Venn nomi bilan yuritiladi. Venn diagrammasi o'rganilayotgan mavzudan o'rin olgan fakt, shun cha va jarayonlarni tahlil qilish, sintezlash va taqqoslashni talab etadi. Ushbu diagrammadan endokrin sistema va uning kasalliklari, ovqat hazm qilish sistemasi kasalliklarini tahlil qilish, sintezlash va taqqoslashda foydalanish mumkin. Ta’lim-tarbiya jarayonida talabalar tomonidan tushuncha va atamalarni mustahkam o'zlashtirishga zamin tayyorlash muhim o'rin tutadi, shu sababli

o'qituvchi har bir bob va mavzular mazmunidagi tushuncha va atamalarni «Atamalar zanjiri»ga keltirishi kerak. «Atamalar zanjiri» bu atamalar va ularning ta’riflari bo'lib, ulardan o'qituvchi o'tgan mavzuni yakunlash, yangi o'rganilgan mavzu yuzasidan talabalarning bilimlarini mustahkamlash maqsadida darsning bir qismida foyda langanligi sababli, ularni lokal texnologiyalar guruhiga kiritish maqsadga muvofiq. Ta’lim jarayonida talaba asosiy obyektga aylanadi. Shuning uchun oliy o’quv yurtlari va fakultetlarida malakali kasbegalarini tayyorlashda zamonaviy o’qitish metodlari-interfaol metodlar, innovatsion texnologiyalarning o’rni va roli benihoya kattadir. Pedagogik texnologiya va pedagog mahoratga oid bilim, tajriba va interaktiv metodlar talabalarni bilimli, yetuk malakaga ega bo’lishlarini ta’minlaydi. Innovatsion texnologiyalar pedagogik jarayon hamda o’qituvchi va talaba faoliyatiga yangilik, o’zgarishlar kiritish bo’lib, uni amalga oshirishda asosan interfaol metodlardan to’liq foydalaniladi. Interfaol metodlar -bu jamoa bo’lib fikrlash deb yuritiladi, ya’ni pedagogik ta’sir etish usullari bo’lib, ta’lim mazmunining tarkibiy qismi hisoblanadi. Bu metodlarning o’ziga xosligi shundaki, ular faqat pedagog va o’quvchi-talabalarning birgalikda faoliyat ko’rsatishi orqali amalga oshiriladi. Bunday pedagogik hamkorlik jarayoni o’ziga xos xususiyatlarga ega bo’lib, ularga quyidagilar kiradi: o’quvchi-talabani dars davomida befarq bo’lmaslikka, mustaqil fikrlash, ijod etish va izlanishga majbur etish; o’quvchi-talabalarni o’quv jarayonida bilimga bo’lgan qiziqishlarining doimiy ravishda bo’lishini ta’minlashi; o’quvchi-talabaning bilimga bo’lgan qiziqishini mustaqil ravishda har bir masalaga ijodiy yondashgan holda kuchaytirishi; pedagog va o’quvchi-talabaning hainisha hamkorlikdagi faoliyatining tashkillanishi. Pedagogik texnologiyalar masalalari, muammolarini o’rganayotgan o’qituvchilar, ilmiy-tadqiqotchilar. amaliyotchilarning fikricha, pedagogik texnologiya —bu faqat axborot texnologiyasi bilan bog’liq hamda o’qitish jarayonida qo’llanishi zarur bo’lgan AKT, kompyuter, masofali o’qish, yoki turli xil texnikalardan foydalanish deb belgilanadi. Pedagogik texnologiyaning eng asosiy negizi bu o’qituvchi va o‘quvchi-talabaning hamkorlikda belgilangan maqsaddan kafolatlangannatijaga erishishlari tanlagan texnologiyalariga bog‘liqligidadir, ya’ni o‘qitish jarayonida, maqsad bo‘yicha kafolatlangan natijaga erishishda qo‘llaniladigan har bir ta’lim texnologiyasi o‘qituvchi va o‘quvchi o‘rtasida hamkorlik faoliyatini tashkil etib, har ikkalasi ijobiy natijaga erishsa. o‘quv jarayonida o‘quvchi talabalar mustaqil fikrlasa, ijodiy ishlasa, izlansa, tahlil eta olsa, o’zlari xulosa qila olsa, o’zlariga, guruhga, guruh esa ularga baho bersa, o’qituvchi esa ularning bunday faoliyatlariuchun imkoniyat va sharoit yarata olsa, ana shular o’qitish jarayonining asosi hisoblanadi. Har bir dars, mavzu, o’quv predmetining o’ziga xos texnologiyasi bor, ya’ni o’quv jarayonidagi pedagogik texnologiya — bu yakka tartibdagi jarayon bo’lib, u o’quvchi-talabaning ehtiyojidan kelib chiqqan holda bir maqsadga yo’naltirilgan, oldindan loyihalashtirilgan va kafolatlangan natija berishiga qaratilgan pedagogik jarayondir.Tarixga oid elektron tematik nashrlar, entsiklopediyalar, albomlar, multimedia taqdimotlari to'plamlari nashr etilgan. Ushbu vositalarning barchasi

o'quvjarayonida o'quv materiallarida, talabalar bilimini sinashda, berilgan ma'lumotlarni qidirishda, barcha turdagiijodiy ishlarni tashkil qilishda ishlatilishi mumkin. Darsdagi ish shakllarining xilma-xilligi, video va multimedia materiallarini namoyish qilish bilan birgalikda, taqdimotning yangiligi tufayli mavzuga bo'lgan qiziqishni oshiradi, talabalarga muammolarni qanday hal qilishni o'rgatayotganda ko'rish darajasini oshiradi va darsdan oqilona foydalanadi, dars madaniyatini farqlashga imkon beradi. talabalarga yondashish, fanga qiziqishni shakllantirishga hissa qo'shadigan va shuning uchun ta'lim sifatiga ijobiy ta'sir ko'rsatadigan, bolalarning charchoqlarini kamaytiradigan.AKT ta'limga bo'lgan salbiy munosabatning muhim sabablaridan birini -muammoning mohiyatini tushunmaslik tufayli etishmovchilikni, bilimdagi sezilarli bo'shliqni sezilarli darajada yo'q qilishi mumkin. O'quv jarayonida kompyuterdan foydalanish (yangi axborot texnologiyalarini joriy etish) o'quv jarayonini jadallashtirish, uni optimallashtirish, maktab o'quvchilarining fanni o'rganishga qiziqishini oshirish, ta'limni rivojlantirish g'oyalarini amalga oshirish, darsning tezligini oshirish va mustaqil ish hajmini oshirishning usullaridan birini taklif qilishga urinishdir. Bu mantiqiy fikrlash, aqliy mehnat madaniyati, mustaqil ishlash ko'nikmalarini shakllantirishga hissa qo'shadi, shuningdek, o'quv jarayonining motivatsion sohasiga, uning faoliyat tuzilishiga sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Innovatsiya texnologiyalari o’qitish jarayonida yuqori malakali, raqobatbardosh o’qituvchi kadrlar tayyorlash, ularning kasbiy omil ko’nikmalarini shakllantirish, metodik mahoratini ko’tarish, o’qituvchi pedagoglarni zamonaviy pedagogik texnologiyalar bilan qurollantirish omili bo’lib qolmoqda. Ta’lim muassasalari pedagoglarining axborot-kommunikatsiya resurslaridan foydalanish bo‘yicha olib borayotgan ishlari ko‘pchilik o‘quvchilarning kompyuter savodxonligining o‘rtacha darajaga erishishga qaratilgan. Bunda talabaning individual qobiliyatlari va qiziqishlarini hisobga olish kerak. Axborot texnologiyalariga qiziqishi ortgan va ularni o‘zlashtirish qobiliyati rivojlangan ta’lim muassasalari o‘quvchilari qo‘shimcha ta’lim va sinfdan tashqari ishlar tizimi orqali o‘z imkoniyatlarini ro‘yobga chiqarishlari mumkin. Bunday talabalar, qoida tariqasida, kompyuter savodxonligining yuqori darajasiga erishadilar va AKT bo'yicha turli darajadagi konferentsiyalar, tanlovlar, olimpiadalar va festivallarda samarali ishtirok etadilar, o'zlarining kompyuter dasturlari va loyihalarini ishlab chiqadilar. Ta'lim muhitida AKTni samarali amalga oshirish nafaqat o'qituvchi tomonidan o'quv faoliyatining turli bosqichlarida kompyuter dasturlarini qo'llashda, balki darsda, qo'shimcha ta'limda, darsdan tashqari ishlarda foydalanish shakllarining xilma-xilligidan iborat. Ta'limning masofaviy va telekommunikatsiya shakllaridan foydalanish, o'qituvchilarning o'quv jarayoniga AKTdan foydalanish bo'yicha uslubiy ishlanmalarining mavjudligi, ularning nafaqat shahar, mintaqaviy, balki xalqaro darajadagi pedagogik tanlovlar, festivallar, konferentsiyalarda ishtirok etishi ushbu sohani joriy etish bo'yicha samarali ishlardan dalolat beradi.Shu bilan birgalikda turli platformalardan foydalanish foydalidir masalan:Prezi

platformasi. Ushbu platformadan talabalar online tarizda foydalanishi va taqdimotlari bitgach shu platformani o’zida taqdim etishlari mumkin. Sifatli va kamyob animatsiyalardan foydalanib dars jarayonida boshqa o’quvchilarni e’iborini tortishlari mumkin. Odam anatomiyasi va fiziologiyasi fanini o’qitish uchun ham bizga E-learning yani electron ta’limi yordamga keladi. Elektron ta’lim bu online platformalar, ochiq kurslar va boshqa biror bir online saytlar orqali nimanidir o’rganish demakdir. Anatomiya fanini o’qitish uchun ham chet el tajribasini orttirish uchun dunyoning mashxur universitetlarining professorlari tomonidan o’qilgan ma’ruzalar va ta’lim beriladigan platformalar ham mavjud. Ular MOOC (Massive online open courses) Ommaviy online ochiq kurslar tizimiga kiradi.Misol uchun eng sifatlilarini keltirib o’tamiz.EdX - Massachusets Texnologiya Instituti (MIT) va Garvard universiteti o'rtasida dunyodagi millionlab odamlarga sertifikat bilan onlayn universitet kurslarini taklif qilish uchun onlayn ta'lim sohasida o'zgaruvchan hamkorlik. Bugungi kunda bir nechta boshqa jahon darajasidagi universitetlar edX-da onlayn kurslarni taklif qilmoqdalar. Microdcopy – bu online platforma aynan biologlar uchun yaratilgan desa ham bo’ladi. Mikroskoplar bilan ishlashni o’rgatuchi online ta’lim platformasi. Ushbu platformada o’rganish uchun ro’yxatdan online kursga yozilishingiz mumkin. Bu platformaning foydali jihatlaridan biri “recorded courses” yozib olingan online kurslar sirasiga kiradi. Shuning uchun siz xohlagan vaqtingiz xohlagan joyingizda bularda foydalanishingiz mumkin. Kursda yangiliklar ko‘p, online mikroskopdan ham foydalanish uchun ko’rsatmalar berilgan. O’quv xonasida darsni qiziqarli tashkil etish uchun yaxshi axborot texnologiyalaridan foydalanishingiz mumkin. O‘tilgan darsni takrorlash uchun online platformalarda test tuzing va o’quvchilarni viktorinada qatnashishlarin ta’minlanadi. Shu bilan birgalikda eng qiziqarli viktorina tashkil etish uchun online platformalar keltirilgan. Viktorinalar - ushbu sayt o’qituvchilar uchun maxsus platforma bo’lib, o’tilgan mavzu yoki o’zingiz istagan savollar bilan, o’quvchilaringiz o’rtasida musobaqa o’tkazishingiz mumkin. O’qituvchi testlarni o’zi tuzib chiqadi va tog’ri variantlarni saytga taqdim etadi va musobaqa silkasini olib o’quvchilarga ulashadi. Silka ulashishda eng qulay yo’l Telegram ijtimoiy tarmog’ini tavsiya qilaman. Ushbu saytdan ro’yxatdan o’tish va udan foydalanish haqida ma’lumotlarni YouTube dan ko’rib o’rganishingiz mumkin. Bu saytning ijobiy tomonlari shundaki, siz uyushtirgan musobaqa haqida to’liq statistik ma’lumotlar bilan taminlaydi. Qancha miqdordagi qatnashilar to’g’ri javob berdi, qanchasi xato, kimlar ko’proq to’g’ri javob topmoqda va uni javob yo’llash tezliginiyam inobatga olgan holda Top reyting yaratadi. O’quvchilar bu platformada test ishlab, musobaqada qatnashganida qiziqqonlik bilan harakat qiladi va o’qiganlari yodida qoladi. Kahoot – ushbu platforma ham viktorina ko’rinishida musobaqa tashkil etish uchun sayt. Bu platformani mobile versiyasi ham bor. Google Play orqali yuklab olishingiz mumkin. O’qituvchi, talaba va mustaqil o’rganuvchilar uchun alohida bo’limlar mavjud. Demak onlayn va offlayn ta’limda yangi texnologiyalarni qo‘llash va uni qaysi platformalardan o‘rganishi juda foydali bo ‘ladi talabalar uchun.

XULOSA: Odam anatomiyasi va fiziologiyasi fanini o‘qitishda masofaviy ta’limda interaktiv metod va texnologiyalardan foydalanish talabalarning mustaqil ishlashiga, ijodiy fikrlashiga va ta’lim samaradorligini ortirishga xizmat qiladi. Anatomiya fanini o'qitish dazamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan (AKT) foydalanish ta'lim jarayonini sezilarli darajada boyitadi. AKTning qo'llanilishi o'quvchilarning qiziqishini oshirish, murakkab tushunchalarni osonroq anglash va ta'lim sifatini yaxshilashga yordam beradi. Interaktiv darsliklar, virtual laboratoriyalar va elektron resurslar orqali o'quvchilar mavzuni chuqurroq o'rganish imkoniyatiga ega bo'ladilar. Shuningdek, o'qituvchilar uchun murakkab mavzularni sodda va tushunarli tarzda yetkazish imkoniyati yaratiladi. AKTning ta'lim jarayoniga integratsiyasi anatomiya fanini o'qitishda samaradorlikni oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. M. Aripov. B. Begalov. U. Begimquloy. U. Mamarajabov. "Information
    a. technology". Tashkent. Noshir - 2009.
2. K. Ismanova. Organize hands-on activities using innovative methods.Journal of Educational Problems. Issue 2, 2012
3. D. R. Garrison “E-Learning in the 21st Century”. Textbook. –New York. 2017.
4. Islamova, M. Sh. "Fundamentals of Forming a Professional Worldview." Science and Education Special Issue 1 (2021): 78-87.
5. Orziqulov, X. (2024). BO'LAJAK BOSHLANG'ICH SINF O'QUVCHILARIDA IJTIMOIY PEDAGOGIK KOMPONENTLIKNI RIVOJLANTIRISH TEXNOLOGIYASI. *Universal xalqaro ilmiy jurnal*, *1*(5), 228-230.
6. Furqatjon, A. (2025). Physiological Characteristics of Cardiovascular System Development in Children Engaged in Sports. *Journal of Social Sciences and Humanities Research Fundamentals*, *5*(06), 15-18.
7. Furqatjon, A. (2025). Age-Related Hormonal Changes and Their Impact on Psychophysiological State. *American Journal Of Social Sciences And Humanity Research*, *5*(06), 20-22.
8. J.O.Tolipova “Biologiyani o`qitishda innovatsion texnolo giyalar” Pedagogika oliy o`quv yurti talabalari uchun darslik. Toshkent - “Cho`lpon” – 2011 y.
9. М.Н.Ибодова Биологияни ўқитишнинг интерфаол ва муаммоли изланиш методлари. Педагог журнали 11. 07. 2022 й

MUKARRAMA MURODOVA USLUBINING O‘ZIGA XOSLIGI

Dilshunosxon Inomova,
Qo‘qon universiteti mustaqil tadqiqotchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada iste’dodli shoira Mukarrama Murodova ijodining o‘ziga xos xususiyatlari, ijodkor uslubining muhim jihatlari haqida so‘z boradi. Shoira she’rlari tahlilga tortilib, uning badiiy imkoniyatlari, so‘z qo‘llash mahorati yuzasidan xulosalar beriladi.

Kalit so‘zlar: uslub, mahorat, iste’dod, peyzaj, badiiy nutq, xarakter, janr, dunyoqarash.

Abstract: This article discusses the distinctive features of the work of the talented poetess Mukarrama Murodova, important aspects of her creative style. The poetess’ poems are analyzed, and conclusions are drawn about her artistic capabilities and mastery of the word.

Keywords: style, skill, talent, landscape, artistic speech, character, genre, worldview.

Аннотация: В статье рассматриваются отличительные особенности творчества талантливой поэтессы Мукаррамы Муродовой, важные аспекты её творческого стиля. Анализируются стихотворения поэтессы, делаются выводы о её художественных возможностях и мастерстве слова.

Ключевые слова: стиль, мастерство, талант, пейзаж, художественная речь, персонаж, жанр, мировоззрение.

Adabiyotshunoslikda uslub masalasi uzoq vaqtlardan buyon tadqiq etib kelinayotgan dolzarb mavzulardan biri hisoblanadi. Har qanday ijodkor asarlarining o‘qishli bo‘lishini ta’minlaydigan, uning ijodiy individualligini belgilovchi me’zon bu – uslubdir. O‘zbek tilining izohli lug‘atida uslub tushunchasi “Yozuvchining biror asar yoki adabiyot janrining til vositalaridan foydalanishidagi o‘ziga xos yo‘li, usuli. Ijodkorning o‘ziga xos tili, xarakter yaratish va badiiy quvvati. Har bir chinakam ijodkor o‘z uslubiga ega bo‘ladi. Uslub ijodkorning o‘zligini, mustaqilligini belgilaydi. Uslubning shakllanish jarayoni juda murakkabdir. Adabiyot tarixini bilmasdan turib, yozuvchi uslubini aniqlash juda qiyin”[113], tarzida izohlanadi. Mashhur fransuz adibi Alber Kamyu uslub haqida gapirar ekan, uslubni “San’atkor voqelikdan tanlab olgan unsurlarni badiiy til yordamida xayoloti bilan uyg‘unlashtiruvchi va u yaratgan badiiy dunyoning tugal bo‘lishini ta’minlovchi vosita”[114] deb ta’rif beradi. Uslub – ijodkorni boshqa ijodkorlardan farqlaydi. Uning ijodini boshqa ijodkor ijodidan ajratib turadigan qator xususiyatlar yig‘indisi tarzida namoyon bo‘ladi, ijodkor shaxsiyatini o‘zida aks ettiruvchi bir-qator g‘oyaviy-estetik xususiyatlarni umumlashtiradi. Dilmurod Quronov, Zokirjon Mamajonov va Mashhura Sheraliyeva hammuallifligida yaratilgan “Adabiyotshunoslik lug‘ati”da uslub “Poetikaning muhim kategoriyalaridan biri; badiiy asarning u yoki bu tarzdagi shakliy qurilishini belgilovchi umumiy prinsipi. U

[113] Ўзбек тилининг изоҳли луғати.Икки томлик.Иккинчи том. –Москва: Рус тили , 1981.–Б.281.
[114] Boltaboyev H. Nasr va uslub. – Toshkent: Fan, 1992. – B.59.

antropologik, ya’ni ijodkor shaxsi bilan bog‘liq kategoriya sanalib, uning ijodiy individualligini belgilaydi”[115], deya ta’riflanadi. Yuqoridagi fikrlardan xulosa qilib aytish mumkinki, uslub keng ma’nodagi problematik tushuncha bo‘lib, shoir va yozuvchi ijodidagi badiiy-estetik qarashlar birligi, uning pozitsiyasini ifodalab beruvchi falsafiy-estetik kategoriyadir.

Uslub masalasida amalga oshirilgan tadqiqotlardan ma’lumki, uslub qator omillar natijasida yuzaga chiqadi. Jumladan, ijodkor uslubi yaratilishida til, iste’dod, mahorat, davr, dunyoqarash, tajriba singari elementlar muhim o‘rin tutadi[116].

Mukkarrama Murodova ijodi tahlil qilar ekanmiz, shoiraning ham o‘ziga xos uslubiy yo‘nalishga ega ijodkor ekanligi oydinlashadi. Xususan, shoira asarlari tilidagi soddalik, xalqchillik uning uslubini boshqa ijodkorlar uslubidan farqlaydi. Shoira kundalik ijtimoiy mavzular haqida so‘z yuritadimi, insonning ichki kechinmalarini yortishga harakat qiladimi yoki chuqur falsafiy masalalarni qalamga oladimi, qay biri bo‘lishidan qat’iy nazar, oddiy insonlar uchun tushunarli misollarni berishga harakat qiladi. Xususan, “Qo‘shnilar” she’rida butun bashariyatning birdamligi, insoniyatning turli ofatlar qarshisida birlashish zaruriyati, kishilarning boshqalar musibatiga befarq qarab turishi “inson” degan nom uchun isnod ekanligi haqida so‘z boradi. Ammo shoira bu she’rda ifoda etmoqchi bo‘lgan fikrni xalq turmushiga yaqin ko‘p qavatli uylarga ko‘chish voqeasi bilan tushuntiradi:

Buzilib ketdi u eski mahalla,
Yangi “dom” bag‘riga oldi bizlarni.
Fikrimni so‘raysiz, do‘stim bu palla:
– Xushnud etdimi, - deb, bu uy sizlarni?

– Zamonga munosib ekan bu uylar,
Xushyorlikni chandon etarkan talab.
Qo‘shnining qay biri yig‘lar yo kular,
Xabardor etarkan hammani, ajab.

Mahallalarning buzilishi, aholi xonadonlarining “snos”ga tushishi ko‘p hollarda insonlar tomonidan noxush qarshilanadi. Eski mahallalar esa aksariyat asarlarda mehr-oqibat, insoniylik ramzi sifatida tasvirlanadi. A.Namozaliyevning “Birodarlik rishtalari”[117], Sh.Toshmatovning “Xorij ilinjida”[118] she’rlarida, F.Tojiboyevning “Qayerdasan, Yaponiya”[119] hikoyasida mahallaning oqibat va birdamlikka tamsil etilishini kuzatish mumkin. Bu asarlardan farqli o‘laroq, mazkur she’rda shoira eski mahallaning buzilganligidan afsuslanish hissini o‘quvchiga ko‘rsatmaydi. Aksincha,

[115] Қуронов Д., Мамажонов З., Шералиева М. Адабиётшунослик луғати. –Тошкент: Akademnashr , 2010.– Б.339.
[116] Соколов А.Н. Теория стиля. – Москва: Исскуство, 1968. – 14 с.
[117] Намозалиев А. Биродар. –Тошкент: Ёш гвардия, 1998 –Б.113.
[118] Тошматов Ш. Орзулар. –Тошкент: Ўқитувчи, 1994 –Б.27.
[119] Тожибоев Ф. Ҳикоялар. –Тошкент: Ёш гвардия, 1998 –Б.50.

boshqalar bilan yaqinroq bo‘lish, qo‘shnilar holidan xabar olishning osonlashgani shoirani baxtiyor etadi. Yillar davomida qadrdon bo‘lib qolgan hovli, ota-onani yodga soluvchi devorlar, bolalikning yoqimli xotiralari-yu qanchadan qancha nekbin tuyg‘ularni tashlab chiqish xonadon egalari uchun oson emas. Bunchalar ko‘p xotiralarga guvoh bo‘lgan maskanni tark etish hissining o‘zi og‘riqli. Ammo insonlarning yomon kunlarida yonida tura olish, ularga dardkash bo‘lish, xursandchilik onlarida quvonchiga sherik bo‘lish tuyg‘usi shoirani to‘lqinlantiradi. Ayniqsa, insonlarning birdamlikda harakat qila olish imkoniyati uni shod etadi:

Ayniqsa, suv, o‘ti!
Agar birovning
Uyidan bemavrid o‘rlasa tutun,
Hamma teng oyoqqa turar olovni –
O‘chirish qasdida.
Tom bir-da bugun.

Turmush sharoitining yaxshilanishi, maishiy masalalardagi muommolarning yechilishi, kundalik hayotning osonlashuvi insonlarni xushnud etishi bor gap. “Ayniqsa, suv, o‘ti!” misrasidan keyin o‘quvchida yuqoridagi fikr tug‘ilishi tabiiy. Ammo shoiraning mahorati shundaki, misralar davomida “birdamlik” tushunchasini o‘quvchi ko‘ngliga yetkazgach, uni ifoda etmoqchi bo‘lgan asosiy fikr tomon yetaklaydi.

Zaminni eslatar bu hayot menga,
Qo‘shnilar tinch bo‘lsa, orom topar jon.
Qaygadir o‘t tushsa – chopmaylik nega?
Axir yerimiz bir,
Axir bir osmon!

Shoiraning maqsadi, o‘quvchiga yetkazmoqchi bo‘lgan g‘oyasi she’r finalida ochiladi. Buzilgan mahalla va yangi “dom”ga ko‘chish fonida ifoda etilgan yaqinlik masshtabi oxirgi misrada tobora kengaya boradi. Bir tom ostida yashayotgan odamlar birining musibatini bartaraf etish uchun harakat qilishlari zarur. Chunki kimgadir zarar yetsa, butun uy ahli ham ziyon ko‘radi. Xuddi shu kabi butun mamlakat, butun sayyora muommolarni yechish, sayyoramizda hayotning yana uzoq yillar davomida farovon davom etishi uchun sa’y etsa, bizning olamimiz yanada go‘zalroq bo‘lishiga ishora qiladi shoira. She’rda nafaqat moddiy narsalarga ziyon yetganda shoshilish, balki bir insonning qalbidagi yaralarga malham bo‘lish, ko‘nglini obod qilish, loqaydlikdan qochish, xushyorlikni oshirish tufayli jamiyat barqaror bo‘lishi ham ta’kidlanadi. Kundalik maishiy tasvirdan boshlangan fikr she’r yakunida umuminsoniy masalalarga daxldor bo‘ladiki, bu she’r ta’sirini yanada yorqinroq bo‘lishini ta’minlaydi.

Xulosa qilib aytganda, Mukarrama Murodova uslubi soddalik, atrofimizdagi kichik voqealarni tasvirlash orqali ularning zamiridagi umumbashariy mohiyatni ko‘rsatib berish ustuvorlik qiladi. Shoira insoniy mehr-muhabbatni, oqibatni barcha narsadan ustun qo‘yadi, kishilarni ham bu

yuksak tuyg‘ularni asrab-avaylashga chorlaydi. Ayni shu jihat, shoira she’rlariga jo‘shqinlik bag‘ishlaydi, uning ijodini boshqa shoirlar ijodidan farqlab turadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Ўзбек тилининг изоҳли луғати.Икки томлик.Иккинчи том. – Москва: Рус тили , 1981.–Б.281.
2. Boltaboyev H. Nasr va uslub. – Toshkent: Fan, 1992. – B.59.
3. Қуронов Д., Мамажонов З., Шералиева М. Адабиётшунослик луғати. –Тошкент: Akademnashr , 2010.–Б.339.
4. M.Murodova. Seni kuylayman. Yosh gvardiya, 1986.
5. M.Murodova. Bahor boshlanibdi. Yosh gvardiya, 1974.
6. Kobilova, Z. (2022). Image of a Drinker and a Hermit in the Amir Al-Ghazali. *EUROPEAN JOURNAL OF INNOVATION IN NONFORMAL EDUCATION*, *2*(4), 173-176.
7. Qodirov, A. (2024). USLUB ADABIYOTSHUNOSLIKNING MUHIM KATEGORIYASI SIFATIDA. *University Research Base*, 857-860.

O‘ZBEK XALQ OG‘ZAKI IJODINI O‘QITISHDA ZAMONAVIY YONDASHUVLARNING DIDAKTIK IMKONIYATLARI

Hilola Raimova

FarDU 3-bosqich doktoranti

Annotatsiya.

Maqolada xalq og‘zaki ijodi o‘quv faoliyatining ajralmas qismi ekanligi, o‘quvchilarga yangi materialni puxta o‘zlashtirishda integratsion yondashuvlarga asoslanish imkoniyatlari, folklor o‘quvchilarning tashabbuskorligi va bilish faoliyatini oshirishga xizmat qiluvchi vosita ekanligi, darsning u yoki bu bosqichida qo‘shiq, rivoyat, maqol, topishmoqlardan foydalanish o‘quvchilarning dunyoqarashini kengaytirishi, ularda vatanparvarlik, qadriyatlarga hurmat tuyg‘usini tarkib toptirishi, tarix, adabiyot faniga qiziqish uyg‘otishi haqida nazariy ma’lumotlar bayon etilgan.

Kalit so‘zlar: xalq og‘zaki ijodi, ma’naviyat, tafakkur, integratsiya, afsona, rivoyat, lof, latifa, maqol, topishmoq, ertak, doston, qo‘shiq.

Аннотатсия.

В стате показано, что народное творчество является неотъемлемой частю учебной деятелности, дает учащимся возможност опирается на интегратсионные подходы к освоению нового материала, фолклор является средством, служащим для повышения инитсиативы и познавателной активности учащихся, исползование песен, повествований, пословис, загадок на том или ином этапе урока может расширит кругозор учащихся, воспитат у них чувство патриотизма,уважения к сенностям. состав,

история, изложены теоретические данные о том, что литература вызывает интерес к науке.

Ключевые слова: фолклор, духовност, созерсание, интегратсия, миф, повествование, лоф, анекдот, пословитса, загадка, сказка, Былина, песня

Annotation.

The article shows that folk art is an integral part of educational activities, gives students the opportunity to rely on integration approaches to the development of new material, folklore is a means to increase the initiative and cognitive activity of students, the use of songs, narratives, proverbs, riddles at one stage or another of the lesson can broaden the horizons of students, educate them a sense of patriotism, respect for values. the composition, history, and theoretical evidence that literature arouses interest in science are presented.

Keywords: folklore, spirituality, contemplation, integration, myth, narrative, lof, anecdote, proverb, riddle, fairy tale, epic, song.

Ma’lumki, bugungi kun ta’limi mazmuni o‘ziga xos rivojlanish jarayonlarini aks ettirgan holda xalqaro integratsiyasi talablariga javob beradigan maqsadlarga asoslangan holda sifat va samaradorlik tamoyillariga yondashgan holda takomillashtirilmoqda. Bunda ta’limda integratsion yondashuvlar ham muhim ahamiyatga ega bo‘lib, o‘quvchi faolligini oshirish, unda fanga oid hamda hayotiy ko‘nikmalarni tarkib toptirish kabi vazifalarni sifatli bajarish uchun asosiy omil hisoblanadi. Ta'limda integrativ yondashuv fanlararo loyihalar, muammoli ta'lim va zamonaviy texnologiyalardan foydalanish kabi turli shakllarda amalga oshirilishi o‘quvchida tanqidiy fikrlash, muammolarni hal qilish va aloqa ko'nikmalarini rivojlantirishga yordam berish omili sifatida o‘ziga xos imkoniyatlarni yaratadi. Ayniqsa, boshlang‘ich sinflarda xalq og‘zaki ijodini o‘rganishda integrativ yondashuvlar o‘quvchiga mavzuni puxta o‘zlashtirishga, mavzuni oson tushunishga, nutqni boyitishga, mantiqiy tafakkurini rivojlantirishga yordam beradi. Mantiq - dalil keltirish va xulosa chiqarish prinsiplarini o‘rganuvchi falsafiy tadqiqot hisoblanadi. Tafakkur - inson aqliy faoliyatining yuksak shakli, obektiv voqelikning ongda aks etish jarayonidir. Tafakkur atrof muhitni, ijtimoiy hodisalarni, voqelikni bilish quroli sifatida inson faoliyatini amalga oshirishning asosiy shartlaridan biri sanaladi. Tafakkur sezgi, idrok, tasavvurlarga qaraganda voqelikni to‘la va aniq aks ettiruvchi yuksak bilish jarayonidir. Mantiqiy tafakkur – bu ma’lum tushunchalar qo‘llaniladigan tafakkur bo‘lib, u yoki bu aqliy masalalarni echishda boshqa odamlar tomonidan aniqlangan tushuncha, mulohaza, xulosa shaklida aks etuvchi tayyor bilimlardan foydalanish qobiliyatimiz, desak mubolag‘a bo‘lmaydi. Ma’lumki, xalq og‘zaki ijodi jamiyatning an’anaviy badiiy ifodalarini aks ettiradi. Uning madaniy o‘ziga xosligi va boy merosini aks ettiradi. San’atning bu turi avloddan avlodga o‘tib kelayotgan kashtachilik, kulolchilik, to‘qimachilik kabi turli hunarmandchilikni o‘z ichiga oladi. Xalq og‘zaki ijodi avloddan avlodga o‘tib kelayotgan keng ko‘lamli an’anaviy

hunarmandchilik va badiiy ifodalarni o‘z ichiga oladi. Mantiqiy fikrlash o‘quvchilarni tahlil qilish, muammolarni hal qilish, tanqidiy fikrlash imkonini berish orqali ijodiy san’at ta’limida hal qiluvchi rol o‘ynaydi. Bu ularga ongli qarorlar qabul qilishga, yangi g‘oyalar bilan tajriba o‘tkazishga va badiiy ifoda chegaralarini kengaytirishga yordam beradi. Mantiqiy fikrlashni rivojlantirishni ijodiy san’at ta’limiga integratsiyalashgan holda, talabalar nafaqat tahliliy ko‘nikmalarini oshiradi, balki badiiy jarayonni chuqurroq tushunishga yordam beradi. Ushbu integratsiya o‘rganishga yanada yaxlit yondashish imkonini beradi, bunda ijodkorlik va ratsionallik yonma-yon ishlaydi. Integral o‘qitish usullari har tomonlama ta’lim tajribasini yaratish uchun turli xil o‘rganish strategiyalarini birlashtiradi. O‘qitishning an’anaviy yondashuvlarini amaliy mashg‘ulotlar va real amaliyotlar bilan uyg‘unlashtirib, o‘qituvchilar o‘quvchilarning mantiqiy fikrlash ko‘nikmalarini mazmunli tarzda oshirishlari mumkin. Xalq og‘zaki ijodi ta’limi kontekstida mantiqiy tafakkurni rivojlantirishning integratsiyalashuvi xalq amaliy san’atining tarixiy ahamiyatini o‘rganish, loyihalash usullarini tahlil qilish, amaliy hunarmandchilik bilan shug‘ullanishni o‘z ichiga olishi mumkin. Mantiqiy fikrlashni ijodiy amaliyot bilan bog‘lash orqali o‘quvchilar madaniy merosga bo‘lgan hurmatini chuqurlashtirishi va kognitiv qobiliyatlarini oshirishi mumkin. Tanqidiy fikrlash - bu ma’lumotni ob’ektiv tahlil qilish va asosli xulosalar chiqarish qobiliyatidir. Badiiy ta’lim sohasida tanqidiy fikrlash o‘quvchilarning san’at asarlarini sharhlash va baholash qobiliyatini oshiradi, chuqurroq ishtirok etish va tushunishni rag‘batlantiradi. Xalq og‘zaki ijodida tanqidiy fikrlash ko‘nikmalarini integratsiyalashgan holda, talabalar o‘zlarining tahliliy ko‘nikmalarini yaxshilashlari, madaniy san’at turlariga noaniq baho berishlari va badiiy ifoda uchun zarur bo‘lgan ijodkorlilik va yangilik tuyg‘usini rivojlantirishlari mumkin. Integral o‘qitish usullari yaxlit ta’lim tajribasini ta’minlash uchun turli fanlarni birlashtiradi. Xalq og‘zaki ijodga qo‘llanilganda, san’at tarixi, madaniyatshunoslik va amaliy mashg‘ulotlarni birlashtirish o‘quvchilarning san’at turi bilan bog‘liqligi va tushunchalarini boyitishi mumkin. An’anaviy san’at amaliyotlarini kontekstga solish uchun tarix saboqlarini birlashtirish, talabalarni amaliy hunarmandchilik faoliyatiga jalb qilish va san’at asarlari ortidagi madaniy simvolizm bo‘yicha tadqiqotlarni rag‘batlantirish turli fanlarni birlashtirish va keng qamrovli o‘quv muhitini yaratishning samarali usullaridir.

Talabalarni naqshlarni tahlil qilish, ramzlarni talqin qilish va badiiy muammolarni hal qilishga undaydigan dars ishlanmalarini yaratish Xalq og‘zaki ijodi doirasida ularning mantiqiy fikrlash qobiliyatini oshirishi mumkin. Talabalarni namunalarni aniqlash muammolari, strategik rejalashtirishni talab qiladigan hamkorlikdagi badiiy loyihalar va badiiy uslublar bo‘yicha boshqariladigan munozaralar kabi mashg‘ulotlarga jalb qilish xalq amaliy san’atining nozik jihatlarini o‘zlashtirish uchun zarur bo‘lgan mantiqiy fikrlash va muammolarni echish ko‘nikmalarini rag‘batlantirishi mumkin. An’anaviy va zamonaviy uslublarni o‘zlashtirish San’at ta’limi An’anaviy uslublarni zamonaviy yondashuvlar bilan muvozanatlash.

Xalq og‘zaki ijodini (xalq ijodiyoti) o‘rgatish haqida gap ketganda, an’anaviy uslublar va zamonaviy yondashuvlarning to‘g‘ri aralashmasini topish muhim ahamiyatga ega. An’anaviy usullarning boy merosini zamonaviy vositalar va tushunchalar bilan muvozanatlash talabalarning o‘quv tajribasini boyitishi va san’at turini bugungi dunyoda dolzarbligini saqlab qolishi mumkin. Xalq og‘zaki ijod yo‘riqnomasiga texnologiyani kiritish ijodiy imkoniyatlar dunyosini ochishi mumkin. Dizayn va kashfiyot uchun raqamli vositalardan tortib, turli xalq san’ati an’analarini o‘rganish uchun onlayn manbalargacha texnologiyani qamrab olish talabalarning ushbu noyob san’at turini tushunish va qadrlashini oshirishi mumkin. Badiiy ta’limda muvaffaqiyatli integratsiya modellarini o‘rganish badiiy ifodani tanqidiy fikrlash bilan samarali uyg‘unlashtirish bo‘yicha qimmatli tushunchalarni berishi mumkin. O‘qitishning innovatsion yondashuvlari bo‘yicha amaliy tadqiqotlarni o‘rganish orqali o‘qituvchilar ilg‘or tajribalarni o‘rganishlari va ularni o‘z sinflarida qo‘llashlari mumkin. Badiiy ifodani tanqidiy fikrlash bilan uyg‘unlashtirgan namunali loyihalarni ta’kidlash ham o‘qituvchilarni, ham o‘quvchilarni ilhomlantirishi mumkin. Bunday integral loyihalar orqali erishish mumkin bo‘lgan ijodkorlik va fikr teranligini namoyish qilish boshqalarni Xalq og‘zaki ijod ta’limiga yondashishning yangi usullarini izlashga undashi mumkin.

STEM ta’limining ildizlari XX asrning o‘rtalariga borib taqaladi. 1957-yilda Sobiq Sovet Ittifoqi tomonidan “Sputnik” sun’iy yo‘ldoshi orbitaga chiqarilganidan so‘ng, jahondagi ko‘plab davlatlar o‘z ta’lim tizimlarida fan, texnologiya, muhandislik va matematikaga ustuvorlik bera boshladilar. Asosiy maqsad o‘quvchilarni mazkur sohalarda kasbiy faoliyatga tayyorlash va ularga zamonaviy, tez o‘zgarayotgan global iqtisodiyotda kerak bo‘ladigan texnik ko‘nikmalarni singdirish edi. Ayniqsa, Amerika mamlakatlari Sovuq Urush davrida ustunlikni saqlab qolish maqsadida STEM yo‘nalishi rivojiga katta e’tibor qaratdi. STEM ingliz tilidagi Science (ilm-fan, asosan, tabiiy fanlar), Technology (Texnologiya), Engineering (Muhandislik) va Mathematics (Matematika) sohalari nomlarining qisqartmasi hisoblanadi. Ammo faqat aniq fanlarga urg‘u berilgan bu ta’lim dasturi o‘quvchi va talabalarda ijodkorlik va obrazi fikrlash qobiliyatlarini cheklagani uchun unga 2000-yillar oxirida Art (san’at: dizayn, tasviriy san’at, musiqa, drama vaijodiy fikrlash) qismi qo‘shildi va yangi STEAM ko‘rinishida yangilandi. Bugungi kunda mehnat bozoridagi ishchilarning nafaqat texnik malakalarga ega bo‘lishi, balki tanqidiy fikrlash va uni ommaga etkaza olishi muhim talab sifatida qaralayotgan bir paytda STEAM ta’lim dasturi o‘quvchi va talabalarni bu boradagi kamchiliklarini bartaraf etishlariga yordam beradi. Ta’lim jarayonlarida “Turfa zakovatlar” nazariyasi ko‘zda tutgan maqsadga xizmat qiluvchi STEAM dasturini qo‘llash ta’lim samaradorligini oshirishda muhim ahamiyatga ega. Chunki o‘quv materialidagi obektiv borliqni turli fanlarning tekshirish obekti jihatidan o‘rganish imkoniyatini beradi. STEAM yondashuvi “Alpomish” dostonini o‘qitishda samarali, chunki u o‘quvchilarga bir vaqtning o‘zida ilmiy, texnologik, ijodkorlik, muhandislik va matematik ko‘nikmalarni rivojlantirish imkonini

beradi. Bu yondashuv, o‘z navbatida, o‘quvchilarning ijodiy, tanqidiy fikrlash, jamoada ishlash, milliy qadriyatlarni tushunish va amaliy bilim olishlarini ta’minlaydi. Fanlararo yondashuvni talab qiladigan (adabiyot, biologiya, kimyo, psixologiya va boshqalar bilan birgalikda qaralgan) va javobni tayyor shaklda bermay, balki o‘quvchini mustaqil izlanishga, izoh berishga va ilmiy asoslashga undaydigan fanlararo integratsiyalashgan muammoli ta’lim metodikasi “Turfa zakovatlar” ga ega bo‘lgan o‘quvchilarni STEAM asosida o‘qitishda yordam beradi. Bunda o‘quvchilar uchun umumiy bitta topshiriq ustida emas, ixtiyoriy ravishda tanlash imkoniyati beriladigan individual vazifalar bo‘yicha ishlashga undaladi. Fanlararo integratsiyalashgan muammoli-ta’lim metodikasi (STEM asosida) topshiriqlar berish quyidagicha amalga oshiriladi:

S -Ilm-fan (Science):

1. “Alpomish” dostonidagi qahramonlarning oilaviy shajarasini tuzing. (tabiiy fanlar)
2. Egizak farzandlarning ham farzandlari egizak bo‘lishlari ehtimoli qancha? (tabiiy fanlar) Ushbu savol va topshiriqlar, asosan, tabiiy fanlarning obektiga bog‘liq bo‘lgani uchun Science bo‘yicha muqobillashadi.

T -Texnologiya (Technology):

1. Canva yoki Scratch dasturida Alpomish, Qaldirg‘ochoyim va Barchinoyning beshik to‘y marosimi animatsiyasini yarating.
2. Canva yoki Scratch dasturida Alpomishning bobosidan qolgan 14 botmonlik brinj yoyni ko‘tarish sahnasi aks etgan animatsiya yarating. Ushbu topshiriqlar blog yuritish va turli kontentlarni yaratib, o‘z auditoriyasini yaratishga qiziqqan o‘quvchilar uchun mos. Ular bu dasturlarda yaratgan animatsiyalar orqali maktabda ham o‘z kuzatuvchilariga ega bo‘lishi mumkinligi haqida tushuntirish berilsa, ushbu vazifalarni bajarish ular uchun yanada qiziqarli bo‘ladi.

E - **Muhandislik (Engineering):**

1. Alpomishning bobosidan qolgan 14 botmonlik brinj yoyning taxminiy ko‘rinishini yasang.
2. Barchinoyning alplarga qo‘ygan to‘rt shart (ot poygasi, yoy tortish, ming qadamdan tanga pulni urish va kurash)i aks etgan “Maqsad xaritasi” ni chizing. Ushbu topshiriqlar obektiv borliqning vizual ko‘rinishini taxminiy asoslarda shakllantirish orqali vazifani bajarishga undaydi.

San’at (Arts):

1. Zakot olish tartibi haqida diniy va tarixiy manbalardagi ma’lumotlarni o‘rganing.
2. Yortiboyning majlisdagi holati aks etgan rasm chizing. Ushbu topshiriqlar masalaga ijodiy yondashishni talab qiladi va o‘quvchilarda ijodkorlik, notiqlik ko‘nikmalarini shakllanishiga yordam beradi.

M-Matematika fanlari (Mathematics):

1. Boybo‘ri va Boysarining Shohimardon pir ravzasiga farzand tilash uchun borishi voqealari necha kunni qamrab olgan? (3 kun borish-kelish + 40 kun tunash = 46 kun)
2. Qirq kechayu qirq kunduz to‘y necha kunda o‘tkazilgan?

Albatta, adabiyotning vazifasi sifatida komil insonni tarbiyalash va badiiy-estetik didni shakllantirish ham turadi. Badiiy kontekstni raqamli va aniq o‘lchovlarga asoslangan kategoriyalarga solib o‘rganish uning badiiyatiga salbiy ta’sir qiladi degan fikrlar mavjud bo‘lishi mumkin. Bunda dars jarayonini tashkil etishda STEAM yondashuvini yordamchi vosita sifatida ko‘rilishi, dastlab “Alpomish” dostonidagi milliy qadriyatlar va obrazlarning milliylikka doir xarakteristikasi o‘qituvchi tomonidan ochib berilishi lozim. Hozirgi zamon o‘quvchisining faolligi va dars samaradorligini oshirishda ushbu yondashuv muhim ahamiyatga ega. Chunki zamonaviy texnologiyalar va ixtirolar dunyosidagi ta’sirlar kuchini insonlar hayotidan cheklash qiyin. Lekin uning samarali jihatlarini inobatga olgan holda insoniyatga, xususan, ta’lim jarayoniga xizmat qildirish mumkin. “Turfa zakovatlar” nazariyasiga ko‘ra mavjud bo‘lgan turli darajada shakllangan intelektga ega o‘quvchilarga dars jarayonlaridagi o‘qitish usullarini moslashtirishda STEAM yondashuvi nafaqat o‘quvchilar faolligini oshiradi, balki ularni tahliliy- tanqidiy fikr yuritishga, o‘zlashtirgan bilimlarini amaliyotda qo‘llashga yordam beradi. Fanlararo integratsiyalashgan muammoli ta’lim metodikasini STEAM yondashuvi asosida H.Gardner g‘oyalariga asoslanib, yuqorida qayd etilgan topshiriqlarga o‘xshash vazifalarni berish orqali qo‘llash o‘quvchilarning o‘quv materialini o‘zlashtirishida amaliy jihatdan foydali bo‘lishi mumkin. O‘quvchilar o‘zlari uchun qulay bo‘lgan faoliyat turini tanlab, vazifalarni bajarishda ijodkorona yondashuvga harakat qiladi. Bunday shakldagi dars davomida “Alpomish” dostoni nafaqat adabiy obraz sifatida, balki tarixiy, matematik, texnologik va san’at kontekstida ham tahlil qilinadi. Bu yondashuv orqali o‘quvchilarda ko‘p qirrali fikrlash va tahliliy yondashuv shakllanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1.The History of STEAM Education: From STEM to STEAM [Elektron resurs]

https://futurumacademy.com/the-history-of-steam-education-from-stem-to-steam/

2.Safarov, O., Jamilova, B., Safarova, N. Bolalar adabiyoti va folklor. – Toshkent: Turon zamin ziyo, 2015. – 256 b.

3.Viens J., Kallenbach S. Multiple intelligences and adult literacy: A sourcebook for practitioners. – New York: Teachers College Press, 2003. – 223 p.

4. Yo‘ldoshev Q., Qodirov V., Yo‘ldoshbekov J. Adabiyot: Umumiy o‘rta ta’lim maktablarining 9-sinfi uchun darslik. – T.: 2019

SHE’RIYATDA VATAN MAVZUSI
(Muhiddin Omon she’riyati misolida)

Gulnoza ZIYOUDDINOVA,
Mustaqil izlanuvchi.

Annotatsiya

Mazkur maqolada zamonaviy o‘zbek shoiri Muhiddin Omon she’riyatida Vatan mavzusining badiiy-estetik va g‘oyaviy talqini tahlil qilinadi. Tadqiqotda shoirning “Biznikidir dunyolar” va “Azim Samarqand” she’rlari misolida Vatan konseptining ko‘p qatlamli semiotik tizim sifatida namoyon bo‘lishi, milliy-madaniy kodlar (“Humo”, “Hilol”, “Tug‘ro”, “Turon”) hamda ramziy obrazlarning poetik vazifasi o‘rganiladi. Vatan tushunchasi shoir ijodida muqaddaslik kategoriyasi, tarixiy xotira va milliy o‘zlik bilan uzviy bog‘liq holda gavdalanishini, ijtimoiy ideallarning individuallashtirilishini hamda tabiat obrazlarining semiotik funksiyasi ko‘rsatib beriladi. Tahlillar Muhiddin Omon ijodida Vatan mavzusi nafaqat badiiy-estetik kategoriya, balki milliy ong va ma’naviy qadriyatlar tizimining markaziy elementi ekanligini asoslaydi.

Kalit so‘zlar: Vatan konsepti, Muhiddin Omon, zamonaviy o‘zbek she’riyati, vatanparvarlik, milliy o‘zlik, tarixiy xotira, poetik ramz, milliy-madaniy kod, semiotik tahlil, lirik qahramon.

Abstract

This article analyses the artistic-aesthetic and ideological interpretation of the theme of the Homeland (Vatan) in the poetry of the contemporary Uzbek poet Muhiddin Omon. Drawing on the poems “Biznikidir dunyolar” (“The Worlds Are Ours”) and “Azim Samarqand” (“The Great Samarkand”), the study examines how the concept of the Homeland emerges as a multilayered semiotic system, and explores the poetic function of national-cultural codes (“Humo”, “Hilol”, “Tug‘ro”, “Turon”) and symbolic imagery. The author shows that in the poet’s work the notion of the Homeland is intertwined with the category of sacredness, historical memory and national identity, that social ideals are individualised, and that nature imagery performs a semiotic function. The analysis substantiates that the theme of the Homeland in Muhiddin Omon’s poetry is not merely an artistic-aesthetic category but a central element of national consciousness and the system of spiritual values.

Keywords: concept of Homeland, Muhiddin Omon, contemporary Uzbek poetry, patriotism, national identity, historical memory, poetic symbol, national-cultural code, semiotic analysis, lyrical hero.

Zamonaviy o‘zbek she’riyatida, xususan, Muhiddin Omon she’rlarida Vatan mavzusi markaziy estetik va ideologik kategoriyalardan biri sifatida namoyon bo‘ladi. Filologiya fanlari doktori Y.Hamdamov Muhiddin Omon ijodida Vatan mavzusi haqida gapirar ekan, “Muhiddin Omon she’rlarida vatanparvarlik, el-u yurt koriga yarash, ona zaminga sadoqat singari kechinmalar tuyg‘ularning ichki tovlanishlari tarzida ifodalanadi. O‘tgan yillar davomida uning qator she’rlari to‘plam bo‘lib, o‘quvchilar qo‘liga yetib bordi”[120], - degan fikrni bildiradi. Uning “Diydoringni quyosh sog‘inar”, “Biznikidir dunyolar”, “Ota makonim”, “Azim Samarqand”, “Farg‘ona manzumasi”, “Kim bilmaydi Buxoroni”, “Humoli yurt – O‘zbekiston”, “Qadim yurt navolari”, “Qomusim”, “Navoiy-30”, “Orzumandlik” singari she’rlarida Ona Vatan yuqori pardalarda kuylanadi. Filologiya fanlari nomzodi H.Hamroyeva shoirning mazkur mavzudagi she’rlari haqida gapirar ekan, “Uning Vatan haqidagi she’rlarida tafakkur va samimiy tuyg‘uning mujassamligi tufayli poetik mazmun teranligi yuqori pardalarga ko‘tariladi”[121], - degan edi. Chindan ham, shoir she’rlarida Vatan shunchaki tilga olinmaydi, quruq maqtovbozlik obyektiga aylanib qolmaydi. U Vatanni chin yurakdan sevadi, chin qalbdan ardoqlaydi. Undagi har bir o‘zgarishdan ko‘nglida cheksiz g‘urur va iftixor tuyadi. Misol uchun, shoirning “Biznikidir dunyolar” she’rida Vatan o‘tmish xotiralari, bugunning yorug‘ligi va kelajakning porloqligi fonida oxorli tasvirlar bilan beriladi:

Subhi sodiq saharlarda mustajobdir duolar,
Boshimizda qanot qoqar tushga kirgan Humolar,
Ko‘ngil ozod, Vatan obod, biznikidir dunyolar,
Yurt tinchligi, el ravnaqi – maqsadi a’molimiz,
Kundan-kunga nurafshondir tole-yu iqbolimiz!

She’rning dastlabki (“Subhi sodiq saharlarda mustajobdir duolar”) misralaridayoq Vatan konsepti ilohiylik bilan uyg‘unlashtirilgan holatda beriladi. “Subhi sodiq” va “mustajob duolar” so‘z birikmalari vositasida muallif milliy makon va ilohiylik o‘rtasida mazmuniy parallellik yaratadi. Bu usul esa Vatan mavjudligini o‘quvchi ko‘z o‘ngida ilohiy ne’mat darajasiga ko‘tarilishiga xizmat qiladi. Shu jihatdan, birinchi bandda Vatan muqaddaslik kategoriyasi bilan chambarchas bog‘langan tushuncha sifatida gavdalanadi. Shoir Vatan ozodligini inson qalbining hurligi bilan uzviy bog‘liqlikda ifodalar ekan, bu orqali qaram xalqning fuqarolari qalbi istiqlolsiz ozod, erkin bo‘la olmasligiga

[120]Hamdam Y. Yangi o‘zbek she’riyati. - Toshkent: Adib, 2012. -B. 112.

[121]Hamroyeva H. Zamonaviy o‘zbek she’riyatida Vatan obrazi // O‘zbek tili va adabiyoti. 2022. No. 3. - B. 47.

ishora qiladi. Misralardagi ozodlik, obodlik va egalik tushunchalari bir semantik qatorga joylashtiriladi va Vatan konseptining aksiologik mohiyati ochib beriladi. Shu bilan birgalikda, “Yurt tinchligi, el ravnaqi – maqsadi a’molimiz” misrasi vositasida shoir ijtimoiy ideallarni individuallashtiradi, ya’ni ularni har bir fuqaroning shaxsiy maqsadiga aylantiradi. Bu esa vatanparvarlik tushunchasini abstrakt maqomdan konkret ijtimoiy faoliyat darajasiga olib chiqadi.

Ikkinchi bandda shoir istiqloldan butkul mast bo‘ladi, mustamlakachilik zanjirlarining butkul yo‘q bo‘lganidan qalbi farahga to‘ladi. Yillar davomida yer bilan bitta qilingan asriy meroslarimizning haqiqiy bahosini topayotganligidan quvonadi:

Istibdodning kishanlari uzilgani rost bugun,
Qadrin topib, jilolanar har oltin meros bugun,
O‘zbek elim shavkatiga jahoniylik xos bugun,
Dilda iymon chashmasidur no‘sh etar zilolimiz,
Ma’naviyat qubbasida Tug‘romiz, Hilolimiz.

Bandda istifoda etilgan “Humo”, “Hilol”, “Tug‘ro” kabi ramziy obrazlar milliy-madaniy kodlarning poetik ifodasi sifatida alohida ahamiyat kasb etadi. Xususan, “tushga kirgan Humolar” obrazi baxt-u iqbol timsoli bo‘lib, she’rda u Vatan ravnaqini bashorat qiluvchi poetik belgiga aylanadi. “Ma’naviyat qubbasida Tug‘romiz, Hilolimiz” misrasida esa davlat ramzlari va diniy belgilar o‘ziga xos garmoniya hosil qilib, milliy o‘zlikning integral modeli yaratiladi. Bu yerda shoir Vatan tushunchasini faqat hududiy chegaralar bilan emas, balki ma’naviy-madaniy identifikatsiya vositalari orqali kengaytiradi. Natijada, she’rda Vatan konsepti ko‘p qatlamli semiotik tizim sifatida namoyon bo‘lishi ta’minlanadi[122].

She’rning uchinchi bandida shoir o‘quvchi tasavvurida milliy xotirani poetik rekonstruksiya qilishga urinadi, uni milliy davlatchilik suv ichgan qadim o‘zanlarga boshlaydi:

Qadim Turon zamini bu, to‘tiyodur tuprog‘i,
Ulug‘larning yodi bilan nurafshon dil chirog‘i,
Bunda tarix so‘ylab turar har chinorning yaprog‘i,
Shul Vatandan bahra olgan zehnimiz, kamolimiz,
Oydan oydin, kundan ko‘rkli ro‘yimiz, jamolimiz.

Banddagi “Qadim Turon zamini bu, to‘tiyodur tuprog‘i” misrasida shoir Vatan obrazi talqinida retrospektiv vaqtdan samarali foydalanadi. Chunki u

[122]Qarang: Лотман Ю.М. Семиосфера. - Санкт-Петербург: Искусство-СПБ, 2000. - С. 250-255.

“Turon” atamasini qo‘llar ekan, mazkur tushuncha qatidagi umumlashma ma’noni bandda o‘quvchi ongiga ta’sir qilish quroli sifatida ishlatadi. Bu tushuncha milliy o‘zlikning arxaik ildizlariga murojaatni ifodalab, tarixiy xotirani poetik rekonstruksiya qilishga yordam beradi. Natijada, zamonaviy Vatan tushunchasining tarixiy davomiylik prizmasida talqin etilishiga erishiladi. Banddagi “Bunda tarix so‘ylab turar har chinorning yaprog‘i” misralarida shoir yurtning har bir farzandini yaproqlar obrazi vositasida uning bir parchasi ekanligini bayon qiladi. Tabiat va tarix o‘rtasidagi semantik sintezdan ustalik bilan foydalangan shoir chinor obrazini metaforik ko‘chim vositasida Vatanga qiyoslar ekan, uni milliy xotiraning tirik guvohi sifatida talqin etadi. Har bir insonni esa tarixiy informatsiya tashuvchisiga aylantiradi. Bu esa shoir poetik tafakkuriga tabiatning semiotik funksiyasi ta’siri yuqori ekanligidan dalolat beradi. Mazkur she’r O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan artist Lola Ahmedova tomonidan maromiga yetkazib ijro qilingan va xalqimiz tomonidan iliq qarshi olingan. Ijtimoiy tarmoqlarda, xususan, YouTube platformasida bu qo‘shiq ko‘rishlar soni bo‘yicha yuqori o‘rinlarda turganining o‘zi ham qo‘shiqning muxlislar qalbidan joy egallaganidan dalolat beradi. Bu esa xonandaning mahorati bilan bir qatorda shoir qalamining o‘tkir, xalqona ekanligidan dalolat beradi.

Muhiddin Omon she’r haqida gapirar ekan: “Mening birinchi kitobim” loyihasining ijtimoiy mazmun-mohiyati yurtimizda kamol topayotgan bugungi yoshlarning kelajakka ishonchi, istiqlol bergan imkoniyatlardan foydalangan holda ijodda ham, ilmu fanda ham erishayotgan yutuqlarini, shukronalik hislarini tarannum etish; osuda va tinch hayotimizni, yurtimizdagi bunyodkorlik ishlarini kuylash, Vatanni sevish, ardoqlash, unga munosib bo‘lish kabi tuyg‘ularni ifodalashdan iborat bo‘lmog‘i kerak.

Bu, albatta, soxta vatanparvarlik, Ona yurt, milliy qadriyatlar, xalqqa sadoqat kabi ulug‘ tuyg‘ularni huda-behudaga she’rga tiqishtirishni anglatmaydi, balki ijodkorlarning ana shu tuyg‘ularga o‘z iqtidori, ijodiy imkoniyatlari darajasidagi samimiy munosabatini bildiradi”[123], - degan edi. Ko‘rinadiki, u she’rda Vatanga munosabat samimiy bo‘lishini istaydi. O‘zi esa Ona yurtga bundan o‘zgacha munosabatda bo‘lmaydi, bo‘la olmaydi. Uning shoir qalbi, hassos yuragi Vatanni chindan sevadi, chindan e’tirof etadi. Xususan, shoirning “Azim Samarqand”, “Kim bilmaydi Buxoroni?”, “Farg‘ona manzumasi” she’rlarida yurtimizning ko‘hna shaharlari yuksak mahorat bilan, samimiy ohanglarda kuylanadi. “Azim Samarqand” she’rida shoir Samarqandni faxr bilan “bashariyat ko‘rki” deb ataydi. Mazkur she’r qadim Samarqandning 2750

[123]Muhiddin Omon. Saylanma she’rlar. - Toshkent, 2021. - B. 5.

yilligiga bag‘ishlab yozilgan bo‘lib, bu haqida H.Hamroyeva: “…she’rni o‘qir ekanmiz, muzaffar shaharlarimizning mangulikka daxldor yog‘dularini sezamiz. Satrlarda latif ohangdorlik va chuqur ma’nodorlikni, lirik-falsafiy ruhni his qilamiz. Go‘yoki qadimiy shaharlarning yog‘dulari asrlar va satrlar qa’ridan sizib, bizning tafakkurimizni yoritayotganga o‘xshaydi. Shoir o‘zbek xalqining ulug‘ tarixini davr ko‘zgusi bilan ko‘radi, bugungi kun nafasi bilan idrok etadi”[124], - deb yozadi. Chindan ham, ko‘hna Samarqandning har bir go‘shasi shoir uchun qadrli, aziz. U shaharning obidalari-yu qimmatli tarixini e’zozlaydi, alqaydi. Qutayba ibn Muslim, Chingizxon bosqiniga uchrasa-da qaqnus misol qayta-qayta chiroy ochavergan, dunyoga Mirzo Ulug‘bekday daholarni bergan, Sohibqiron Amir Temur maskan tutgan shahar shoir talqinida moziydan bugunga qadar o‘quvchi ko‘z oldidan bir-bir o‘tuvchi tasmaga aylanadi.

Bugun Seni boshda Humo qutlaydi,
Bobil, Afina-yu Rumo qutlaydi,
Ulug‘ yoshing bilan dunyo qutlaydi,
Muqaddas, muzayyan, azim Samarqand,
Senga bo‘lsin hazor ta’zim, Samarqand!

She’r yakunida esa shoir Samarqandni Bobil, Afina, Rim singari bashariyat tamadduni-ning qadim markazlari bilan teng, balki ulardan-da a’lo tutadi va qariyb o‘ttiz asrdan buyon dunyoni lol etib kelayotgan ko‘hna kentga hisobsiz ta’zim bajo keltiradi.

Xulosa

Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, Muhiddin Omon ijodida Vatan mavzusi ko‘p qirrali, murakkab va chuqur falsafiy mazmunga ega bo‘lib, u nafaqat badiiy-estetik kategoriya, balki milliy ong va ma’naviy qadriyatlar tizimining markaziy elementi sifatida namoyon bo‘ladi. Shoir Vatan konseptini muqaddaslik, tarixiy xotira, milliy-madaniy kodlar va tabiat obrazlarining semiotik funksiyasi orqali ko‘p qatlamli badiiy tizim sifatida gavdalantiradi. Natijada, Vatan mavzusidagi she’rlar o‘quvchini nafaqat estetik zavqqa chorlaydi, balki uni milliy o‘zlikni anglash, tarixiy xotirani qadrlash va Vatanga sadoqat ruhida tarbiyalashga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Hamdam Y. Yangi o‘zbek she’riyati. - Toshkent: Adib, 2012.
2. Hamroyeva H. Zamonaviy o‘zbek she’riyatida Vatan obrazi // O‘zbek tili va adabiyoti. – Toshkent, 2022. No. 3. - B. 45-50.

[124]Hamroyeva H. O‘sha asar. - B. 49.

3. Muhiddin Omon. Saylanma she’rlar. - Toshkent, 2021.
4. Sulton I. Adabiyot nazariyasi. - Toshkent: O‘qituvchi, 2005.
5. Quronov D. Adabiyotshunoslikka kirish. - Toshkent: Akademnashr, 2018.
6. Yo‘ldoshev Q. Yoniq so‘z. - Toshkent: Yangi asr avlodi, 2006.
7. Karimov N. XX asr o‘zbek adabiyoti tarixi. - Toshkent: Mumtoz so‘z, 2010.
8. Lotman Yu.M. Semiosfera. - Sankt-Peterburg: Iskusstvo - SPB, 2000.

MAKTABGACHA TA’LIM TASHKILOTI PEDAGOGLARINING KREATIVLIGINI RIVOJLANTIRISH

Boymirzayeva Shahnoza Olimjon qizi,
Qo‘qon universiteti o‘qituvchisi
boymirzayevashahnoza98@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada maktabgacha ta’lim tashkilotlarida faoliyat yuritayotgan pedagoglarning kreativligini rivojlantirishning ahamiyati, metodlari va amaliy yondashuvlari yoritilgan. Maktabgacha ta’lim tashkiloti pedagoglarining yangicha fikrlashi, muammolarga noodatiy yechimlar topishi va ta’lim-tarbiya jarayonini innovatsion yondashuvlar asosida tashkil etishi katta ahamiyat kasb etadi.

Shuningdek, maqolada maktabgacha ta’lim tashkilotlarida faoliyat yuritayotgan pedagoglarning kreativlik salohiyatini rivojlantirish masalasi keng yoritilgan. Maqolada kreativlik tushunchasining mazmun-mohiyati, uning pedagogik faoliyatdagi ahamiyati hamda zamonaviy ta’lim jarayonida pedagoglardan talab etilayotgan kasbiy kompetensiyalar bilan uzviy bog‘liqligi ilmiy-nazariy asosda tahlil etilgan. Xususan, tarbiyachilarning yangicha fikrlashi, muammolarga noodatiy va samarali yondasha olishi, bolalarning individual xususiyatlarini rivojlantirishga xizmat qiluvchi innovatsion g‘oyalarni ishlab chiqishi va amaliyotga tatbiq etishi pedagogik jarayonning asosiy talablaridan biri sifatida e’tirof etiladi.

Maqolada pedagogik kreativlikni rivojlantirish yo‘llari, metodik yondashuvlar, tarbiyachining o‘z ustida ishlashga bo‘lgan ehtiyoji, ilmiy-tadqiqot va loyihaviy faoliyat orqali ijodiy salohiyatni kengaytirish kabi masalalar ham ko‘rib chiqilgan. Kreativlikning shaxsiy, kasbiy va ijtimoiy rivojlanishga ijobiy ta’siri, pedagog shaxsining mustaqil fikrlovchi, tashabbuskor va innovatsion g‘oyalarga ochiq bo‘lishi zamonaviy ta’lim talabi ekanligi asoslab berilgan. Maqolada pedagoglarning kreativlik ko‘nikmalarini

shakllantirishga qaratilgan takliflar ilgari surilgan bo‘lib, ular orasida malaka oshirish kurslari, ijodiy tanlovlar tashkil etish, ilmiy-tadqiqot faoliyatini rag‘batlantirish, reflektiv yondashuvlarni joriy etish kabi amaliy choralar mavjud. Ushbu takliflar orqali nafaqat tarbiyachilarning kasbiy salohiyati oshiriladi, balki maktabgacha ta’lim sifatining yangi bosqichga ko‘tarilishiga zamin yaratiladi.

Kalit so‘zlar: kreativlik, innovatsiya, pedagog, maktabgacha ta’lim, tarbiyachi, metodika, ijodiy fikrlash, pedagogik texnologiya, kasbiy mahorat

Abstract: This article discusses the importance, methods and practical approaches to developing the creativity of teachers working in preschool educational organizations. It is of great importance for preschool educational organizations to think in a new way, find unusual solutions to problems and organize the educational process based on innovative approaches.

The article also extensively covers the issue of developing the creative abilities of teachers working in pre-school educational organizations. The article analyzes the content and essence of the concept of creativity, its importance in pedagogical activity, and its close connection with the professional competencies required of teachers in the modern educational process on a scientific and theoretical basis. In particular, the ability of educators to think innovatively, to approach problems in an unusual and effective way, and to develop and implement innovative ideas that serve to develop the individual characteristics of children is recognized as one of the main requirements of the pedagogical process.

The article also considers such issues as ways to develop pedagogical creativity, methodological approaches, the need for the educator to work on himself, and expanding creative abilities through research and project activities. It is argued that the positive impact of creativity on personal, professional and social development, and the fact that the teacher should be an independent thinker, an innovator and open to innovative ideas are a requirement of modern education. The article puts forward proposals aimed at developing the creative skills of teachers, including practical measures such as advanced training courses, organizing creative competitions, encouraging research activities, and introducing reflective approaches. These proposals will not only increase the professional competence of educators, but also create the basis for raising the quality of preschool education to a new level.

Keywords: creativity, innovation, teacher, preschool education, educator, methodology, creative thinking, pedagogical technology, professional skills

Mavzuning dolzarbligi: Hozirgi kunda jamiyatning, fan va madaniyatning rivojlanishi ta’lim va tarbiya ishlarining qay yo‘sinda olib borilishiga bog‘liq

ekanligi sir emas. Bu falsafiy aqida har bir davlatning ahamiyatga ega bo‘lgan ijtimoiy qonuniyatlaridan biri bo‘lib hisoblanmoqda. Davlatning buyuk kelajagi, albatta, yoshlarni chuqur bilimli va barkamol shaxs taqdiri bilan bogliqligini unutmagan holda, ushbu muammoni mahoratli va bilimli pedagoglar faoliyatiga tayanib yechish mumkinligini unutmasligimiz kerak. Bugungi kunda jahon miqiyosida ta’lim tizimini va ayniqsa maktabgacha ta’lim tizimini rivojlantirish, maktabgacha yoshdagi bolalarni ilg‘or pedagogik texnologiyalari asosida tarbiyalash va ijtimoiylashtirish masalasi muhim ahamiyat kasb etib kelmoqda. Jumladan O‘zbekiston Respublikasida ijtimoiy taraqqiyotini ta’minlovchi ustuvor yo‘nalishlardan biri sifatida ta’lim sohasi e’tirof etilmoqda. Ustuvor soha bo‘lgan ta’lim tizimini tubdan takomillashtirish, uni mazmunan boyitish, ta’lim tizimiga ilg‘or pedagogik texnologiyalarni joriy etish va rivojlangan ta’lim darajasiga ko‘tarish mamlakatda olib borilayotgan ta’limiy islohotlarning asosiy g‘oyasi hisoblanadi. Hozirgi kunda O‘zbekiston Respublikasida amalga oshirilayotgan ulkan islohatlarning muvaffaqiyati eng avvalo odamlarning o‘z ishlariga ma’suliyat bilan qarashlariga kundalik mehnat faoliyatida mamlakat taraqqiyotiga hissa bo‘libqo‘shiladigan savobli ishlarni qila olishlariga bog‘liq. Jamiyatda pedagog (o‘qituvchi, tarbiyachi) birinchidan, o‘sib kelayotgan avlodni tarbiyalash, ikkinchidan mehnatkash xalqimizga har tomonlama bilim berishdek savobli vama’suliyatli vazifalarni bajaradi.

Har qanday jamiyatda barkamol avlodni tarbiyalash, voyaga yetkazish hamda uni ma’lum bir kasbga yo‘naltirish og‘ir va mashaqqatli mehnat evaziga amalga oshiriladi. Bu mashaqqatli mehnat uzluksiz ta’lim va tarbiyaviy faoliyatning mahsulidir. Shaxs tarbiyasi xususiy ish emas, balki milliy, ijtimoiy va davlat ishidir. Yurtimizning kelajagi, mustaqil O‘zbekistonning istiqboli, ta’lim sohasida olib borilayotgan ko‘plab islohotlarning muvaffaqiyati ko‘p jihatdan tarbiyachi-o‘qituvchiga, uning saviyasiga, tayyorgarligiga, fidoyiligiga, yosh avlodga ta’lim berish va barkamol inson darajasida tarbiyalab, voyaga yetkazishga nisbatan shijoatiga bog‘liq.

Ma’lumki, maktabgacha ta’lim tashkilotlarida tarbiyaviy jarayon bevosita tarbiyachi tomonidan tashkil qilinadi va olib boriladi. Yangicha ijtimoiy sharoitda ta’lim-tarbiyadan ko‘zda tutilayotgan maqsadlarga erishish, tarbiyachilarning mashg‘ulot va mashg‘ulotdan tashqari xilma-xil tarbiyaviy faoliyatlarini uyushtirish, ularni bilimli, odobli, e’tiqodli, vatanparvar, mehnatsevar, barkamol inson qilib o‘stirish va maktab ta’limiga tayyorlash tarbiyachilar zimmasiga yuklatilgan.

Bugungi kun tarbiyachisi uchun eng muhimi–bu insonparvar va tolerant bo‘lishi xisob lanadi. Pedagog juda yuksak darajadagi madaniyatga ega bo‘lgan shaxsdir. U juda ko‘p tarmoqli bo‘lishi darkor. Hozirgi zamonda tarbiyachi

mashg‘ulot jarayonida o‘z sohasiga oid yutuqlardan, yangiliklardan xabardor bo‘lishi, ulardan faoliyati davomida unumli foydalana olishi kerak. Tarbiyalanuvchilarga mashg‘ulotlar jarayonida yangiliklardan xabardor etib, o‘rgatib borish uchun o‘z ustida ishlashi, muntazam o‘rganib, o‘qib, o‘z bilimini to‘ldirib, chuqurlashtirib borishi lozim. Shuningdek, tarbiyachining kasbiy mahoratning asosi o‘z ustida mustaqil ishlashidir.

Bir so‘z bilan aytganda bugungi kun tarbiyachisida kasbiy kreativlik sifatlari mavjud bo`lishi lozim.

Kreativlik (lot.,ing.«create «yaratish, «creative «yaratuvchi, ijodkor)degan ma’nolarni anglatadi. Individning yangi g‘oyalarni ishlab chiqarishga tayyorlikni tavsiflovchi hamda mustaqil omil sifatida iqtidorlilikning tarkibiga kiruvchi ijodiy qobiliyati ma’nosini ifodalaydi. Shaxsning kreativligi uning tafakkurida, muloqotida va his- tuyg‘ularida hamda muayyan faoliyat turlarida namoyon bo‘ladi. Kreativlik shaxsni yaxlit holda yoki uning muayyan xususiyatlarini va zehni o‘tkirlikni tavsiflaydi. Shuningdek, iqtidorning muhim omili bu kreativlik hisoblanadi.

Amerikalik psixolog P.Torrensning fikricha, kreativlik muammo yoki ilmiy farazlarni ilgari surish; farazni tekshirish va o‘zgartirish; qaror natijalarini shakllantirish asosida muammoni aniqlash; muammo yechimini topishda bilim va amaliy harakatlarning o‘zaro qarama-qarshiligiga nisbatan ta’sirchanlikni ifodalaydi. Boshqa har qanday sifat (fazilat) kabi kreativlik birdaniga shakllanmaydi. Kreativlik muayyan bosqichlarda izchil shakllantirib va rivojlantirilib boriladi.[125]

Pedagogning kreativlik sifatlariga ega bo‘lishi uning shaxsiy qobiliyatlari, tabiiy va ijtimoiy quvvatini kasbiy faoliyatni sifatli, samarali tashkil etishga yo‘naltiradi. Oliy ta’lim tizimida faoliyat yuritayotgan pedagoglarning kreativlik sifatlariga ega bo‘lishlari ularda o‘quv va tarbiya jarayonlarini tashkil etishga an’anaviy yondashishdan farqli yangi g‘oyalarni yaratish, bir qolipda fikrlamaslik, o‘ziga xoslik va tashabbuskorlik hamda noaniqlikka toqat qilmaslikka yordam beradi. Kreativlik sifatlariga ega pedagog kasbiy faoliyatini tashkil etishdaquyidagilarga: ijodiy yondashish, yangi, ilg‘or, bolalarning o‘quv faoliyatini, shaxsiy sifatlarini rivojlantirishga xizmat qiladigan g‘oyalarni yaratishda faollik ko‘rsatish, ilg‘or pedagogik yutuq va tajribalarni mustaqil o‘rganish, shuningdek, ham kasblar bilan pedagogik yutuqlar xususida doimiy, izchil fikr almashish tajribasiga ega bo‘lishga e’tibor qaratadi. Peddagoglarning kreativlik qobiliyatga ega bo‘lishlari odatda: pedagogik muammolarni hal qilishga intilish, ilmiy-tadqiqot ishlari yoki ilmiy loyihalarni amalga oshirish va o‘zaro ijodiy hamkorlikka erishishlari orqali ta’minlanadi, shakllantiriladi va u

[125] D.Elmuratova, N.Misirova “Pedagogik kompetentlik va kreativlik asoslari” o‘quv qo‘llanma. 105-b

asta- sekin takomillashib, rivojlanib boradi. Bo‘lajak pedagoglarning kreativlik qobiliyatiga ega bo‘lishlari kasbiy faoliyatni tashkil etishda izchil rivojlantirib boriladi. Shuningdek, bunda pedagogning o‘zini o‘zi ijodiyfaoliyatga yo‘naltirishi va bu faoliyatni samarali tashkil eta olishi muhim ahamiyat kasp etadi.

Pedagog ijodiy faoliyatni tashkil etishda muammoli masalalarni yechish va muammoli vaziyatlarni tahlil qilish, shuningdek, pedagogik xarakterdagi ijod mahsulotlarini yaratishga alohida e’tibor qaratishi lozim. Pedagog muammoli masala va vaziyatlarni hal qilar ekan, pedagogning masala yechimini topishga ijodiy yondashishi unda hissiy-irodaviy sifatlarning rivojlanishiga yordam beradi. Bo‘lajak tarbiyachi o‘z oldiga muammoli masalalarni qo‘yish orqali mavjud bilimlari va hayotiy tajribalariga zid bo‘lgan dalillarga duch keladi. Buning natijasida mustaqil o‘qib o‘rganishga nisbatan va o‘z ustida ishlashga bo‘lgan ehtiyoj sezadi. Pedagogning ilmiy-tadqiqot ishlari va ilmiy yoki ijodiy loyihalarni amalga oshirishi unda kreativlik potentsialini yanada oshishiga hizmat qilandi. Pedagog o‘z-o‘zidan ijodkor bo‘lib qolmaydi, uning ijodkorlik qobiliyati ma’lum vaqt ichida izchilik va tizimlilik bilan o‘qib-o‘rganishi, o‘z ustida ishlashi natijasida shakllanadi. Bo‘lajak pedagoglarning kreativlik qobiliyatiga ega bo‘lishlari uchun ta’lim oluvchilik yillarida poydevor qo‘yiladi va kasbiy faoliyatni tashkil etishda izchillikda va tizimlilikda rivojlantirib, shakllatirilib boriladi .Bunda tarbiyachining o‘zini o‘zi ijodiy faoliyatga yo‘naltirishi va bu faoliyatni samarali tashkil eta olishi muhim ahamiyat kasb etadi. Jumladan pedagog ijodiy faoliyatni tashkil etishda muammoli masalalarni yechish, muammoli vaziyatlarni tahlil qilish, shuningdek, pedagogik xarakterdagi ijod mahsulotlarini yaratishga alohida e’tibor qaratishi zarur. Zamonaviy ta’lim barcha turdagi ta’lim tashkilotlarida faoliyat yuritayotgan tarbiyachi, pedagoglarning ijodkor bo‘lishlarini taqozo etmoqda.

Bugungi kunda kreativlik dunyoda yuz berayotgan to‘rtinchi sanoat tamaddunining dvigateli-harakatga keltiruvchi kuchi sifatda izoxlanmoqda. Qayoqqa ko‘z tashlasangiz, har tomonda inson ijodkorligining beqiyos va hayratlanarli namunalariga duch kelasiz: elektron xizmatlar, virtual reallik, to‘rtburchak tarvuzlar, tuproqsiz hosil olish.Bularning barchasi inson tasavvuri, tafakkuri mahsuli. Bugungi kunda biz uchun odatiy tuyulgan kitob, musiqa, bino, samolyot, hatto lampalar ham qachonlar orzu va tasavvurda bo‘lgan, keyinchalik aql-idrok samarasi o‘laroq yaratilgan.

Xo‘sh, bo‘lajak tarbiyachilarni qanday qilib kreativ fikrlashga o‘rgatish mumkin?

Innovatsiya yaratish uchun tafakkurda qanday o‘zgarishlar bo‘lishi lozim?.

Shaxsda kreativlik sifatlarini rivojlantirish uchun dastlab bu tushunchaning mazmunini bilish lozim. Yuqorida aytib o`tganimizdek, kreativlik inglizcha

“create” so`zidan olingan bo‘lib, yaratish ma’nosini bildiradi. Kreativlik deganda insonning yangilik yaratish, muammolarni yechishga qaratilgan ijodiy qobiliyati tushunish mumkin. Kreativlikning tagzamirida amaliylik, noodatiylik va erkinlikni hamda originallik ko‘rish mumkin. Jumladan, kreativ fikrlash muayyan masala yuzasidan har tomonlama fikrlash, bir nuqtaga turli tomondan yondashishni anglatadi.

Kreativlik shaxsni rivojlantiruvchi kategoriya sifatida inson tafakkuri hamda ma’naviyatining ajralmas qismi hisoblanadi. Kreativlik shaxs ega bo‘lgan bilimlarning ko‘pqirrali ekanligida emas, balki yangi g‘oyalarga intilish, o‘rnatilgan stereotiplarni isloh qilish va o‘zgartirishda, hayotiy muammolarni yechish jarayonida kutilmagan va noodatiy qarorlar chiqarishda namoyon bo‘ladi. Ya’ni sodda qilib aytganda berilgan bilimlarni takrorlash orqali kreativlikka erishib bo‘lmaydi, ijodiy’ fikrlash jarayonida yangi fikr, yangi g‘oyaning paydo bo‘lishi shartdir. Misol uchun ingliz tilida so‘zlarni yodlab, grammatika qoidalarini “suv qilib ichib yuborgan” bo‘lsangiz ham, insho yozolmasangiz bularni barchasi bekor. Shu sababli kreativ fikrlash jarayonida tasavvur muhim rol o‘ynaydi.Albert Eynshteyn “Tasavvur — bilimdan muhim” deganida aynan mana shu jihatni nazarda tutgan.Ko‘pincha kutilmaganda inson xayoliga noodatiy fikrlar, yechimlar keladi. Buning uchun, avvalo, fikrlash jarayonidagi odatiylikka va bir xillikka barham berilishi lozim.

Shaxsda kreativlik sifatlarini rivojlantirish jarayonining umumiy mohiyatini to‘laqonli anglash uchun dastlab “kreativlik ’’ so‘zining ma’nosini tushunish lozim. J.Gilfodning fikricha, kreativlik va ijodiy imkoniyat, qobilyatlar va ijodiy tafakkurga ta`sir etuvchi omillar yig‘indisi sifatida namoyon bo‘ladi. Ken Robinsonning fikricha, “kreativlik – o‘z qiymatiga ega original g‘oyalar majmui” (Azzam, 2009 y.) sanaladi. Gardner bo‘lsa, o‘z tadqiqotlarida kreativlik tushunchasini shunday izohlaydi: “kreativlik – shaxs tomonidan amalga oshirilaigan amaliy harakat bo`lib, u o‘zida muayyan yangilikni aks ettirishi va ma`lum amaliy qiymatga ega bo`lishi lozim”. Emebayl (1989 y.)ning yondashuvi nuqtai nazaridan ifodalansa, kreativlik “muayyan soha bo‘yicha o‘zlashtirilgan puxta bilimlar bilan birga yuqori darajada noodatiy ko‘nikmalarga ham ega bo‘lish” demakdir. Juda ko‘plab tadqiqotlarda intellekt va kreativlik o‘rtasidagi aloqadorlik xususida turlicha qarashlar mavjud. Bir guruh tadqiqotchilar ular o‘rtasida hech qanday bog‘liqlik yo‘q ekanligini uqtirsalar, ikkinchi guruh vakillari kretivlik va intellekt darajasi bir-biriga bog‘liq ekanligini ta’kidlaydilar (Kim, 2005 y.) .

Quyida keltirilgan fikrlarga tayangan holda “kreativlik” tushunchasini quyidagicha sharhlash mumkin: Shaxsning kreativligi uning tafakkurida, muloqotida, muayyan faoliyat turlarida va his-tuyg ‘ularida namoyon

bo‘ladi. Shu jumladan, kreativlik shaxsni yaxlit holda yoki uning muayyan xususiyatlarini tavsiflaydi. Iqtidorning muhim omili sifatida kreativlik aks etadi. Shuningdek, kreativlik zehni o‘tkirlikni belgilab beradi, “talabalar e’tiborini ta’lim jarayoniga faol jalb etishni ta’minlaydi. Xorijiy mamlakatlarda barcha sohalarning mutaxassislari kabi o‘qituvchilar ham o‘zlarida kreativlik sifatlari mavjudligi va uning darajasini aniqlab boradi.

Kreativlik individning yangi g‘oyalarni ishlab chiqarishga tayyorlikni tavsiflovchi va mustaqil omil sifatida iqtidorlilikning tarkibiga kiruvchi ijodiy qobiliyati shaxsning kreativ tafakkurga egaligini aniqlovchi testdan o`tadi. Mazkur test shaxs kreativligi va uning darajasini ijodiy faoliyatni tashkil etishdagi faollik, tezkor fikrlash, o‘ziga xos (orginal)lik va takomillashganlik kabi mezonlar bo‘yicha baholash imkoniyatini yaratadi. O‘quvchi tomonidan tavsiya etilgan savollarga beriladigan javoblar aynan mana shu to`rtta mezonni qanoatlantirishi lozim.

O‘quv mashg‘ulotlarining avvaldan rejalashtirilishidan voz kechish, talabalarda tanqidiy, kreativ tafakkurni shakllantirish va rivojlantirish, ularni ijodiy fikrlash, yangi g‘oyalarni o‘ylab topishga majbur qilish ta‘lim olishga bo‘lgan munosabatni o‘zgartirish, ularni yutuqlarga erishishga rag‘batlantirishda asosiy omil bo‘lar. O‘quv mashg‘ulotlarida yetishmayotgan omil – kreativlik sanaladi[126].

Ko‘plab pedagog–tarbiyachilar o‘zlarida kreativlik qobiliyatini mavjud emas, deb o‘ylaydilar. Buni ikki xil sabab bilan asoslash mumkin: birinchidan, aksariyat pedagog- tarbiyachilar ham aslida “kreativlik” tushunchasi qanday ma’noni anglatishini yetarlicha izohlay olmaydilar ikkinchidan, kreativlik negizida bevosita qanday sifatlar aks etishidan bexabardirlar.

Shuni alohida qayd etib o‘tish joizki, har bir shaxs tabiatan kreativlik qobiliyatiga ega hisoblanadi. Ular o‘zlarida kreativlik qobiliyati mavjudligini qanday namoyon eta olishlari kerak. Bu borada Patti Drapeau shunday maslahat beradi: Agarchi o‘zingizni kreativ emasman deb hisoblasangizda, hozirdanoq kreativ tafakkurni rivojlantirishga qaratilgan darslarni tashkil eta boshlashingizni maslahat beraman. Aslida, gap sizning ijodkor va kreativ bo‘lganingiz yoki bo‘lmaganingizda emas, balki darslarni kreativlik ruhida tashkil etishingiz va yangi g‘oyalarni amalda sinashga intilishingizdadir[127].

Qolaversa shaxsning kreativligi uning tafakkurida, muloqotida, his-tuyg‘ularida, muayyan faoliyat turlarida nomoyon bo‘ladi. Kreativlik shaxsni yaxlit holda yoki uning muayyan xususiyatlarini izohlaydi. Shuningdek,

[126] Drapeau Patti. Sparking student creativity (practical ways to promote innovative thinking and problem soving). – Alexandria – Virginia, USA: ASCD, 2014. – p. 4.
[127] O‘sha asar, 4-5-betlar

kreativlik iqtidorning muhim omili sifatida ham aks etadi hamda kreativlik zehni o‘tkirlikni belgilab beradi.

Xulosa

Xulosa qilib aytganda, maktabgacha ta’lim tashkiloti pedagoglarining kreativlik qobiliyatini rivojlantirish-bu nafaqat ta’lim-tarbiya jarayonining samaradorligini oshirish, balki yosh avlodni har tomonlama rivojlantirish, ularni mustaqil fikrlovchi, faol va ijtimoiy mas’uliyatli shaxslar sifatida voyaga yetkazishda muhim ahamiyatga ega. Bugungi kun tarbiyachisi jamiyatda yuz berayotgan o‘zgarishlarga mos ravishda yangicha fikrlovchi, zamonaviy bilim va ko‘nikmalarga ega bo‘lishi zarur.

Pedagogda kreativlikning shakllanishi uning o‘z ustida muntazam ishlashi, yangi pedagogik yondashuvlarni o‘zlashtirishi, innovatsion g‘oyalarni ishlab chiqishi va amaliyotda qo‘llay olishi orqali ta’minlanadi. Tarbiyachining kasbiy kreativligi bolaning individual qobiliyatlarini kashf etish va rivojlantirishda hal qiluvchi rol o‘ynaydi. Shu bois, pedagoglar o‘rtasida ijodiy muhit yaratish, ularni rag‘batlantirish, o‘zaro tajriba almashinuvi va doimiy kasbiy rivojlanishni yo‘lga qo‘yish zarur.

Zamonaviy ta’lim jarayoni tarbiyachidan faqat bilimdonlikni emas, balki tashabbuskorlik, innovatsion fikrlash, ijtimoiy faoliyatga intilish, yangilikka ochiqlik va doimiy o‘zgarishga tayyorlikni talab etadi. Maktabgacha ta’lim tizimida faoliyat yurituvchi pedagoglar uchun bu kompetensiyalarni egallash - yurtimiz taraqqiyoti va barkamol avlodni tarbiyalashning muhim kafolatidir.

Takliflar

1. **Pedagoglar uchun kreativlikni rivojlantiruvchi doimiy malaka oshirish kurslarini tashkil etish.** Ushbu kurslarda zamonaviy pedagogik texnologiyalar, muqobil ta’lim metodikalari, innovatsion yondashuvlar va kreativ fikrlash uslublari o‘rgatilishi lozim.

2. **Tarbiyachilar o‘rtasida “Eng kreativ pedagog” kabi tanlovlarni o‘tkazish.** Bu kabi tanlovlar ijodiy izlanishga undaydi, g‘oyalarni bo‘lishish imkonini yaratadi va rag‘batlantiradi.

3. **Tarbiyachilarning ilmiy-tadqiqot va loyihaviy faoliyatga jalb etilishini rag‘batlantirish.** Pedagogik tadqiqotlar yuritish, ijodiy loyiha va metodik qo‘llanmalar tayyorlash orqali nafaqat kreativlik balki ilmiy salohiyat ham oshadi.

4. **Tarbiyachilar faoliyatiga reflektiv yondashuvni kiritish.** Har bir pedagog o‘z mashg‘uloti, uslublari va yondashuvlarini muntazam tahlil qilib borishi va takomillashtirib borishi kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati

1. Dilrabo Elmuratova, Nodira Misirova Pedagogik kompitentlik va kreativlik asoslari. O‘quv qo‘llanma.Guliston, 2021, 161 b

2. Drapeau Patti. Sparking student creativity (practical ways to promote innovative thinking and problem soving). – Alexandria – Virginia, USA: ASCD, 2014. – p. 4

3. Soliyev, I., & Boymirzayeva, S. (2023). Maktabgacha ta’lim tizimida innovatsion yondashuvning uslubiy asoslari va pedagogik shart-sharoitlari. *Наука и инновация*, *1*(6), 128-129.

4. Sobirjonovich, S. I. Boymirzayeva Shakhnoza Olimjon kizi.(2023). Systemic Organization of Professional Competence, Creativity and Innovative Activity of A Future Kindergartener. *Journal of Pedagogical Inventions and Practices*, *19*, 108-112.

5. Shahnoza, B. (2024). MAKTABGACHA TA’LIM TIZIMIDA INNOVATSION YONDASHUVNING USLUBIY ASOSLARI VA PEDAGOGIK SHART-SHAROITLARI. *University Research Base*, 164-167.

6. qizi Boymirzayeva, S. O. (2024). MAKTABGACHA TA’LIM TASHKILOTIDA BO ‘LAJAK TARBIYACHINING KREATIVLIGINI RIVOJLANTIRISH. *GOLDEN BRAIN*, *2*(7), 41-47.

7. Boymirzayeva, S. (2025). TARBIYALANUVCHILARNING INTELLEKTUAL QOBILIYATLARINI ANIQLASH VA ULARNI MAQSADLI RIVOJLANTIRISH USULLARIGA QARATILGAN O ‘YIN TEXNOLOGIYALARI. *QO ‘QON UNIVERSITETI XABARNOMASI*, *14*, 136-139.

8. Orinova, F., & Boymirzayeva, S. (2025). IDENTIFICATION OF INTELLECTUAL ABILITIES OF STUDENTS IN PRESCHOOL EDUCATIONAL ORGANIZATIONS AND THEIR TARGETED DEVELOPMENT. *International Journal of Artificial Intelligence*, *1*(2), 1604-1609.

9. Boymirzayeva, S., & Akmaldinova, M. (2024). MAKTABGACHA TA’LIM TASHKILOTI PEDAGOGLARINING KASBIY KOMPETENTLIGINI SHAKILANTIRISH. *Nordic_Press*, *5*(0005).

10. Boymirzayeva, S., & Mirzaaxmedova, X. (2024). MAKTABGACHA TA’LIM TASHKILOTI PEDAGOGLARINING HAMKORLIKDAGI ISH FAOLIYATINI NAZARIY ASOSLARI. *Nordic_Press*, *5*(0005).

11. Boymirzayeva, S. (2025). DIDACTIC FORMS AND METHODS OF PEDAGOGICAL SUPPORT AND TARGETED DEVELOPMENT OF CHILDREN IN THE PROCESS OF PRESCHOOL EDUCATION. *Journal of Multidisciplinary Sciences and Innovations*, *1*(1), 557-562.

12. Abdurashidov, A., & Turdaliyeva, N. (2023). DEVELOPMENT OF MANUAL WORK IN PRE-SCHOOL EDUCATION. Science and innovation, 2(B2), 282-286.

13. qizi Turdaliyeva, N. A. (2024). MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALAR IJODIY QOBILIYATLARNI RIVOJLANTIRISHNING NAZARIY ASOSLARI. GOLDEN BRAIN, 2(7), 48-52.

14. Soliyev, I., & Boymirzayeva, S. (2023). MAKTABGACHA TA’LIM TIZIMIDA INNOVATSION YONDASHUVNING USLUBIY ASOSLARI VA PEDAGOGIK SHART-SHAROITLARI. Наука и инновация, 1(6), 128-129.

MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARNING IJODIY FAOLIYATGA O‘RGATISHNING O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI.

Turdaliyeva Nurjahon Abdunosir qizi,
Qo‘qon universiteti o‘qituvchisi
nurjahonturdaliyeva3@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada maktabgacha yoshdagi bolalar ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishning nazariy asoslari va amaliy jihatlari chuqur tahlil qilingan. Jumladan, bolalarda qo‘l mehnati jarayonida ijodiy faoliyatni shakllantirishning mazmuni va tarbiyaviy ahamiyati yoritilgan. Shuningdek, maktabgacha ta’lim tashkilotlaridagi rivojlanish markazlarida bolalarning ijodkorlik salohiyatini oshirishga xizmat qiluvchi pedagogik shart-sharoitlar va metodik yondashuvlar tahlil etilgan.

Maqolada, ijodiy faoliyat turlarining (tasviriy san’at, hunarmandchilik, o‘yinlar, dizayn yondashuvi) bolalar ruhiyati va estetik tafakkuriga ta’siri asoslab berilgan. Ijodkorlikning asosiy komponentlari-ilhom, mustaqil fikr, yangi g‘oyalarni ilgari surish va ularni amalda namoyon etish, pedagogik jarayonga qanday integratsiya qilinishi ko‘rsatib berilgan. Bolalarni qo‘l mehnatiga o‘rgatish metodikasi, topshiriqlarning psixologik-pedagogik asoslari, ularning shaxsiy rivojlanishiga ta’siri, shuningdek, didaktik o‘yinlar orqali ijodiy muhit yaratish usullari ilmiy asoslangan holda bayon etilgan. Shuningdek, maqolada O‘zbekiston Respublikasining so‘nggi yillardagi ta’limga oid me’yoriy-huquqiy hujjatlariga, xususan, “Yangi O‘zbekistonning Taraqqiyot Strategiyasi”, “Harakatlar strategiyasi” hamda “Maktabgacha ta’lim konsepsiyasi”ga tayangan holda, maktabgacha ta’limdagi ijodiy yondashuvning davlat siyosatidagi o‘rni yoritilgan.

Maqola bolalarning tasviriy ifoda, badiiy-estetik did, motorik harakatlar, emotsional sezgirlik va ijtimoiy moslashuv kabi qator kompetensiyalarini rivojlantirishda ijodiy faoliyatning beqiyos ahamiyatini asoslab beradi. Shu bilan

birga, tarbiyachilar faoliyatida zamonaviy pedagogik texnologiyalar, o‘yin metodlari, rolli mashg‘ulotlar va vizual materiallardan foydalanish orqali bolalarda ijodiy tafakkurni uyg‘otish bo‘yicha amaliy tavsiyalar ham berilgan. Ushbu maqola pedagoglar, tarbiyachilar, ota-onalar hamda maktabgacha ta’limni takomillashtirish bilan shug‘ullanuvchi mutaxassislar uchun foydali ilmiy-amaliy manba bo‘lib xizmat qiladi.

Kalit so‘zlar: maktabgacha ta’lim, ijodiy faoliyat, qo‘l mehnati ,rivojlanish, tasviriy san’at, qobiliyat, ritm, hunarmandchilik, motorika ,emotsional holat, metodika.

ABSTRACT

This article provides an in-depth analysis of the theoretical foundations and practical aspects of developing the creative abilities of preschool children. In particular, the content and educational significance of the formation of creative activity in children in the process of manual labor are highlighted. Also, pedagogical conditions and methodological approaches that serve to enhance the creative abilities of children in development centers in preschool educational organizations are analyzed.

The article discusses the impact of creative activities (fine arts, crafts, games, design approaches) on the psyche and aesthetic thinking of children. The main components of creativity - inspiration, independent thinking, the development of new ideas and their implementation in practice - are shown, and how they can be integrated into the pedagogical process. The methodology for teaching children manual labor, the psychological and pedagogical foundations of the tasks, their impact on their personal development, as well as methods for creating a creative environment through didactic games are scientifically presented. The article also highlights the role of the creative approach in preschool education in state policy, based on the recent regulatory and legal documents of the Republic of Uzbekistan on education, in particular, the “Development Strategy of New Uzbekistan”, “Strategy of Actions” and “Concept of Preschool Education”.

The article substantiates the incomparable importance of creative activity in the development of a number of children's competencies, such as visual expression, artistic and aesthetic taste, motor movements, emotional sensitivity, and social adaptation. At the same time, practical recommendations are given for the use of modern pedagogical technologies, game methods, role-playing exercises, and visual materials in the activities of educators to awaken creative thinking in children. This article serves as a useful scientific and practical resource for teachers, educators, parents, and specialists involved in improving preschool education.

Keywords: preschool education, creative activity, manual labor, development, fine arts, ability, rhythm, craftsmanship, motor skills, emotional state, methodology.

Mavzuning dolzarbligi: O‘zbekiston Respublikasi o‘z mustaqilligini jahon miqyosida yil sayin barqarorlashtirib borar ekan, uning istiqboli bugungi avlodning, bilimdon, ma’naviy jihatdan barkamol insonlar bo‘lib yetishishiga bog‘liqdir. Bu o‘rinda inson ruhiyati qonunlarini o‘rganuvchi psixologiya fani va uning sohalari alohida ahamiyat kasb etadi. Insonni jamiyatimiz uchun to‘laqonli, faol, barkamol shaxs sifatida shakllantirish, samaradorligini yanada oshirishda psixologiya ilmi va uning amaliyotda to‘g‘ri yo‘nalishga ega bo‘lishi juda muhimdir.

Hozirgi davr talabalari jismoniy, axloqiy jihatdan komillik darajasiga yengillik bilan erishsada, lekin aqliy kamolotga yetishish asab tizimining taranglashuvi, aqliy zo‘riqish, hissiy jiddiylashuv, barqaror irodaviy akt, uzluksiz faollik, fidoiylik namunalari evaziga bosqichma bosqich, asta-sekinlik bilan amalga oshishi mumkin.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 28.01.2022 yildagi PF-60-son 2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi Farmonining IV bo‘limida Adolatli ijtimoiy siyosat yuritish, inson kapitalini rivojlantirishda 37-45-maqsadlarda aynan ta`lim tizimi, umumiy o‘rta ta`lim maktabi va maktabgacha ta`limda bolalarga ta`lim-tarbiya berish haqida maqsadlar belgilangan[128].

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi PF-4947-son “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmoni, 2017 yil 9 sentyabrdagi PQ-3261-son “Maktabgacha ta’lim tizimini tubdan takomillashtirish bo‘yicha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi, 2019 yil 8 maydagi PQ–4312-son “O‘zbekiston Respublikasi maktabgacha ta’lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi qarorlari, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019 yil 13 maydagi 391-son “Maktabgacha ta’lim tashkilotlari faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori hamda mazkur sohaga tegishli boshqa me’yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu maqola muayyan darajada xizmat qiladi.

Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida bolalarni ijodiy faoliyatga o‘rgatish ham tasviriy faoliyatning muhim yo‘nalishi sanaladi. “Ilk qadam” davlat dasturida maktabgacha bolalarni ijodkorlikka o‘rgatish ularni har tomonlama tarbiyalash, ularda badiiy-estetik munosabat, did, qobiliyat va dunyoqarashni

[128] 28.01.2022 yildagi PF-60-son O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 - 2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi Farmoni

shakllantirishning muhim talablardan biri ekanligi qayd etib o‘tiladi. Bolalarni ijodiy faoliyatga o‘rgatish orqali ularda ijodiy faoliyat ko‘nikma, malakalarini shakllantirish va izchil ravishda rivojlantirish **maqsadi** ko‘zlanadi.

Belgilangan maqsadga muvofiq asosiy vazifalar belgilanadi. Ular quyidagilardir:

Bolalarda badiiy xarakterga ega qo‘l mehnatiga bo‘lgan qiziqishni uyg‘otish;

mehnat faoliyati tashkil qilish ko‘nikma, malakalarini shakllantirish;

maktabgacha yoshdagi bolalarda mehnatga muhabbatni tarbiyalash va ularni kasbga yo‘naltirish;

bolalarda ijodiy ko‘rgazmalar, o‘yinlar uchun atributlar yasashga bo‘lgan istaklarni uyg‘otish;

bolalarni qog‘oz, karton kabi materiallarning xususiyatlari bilan tanishtirish;

bolalarda badiiy-estetik xarakterdagi buyumlarni tayyorlash jarayonini rejalashtirish;

bolalarga badiiy-estetik xarakterdagi buyumlarni tayyorlash texnologiyasini o‘rgatish;

bolalarda mahsulotni tejash sifatlarini shakllantirish;

bolalarda buyumlar qoralamasining eskizi va suratini chizishdan avval ish joylarini tartibga keltirish, eskiz va suratlarni saqlash malakalarini shakllantirish;

bolalarni buyumlar yasash jarayonida oddiy asboblardan foydalanishga o‘rgatish;

ularni vaqtni tejashga, unumli ishlashga odatlantirish.

Ijodiy faoliyatning asosiy kategoriyalari ijod, ijodkorlik, ijodiy faoliyat va ijodiy mahsulot sanalaldi.

Ijod – ijtimoiy subyektning yangiligi, ahamiyati va foydaliligi jamiyat yoki muayyan guruh tomonidan tan olingan faoliyati yoki faoliyati natijasi.

Ijodkorlik – ijodiy jarayonni muvaffaqiyatli amalga oshirish va aniq ijodiy natija (mahsulot)ni yaratishga qaratilgan harakat.

Ijodiy faoliyat – ijodiy mahsulotni qaratishga yo‘naltirilgan faoliyat.

Ijodiy mahsulot – ijodiy faoliyatni samarali tashkil qilish orqali yaratilgan badiiy-estetik qimmatga ega mahsulot.

Ijodiy qobiliyat insonga nafaqat hayotida qo‘l kelishi, shu bilan birga undan foydalanishi uning tashqi ko‘rinishini ham o‘zgartirishi mumkin.

Pedagogik va psixologik manbalarda “qobiliyat”, “iste’dod” (“talant”) tushunchalari birdek qo‘llaniladi. So‘nggi yillarda “iqtidor” tushunchasi ‘iste’dod” tushunchasining muqobili sifatida qo‘llanilmoqda. Manbalarda qayd etilishicha, qobiliyat “shaxsning osonlik bilan biron faoliyatni egallay olishini

ta’minlaydigan individual psixologik xususiyat”[129], iste’dod, iqtidor esa “shaxsning ma’lum faoliyatda ifodalanadigan qobiliyatining yuqori darajasi”[130] demakdir.

Odatda ijodiy qobiliyat ijodiy mazmunga ega faoliyat jarayonini tashkil qilishda ko‘zga tashlanadi. Shu sababli “ijodiy faoliyat” tushunchasining mohiyatini anglab olish maqsadga muvofiqdir.

Ijodiy faoliyat – shaxsning hissiy holati – ta’sirlanish, ilhomlanish, ruhiy istirob, nimanidir yaratishga bo‘lgan kuchli xohish-istaklariga tayangan holda ruhiy va aqliy imkoniyatlarni ishga solgan holda nimanidir yaratish, mavjud narsalarni takomillashtirish, yangilashga qaratilgan faoliyati sanaladi.

Ijodiy faoliyat jarayonida namoyon bo‘ladigan yoki ijodiy jarayonni nihoyatda oson, samarali tashkil qilishga yordam beradigan qobiliyat ijodiy qobiliyat sifatida aks etadi. Shunga ko‘ra “ijodiy qobiliyat” tushunchasini izohlash mumkin.

Ijodiy qobiliyat – shaxs tomonidan ijodiy (nimanidir yaratish, asoslash, modellashtirishga qaratilgan) faoliyatni qiyinchiliklarsiz oson, samarali tashkil qilishga yordam beradigan qobiliyat.

Qobiliyat mohiyatiga ko‘ra umumiy va maxsus iqtidor kabi guruhlarga bo‘linadi.

Qayd etilgan xislatlar umumiy iqtidorga xosdir. Umumiy iqtidor yaxlit holda kamdankam kishilardagina namoyon bo‘ladi. Insoniyat tarixida bu kabi maxsus xislatga ega kishilar sifatida Aleksandr Makedonskiy va Napoleon Bonopart nom qozonganlar. Manbalarda yozilishicha, ular bir vaqtning o‘zida yetti xil faoliyatni bajara olganlar. Mustaqillik yillarida O‘zbekistonda milliy qadriyatlarni qayta tiklash, milliy tarixnixolis yoritishga qaratilgan harakat natijalari buyuk sohibqiron Amir Temurning ham maxsus xislatga ega bo‘lganligini ko‘rsatdi.

Maxsus qobiliyat turli ko‘rinishdagi faoliyatlar (matematik, texnik, musiqa, tasviriy san’at, adabiyot (poeziya va proza), jismoniy tayyorgarlik va boshqalar) bo‘yicha namoyon bo‘ladi.

Demak, qobiliyat, iste’dod va iqtidor:

1) muayyan faoliyat va uni bajara olish darajasi;

2) individual xususiyat sifatida aks etadi.

Shaxs iqtidori mohiyatiga ko‘ra turli yo‘nalish va darajada ko‘zga tashlanadi. Ya’ni:1) yo‘nalishiga ko‘ra: ilmiy tafakkur (ilm-fan yo‘nalishida), badiiy tafakkur (adabiyot yo‘nalishida), musiqa (musiqa yo‘nalishida), sport

[129] Психология. Қисқача изоҳли луғат / Тузув.: М.Г.Давлетшин ва бошқ. Масъул муҳар. М.Г.Давлетшин. – Т.: ТДПУ, 1998. – 18-б.
[130] Ўша манба. – 44-б.

(sport sohasida), raqs (xoregrafiya yo‘nalishida), tasviriy san’at (rassomlik yo‘nalishida), amaliy s an’at (milliy hunarmandchilik, haykaltaroshlik yo‘nalishlarida), texnik iqtidor (texnika yo‘nalishida), harbiy mahorat (harbiy sohada), ijtimoiy moslashuvchanlik (ijtimoiy munosabatlar yo‘nalishida);

2) darajasiga ko‘ra: qobiliyatlilik, iqtidorlilik, noyob iqtidorga egalik (dahol i).

Qobiliyatga egalik turli vaziyat va ko‘rinishlarda namoyon bo‘ladi. Kishilik tafakkuri tarixida noyob iqtidorga egalik quyidagi ko‘rinishlarda namoyon bo‘lganligi barchaga ma’lum, ya’ni:

1) yoshlik yillaridanoq badiiy, musiqiy va tasviriy san’at asarlarini yarata olish (Alisher Navoiy, Aleksandr Sergeyevich Pushkin, Vilyam Sheksper; Volfgang Amadey Motsart, Lyudvig Van Betxoven, Fridrik Shopen, Iogann Sebastyan Bax; Kamoliddin Behzod, Leonardo da Vinchi, Bronarroti Mekelanjelo, Rafael (Rafaello Santi);

2) yoshlik yillaridanoq o‘ta murakkab matematik amal va fizik formulalarni bajara olish (Lev Davidovch Landau, Mixayil Lomonosov, Tomas Alva Edison);

3) yoshlik yillaridanioq jang qilish san’atini namoyon etish (Aleksandr Ma kedonskiy, Amir Temur, Napoleon Bonapart, Aleksandr Suvorov).

Bolalarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish jarayonida ularning shaxsiga hurmat bilan munosabatda bo‘lish, o‘z-o‘zini anglashlari, o‘zini namoyon qilishlari, o‘zini o‘zi tasdiqlashlari uchun zarur shart-sharoit berish kerak. Shu sabali bolalarni katalar, ota-onalar, tarbiyachilar tomonidan kuzatib borish, maktabgacha yoshdagi bolalarning shaxsiyatini rivojlantirish uchun ijodiy muhit yaratish juda muhimdir[131].

Shuni ta’kidlash kerakki, ijodiy qobiliyatlarni rivojlantirish bolalarda eng muhim aqliy va amaliy harakatlarni shakllantirish bilan bevosita bog‘liq. Tashqi tomondan, ular o‘zlarini quyidagi shakllarda qobiliyatli ekanini namoyon qiladi:

1. Kuzatish, solishtirish va tahlil qilish.
2. Sabab-oqibat munosabatlari va qarama-qarshiliklarni aniqlash.
3. Asl, noan’anaviy hodisalarni an’anaviydan farqlay olish.
4. Mustaqil ravishda yangi echimlarni izlash, turli xil dizayn usullaridan foydalangan holda muammoli vaziyatlarni o‘rganishda ishtirok etish, o‘z navbatida ijodiy rivojlanishning turli sohalarini birlashtirish.

Qobiliyatli bolalar alohida xususiyatlari bilan tengdoshlaridan ajralib turadilar.

[131] Ветлугина Н.А. Художественное творчество и ребенок / Монография. - М.: Педагогика, 2012. - С. 78.

Bolalar ijodiyoti va uning o‘ziga xos tomonlarini tushunish tarbiyachilardan faoliyatga nisbatan ijodiy yondashish malakalariga ega bo‘lishni taqozo qiladi.

Bolalar ijodida ijodiy faoliyatning boshlang‘ich bosqichida o‘ziga xos xarakter xususiyatlar: avval o‘zlashtirilgan ish usullarini yangicha mazmunda qo‘llash; berilgan topshiriqlarni yangicha yondashuv, metod va usullar yordamida bajarish, o‘z tuyg‘ularini turli vositalar yordamida ifodalash, tasviriy faoliyat jarayonida faol va mustaqil ishtirok etish kabilar ko‘zga tashlanadi.

Tasviriy faoliyatidagi ijodiylik bolalar tomonidan borliqning anglanishida emas, balki bolaning o‘zi tayyorlayotgan “mahsulot”ga nisbatan ijodiy yondasha olishida namoyon bo‘ladi. Jumladan, bola quyidagicha o‘ylay olishi zarur: qalam va bo‘yoqalar qog‘ozda o‘ziga xos iz qoldiradi, loy – yumshoq xomashyo, shu sababli undan turli narsalarni yasash mumkin.

Qalamdan qoladigan iz nimanidir ifodalashini tushunadigan bola o‘z xohishi va kattalarning ko‘rsatmasiga muvofiq qandaydir predmetni tasvirlashga harakat qilsa, unda bolaning faoliyati tasviriy xarakter tusini oladi. Bola o‘z fikri, maqsadiga ega bo‘lib, o‘zining amaliy harakatlari orqali ularni namoyon etishga harakat qiladi.

Shu tariqa ijodiy jarayonning birinchi bosqichi – fikrning paydo bo‘lish hodisasi sodir bo‘ladi. Odatda rassom va yozuvchilar o‘zlarida fikr paydo bo‘lishi bilan uni mazmunan rivojlantiradi va bajarish vositalarini o‘ylab yuradi. Rassomlar va yozuvchilarda amaliy harakatni tashkil etish uchun odatda uzoq vaqt talab etiladi. Bolalarda esa ko‘p holatlarda bunday jarayon kuzatilmaydi. Bola qanchalik yosh bo‘lsa, u shunchalik o‘ylagan narsasini tez tasvirlashga harakat qiladi. U hali o‘z ishining natijasini va uni bajarish yo‘lini oldindan ko‘ra olmaydi. Avvaldan o‘ylab ko‘rish va ishni rejalashtirishni tasavvur qilish jarayoni bilan birgada amalga oshiradi.

Shu sababli bolalarning ijodiy faoliyati jarayonida ish mazmunini o‘zgartirish hollari tez-tez uchrab turadi. Bola o‘zi tasvirlayotgan rasmdagi timsollar sirasiga mavzuga mutlaqo taalluqli bo‘lmagan detallarni kiritishi mumkin. Bolalarning tasviriy-ijodiy faoliyatining o‘ziga xos tomonlarini o‘rganish uchun pedagogika sohasida bir qator pedagogik va psixologik tadqiqot ishlari olib borilgan.

Tasviriy faoliyat turkumiga kiruvchi mashg‘ulotlarning o‘rni beqiyos ekanligini e’tirof etgan holda bunday mashg‘ulotlar ularda tasviriy savodxonlik elementlarini shakllantirilishiga ham tamal toshini qo‘yishi shubhasizir.

Bolalar rasm, appalikatsiya, loy ishi, qirqib yelimlash mashg‘ulotlarida nafaqat biror ish bilan ma’lum muddat band bo‘ladilar, balki yuqorida aytib

o‘tganlarimizga qo‘shimcha ravishda ularda quyidagilar rivojlanadi va shakllanadi:

– tasviriy san’at sohasiga doir qobiliyatlari aniqlanadi va shakllantiriladi;

– qalam, mo‘yqalamni ushlash, loy, plastilin bilan ishlash, qaychida ayrim narsalarni qirqib yelimlash orqali mayda qo‘l mushaklari rivojlanadi;

- bola yozuv texnikasini egallashga tayyorlanadi;

- bola tasviriy faoliyat mashg‘ulotlari orqali diqqatini bir joyga taqsimlay olishni va ishini oxiriga qadar bajarishni, o‘tira olishni o‘rganadi;

– tabiatni, atrof-olamni kuzatishni, uni asrab-avaylashni ardoqlashni, unga nisbatan to‘g‘ri munosabatda bo‘lishni o‘rganadi;

– jamoa bo‘lib mehnat qilish, ishni rejalashtira olish, o‘rtoqlarini eshita olish va o‘zaro fikr-mulohazalarni inobatga olgan holda ishlash malakalari shakllanadi;


– xalqimizning boy madaniy-ma’naviy merosi haqida tushuncha va tasavvurga ega bo‘ladi va ularni o‘z ishlarida ifodalashga o‘rganadi.

Ijodkorlik qobiliyati insonning tabiiy va ijtimoiy dunyoni voqelikning ob’ektiv qonunlari asosida o‘z maqsadi va ehtiyojlariga muvofiq o‘zgartiradigan faoliyatidir. Ijod mahsuli bu inson ongining faol mahsulidir.

“Maktabgacha ta’lim Konsepsiyasi”[132]da “maktabgacha yoshdagi bolalarning badiiy-estetik va musiqiy tarbiya hamda ta’lim darajasini oshirish, erta yoshdan boshlab STEAM o‘qitish asoslarini joriy etish” vazifasi belgilab berilgan. Xozirgi tadqiqotlar maktabgacha yoshdagi bolalar rasm chizish, loy va plastilin o‘yinchoqlar yasashda ijodiy faoliyat ko‘rsata olishini isbotladi. Albatta, bolalar ijodkorligi o‘ziga xos xususiyatlarga ega bo‘lib, kattalar ijodkorligi mezonlariga javob bera olmaydi.

Ta’lim jarayonida, ertaklar eshitish, har xil rasmlarni ko‘rish tufayli bola o‘yinchoq yasashdan oddin o‘zi bevosita idrok etgan predmetlar doirasiga kirmaydigan narsalarni asta-sekin tasavvur qila boshlaydi. Bolada avval kattalarning og‘zaki ta’siri bilan ixtiyoriy tasavvur obrazlari hosil bo‘lib, keyinchalik ular bolaning mustaqil fikrlashidan vujudga kelishi mumkin.

Bolalarning ijodiy qobiliyatini shakllantirishda berilgan topshiriqlarning mazmunidan kelib chiqib, pedagogik faoliyat uch bosqichda tashkil qilinadi (1-rasm):



1-rasm. Tasviriy faoliyat mashg‘ulotlarining asosiy bosqishlari

[132] “Maktabgacha ta’lim Konsepsiyasi” // https://lex.uz/docs/4327235.

Birinchi bosqichda bolalarga ulardan ijodiy faoliyatda dastlabki yo‘nalishni talab qiladigan topshiriqlar beriladi. Bolalar tarbiyachining ko‘rsatmalari (“O‘zing yasa”, “Bir narsa o‘yla”, “Qidirib top”, “O‘zgartir” kabilar) bo‘yicha u bilan birga ishlab, o‘zining ijodkorlik layoqatini namoyon etadi.

Ikkinchi bosqichda bolalarni aniq maqsadga muvofiq ishlashga va izlanishga da’vat etuvchi topshiriqlar beriladi. Bola tarbiyachi bilan birga ishlab, mavjud ko‘nikmalarni kombinatsiyalash va o‘zgartirish mumkinligini tushuna boshlaydi.

Uchinchi bosqich – bolani turli yo‘nalishlar bo‘yicha tasviriy faoliyatda fikrlash bo‘yicha mustaqil harakat qilish, o‘z ishlarini rejalashtirish hamda tasvirlash vositalarini tanlashga o‘rgatadigan topshiriqlar beriladi.

Tarbiyachi bolalarga topshiriqni emotsional tarzda tushuntiradi. Zero, uning izohi bolalarni qiziqtirishi zarur. Buning uchun tarbiyachi goho o‘yin elementlari va harakatlaridan foydalanishi mumkin. Masalan, mashg‘ulotlarda ertak qahramonlari tashkrif buyuradi va ular bolalarga topshiriq va uni bajarishga oid ko‘rsatmalarni berishadi. Bolalar ko‘z o‘ngida qo‘g‘irchoqlar paydo bo‘ladi. Ular birgalikda tomosha qo‘yishni so‘raydi. Ertak personajlarning kutilmaganda paydo bo‘lishi bolalarni quvontiradi. O‘yinchoqlarning harakatlarini ko‘rib, bolalar sevinib ketadi, tarbiyachi ularga qarab murojaat qilayotganidan mamnun bo‘ladi.

Agar tarbiyachi mashg‘ulotda o‘yin usulini qo‘llayotgan bo‘lsa, u mashg‘ulot davomida o‘yinda qatnashadigan personaj to‘g‘risida oldindan o‘ylab qo‘yadi. Masalan, qo‘g‘irchoq mana shunday personaj rolini bajarib, bolalar qanday ishlayotganligi, topshiriqni kim qanday bajarayotganligi bilan qiziqib ko‘rishi mumkin. Keyin u bolalarning xatti- harakatlarini ma’qullaydi, ijodiy ishlashga qiynalayotgan bolalarga yordam beradi va ularni qo‘llab-quvvatlaydi.

Mashg‘ulotda har gal bir xildagi o‘yin harakatlaridan foydalanish to‘g‘ri emas. Har bir mashg‘ulot oldidan bolalarning ruhini ko‘taradigan, kayfiyatini yaxshilaydigan amaliy harakatlar tashkil etiladi. Buning uchun bolalarga she’r o‘qib berish, qo‘shiq ijro qilish, topshiriqlarga oid topishmoqlarni aytgan holda bolalarni qiziqtirish zarur.

Xulosa. Maktabgacha yoshdagi bolalarni ijodiy faoliyatga o‘rgatish ularning shaxsiy rivojlanishida muhim o‘rin tutadi. Bu davrda bolalarda tasavvur, fantaziya, estetik did va emotsional sezuvchanlik kabi jihatlar tez rivojlanadi. Shu sababli, pedagoglar tomonidan bolalarning individual xususiyatlarini inobatga olgan holda, ularni turli ijodiy faoliyat turlariga jalb

etish lozim.Ijodiy faoliyat bolalarning nafaqat san’at sohasidagi qobiliyatlarini, balki mustaqil fikrlash, muammoli vaziyatlarni hal qilish, o‘zini erkin ifoda eta olish kabi muhim kompetensiyalarini ham rivojlantiradi. Bunda o‘yin texnologiyalari, rolli mashg‘ulotlar, tasviriy san’at, musiqa va og‘zaki ijodiy topshiriqlar asosiy vosita bo‘lib xizmat qiladi.Shuningdek, ijodiy faoliyatni samarali tashkil etishda o‘qituvchining ijobiy munosabati, erkin va rag‘batlantiruvchi muhit yaratishi, individual yondashuvi hamda ota-onalar bilan hamkorligi hal qiluvchi ahamiyatga ega.Shunday qilib, maktabgacha ta’limda bolalarni ijodiy faoliyatga yo‘naltirish — ularning har tomonlama barkamol, faol va ijtimoiy moslashgan shaxs bo‘lib shakllanishiga xizmat qiladi.

TAKLIFLAR. -maktabgacha ta’lim muassasalarida bolalarning erkin fikrlashi va tasavvurini ifoda etishlari uchun rang-barang, xavfsiz va rag‘batlantiruvchi ijodiy muhit yaratish zarur.

-tarbiyachilar uchun ijodiy yondashuv, zamonaviy metod va texnologiyalar asosida maxsus malaka oshirish kurslarini yo‘lga qo‘yish tavsiya etiladi.

- o‘yin faoliyati orqali ijodiy topshiriqlarni joriy etish, rolli va dramatik o‘yinlar orqali bolalarda ijodkorlikni rivojlantirish zarur.

- ota-onalarni bolalarning ijodiy faoliyatiga jalb qilish, ular bilan birgalikda uy sharoitida ham ijodiy mashg‘ulotlar o‘tkazish bo‘yicha tavsiyalar ishlab chiqilishi kerak.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. 28.01.2022 yildagi PF-60-son O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 - 2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi Farmoni

2. Психология. Қисқача изоҳли луғат / Тузув.: М.Г.Давлетшин ва бошқ. Масъул муҳар. М.Г.Давлетшин. – Т.: ТДПУ, 1998. – 18-б.

3. Ветлугина Н.А. Художественное творчество и ребенок / Монография. - М.: Педагогика, 2012. - С. 78.

4. Abdurashidov, A., & Turdaliyeva, N. (2023). DEVELOPMENT OF MANUAL WORK IN PRE-SCHOOL EDUCATION. Science and innovation, 2(B2), 282-286.

5. qizi Turdaliyeva, N. A. (2024). MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALAR IJODIY QOBILIYATLARNI RIVOJLANTIRISHNING NAZARIY ASOSLARI. GOLDEN BRAIN, 2(7), 48-52.

6. Soliyev, I., & Boymirzayeva, S. (2023). Maktabgacha ta’lim tizimida innovatsion yondashuvning uslubiy asoslari va pedagogik shart-sharoitlari. *Наука и инновация*, *1*(6), 128-129.

7. Sobirjonovich, S. I. Boymirzayeva Shakhnoza Olimjon kizi.(2023). Systemic Organization of Professional Competence, Creativity and Innovative

Activity of A Future Kindergartener. *Journal of Pedagogical Inventions and Practices*, *19*, 108-112.

8. Shahnoza, B. (2024). MAKTABGACHA TA’LIM TIZIMIDA INNOVATSION YONDASHUVNING USLUBIY ASOSLARI VA PEDAGOGIK SHART-SHAROITLARI. *University Research Base*, 164-167.

9. qizi Boymirzayeva, S. O. (2024). MAKTABGACHA TA’LIM TASHKILOTIDA BO ‘LAJAK TARBIYACHINING KREATIVLIGINI RIVOJLANTIRISH. *GOLDEN BRAIN*, *2*(7), 41-47.

10. Boymirzayeva, S. (2025). TARBIYALANUVCHILARNING INTELLEKTUAL QOBILIYATLARINI ANIQLASH VA ULARNI MAQSADLI RIVOJLANTIRISH USULLARIGA QARATILGAN O ‘YIN TEXNOLOGIYALARI. *QO ‘QON UNIVERSITETI XABARNOMASI*, *14*, 136-139.

11. Orinova, F., & Boymirzayeva, S. (2025). IDENTIFICATION OF INTELLECTUAL ABILITIES OF STUDENTS IN PRESCHOOL EDUCATIONAL ORGANIZATIONS AND THEIR TARGETED DEVELOPMENT. *International Journal of Artificial Intelligence*, *1*(2), 1604-1609.

12. Boymirzayeva, S., & Akmaldinova, M. (2024). MAKTABGACHA TA’LIM TASHKILOTI PEDAGOGLARINING KASBIY KOMPETENTLIGINI SHAKILANTIRISH. *Nordic_Press*, *5*(0005).

13. Boymirzayeva, S., & Mirzaaxmedova, X. (2024). MAKTABGACHA TA’LIM TASHKILOTI PEDAGOGLARINING HAMKORLIKDAGI ISH FAOLIYATINI NAZARIY ASOSLARI. *Nordic_Press*, *5*(0005).

14. Boymirzayeva, S. (2025). DIDACTIC FORMS AND METHODS OF PEDAGOGICAL SUPPORT AND TARGETED DEVELOPMENT OF CHILDREN IN THE PROCESS OF PRESCHOOL EDUCATION. *Journal of Multidisciplinary Sciences and Innovations*, *1*(1), 557-562.

XALQ O‘YINLARINING MILLATNING AKSI SIFATIDAGI TADQIQI

Gulira’no Ibrohimova,
KU mustaqil izlanuvchisi.

Annotatsiya. Xalq o‘yinlari millatning ajralmas bir qismi sifatida e’tirof etiladi. Shu bois ularning tadqiqiga alohida e’tibor berish millat mentalitetini namoyon etishda dolzarblik kasb etadi. Maqolada xalq o‘yinlarining o‘rganilishi bugungi kun tilshunosligida muhim vazifaga aylanganligi hamda ularning milliy

qadriyatlar, urf-odatlar va ijtimoiy tajribani uzatuvchi mexanizmi sifatida e’tirof etish masalasi ko‘riladi.

Kalit so‘zlar: xalq o‘yinlari, milliy, millat, folklor, madaniyat, madaniy meros, urf-odat, o‘yin diskursi.

Abstract. Folk games are recognized as an integral part of a nation. Therefore, giving special attention to their study is of particular relevance in revealing the national mentality. This article examines the importance of studying folk games in contemporary linguistics and considers their recognition as a mechanism for transmitting national values, customs, traditions, and social experience.

Keywords: folk games, national, nation, folklore, culture, cultural heritage, customs and traditions, game discourse.

Bugungi kun tilshunosligida til va madaniyat tushunchalarini uzviy holda o‘rganish ehtiyoji yuzaga kelmoqda. Bunga sabab tilshunoslikda antropotsentrik paradigmaning kuchayishi bo‘lib, inson va jamiyat o‘zarobog‘lanishi, jamiyat rivojida inson tili omili, insonning ma’naviy va ma’rifiy yuksalishi kabi masalalar ham so‘nggi davrdagi tadqiqotlarning tadqiqot obyektiga aylanmoqda.

O‘yin inson va jamiyat rivojida muhim bo‘lgan aspect hisoblanadi. O‘yinlar inson shaxsiyatini, ongi va tafakkurini rivojlantirishga qaratilgan inson harakatlaridan biridir. O‘yinlarning bevosita millat madaniyati, tafakkuri, milliy o‘zligiga aloqadorligi bor. O‘yinlar nafaqat hordik chiqarish vositasi, balki tarbiya, ijtimoiylashuv va madaniy merosni uzatish shaklidir. Har bir xalqning o‘ziga xos o‘yinlari mavjud bo‘lib, ular milliy mentalitetni aks ettiradi. Shu bois lingvomadaniyatshunoslik sohasida o‘yinlarni, ularning nomlanishi, milliy-madaniy semantikasini o‘rganish madaniyatni til orqali mujassamlanganligini namoyon etadi. Aynan o‘yinlar nomida millat tafakkuri, dunyoqarashining o‘ziga xosligi aks etiladi. O‘yin nomlari milliy olam manzarasining aksi sifatida, millatning yashash tarzi va sharoitlarini, urf-odatlari va an’analarini, millat ongi va mafkurasini namoyon etadi.

So‘nggi davr tilshunoslik sohalarida o‘yinlar, o‘yinlar nomlari, inson hayotida o‘yinlar ahamiyati kabi masalalarga bag‘ishlangan tadqiqotlar soni tobora oshib bormoqda. Shu bois o‘yinlar nomlarini onomasiologik yondashuvi orqali tadqiq qilish, o‘yinlarning milliy xususiyatlarini lingvomadaniyatshunoslik sohasi orqali o‘rganish, o‘yinlar izohi va tasviriga bag‘ishlangan lug‘atlar yaratish orqali leksikografik yondashuvni qo‘llash, o‘yinlarning diaxron yondashuvi orqali kelib chiqishini va ularning rivojlanish bosqichlarini tahli qilish, o‘yin diskursini tadqiq qilishga doir ilmiy izlanishlar tilshunoslik ko‘lamini kengaytirmoqda. Jahon va o‘zbek tilshunosligida

o‘yinlar tadqiqiga bag‘ishlangan ilmiy ishlar talaygina. Jahon tilshunosligida o‘yinlar alohida turlarga bo‘linib, sport o‘yinlari, milliy o‘yinlar, harakat o‘yinlari, bolalar o‘yinlari kabi o‘rganilib, turli aspekdan yoritilmoqda.

O‘yinlar har qaysi millatning madaniy merosining muhim bir qismiga aylanib qo‘lganligini e’tirof etish mumkin. O‘yinlar millat an’analari va foklori sifatida jahon tilshunosligida keng o‘rganiladi. Xalq milliy o‘yinlari folklorshunos, madaniyatshunos va tilshunos olimlarning tadqiqotlarida turli aspektda o‘rganilgan. Xususan, M.Smit, A.Dundes, P.Opie kabi jahon olimlari, M.N.Melnikov, I.A.Morozov, I.S.Sleptsova, I.V.Popovicheva, M.V.Gavrilova, I.V.Begunts, T.V.Baxvalova, M.M.Ugryumova rus olimlari hamda tadqiqotchilari va O.Safarov, F.Jahongirov kabi o‘zbek tadqiqotchilari tomonidan bolalar xalq o‘yinlarining lisoniy va madaniy xususiyatlari o‘rganilgan. Xalq o‘yinlariga bag‘ishlangan adabiyotlar soni ko‘p. Ya’ni, xalq o‘yinlari tarbiyaviy va didaktik, ilmiy-ommabop, ilmiy adabiyotlari hamda entsiklopedik va folklor lug‘atlarida tasvirlangan.

Hozirgi zamon tilshunosligida xalq o‘yinlarini lisoniy aspektda o‘rganish masalasiga katta e’tibor qaratilganligi tufayli tilshunoslikda mazkur masalani tadqiqiga bag‘ishlangan yo‘nalishlar soni tobora oshib bormoqda. Jumaladan, tilshunoslikda “o‘yin diskursi” tushunchasi paydo bo‘lganligini ta’kidlash kerak. A.V.Kuks o‘yin diskursini quyidagi yondashuvlarda bo‘lib o‘rganishni tavsiya etadi: ikki o‘lchamli olam orqali yondashuvida insonlar ongidagi real va o‘ydirma olamlarning farqlanishiga e’tibor qaratiladi; o‘yinlarda qo‘yilgan maqsadga asosan yondashuv; o‘yinga qo‘yilgan shartlar asosida yondashuv[133].

Ma’lum bir xalq tomonidan yaratilgan o‘yinlar mazkur xalqning madaniyatini, urf-odatlari va an’analarini, kunda qilinadigan uy ishlarining mohiyatini o‘z ichida mujassamlagan. Ba’zi o‘yinlar qadimiy davrlarga borib taqali, asrlar davomida ularni yo‘qolishi emas, balki hozirgi davrgacha yetib kelganligini kuzatish mumkin. Shu bois o‘yinlarni millatning madaniy merosi deb, hisoblash mumkin. Folklorshunoslar o‘yinlar mohiyatini o‘rganar ekan, ularning tarbiyaviy va insonning ijobiy, ma’naviy, madaniy, jismoniy rivojlanish ahamiyati mavjudligini ta’kidlashgan. Bolalar o‘yinlari bo‘yicha o‘z tadqiqotlari bilan mashhur folklorshunos M.N.Melnikov “…bolalar o'yinlari xalq pedagogik dahosining eng buyuk yutuqlaridan biri ekanligi”[134] haqida ilgari fikr yuritgan.

Xalq o‘yinlari milliy madaniyatning ajralmas qismi sifatida bolalar va kattalar hayotida muhim ahamiyat kasb etadi. Xalq o‘yinlari lingvomadaniy birlik sifatida quyidagi xususiyatlarga ega: til orqali madaniy ma’lumotni

[133] Кукс А.В. Конструирование речевой маски в игровом дискурсе: на материале видеотекстов юмористических выступлений: Дисс…канд.фил.наук. – Новосибирск, 2010. – С.10.
[134] Мельников М.Н. Русский детский фольклор. – М.:Просвещение, 1987. – С.105-106.

saqlaydi; milliy dunyoqarashni aks ettiradi; jamoaviy xotirani saqlaydi. Shuning uchun xalq o‘yinlari nomlarida yoki o‘yinlar jarayonida qo‘llanadigan til birliklari madaniy kod vazifasini bajaradi. Xalq o‘yinlarining lisoniy tadqiqida ularni leksik, fonetik, sintaktik sathlari orqali tadqiq etish bilan birga ramziy va semantik xususiyatlariga ham e’tibor berish o‘yinlarning lingvomadaniy jihatlarini namoyon etadi. O‘yinlarning leksik xususiyatlari tadqiqida xalqona tilga oid so‘zlar qo‘llanilishi, aksariyat holatda ular turli xududlarda dialektal jihatdan farqlanishi ko‘zga tashlanadi. O‘yinlar jarayonida aytiladigan tez aytish va sanamalarda arxaizmlar qo‘llanilishi ularning bugungu kun emas, balki uzoq o‘tmishdan bizning davrlargacha yetib kelganligini kuzatish mumkin. Shuningdek, o‘yinlar matnda qo‘llanadigan so‘zlar turli ramzlarni ifodalaydi, masalan: ranglar (oq teragu, ko‘k terak), hayvonlar (kuch, ayyorlik, dangasalik), harakatlar (raqobat, kurash) madaniy ma’nolarni bilvosita yetkazadi. Shu bilan birga xalq o‘yinlari jarayonida qo‘llanadigan matnlarda ibora bva metaforalarni ham kuzatish mumkin. Shuning uchun o‘yinlarda aytiladigan matnlar alohida lingvistik ahamiyatga ega bo‘lib, ularning lingvomadaniy xususiyatlarini tadqiq qilish bugungi kun tilshunosligiga ulkan hissa qo‘shiladi deb, ta’kidlash mumkin. Ayniqsa, xalq o‘yinlari jarayonida qo‘llanadigan matnlarni tadqiq qilish tilshunoslikda alohida ajralgan o‘yinlar diskursining o‘zbek tilshunosligida ham rivojlanishini ta’minlashiga olib keladi. Shu bois xalq o‘yinlarini alohida tadqiqot obyekti sifatida diskursiv aspektda o‘rganish millat mentalitetining ochilmagan qirralarini yuzaga chiqarishga zamin yaratadi.

Xalq o‘yinlari lingvomadaniy hodisa sifatida til va madaniyatning uzviy bog‘liqligini aks ettiradi. Ular bollalarning nutqiy, madaniy va ijtimoiy rivojida muhim vazaifa bajaradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Kuks A.V. Konstruirovanie rechevoy maski v igrovom diskurse: na materiale videotekstov yumoristicheskix vыstupleniy: Diss…kand.fil.nauk. – Novosibirsk, 2010. – S.10.

2. Melnikov M.N. Russkiy detskiy folklor. – M.:Prosveщenie, 1987. – S.105-106.

HAMZA PEDAGOGIK MEROSINING MANBA ZAHIRASI

Mo‘minaxon Baxtiyorova,
Qo‘qon universiteti mustaqil izlanuvchisi.

Annotatsiya. Maqolada Hamza Hakimzoda Niyoziyning pedagogik merosi manba zahirasi tizimli tasniflanadi, akademik nashrlardagi matniy o‘zgarishlar tahlil qilinadi va tarixiy-pedagogik tadqiqotlar uchun manbalarning

ishonchliligini baholash vositasi taklif etiladi. Manbalar to‘rt guruhga ajratildi: beshta mezon va uch darajali (A, B, V) shkala ishlab chiqildi. Nashrlardagi qisqartirish hamda semantik almashtirishlarning tizimli xarakterga ega ekani va ular aynan merosning aksiologik yadrosiga tegishi ko‘rsatildi. Pedagogik risolalarning uzoq vaqt muomalada bo‘lmagani Hamza didaktik tizimi o‘rganilmay qolishining asosiy ob’yektiv sababi sifatida asoslanadi.

Kalit so‘zlar: Hamza Hakimzoda Niyoziy, tarixiy-pedagogik manbashunoslik, matn tanqidi, manba ishonchliligi, “Pedagogik risolalar”, “Devoni Nihoniy”, rekonstruktsiya qilingan matn.

Abstract. The paper provides a systematic classification of the source base of Hamza Hakimzade Niyazi’s pedagogical heritage, analyses textual alterations in the academic editions and proposes an instrument for assessing source reliability in historical-pedagogical research. The sources are divided into four groups; five criteria and a three-level (A, B, C) scale are developed. It is shown that abridgements and semantic substitutions in the editions are systematic in character and affect precisely the axiological core of the heritage. The prolonged unavailability of the pedagogical treatises is substantiated as the principal objective reason why Hamza’s didactic system remained unstudied.

Keywords: Hamza Hakimzade Niyazi, historical-pedagogical source studies, textual criticism, source reliability, pedagogical treatises, reconstructed text.

Tarixiy-pedagogik tadqiqotning ishonchliligi, avvalo, uning manba bazasiga bog‘liq. Ammo manba tushunchasining o‘zi pedagogika fanida ko‘pincha soddalashtirilgan holda - “meros egasining asarlari” tarzida tushuniladi. Vaholanki, tarixiy-pedagogik manbashunoslik uchta mustaqil vazifani hal etishni talab qiladi: manbalarni aniqlash va tasniflash (evristika), ularning haqiqiyligini va matniy to‘liqligini tekshirish (matnshunoslik tanqidi) hamda pedagogik axborot sifatida qiymatini baholash (interpretatsiya).

Hamza Hakimzoda Niyoziy (1889-1929) merosi misolida bu uchala vazifa ham o‘ziga xos murakkabliklarga ega bo‘lib, aynan shu murakkabliklar avvalgi tadqiqotlarda yetarlicha hisobga olinmagan. Natijada turli qiymatdagi matnlar teng dalil sifatida ishlatilib kelingan: muallif qo‘lyozmasi ham, boshqa muallif tomonidan tiklangan rekonstruktsiya ham bir xil ishonchlilik bilan iqtibos qilingan. Mazkur holat merosning pedagogik talqinini bevosita buzadi.

Maqolaning maqsadi - Hamza pedagogik merosi manba bazasini tasniflash, nashrlar tarixidagi matniy o‘zgarishlarni tahlil qilish va manbalarning ilmiy ishonchlilik darajasini aniqlash vositasini taklif etishdir. Tadqiqotda

manbashunoslik tahlili, matn tanqidi, qiyosiy-matniy va germenevtik metodlar qo‘llanildi.

1. Manbalarning to‘rt guruhli tasnifi

Tadqiqot jarayonida Hamza pedagogik merosiga oid manbalar kelib chiqishi va pedagogik axborot berish darajasiga ko‘ra to‘rt guruhga ajratildi.

Birinchi guruh - muallif matnlari. Bu guruhning o‘zagi - bevosita o‘quv maqsadida yaratilgan asarlar: “Yengil adabiyot” (1914), “O‘qish kitobi” (1914) va “Qiroat kitobi” (1915). Ular “To‘la asarlar to‘plami”ning 2-jildida “Pedagogik risolalar” umumiy sarlavhasi ostida berilgan [1]. Guruhga, shuningdek, tarbiyaviy mazmundagi she’rlar, dramalar, “Yangi saodat” romani, publitsistik maqolalar, tarjimai hol va maktublar kiradi. Pedagogik tadqiqot uchun bu guruh birlamchi ahamiyatga ega, chunki faqat shu matnlarda muallifning didaktik qarorlari - mavzu tanlovi, materialning ketma-ketligi, til saviyasi - bevosita kuzatiladi.

Ikkinchi guruh - qo‘lyozma va arxiv manbalari. “Devoni Nihoniy”ning Toshkent nusxasi O‘zbekiston FA Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti qo‘lyozmalar fondida 8989 inventar raqami ostida, Qo‘qon nusxasi esa G‘afur G‘ulom nomidagi Qo‘qon adabiyot muzeyida R-89 raqami bilan saqlanadi. “Zaharli hayot”ning 1916 yilgi litografik nashri 8180 inventar raqami ostida, “Milliy ashulalar uchun milliy she’rlar” majmuasining toshbosma nusxalari 7628 l I, 7628 l II va 4066 raqamlari bilan qayd etilgan [5; 6].

Uchinchi guruh - davriy matbuot materiallari. Hamzaning maorif masalalariga oid publitsistikasi XX asr boshi matbuotida e’lon qilingan; xususan, rus tilini o‘rganish zarurati haqidagi maqolasi “Sadoi Farg‘ona” gazetasining 1914 yil 25 oktyabr sonida bosilgan. Bu guruh manbalari pedagogik pozitsiyani real vaqt rejimida - keyingi tahrirlardan xoli holda - ko‘rsatgani uchun alohida qimmatga ega.

To‘rtinchi guruh - ikkilamchi manbalar: zamondoshlar xotiralari, nashr izohlari, so‘zboshilar va ilmiy adabiyot. Bu guruh manbalari dalil emas, talqin hisoblanadi va shu bois birlamchi manba bilan tekshirilmaguncha xulosa asosi bo‘la olmaydi. Aynan shu qoidaning buzilishi - nashr so‘zboshilaridagi baholarning dalil sifatida takrorlanishi - sovet davri hamzashunosligining tipik xatosi edi.

Ilmiy halollik manbalarning mavjudligini qayd etish bilan birga, ularning yo‘qligini ham aniq ko‘rsatishni talab qiladi. Tadqiqot to‘rtta manba bo‘shlig‘ini aniqladi: (1) muallifning metodik hujjatlari - o‘quv rejalari, dars jadvallari, sinf jurnallari va imtihon materiallari topilmadi; (2) o‘quvchilar nuqtai nazarining yo‘qligi - Hamza maktablarida tahsil olganlarning xotiralari juda kam va ular

keyingi davrlarda, muayyan mafkuraviy kutilma sharoitida yozib olingan; (3) 1913-1914 yillardagi chet el safariga oid kundalik yoki bevosita yozuvlarning mavjud emasligi; (4) so‘nggi davr (1925-1929) faoliyatiga oid hujjatlarning tarqoqligi.

2. Akademik nashrlardagi matniy o‘zgarishlar

Hamza asarlarining akademik nashrlari tarixi uchta asosiy bosqichni o‘z ichiga oladi: 1960 yilgi ikki tomlik “Asarlar”, o‘tgan asrning 70-yillari oxiri - 80-yillari boshidagi to‘rt jildlik “Mukammal asarlar to‘plami” va 1988 yilgi besh jildlik “To‘la asarlar to‘plami”. Har bir nashr o‘zidan avvalgisiga nisbatan to‘laroq bo‘lishni da’vo qilgan, ammo matnshunoslik tahlili boshqa manzarani ko‘rsatadi.

1960 yilgi nashr so‘zboshisida to‘plam “eng mukammal” deb e’lon qilinadi. Biroq xuddi shu so‘zboshida devon she’rlari haqida ochiq yoziladi: ““Devon”ga Hamza sanab o‘tgan 214 she’rdan 197 tasi kiritilgan... Biz ulardan 52 ta she’rni tanlab oldik” [1]. Boshqacha aytganda, “eng mukammal” deb e’lon qilingan nashrda devon she’rlarining to‘rtdan bir qismigina berilgan. Bu - tasodifiy kamchilik emas, balki e’lon qilingan tanlov tamoyilining natijasidir; tanlovning mafkuraviy asosi esa o‘sha so‘zboshining o‘zida - jadid adabiyotini “reaktsion” deb ta’riflashda - oshkor ifodalangan.

Keyingi nashrlarga nisbatan tanqidiy tahlilni matnshunos olimlar amalga oshirgan. Professor B.Qosimov to‘rt jildlik nashr haqida yozadi: ““Milliy ashulalar uchun milliy she’rlar majmuasi”dan “Birinchi bo‘lim”dagi “olti dona” she’r beshtaga keltirildi. Noshirlar hech bir izohsiz “Yig‘la, yig‘la Turkiston, yig‘la Turkiston!” she’rini tushirib qoldirdilar. “Darmon istariz” musaddas edi - muxammasga aylantirildi... Berilgan besh she’rning uchtasida jami 34 satr tashlab ketildi” [4].

Sh.Amonov besh jildlik nashrni asliyat bilan qiyoslab, semantik darajadagi o‘zgarishlarni aniqlagan: “hukmi Qur’on” birikmasi “xatmi qur’on” tarzida, “tafsiri Qur’on” esa “tasviri qur’on” tarzida o‘qilgan [5]. Ushbu kuzatuvga pedagogik nuqtai nazardan uch izoh berish zarur. Birinchidan, bu yerda oddiy o‘qish xatosi emas, semantik almashtirish sodir bo‘lgan: ijtimoiy-siyosiy mazmunli ibora marosimiy-maishiy mazmunli ibora bilan almashtirilgan. Ikkinchidan, bunday almashtirishlar tizimli xarakterga ega. Uchinchidan - va pedagogika fani uchun eng muhimi - tahrirlar izohsiz amalga oshirilgan, ya’ni tadqiqotchi matnning o‘zgartirilganidan xabardor emas. Aynan shu holat manbaning ishonchlilik darajasini keskin pasaytiradi.

Matniy qisqartirishlarning pedagogik oqibati shundaki, ular merosning aksiologik yadrosiga - millat, Vatan va diniy-ma’naviy qadriyatlar haqidagi

qarashlarga - tegadi. Demak, tahrirlangan nashrlar asosida Hamzaning qadriyatlar tizimini tiklash metodologik jihatdan xatodir.

Manbalarning ichki ziddiyatini ko‘rsatuvchi yorqin misol - “Devoni Nihoniy”dagi she’rlar soniga oid ma’lumotlardir (1-jadval).

1-jadval

“Devoni Nihoniy” she’rlari soniga oid manbaviy tafovutlar

Manba	Ko‘rsatilgan son	Izoh
Hamza arxividagi muallif ro‘yxati	214 she’r	1905-1914 yillar oralig‘ida “Nihon” taxallusi bilan yozilgan she’rlar ro‘yxati
Hamza arxivi (Sh.Amonov ma’lumoti)	218 she’r	Ro‘yxatda 14 ta sarlavha takrorlangan; 174 tasi nashrga kirgan, 30 tasi uchramaydi
1960 yilgi nashr so‘zboshisi	197 she’r	214 tadan 197 tasi devonga kiritilgan; nashrga shulardan 52 tasi olingan
“To‘la asarlar to‘plami”, 1-jild	177 she’r	Shundan 150 tasi g‘azal; fors-tojik tilidagilar 10 ta deb ko‘rsatilgan
Sh.Amonov aniqlashtirishi	177 she’r	Janrlar tarkibi boshqacha; fors-tojikcha she’rlar 10 ta emas, 12 ta
O.Jo‘raboyev ma’lumoti	205 she’r	Devonning to‘liq nashrida; muallif ro‘yxatidagi hisobdan 11 ta ortiq

Jadvaldagi tafovutlar manbalarning qaysi biri “to‘g‘ri” ekanini aniqlash vazifasini emas, balki ularning har biri qanday hisob birligidan kelib chiqqanini aniqlash vazifasini qo‘yadi. Muallif ro‘yxati - yozilgan she’rlar ro‘yxati; devon qo‘lyozmasi - tartibga solingan to‘plam; nashr - tahririy tanlov mahsuli. Bu uchta birlik bir-biriga teng emas. Pedagogik tadqiqotchi uchun bundan amaliy xulosa kelib chiqadi: merosning hajmi va tarkibi haqidagi har qanday miqdoriy da’vo manba turi ko‘rsatilgan holdagina ilmiy asosli hisoblanadi.

3. Ishonchlilikni baholashning besh mezoni va uch darajali shkalasi

Yuqoridagi tahlil asosida manbalarning ilmiy ishonchliligini baholashning beshta mezoni taklif etiladi: (1) asliyatga yaqinlik - matn muallif qo‘lyozmasi, uning hayotligidagi nashr, keyingi ko‘chirma yoki rekonstruktsiya ekanligi; (2) tahririy aralashuv - matnda qisqartirish, almashtirish yoki janr o‘zgartirishi bor-

yo‘qligi va bu haqda izoh berilgani; (3) to‘liqlik - manba butun asarni yoki tanlab olingan parchalarni qamragani; (4) mustaqil tasdiqlanish - ma’lumotning kamida yana bitta mustaqil manba bilan tasdiqlanishi; (5) pedagogik axborot zichligi - manba ta’lim maqsadi, mazmuni, metodi yoki tashkiliy shakli haqida bevosita ma’lumot berishi yoki bu ma’lumotning bilvosita tiklanishi.

Mezonlar asosida manbalar uch darajaga ajratiladi: A - yuqori ishonchlilik (muallif qo‘lyozmasi yoki hayotligidagi nashr, tahririy aralashuvsiz); B - shartli ishonchlilik (keyingi nashr, tahrir izohlangan yoki aniqlangan); V - cheklangan ishonchlilik (rekonstruktsiya, parcha, izohlanmagan tahrir). V darajasidagi manbalar xulosa asosi sifatida qo‘llanilmaydi, ulardan faqat illyustrativ yoki qiyosiy maqsadda foydalaniladi. Shkalaning asosiy manbalarga qo‘llanishi 2-jadvalda keltirilgan.

2-jadval

Asosiy manbalarning ishonchlilik darajasi bo‘yicha bahosi

Manba	Daraja	Asoslash
“Yengil adabiyot”, “O‘qish kitobi”, “Qiroat kitobi” (TAT, 2-jild, 1988)	A-B	Qo‘lyozma asosida to‘liq chop etilgan; tahririy aralashuv aniqlanmagan, qo‘lyozma bilan qiyoslash talab qilinadi
“Devoni Nihoniy” qo‘lyozmalari (inv. 8989; R-89)	A	Birlamchi qo‘lyozma manba; Qo‘qon nusxasi 1915 yilda ko‘chirilgan
“Zaharli hayot” (1916 y. litografiya, inv. 8180)	A	Muallif hayotligidagi nashr
“Zaharli hayot” (1960 y. nashri)	B	Qisqartishlar bilan bosilgani nashrda izohlangan
“Boy ila xizmatchi” (1939 y. tiklangan matn)	V	Asl matn topilmagan; matn boshqa muallif rekonstruktsiyasi
Nashr so‘zboshilari va izohlari (1960, 1988)	V	Talqin hujjati; dalil emas, tarixshunoslik manbasi sifatida qo‘llaniladi

Shkalaning amaliy qiymati “Boy ila xizmatchi” misolida yaqqol ko‘rinadi. Mazkur asarning muomaladagi matni 1939 yilda dramaturg K.Yashin tomonidan tiklangan; nashr izohlarida ochiq yozilganidek, asarning “asl teksti...

hali topilgani yo‘q” [2]. Demak, yarim asr davomida Hamza ijodining cho‘qqisi sifatida talqin qilingan asar aslida boshqa muallif rekonstruktsiyasi edi. Bundan pedagogik xulosa kelib chiqadi: mazkur matndan Hamzaning pedagogik yoki ijtimoiy qarashlarini bevosita keltirib chiqarish ilmiy asossizdir. Mazkur qoida ta’lim amaliyoti uchun ham ahamiyatli: XX asrning 60-90-yillarida maktab dasturida Hamza ijodiga ajratilgan 10-12 soatning 6-7 soati aynan shu asarga berilgan [9], ya’ni bir necha avlod o‘quvchilari shoir haqidagi asosiy tasavvurni V darajasidagi matn orqali shakllantirgan.

XULOSA

1. Hamza pedagogik merosining manba bazasi to‘rt guruhga ajratildi: muallif matnlari, qo‘lyozma va arxiv manbalari, davriy matbuot materiallari hamda ikkilamchi manbalar. Pedagogik xulosalar uchun birinchi va ikkinchi guruh birlamchi ahamiyatga ega. To‘rtta manba bo‘shlig‘i ochiq qayd etildi.

2. Akademik nashrlar matniy jihatdan asliyatga to‘liq muvofiq emas. Aniqlangan qisqartirish, janr o‘zgartirishi va semantik almashtirishlar tizimli xarakterga ega hamda izohsiz amalga oshirilgan; ular aynan merosning aksiologik yadrosiga tegadi. Shu bois tahrirlangan nashrga tayangan har qanday aksiologik xulosa shartli hisoblanadi.

3. Devon she’rlari soniga oid ziddiyatli ma’lumotlar (214 / 218 / 197 / 177 / 205) manbalarning turli hisob birliklaridan kelib chiqqanini ko‘rsatadi. Merosning hajmi va tarkibiga doir har qanday miqdoriy da’vo manba turi ko‘rsatilgan holdagina ilmiy asoslidir.

4. Manbalarning ishonchliligini baholash uchun beshta mezon va uch darajali shkala ishlab chiqildi. Mazkur vosita har bir iqtibosning ilmiy vaznini aniqlash imkonini beradi va uni boshqa meros egalari bo‘yicha tadqiqotlarda ham qo‘llash mumkin.

5. Pedagogik risolalarning uzoq vaqt qo‘lyozma holida qolgani va to‘liq matni faqat 1988 yilgi nashrda e’lon qilingani - pedagogika fanida Hamza didaktik tizimi o‘rganilmay qolishining asosiy ob’yektiv sababidir. To‘liq matnning muomalaga kiritilishi mazkur vazifani bajarish uchun real imkoniyat yaratdi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Ҳамза Ҳакимзода Ниёзий. Тўла асарлар тўплами. Беш жилдлик. 2-жилд: Педагогик рисолалар. Наср. - Тошкент: Фан, 1988.

2. Шарафиддинов О. Ижодни англаш бахти. - Тошкент: Шарқ, 2004.

3. Каримов Н. XX аср ўзбек адабиёти тараққиёти. - Тошкент: Фан, 2012.

4. Қосимов Б. Миллий уйғониш: жасорат, маърифат, фидойилик. - Тошкент: Маънавият, 2002.

5. Амонов Ш. Ҳамза шеърияти: манба ва матн тадқиқи // Ҳамза ва XX аср ўзбек адабиёти: мақолалар тўплами. - Қўқон, 2019.

6. Жўрабоев О. «Девони Ниҳоний»нинг яратилиш тарихи ва манбалари // Ҳамза ва XX аср ўзбек адабиёти: мақолалар тўплами. – Қўқон, 2019.

7. Долимов У. Туркистонда жадид мактаблари.- Тошкент: Университет, 2006.

8. Султон И. Ҳамза ҳақида сўз // Ёшлик, 1989. - № 3.

9. Абдураҳмонова Б. Ҳамза асарларининг таълим босқичларида ўрганилиши масаласи // Педагогик маҳорат, 2020. - № 4.

10. Корнетов Г.Б. Цивилизационный подход к изучению всемирного историко-педагогического процесса. - М.: ИТПиМИО РАО, 1994.

MUNDARIJA

MUALLIF(LAR) VA MAQOLA NOMI	Sahifa raqami
G‘.Zaxidov. Najot -ta'limda	4
X.Ibraimov. Milliy tarbiya-buyuk tuyg'u	5
Temur Xo‘ja Usmonxo‘ja o‘g‘li. Jadidlar merosi-zamonaviy ta'lim va ma'rifat sari	6
Uon Don Yon. O'quvchilarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda besh o'lchovli ta'limning o'rni	7
Азимова М. Проблемы и решения интеграции цифровых технологий в педагогический процесс с учётом толерантности.	10
Халмуратова М. Влияние рефлексивного подхода на развитие культурного мышления будущих учителей начальных классов	15
Абиева Ю. Педагогические основы формирования нравственных качеств младших школьников в контексте экономического воспитания	22
Qo‘chqarova F. “Pedagogika va psixologiyani o‘qitishda innovatsion va raqamli texnologiyalarning o‘rni”	28
Orziqulov X. “Axborot kommunikatsiya vositalari orqali ta’lim sifatini oshirishdagi muammolar va yechimlar”	34
Abduraxmonova N. “Boshlang‘ich sinf ona tili darslarida o‘quvchilarning ijodiy fikrlash malakasini shakllantirishning zamonaviy pedagogik texnologiyalari” й процесс с учётом толерантности”	39
Sh.Kurbanova “Integration of Digital Technologies into the Pedagogical Process”	46
Djanpeisova G. Maktabgacha yoshdagi bolalarda mantiqiy fikrlashni rivojlantirishga sensorli ta’limning ta’siri	53
Jaloliddinova M. “Bo‘lajak tarbiyachilarning kasbiy transversal - raqamli savodxonlik kompetensiyasi shakllantirish”	59
Davlatova S. Boshlang‘ich sinflarda ona tili darslarining ta’limiy va tarbiyaviy ahamiyatini oshirishda raqamli texnologiyalar integratsiyasining samaradorligi	67
X.Orziqulov. Bo‘lajak psixologlarning nutqiy ko‘nikma va malakalarini takomillashtirishning pedagogik imkoniyatlari	73
Erkinjonova G. Bo‘lajak o‘qituvchilarning etnoestetik madaniyatini rivojlantirishda raqamli texnologiyalardan foydalanish imkoniyatlari	78
Эшкуватова М. Использование it-технологий в преподавании русской литературы: инновационные подходы и практические решения ноу	85

Najmetdinov M. O‘quvchilarning sog‘lom turmush tarzini shakllantirishda multiplatformadan foydalanish	91
Xolmurodov B. Mustaqil ta’limda ai texnologiyalari va an’anaviy yondashuvning samaradorlik taqqoslanishi	98
Abdurakhmonova A. The use and effectiveness of online platforms in teaching english: the case of higher education in Uzbekistan	104
Ibroximova G. Boshlang‘ich ta’lim mutaxassislarida raqamli texnologiyalarni pedagogik jarayonga integratsiya qilishning nazariy-metodologik asoslari	109
Najmetdinova N. O‘qituvchilarning raqamli savodxonligini oshirishda sun’iy intellektning o‘rni	118
Qoshaqova G. Integrating digital platforms into pedagogical practice: evidence from empirical studies	125
Ashurova G. Sun’iy intelekt va uning psixologik sohalarda qo’llanilishi.	135
Olimov S. Psixologiyada sun’iy intellekt va innovatsion diagnostika natijalarini tahlil qilish muammolari va yechimlari	141
Eshonqulova G. Ruhiy salomatlik masalasida biblioterapiya va sun’iy intellekt integratsiyasi	146
Худойбердиева М. Творческое рисование и искусственный интеллект: новое направление психологической диагностики	152
Boymirzayeva N. Pedagoglarda kasbiy stressing raqamli texnologiyalar va sun’iy intellekt kontekstida namoyon bo‘lishi	159
Karimova S. Bolalar psixalogiyasining buzilish sabablari va davolash profilatikasi.	165
Xaydarova X. Ахборотлашган жамият шароитида ота-оналарнинг виртуал-педагогик маданиятини ривожлантириш масалалари.	174
Axmedov I. Virtual story telling with proverbs: using ar/vr to teach cultural values in uzbek and English	176
Nu’monova M. Esl nutqiy matnlarni tushunishni immersiv hikoya orqali rivojlantirish: ta’limda ar/vr texnologiyalarining amaliy qo‘llanilishi	181
Akbarova D. The advantages and limitations of digital laboratories for teaching pronunciation in language education	186
Imomaliyeva M, Tursunova N. O‘zbek folklori namunalarini o‘qitishda steam ta’lim texnologiyasining o‘rni va ahamiyati	193
OrziqulovX, Qambarova B. Steam va loyihaviy ta’lim metodikalarining psixologik-pedagogik imkoniyatlari	199

Miraxmedova L Steam va loyihaviy ta’lim metodikalari	203
Jumanova Sh.“Raqamli adabiyotlar va kutubxonalardan samarali foydalanish usullari”.	209
Rizayev B. Professional-texnik ta’limi muassasalarida qishloq xo‘jaligi sohasi uchun malakali mutaxassislar tayyorlash (1960–1970 yy.).	214
Soyibnazarov A. Informatika va axborot texnologiyalari fani o‘qituvchilarini malakasini oshirishda raqamli platformalarning o‘rni va ahamiyati.	220
Jaloliddinova M. Pedagog kadrlar malakasini oshirishda raqamli platformalar va onlayn ta’lim imkoniyatlari (tarbiyachilar misolida)	226
Akhmadjonov A. Enhancing pedagogical competence in higher education through online learning modalities	231
Yokubjonova D. The role of digital technologies and online learning tools in enhancing the professional development of teaching staff	238
Olimova S. Inklyuziv ta’lim va kadrlar malakasini oshirishda raqamli kompetensiyalarni rivojlantirish	242
Murtozaqulova N. Onlayn ta’lim va pedagoglar malakasini oshirish	247
Akramova F. Pedagogika va psixologiyani o‘qitish asosida yoshlarni oilaga tayyorlashning dolzarb yo`nalishlari.	254
Qobilova Z. Mumtoz asarlarni sharhlab o‘rganish tajribasidan	260
Djuxonova N. O‘smir xulq-atvorida o‘zi -o‘zini boshqarishga o‘quv faoliyatining ta’siri	268
Babayeva D. “Maktabgacha katta yoshdagi bolalarda kitobxonlik madaniyatini shakllantirish mazmuni”	272
Olimov B. Fizikani amaliy yonalishini kuchaytirishda raqamli ta’lim dasturiy vositalaridan foydalanish imkoniyatlari	276
Maxkamov A. Ta’lim jarayonlari orqali sog‘lom turmush tarzining asosiy yo‘nalishlariga o‘rgatish	281
Jumanova Sh. Badiiy o‘qish darslarida ijodiy tafakkurni rivojlantirishning pedagogik asoslari	285
Teshaboyeva Z. Zamonaviy o‘zbek nasrini o‘qitishda ilmiy tadqiqotlarning o‘rni	291
Orziqulov X. Pedagogik jarayonda til va adabiyotning o‘rni va tarbiyaviy tasiri.	298
Imomaliyeva M., Niyozov M. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini vatanga muhabbat ruhida tarbiyalash	303
Tursunova N. O‘zbek xalq og‘zaki ijodi namunalarini tahlil qilishda interfaol metodlar.	308

Imomaliyeva M. Gamifikatsiya (o‘yinlashtirish) asosida punktuatsiyani o‘rgatish metodikasi.	311
Komiljonova G. Integratsiyalangan ta’lim orqali talabalar kompetensiyalarini rivojlantirish.	316
Sadriddinova Z. “Ilm-fan va ta’lim integratsiyasi: forobiy qarashlari va zamonaviy yondashuvlar”	323
Eraliyeva Z. “Ijodkorlik”, “badiiy tafakkur” va “ijodiy tafakkur madaniyati” tushunchalarining falsafiy, psixologik va pedagogik xususiyatlari”	329
Sanginova G. Bolalarda mehnat tarbiyasini shakllantirishning ilmiy-metodik asoslarini takomillashtirish	337
Yuldashev S. Alohida yordamga ehtiyoji bo’lgan boshlangich sinf o’quvchilarini nutqiy muloqot ko’nikmalarini shakllantirishni takomillashtirish	343
Valiyeva N. “Fanlararo integratsiya orqali boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining dizayn fikrlashlarini rivojlantirish”	347
Olimov A. Teskari sinf texnologiyasida o‘qitishning afzalliklari	354
Маҳмудов У.., Каримова М. Роль телемедицинских образовательных программ в контроле сахарного диабета 1 типа: обзор современных исследований	361
Khojamberdiyev O. Enhancing the teaching of benign prostatic hyperplasia (bph) prevention through augmented reality technology	368
Махсуджонов О. Жадидлар фидокорлиги ва уни иқтидорли ёшларга ўргатиш йўллари ҳақида	372
Kalendarova Z. Fanlararo integratsiyalash asosida o‘tiladigan darslarga qo‘yiladigan didaktik talablar	377
Sayfetdinov S. Stages of teaching urology and pedagogical principles	381
Abdumutalipov N. Bo‘lajak o‘qituvchilarda akmeologik kompetensiyalarni shakllantirish jarayonining pedagogik xususiyatlari	384
Do‘stbekova M. Grafik organayzerlarning o‘quvchilar tafakkurini faollashtirishdagi roli	388
Raximova D. Multimedia vositalari asosida ta’lim jarayonini raqamlashtirish	393
Imomova N. Talabalarning kommunikativ kompetentligini rivojlantirishning innovatsion yondashuvlari	399
Javharova N. Milliy uyg‘onish adabiyoti va tarbiya. “Yurt” jurnalida chop etilgan “Istiqbolda bizning hayot” nomli maqolaning pedagogik talqini	402
Anvarov F. Odam anatomiyasi va fiziologiyasi fanini o‘qitishda axborot komunikatsiya texnologiyalarining o‘rni	409

Inomova D. Mukarrama Murodova uslubining o‘ziga xosligi	417
Raimova H. O‘zbek xalq og‘zakı ıjodını o‘qıtıshda zamonaviy yondashuvlarnıng dıdaktık ımkonıyatları	420
Ziyouddinova G. She’riyatda vatan mavzusi (Muhiddin Omon she’riyati misolida)	426
Boymirzayeva Sh. Maktabgacha ta’lim tashkiloti pedagoglarining kreativligini rivojlantirish	431
Turdaliyeva N. Maktabgacha yoshdagi bolalarning ijodiy faoliyatga o‘rgatishning o‘ziga xos xususiyatlari	440
Ibrohimova G. Xalq o‘yinlarining millatning aksi sifatidagi tadqiqi	450
Baxtiyorova M. Hamza pedagogik merosining manba zahirasi	453